

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
FALSAFA, TARBIIYA VA HUQUQ TA‘LIMI KAFEDRASI**

**JIZZAX VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT
MARKAZI**



**“TA‘LIM VA TARBIIYANI YANGI BOSQICHGA OLIV
CHIQISH – YANGI O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR
GARUVI”**

mavzusidagi ilmiy maqola va tezislar to‘plami

“Ta’lim va tarbiyani yangi bosqichga olib chiqish – Yangi O‘zbekistondagi islohotlar garovi” mavzusidagi ilmiy maqola va tezislar to‘plami.
– Jizzax, 2025. – 247 b.

MAS’UL MUHARRIRLAR:

A.Amonlayev – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
I.Axmedov – falsafa f.b.f.d. (PhD), dotsent

TAHRIR HAY’ATI:

A.To‘rayev – siyos. f.b.f.d.(PhD), dotsent.
A.Ro‘ziyev – falsafa f.b.f.d. (PhD), dotsent
A.Raxmatullayev – tarix f.b.f.d. (PhD), dotsent

TAQRIZCHILAR:

F.Axchayev – tarix f.b.f.d. (PhD), dotsent
N.Axmedjanov– tarix f.b.f.d. (PhD), dotsent

Ushbu “Ta’lim va tarbiyani yangi bosqichga olib chiqish – Yangi O‘zbekistondagi islohotlar garovi” mavzusidagi ilmiy maqola va tezislar to‘plami A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Falsafa, tarbiya va huquq ta’imi kafedrasida va Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi bilan hamkorlik shartnomasi asosida tayyorlangan bo‘lib, ta’lim islohotlari mazmuni, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlarni o‘qitishga innovatsion yondashuvlar, meriokratiya tamoyili asosida ta’lim boshqaruviga zamonaviy usul va metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarda tanqidiy tahlil va kreativ mushohada qobiliyatlarini shakllantirish uslubiyati bilan bog‘liq ilg‘or tajribalar umumlashtirilishi ko‘zda tutilgan.

Mazkur ilmiy maqola va tezislar to‘plami Falsafa, tarbiya va huquq ta’imi kafedrasining 2025-yil 18-fevraldagi 7-son yig‘ilish bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamda joy olgan tezislarda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘rililigiga mualliflar javobgardirlar

Авторы несут ответственность за правильность информации содержащейся в тезисах включенных в сборник

The authors are responsible for the correctness of the information contained in the theses included in the collection

KIRISH

Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar singari O‘zbekiston ham o‘z taraqqiyoti asosiga ta’limni qo‘ymoqda. Bu sohada chuqur islohotlar, katta-katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda eng muhim bo‘g‘in, yoshlar siyosatining poydevori – boshlang‘ich va umumiy ta’limdir. Yurtimizda 37 mingdan ziyod bolalar bog‘chasi, 10 mingdan ortiq maktab bor. Mamlakatimiz Prezidenti rahbarligida ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan yig‘ilishlarda ta’lim sifatini oshirish borasida amaliy-metodologik ahamiyatga molik bo‘lgan bir qator qator yondashuvlar ilgari surilmoqda. Xususan, “maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”, “o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish”, “dunyodagi zamonaviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalarini o‘rganib, yurtimiz umumta’lim maktablarida joriy qilish” singari dasturiy-g‘oyaviy yondashuvlar bugungi kun talablarini o‘zida ifodalaydi. Binobarin, ta’limni xarajat qiluvchi soha emas, balki jamiyatning eng muhim ishlab chiqaruvchi kuchiga aylantirish kun tartibiga qo‘yilmoqda. Zero, “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ezg‘u g‘oyani amalga oshirish, uni jamiyat mafkurasi darajasiga olib chiqish qanchalik dolzarblik kasb etar ekan, pedagoglar tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish borasidagi ishlarning ham paysalga solib bo‘lmasligini taqozo etadi.

Pedagog kadrlar tayyorlashda global mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va global ta’lim talablarga moslashish, pedagogik ta’limning istiqboli va yangicha chaqiriqlarga munosib javob berish kabi dolzarb vazifalar pedagog mutaxassislar malakasini oshirish tizimi oldiga ham qator vazifalarni qo‘ymoqda. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy talablar asosida ta’limni tshkil qiladigan pedagog kadrlargina zamonaviy ta’lim lokomativiga aylanishi mumkin. Ta’lim sohasining qonuniy asoslari takomillashtirilmoqda va eng muhimi mamlakatimizda o‘qituvchi-pedagog kasbining huquqiy maqomi va imijini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi, 01.02.2024-yildagi O‘RQ-901-sonli “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunlarining qabul qilinishi, xususan, Konstitutsiyamizning 52-moddasida O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etilishi, davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida

g‘amxo‘rlik qilishi belgilab qo‘yildi. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunda esa, pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va ular faoliyatining asosiy kafolatlari belgilab berildi. Qonunning 3-moddasida O‘zbekiston Respublikasida pedagogning maqomi tan olinishi, pedagogning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida bo‘lishning belgilanishi bilan pedagogning maqomi mustahkamlandi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Oliy Majlisga Murojaatnomalari, farmon va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.04.2024-yildagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 242-son qarori va boshqa qabul qilingan hujjatlar, mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha Prezidentimiz raisligidagi videoselektor yig‘ilishlarda ko‘tarilgan vazifalar va strategik yo‘nalishlarning belgilab olinishi masalaning qanchalik dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli va uzluksiz tayyorlashning yangi tizimini yaratish orqali pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi, tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me‘yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish, sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, joylarda pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, ta’lim sohasi uchun mutaxassis tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish hamd xalq ta’limi va maktabgacha ta’lim sohalarida oliy ma’lumotli pedagog kadrlarga ehtiyoj yuqori bo‘lgan hududlar bo‘yicha davlat buyurtmasi parametrlarining davlat granti asosida o‘qishga

qabul ko‘rsatkichlari doirasida maqsadli qabul parametrlarini shakllantirish kabi vazifalar belgilab olingan.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashish, zamonaviy ta’lim paradigmalari va o‘qitishning ilg‘or texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish zarurati hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalardan kelib chiqib Jizzax davlat pedagogika universiteti Falsafa, tarbiya va huquq ta’lim kafedrası va Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi bilan hamkorlikda oliygo‘h va markaz professor-o‘qituvchilari, metodist va mutaxassislarning ilmiy-tadqiqot natijalarini, ilmiy ishlanmalar va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish maqsadida ushbu ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami tayyorlandi. Ilmiy-amaliy hamkorlikning mazkur tajribaviy shakli kelgusida ham pedagogik ta’lim sifati va mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishning ilmiy asoslarini mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash borasida hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun asos bo‘lishi kutilmoqda.

1-BO‘LIM: TA’LIMDA INNOVATSIYA, KREATIV FIKRLASH VA BOSHQARUV SAMARADORLIGI

GLOBALLASHUVNING INNOVATSION TAFAKKURGA TA’SIRI

A.Pardayev– tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarni innovatsion tafakkur va ma’naviy axloqiy xusiyatlarini shakllantirish mezonlari masalalarni yoritilishi haqida so‘z yuritildi. Zamonaviy globallashuv davrida yoshlarni innovatsion tafakkur va ma’naviy axloqiy xusiyatlarini shakllantirish masalalarining asosiy xususiyatlari va asosiy parametrlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ijod, ijodkorlik, ustunlik, zamonaviy ta’lim, bilim, jarayonlar, uyg‘un qarash, globalistik dunyoqarash.

Ilmiy texnik kashfiyotlarsiz ijtimoiy taraqqiyot yo‘qligini bugun biz aniq tasavvur etayotgan bo‘lsak-da, ma’naviyat masalalariga bag‘ishlangan birorta ham asarda ilmiy texnik bilimlarning ahamiyati tilga olinmaydi, ularni o‘rganish metodologiyasi ochib berilmaydi. Ilmiy texnik bilimlar ham ma’naviy taraqqiyotning obyektiv qonunlari, talablari in’ikosidir. To‘g‘ri, ma’naviy merosimizda bu muammoni hal etishga o‘rin topilmagan, ammo hozirgi davr ilmiy texnik izlanishlarni taqozo etadi; ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ilmiy texnik inqilob yutuqlaridan unumli foydalanishzaruriyatga aylangan.

Shubhasiz, xalqimiz ma’naviy merosida ulug‘lanadigan ijtimoiy adolat, ideal jamiyat, komil inson, yuksak ma’naviyat, insonparvarlik, vatanparvarlik, imon e’tiqod, go‘zal xulq va atvor, jamoaviylik, inoqlik, kamtarlik, saxovatpeshalik, tinchliksevarlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik kabi fazilatlar o‘lmas qadriyatlardir, ularni o‘zlashtirish va yosh avlod qalbiga singdirish burchimiz. Biroq ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonunlari, innovatsion rivojlanish talablari bizdan ilmiy texnik bilimlarni, kashfiyotlarni kutayotgani ham haqiqat. Shu bilan birga, ma’naviy axloqiy imperativlarda istoritsizm va traditsionalizm ustuvorlik qilishini, bu ba’zan turg‘unlikka, konservatizmga olib kelishi mumkinligini aytib o‘tishimiz darkor.

Bu istoritsizm jamiyatda, kishilararo munosabatlarda barqarorlikni, ittifoqni ta’minlashga yordam beradi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, avlodlararo diaxron aloqalarni muhim qadriyatlarga aylantiradi. Biroq ular innovatsion o‘zgarishlarga to‘siq bo‘lishi ham mumkin. Demak, biz traditsionalizm bilan modernizatsiyalashtirish o‘rtasida ma’lum bir konsensusni, muvofiqlikni qaror toptirish ustida bosh qotirishimiz kerak.

Istoritsizm ustun kelgan joyda har qanday innovatsiya quruq istaklar bo‘lib qolaveradi. Shuning uchun innovatsiyaning faol sub’ektlari bo‘lmish yoshlarga zarur e’tibor qaratish, ularda nafaqat yangiliklarni o‘zlashtirish va kreativ faollikni, shuningdek, xalqimiz ma’naviyatidan joy olgan axloqiy imperativlar bilan yashash ko‘nikmasini ham shakllantirish talab etiladi. Ushbu ikki munofiy, bir biriga zid tomonlarni uyg‘unlashtirish, u qanchalik murakkab va og‘ir vazifa bo‘lmasin, milliy taraqqiyotimizning ob’ektiv talabidir. Ma’naviy axloqiy imperativlar, mohiyatiga ko‘ra, ajdodlarimiz yaratgan, ulardan meros bo‘lib kelayotgan, xalqimiz va millatimiz mentaliteti, turmush tarzi, madaniy hayotidan joy olgan qadriyatlar hisoblanadi. Ularning turli manfaatlar va qiziqishlar bilan bog‘liqligi ma’naviy axloqiy hayotda “men” va “biz” kategoriyalarini shakllantirgan. “Jamiyatda asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan marosimlar, an’analar, urf odatlar ham shaxs bilan jamoatchilik o‘rtasida bo‘ladigan axloqiy munosabatlarning ko‘rinishi hisoblanadi. Shularga rioya qilish asosida individual “men” bilan kollektiv “biz” o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘unlashadi”[1]. Ko‘p adabiyotlarda Sharq ma’naviy axloqiy imperativlarida “biz” ustuvorlik qilishi ta’kidlanadi. Ushbu kommunitarizm an’ana darajasiga ko‘tarilgani salbiy, konservativ hol emas, albatta. Ammo jamiyat taraqqiyotida hech qachon yo “men” yoki “biz” kategoriyasi mutlaq ustunlik qilmagan, ularni uyg‘unlashtirmay yashash mumkin emas edi. To‘g‘ri, bu kategoriyalar, tasavvurlar o‘rtasida ziddiyatlar bo‘lishi tabiiy holdir. Chunki “shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar rivoji faqat mushtarakliklardangina iborat emas.

Bu munosabatlarda ziddiyatlar ham bo‘ladi. Bu ziddiyatlarning asosi shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni anglash va shakllantirishdagi nomutanosiblikdir. Shaxs bu alohida odam. Jamiyat esa ana shunday alohida odamlarning muayyan maqsadlar asosida shakllangan birligidir. Ziddiyatlar jamiyat shaxsni, shaxs jamiyatni anglamasligi natijasida sodir bo‘ladi. Shaxsiy xudbinlik yoki, aksincha, shaxs manfaatlarini butunlay soyada qoldirish natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlar katta ijtimoiy fojealarga ham masalan, ikki marta Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan Mariya Kyuri Skladovskaya hayotini oling. Betakror ilmiy qobiliyat egasi, daho ijodkor o‘z qiziqishlariga, izlanishlariga shunchalik berilganki, hatto ayolda hech bo‘lmaganida uchta to‘rtta kuylak bo‘lishi kerakligini o‘yiga ham keltirmaydi. Uning “men”i poloniya, radiy izlashda. U ushbu izlanishlarida mudom yakka qolishni istaydi. Eri, Per Kyuri, u ham Nobel mukofoti sovrindori, bilan hamkorligigina unga huzur, hayotidan qoniqish beradi. Buni ijodiy (ijobiy) egoizm deyish mumkin, ammo baribir egoizm-da[2]. Buyuk ijodkorlarning ko‘pchiligi u yoki bu qusurlarga, o‘z “men”ini ulug‘lashdek takabburlikka berilishgan[3]. Shuning uchun ham italiyalik psixiatr Lombrozo yirik ijodkorlarda manmanlik, hatto telbalik uchrashini qayd etadi[4]. Yangilikni kashf etish, ijodga berilish yon

atrofga befarqlikni keltirib chiqarishi bor narsa. Ammo bu ijodiy psixologik hol ayrim shaxslargagina xosdir, butun jamiyat bunday vajohatda, talvasada yashay olmaydi. Innovatsion tafakkurda ijod talvasasiga berilish uchraydi, ammo bu ham chin ixtirochilarga xosdir. Yangilik yaratish dardi va zavqi “men”ni faollashtiradi, uni goho yon atrofdagilarga raqib qilib qo‘yadi. Katta ijodkorlardagi odamovilik, davralarni, olomoni va hashamlarni yoqtirmaslik shu sabablidir.

Bu xislatlarni Beruniy, Ibn Sino, mutasavvuflarda ham uchratamiz. “Men” faqat G‘arb ijodkorlarigagina taalluqli emas, uni deyarli barcha yirik shaxslar fazilatlarida kuzatamiz. Biroq Sharq an‘analari “men”ni mudom o‘ziga imtisol etib kelgan, “biz” doirasidan chiqish hatto o‘ta qobiliyatli shaxslarda ham kamdan kam uchraydi. Bizning fikrimizcha, shu o‘rinda Sharqda ilmiy texnik tafakkur yetarli rivojlanmaganining boisi yotadi. Bu hatto E.Yusupovning quyidagi o‘rinli fikrlarida ham ko‘zga tashlanadi: “Ijtimoiy axloqiy burch va mas’uliyat, deb yozadi hurmatli olimimiz, ba’zan insonning shaxsiy manfaatlariga zid kelib qoladi. Inson ba’zan ijtimoiy axloqiy burch va mas’uliyatning bir qismi bo‘lgan an‘analari, urf odatlarni ham chetlab o‘tishga intiladi. Ijtimoiy muammolar doirasida muayyan an‘analarni chetlab o‘tishga intilish hissiyot va ehtiros ta’sirida bo‘lgan yoshlarda ko‘proq uchraydi. Ular ba’zan muayyan ijtimoiy, axloqiy muhitga moslashishdan ko‘ra, uni o‘ziga moslashtirishga moyil bo‘ladilar. Sevgi, muhabbat bobida ham ba’zan ota ona, jamoatchilik fikrini e’tiborga olmay o‘z niyatiga yetishga intilish hollari bo‘ladi, hissiyotlar ba’zan kishini to‘g‘ri yo‘ldan ozdirib yuboradi. Ba’zi odamlar jamoatchilik fikri bilan shaxsiy manfaatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal etish yo‘llarini topa olmaganida o‘z joniga qasd qilishga qadar yetib boradi”[5]. Olimning fikrlaridan ma’lum bo‘ladiki, yoshlarning ma’naviy hayoti jamoatchilik fikriga muvofiq kelishi, “biz” talablarining in’ikosi bo‘lishi kerak.

“Hayotda axloq manfaatga emas, balki manfaat axloqqa bo‘sunishi lozim. Agar manfaat axloqdan ustun deb qaralsa, kishilar barchaga ayon bo‘lgan oddiy haqiqatni ham inkor etish yo‘liga o‘tib oladilar. Odamzod orasida shundaylar bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘ladi. Tarbiyaviy ishlarning dolzarbligi ham shunday sabablar bilan belgilanadi”[6]. Ilmiy texnik tafakkur, kashfiyotlar ma’lum bir manfaatlar nuqtai nazaridan amalga oshirilishi kuzatiladi. Yirik metsenatlar u yoki bu ilmiy texnik ixtirolarni qo‘llab quvvatlaganlarida o‘zining moddiy imkoniyatlarini kengaytirishni ko‘zlaydilar. Bu intellektual dunyoda keng tarqalgan an‘anadir. Demak, innovatsion kashfiyotlarning umumma’naviy axloqiy imperativlarga, talablarga zid kelish xavfi mavjud. Metsenatlar manfaatlarining umumma’naviy imperativlar, talablardan ustun kelishi jamiyatdagi barqarorlikka, ittifoqqa va adolat tamoyillariga bir kunmas bir kuni zid keladi, bu ijtimoiy hayotda bezovtalik uyg‘otmay qolmaydi. Aynan shuning uchun ham E.Yusupov tarbiyaviy ishlarga urg‘u beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. Toshkent: Universitet, 2018.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. Toshkent: Universitet, 2018.
3. Fromm E. Borliq san’ati. Moskva: AST, 2014. – P.315.
4. Pechchei A. Insoniy fazilatlar. Moskva: Taraqqiyot, 2011-yil
5. Global muammolar va insoniy qadriyatlar. Moskva: Taraqqiyot, 2010-yil.
6. Zigunenko S.N. Ajoyib kashfiyotlar. Moskva: AST: Astrel: Transitbook, 2015-yil.

TA’LIMDA MEDIAKOMPETENTLIK ZARURATINING ORTISHI

A.Amonlayev– Jizzax davlat pedagogika universiteti
Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi kafedrasini mudiri, f.f.n., dotsent.

Annotatsiya

Maqolada globallashtirish sharoitida talabalar mediakompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, globallashtirish jarayonlari jahon taraqqiyotining tadrijiy rivoji, dunyodagi turli davlatlar va hududlar o‘zaro bog‘liqligining benihoya kuchayishi hamda inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida jiddiy o‘zgarishlarga olib kelishi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: globallashtirish, axborotlashgan jamiyat, global tarmoq, zamonaviy axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari, media, media ta’lim, mediakompetentlik va boshqalar.

Аннотация

В статье проанализированы вопросы развития медиакompetentности учащихся в условиях глобализации. В нем также говорится о том, что процессы глобализации приводят к историческому прогрессу мирового развития, неопределимому усилению взаимосвязи между различными государствами и территориями мира и значительным изменениям во всех аспектах жизни и деятельности человека.

Ключевые слова: глобализация, информированное общество, глобальная сеть, современные информационные технологии, СМИ, медиа, медиаобразование, медиакompetentность и т. д.

Annotation

The article analyzes the issues of developing student mediakompetency in the context of globalization. It was also stated that globalization processes lead to an evolutionary development of World Development, an increase in the interdependence of different countries and territories in the world, and significant changes in all aspects of human life and activity.

Keywords: globalization, informed society, global network, modern information technology, media, media education, mediacompetence, etc.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol shaxslarni tayyorlash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi, ta’lim tizimi davlat va jamiyat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora oshib borayotganligi tufayli o‘z fuqarolarini, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, o‘z kelayotgan avlod va bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash ta’lim-tarbiya muassasalari pedagog-o‘qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifaga aylandi, desak xato qilmaymiz.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanish ning eng qisqa yo‘ldan borish imkonini beradi. Chunki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste’dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q” [1.-24 b].

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining hayotimizga beqiyos ta’sirini har jabhada kuzatish mumkin, bejizga XXI asr global axborot asri deb atalmagan.

Globallashuv nima? Ayrim olimlarning fikricha, globallashuv (lotin tilidagi globus – Yer shari) so‘zining fransuz tiliga «umumbashariy», «dunyoviy» ma’nosida o‘zlashtirilishi natijasida hosil bo‘lgan bu atama qadimdan insoniyat yashab kelayotgan barcha davr va bosqichlarda muayyan ko‘rinishda mavjud bo‘lgan. Ammo u atama (globalization – globalizatsiya, globallashuv) sifatida lug‘atlarda qayd qilinmagan, ilmiy manbalarda ta’riflanmagan edi. Insoniyat XXI asrga qadam qo‘yishi bilan bu atamaga moyillik sezildi va u hayotimizdan mustaxkam o‘rin oldi [2.19-b].

Globallashuvga berilgan ta’riflar va yondashuvlarga nazar tashlasak, ularning rang-barangligiga guvoh bo‘lamiz. Bu ta’rif va yondashuvlarni o‘zaro taqqoslasak, ularning bir-biriga yaqinligi, o‘xshashligi, bir-biridan farqi va bir-birini mutlaqo inkor qilish mavjudligini ko‘ramiz.

Shuningdek, globallashuvning mazmun-mohiyati, uning boshlanishi va sabablari masalasida ham olimlar o‘rtasida yakdillik yo‘q.

Jumladan, Klaus Zegbersning globallashuvga bergan sharhiga ko‘ra, u – o‘ziga xos rivojlanish yo‘lining torayishi (yoki umuman yo‘qolishi), umumiy yo‘ldan og‘ishning iloji bo‘lmasligi, hukumat yoki jamiyat tomonidan ongli ravishda ma’lum, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlash imkoniyatining qisqarishi [3.65-b] demakdir. Ushbu ta’rifda globallashuv jarayonining ko‘proq madaniy jihatiga urg‘u berilgani seziladi. Demak, globallashuv madaniy soha, uning tarkibiy tuzilmasi bo‘lgan an‘analarga ixlos qo‘yish mumkinligi mazkur ta’rifda ifodalangan.

Rus olimi Marat Cheshkovning fikricha, globallashuv fenomeni evolyusiya jarayonida kishilik jamiyatiga xos bo‘lgan har xil komponentlar (tarkibiy qismlarning birikishi (socheneniya) jarayoni bo‘lib, insoniyatning differensiya jarayoniga teskaridir [4.144-b].

M.Mixevning qarashiga ko‘ra globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari va mintaqalarining o‘zaro iqtisodiy va siyosiy bog‘liqligi mislsiz rivojlanadi va dunyoda yagona huquqiy maydon, iqtisodiy va siyosiy boshqaruv masalasini kun tartibiga qo‘yish mumkin bo‘lib qoladi. [5.65-b] Bu jarayonning muayyan ma’noda chuqurlashib borishiga yana bir sabab texnologiyaning kuchayishi, televidenie, kompyuter texnologiyasi, internet tizimidan kirib kelayotgan shiddatli axborotlar yuki ostida qolgan talabalarning milliy ma’naviyat, umuminsoniy qadriyatlarimizga bo‘lgan ishtiyoqining susayishiga olib keldi.

Internetning jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, texnikaviy va hokazo taraqqiyotidagi o‘rni beqiyos. Uning ulkan qudratini tan olish yoki olmaslik haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Internet inson tafakkuri, aqli va bilim qudratining mahsuli va in’ikosidir. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda uning insoniyat ma’naviyatiga tug‘dirayotgan xavf-xatarlari to‘g‘risida ham so‘z yuritishga to‘g‘ri keladi. Bu noxush g‘ayriinsoniy holatlar muayyan kuchlarning global tarmoqning axborotlarni sifatli va tez uzatish hamda tarqatish bo‘yicha imkoniyatlaridan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itish, o‘zlari targ‘ib etayotgan nopok g‘oya va manfaatlar tomon yo‘naltirish uchun ularga axborot yetkazish borasida olib borayotgan harakatlari bilan bog‘liqdir. So‘zsiz, bunday ta’sirga Internet auditoriyasining eng faol va eng ko‘p qismi – tafakkuri, dunyoqarashi puxta shakllanib ulgurmagan yoshlar beriluvchan bo‘ladi. Bugungi kunda talabalar Internetga ma’lumot olishning asosiy manbai va kommunikatsiyaning bosh vositasi deb qaraydilar. Ular on-layn tizimiga asosan yangiliklarni izlash, do‘stlar bilan muloqot qilish, musiqa yozib olish uchun kiradilar.

IDC analitik kompaniyasining tadqiqotchilari AQSh, Braziliya, Rossiya mamlakatlarining 15 dan 24 yoshgacha bo‘lgan 302 ta aholisining fikrini aniqlashi natijasida shunday xulosaga keldilar[6]. Uchala davlatda

tadqiqotchilar savollariga javob berayotganlarning barchasi global tarmoqni qulay, qiziqarli, foydali va xavfsiz deb tan olganlar. IDC tahlilchilarining ta’kidlashlaricha, yosh amerikaliklar Rossiya va Braziliyaliklardan farqli ravishda Internetga odatdagi hol deb qaraydilar. Talabalarimiz ham dunyodagi tengdoshlari kabi asosan yangiliklarni o‘qish, kurs ishlari va referatlar uchun materiallar qidirish, do‘stlar bilan muloqot qilish, yangi do‘stlar orttirish va axborot olish maqsadida Global tarmoqdan foydalanadilar.

Ammo virtual makondan yog‘ilayotgan axborot oqimi shunchalik ko‘pki, uning qaysi biri foydali, to‘g‘ri va qaysi biri g‘arazli ekanligini ajratib olishga har bir talaba qodir emas.

On-layn tizimi materiallarining ma’lum bir qismi asosan noxolis, shubhali ko‘rinishda bo‘lib, axloqiy buzuvchi, tajovuzkorlik va zo‘ravonlikka undaydi. Kompyuter tizimlaridagi ma’lumotlarga ta’sir o‘tkaza oladigan aniq huquqiy-me’yoriy hujjatlarning kamligi esa Internet sahifalarida ochiqdan-ochiq millatchilik, irqchilik va fashizm g‘oyalari targ‘ib etilib, behayolik va zo‘ravonlik ko‘rinishlari aks etgan suratlar, giyohvand va portlovchi moddalarni tayyorlash bo‘yicha ko‘rsatmalarning bemalol joylashtirilishiga imkon yaratmoqda. [7.172-173-b]. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, global tarmoq jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti, shaxsning, ayniqsa hali ongi shakllanib ulgurmagan yosh bo‘g‘inlarning dunyoqarashiga, g‘oyaviy tarbiyasiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi manbalar oz emas.

Yuqoridagi umumiy yondashuvlarga tayanib globallashtirish jarayonlari jahon taraqqiyotining tadrijiy rivoji, dunyodagi turli davlatlar va hududlar o‘zaro bog‘liqligining benihoya kuchayishi hamda inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida jiddiy o‘zgarishlarga olib kelgan yangi bosqich deyish mumkin [8.20-b].

Bugungi kunda globallashtirish jarayonlarining salbiy oqibatlaridan talabalarni asrab avaylash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ularda mediata’lim orqali mediakompetentlik bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, ya’ni talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga ijtimoiy muhit bilan bir qatorda quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Jurnal, ilmiy-ommabop manbalar;
2. Internet resurslari;
3. Ommaviy axborot vositalari;
4. Elektron darslik va ko‘rgazma materiallari;
5. Axborot xavfsizligini ta’minlovchi barcha media-xizmatlar

Media va mediakompetentlik atamalarining paydo bo‘lishi hozirda shiddat bilan ijtimoiy hayotga kirib kelayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq.

“**Media**” atamasi lotin tilidan (media, medium so‘zidan) olinib, qo‘llanma, vositachi ma’nolarini anglatadi [9].

Kompetentlik tushunchasining lug‘aviy ma’nosi esa turli tillarda turlicha talqin qilingan: Competent (fransuz tilida) – vakolatli; Competent (lotin tilida) – qobiliyatli; Competent (ingliz tilida) - qobiliyatli. Umumiy ma’noda mazkur atama qobiliyatli degan ma’noni anglatadi.

Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatini amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi [10.160].

Mediakompetentlik talabalarning media ta’lim orqali olgan bilimlarini ijtimoiy hayotda qo‘llay olish imkoniyatini o‘zida ifoda etadi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra mediata’lim o‘z navbatida auditoriyaning mediakompetentligi, mediasavodxonligi darajasining ortishiga olib keladi.

Shu boisdan ham dunyoning ko‘plab mamlakatlarining ta’lim muassasalari dasturlariga “mediata’lim” degan maxsus o‘quv fanini kiritishgan.

Bizda ham talabalar mediasavodxon(mediakompetent)ligini rag‘batlantiradigan milliy darajada hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, Oliy ta’lim standartlari va rejalariga mediata’limni bosqichma-bosqich joriy etish hamda talabalarning media va axborot savodxonligini shakllantirish tamoyillari ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, talabalar mediakompetentligini yanada rivojlantirish uchun mazkur sohada ilg‘or natijalarga erishgan davlatlar tajribalaridan foydalanish, oliy ta’lim o‘quv rejalariga mediakompetentlik tushunchalarini yoritib beruvchi fanlarni kiritish va o‘qitish hamda metodik qo‘llanmalar yaratish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.

2. Xolbekov M. Adabiyotda globallashuv jarayoni // Tafakkur. – Toshkent, 2006. – №4.

3. Клаус З. Сшивая лоскутное одеяло... (плане и респк глобализации в России) Pro et. Contra. Том 4. – №4. Осень, 1999.

4. Чешков М. Глобализация: Сущность, нынешняя фаза, перспективы Pro et. Contra. Том 4. – №4. Осень, 1999.

5. Михев В. Логика глобализации и интересы России Pro et. Contra. Том 4. – №4. Осень, 1999.

6. Internet sayd. Intews. com. ua.

7. Shamsieva I. Yosh avlod ma’naviy rivojiga internetning ta’siri va axborot psixologik xavfsizlik muammosi // Ijtimoiy fikr – inson huquqlari. 2007. №1.

8. Globallashuv milliy qadriyatlar va yoshlar // Fuqarolik jamiyati. – Toshkent, 2008. – №1.

9. Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy

10. Asadov Yu. M., Turdiyev N. Sh., Akbarova S. N., Temirov D. Sh. S. Babadjonov. O‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikalari. T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, – T.: 2016.

TA’LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY TARAQQIYOT MEZONI

A. Saitkasimov – Jizzax DPU professori, falsafa fanlari doktori

Annotatsiya

Bugungi kunda ta’lim sohasini innovatsion rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining o‘zagi, ustivor yo‘nalishiga aylandi. Ta’lim tizimining iqtisodiy va ijtimoiy asoslari mustakamlandi. Ta’limning ijtimoiy mohiyati tubdan o‘zgarib bormoqda, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va roli amaliy jihatdan namoyon bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: ta’lim, islohotlar, taraqqiyot, ijtimoiy, o‘qituvchi, murabbiy, infratuzilma, o‘quv jarayoni, texnologiya, innovatsiya.

Аннотация

Сегодня инновационное развитие сферы образования стало основным и приоритетным направлением развития общества. Укреплены экономические и социальные основы системы образования. Принципиально меняется социальная сущность образования, его место и роль в развитии общества проявляется практическим образом.

Ключевые слова: образование, реформы, развитие, социальный, педагог, тренер, инфраструктура, учебный процесс, технологии, инновации.

Annotation

Today, the innovative development of the education sector has become the core and priority direction of the development of the society. The economic and social foundations of the educational system have been strengthened. The social essence of education is fundamentally changing, its place and role in the development of society is being manifested in a practical way.

Keywords: education, reforms, development, social, teacher, coach, infrastructure, learning process, technology, innovation.

Bugungi kunda ta’lim sohasini innovatsion rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining o‘zagi, ustivor yo‘nalishiga aylandi. Ta’lim huquqiy va iqtisodiy asoslari, moddiy-texnika bazasi mustakamlandi. Ta’limning ijtimoiy mohiyati tubdan o‘zgarib bormoqda, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va roli amaliy jihatdan kundek ravshan bo‘lib bo‘lmoqda. Zamonaviy sharoitda ta’limning barcha sohalarida jiddiy o‘zgarishlar olib borilmoqda. O‘qituvchilar va murabbiylarning ijtimoiy ahvoli yaxshilandi, turmush tarzi va oilaviy farovonligi tubdan oshdi. Shuning bilan birgalikda ta’lim tizimida zamonaviy shart-sharoitlarga ega bo‘lgan infratuzilmalarning yaratilib, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlanmoqda, o‘quv-texnologik hamda laboratoriya bazalarini tubdan mustahkamlanmoqda.

Bugungi globallashtirish tendensiyalari kuchayayotgan zamonaviy jamiyatda ta’lim sohasini innovatsion asosda takomillashtirish muhim jarayondir. Ta’lim tizimini rivojlantirishning konsepsiyalari va uning transformatsiyalashib borish jarayonlari hamda innovatsionlashish tendensiyalari dolzarb masala sanaladi. Xususan, milliy yuksalish jarayonlari va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ta’lim sohasini innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari va barqaror rivojlanishiga ta’sir qiluvchi innovatsion texnologiyalarini tadqiq etish muhim jarayondir. Jamiyatda “farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta’lim-tarbiya beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o‘qituvchilarni tayyorlash – bu eng og‘ir vazifa bo‘lib, juda katta mehnat va mas’uliyat talab etadi”[1].

Oliy ta’lim tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, tanlov asosida davlat hisobidan bepul oliy ma’lumot olinishi, nodavlat ta’lim tashkilotlari qo‘llab-quvvatlanishi to‘g‘risidagi qoidalar yosh avlod hayotini yaxshilash, ularning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish, zamonaviy mutaxassisliklarni egallagan holda hayotda o‘z o‘rnini topishi va shaxsiy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur qoidalarning Konstitutsiya darajasida belgilanishi, bolalar bog‘chasidan tortib, toki universitetlargacha, barcha ta’lim tashkilotlarini ular davlatniki yoki xususiy ekanligidan qat’iy nazar, rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy zamin bo‘ladi.

Mamlakatimizda yoshlarning oliy ta’lim olish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi. Oliy ta’limga qabul kvotalari bilan bog‘liq vaziyat keskin o‘zgarmoqda. 2017-yilgacha, uzoq yillar davomida xalqimizning juda ham kam farzandlari davlat oliy ta’lim muassasalari talabasi bo‘lish imkoniyatiga ega edilar. Oxirgi olti yilda oliygohlar soni 77 tadan 210 taga, ularga qabul esa, 5 baravarga ortib, talabalar soni 1 millionga oshdi. 2017 yilga qadar oliy ta’lim muassasalarida grant o‘rinlari soni faqat qisqarib keldi. Bugungi kunda Davlat grantlari soni ham 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga etdi, shundan, magistratura uchun – 5 baravar ko‘paydi. SHuningdek, nodavlat oliy ta’lim muassasalarida

mutaxassislarni tayyorlashga davlat granti ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Agar 2016-yilda umumta’lim muassasalari bitiruvchilarining to‘qqiz foizdan sal ko‘prog‘i talaba bo‘lgan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 4,2 barobarga oshdi, ya’ni 38 foizga etdi.

Asosiy e’tibor OTMlardagi ilmiy salohiyatning qay darajada o‘shishiga qaratilmoqda. Xususan, so‘nggi uch yillarda oliy ta’lim muassasalaridagi ilmiy salohiyat o‘rtacha bir necha foizga oshdi. 2017 yilda oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyat ko‘rsatkichi 31,9 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa, hozirda 40 foizdan oshib ketganligi kuzatilmoqda. Bugungi kunda ko‘pgina oliygohlarimiz jahon mamlakatlari ichida e’lon qilinayotgan ta’lim taraqqiyoti reytinglarida muhim natijalarga ega bo‘lmoqdalar. O‘zbekiston Milliy universiteti va Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti“ Milliy tadqiqot universiteti ba’zi fan sohalari bo‘yicha Top-500 talikdan joy oldi. Xorijiy universitetlar filiallari soni 31 taga etdi. Oliy ta’limda nodavlat sektori faol rivojlanmoqda, respublikada 27 ta xususiy universitet faoliyat ko‘rsatmoqda. Yangi standartlar va malaka talablari asosida 625 ta bakalavriat va 634 ta magistratura mutaxassisliklari hamda 4700 dan ortiq ta’lim dasturlari boyicha kredit-modul tizimi bo‘yicha o‘quv dasturlari joriy etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini takomillashtirish va innovatsion rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

– birinchidan, mamlakatda oliy tizim va ilmiy muassasalar ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib boriladigan asosiy maskandir;

- oliy ta’limda zamonaviy kadrlar tayyorlash bo‘yicha ilmiy va pedagogik kadrlar salohiyati mavjud;

– uchinchidan, O‘zbekiston manfaatlari kesimida xorijiy davlatlarning ta’lim tizimida innovatsiyalar bo‘yicha tajribalarini qo‘llash imkoniyatlari mavjud.

Ta’lim tizimini rivojlantirish tizimida O‘zbekistonda yoshlarga har tomonlama shart-sharoitlar yaratilib berilayotganligi, barkamol avlodni tarbiyalash va ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish borasida muhim dasturiy vazifalarni hal etilayotganligi jamiyatning umumanfaati va kelajagini ta’minlash uchun muhim poydevordir. “YOsh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yunalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo‘naltirilgan sarmoya hisoblanadi”[2].

Jizzax davlat pedagogika universitetida ham ilmiy-innovatsion salohiyat yildan yilga oshib bormoqda. Universitetimizda ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy-innovatsion

jarayonlarni rivojlantirish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Birgina o‘tgan yilgi natijalarni tahlil etganimizda oliygohimizda professor-o‘qituvchilari tomonidan 1500 ga yaqin xalqaro jurnallarda hamda maqolalar nashr etildi, 1 ta xorijiy, 1 ta innovatsion va 1 ta startap loyihalar doirasida tadqiqotlar amalga oshirildi, 7 ta xalqaro va 13 ta respublika konferensiyalari o‘tkaziladi. Har bir mutaxassis chiqaruvchi kafedraning ustuvor ilmiy yo‘nalishlari belgilab olindi, ular qoshida 27 ta ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etildi. Iqtidorli talabalarni startap loyihalar hamda ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatiga keng javlb qilish maqsadida inkubatsiya markazi hamda 9 ta ilmiy laboratoriyani qamrab olgan STEAM PARK faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimizda ta’limga oid siyosatning takomillashuvi ta’lim sohasining, uning natijasida ijtimoiy taraqqiyotning yuksalish tamoyillarini belgilab beradi. Ta’kidlanishicha, “Hozirgi jadal texnik va texnologik taraqqiyot, fanlar, nazariyalar, dunyoqarashlarning jadal rivojlanishi sharoitida ta’limni tashkil etish va amalga oshirish jarayonlari uzluksizlikni, tizimli, yaxlit yoki differensial yondashuvni taqozo etadi. Olimlar va mutaxassislarning prognozlariga ko‘ra, raqamlashayotgan XXI asrda yaqin 10 yil ichida kasb va mutaxassisliklarning 80 foizi bevosita STEM fanlari va eng yangi texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘ladi”[3].

Alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim va tarbiyaning tashkil etilishi, ularni hamma qatori umumiy maktablarda ham o‘qishini yo‘lga qo‘yilishi Yangi O‘zbekistonda inson qadri tamoyilining amaliy ifodasi hisoblanadi. Konstitutsiyada davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi va boshlang‘ich professional ta’lim bepul ekanligi ham belgilanmoqda. Ilk marotaba bog‘cha yoshidagi bolalarning ta’lim va tarbiyasi sohasidagi davlat majburiyatlarining konstitutsiyaviy darajada belgilanishini muhim voqea bo‘lishi kutilmoqda. So‘nggi olti yilda bolalarning bog‘cha bilan qamrovi 27 foizdan 70 foizga oshgani hamda Konstitutsiyaga kiritilayotgan yangi normalar bu borada yangi marralarga erishish imkonini beradi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda har kim ta’lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlashi, umumiy o‘rta ta’limning majburiyligi, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida ekanligi, ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli ekanligi, oliy ta’lim tashkilotlari qonunga

muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega ekanligi belgilandi. O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etilishi, davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi qayd etib qo‘yildi.

Konstitutsiyamizga ko‘ra, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. Bugungi kunda Davlat yoshlarning ma’naviy, intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. SHu bilan birga, davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy va ma’naviy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Endilikda mamlakatimizda jahonning eng yuqori darajadagi ta’lim standartlari va rivojlangan mamlakatlar ta’lim dasturlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy ta’lim jarayonlari shakllantirilmoqda. Bu jarayondan ko‘zlangan asosiy maqsad zamonaviy sharoitda ta’lim tizimini to‘liq modernizatsiyalash, milliy ta’lim tizimini jahondagi etakchi ta’lim dasturlari bilan uyg‘unlashtirishdir. Professor O‘.Tolipovning ta’kidlashicha, “Endilikda ta’lim olish, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislik ma’lumotlarini egallash, bu borada ma’lum ko‘nikma va malkalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Ta’lim olishga bo‘lgan rag‘bat va uning mazmuni ta’lim jarayoni muvaffaqiyatining garovi, kafolati bo‘la oladi”[4].

Xulosa qilib aytganda, mazkur vazifalarni amalga oshirishda ta’lim tizimini tajriyiy asosda takomillashtirib borish, milliy asosda shakllangan tajribalarimizni mustahkamlash, ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalarni tizim sifatida shakllantirish, jahon standartlariga malakali kadrlar tayyorlash jarayoni jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Ta’lim sohasining barqaror rivojlanishi mamlakatimizning jadal ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashning garovidir. Unga erishishda ta’lim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish asosida ta’lim muassasalarining samarali faoliyatini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning birgalikda ta’limni jadal rivojlanishi milliy yuksalish va umummamlakat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fenomen hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 4-jild, 2020. -B.366.
2. O.Muhammadjonov. Konstitutsiya: xalq manfaatlarining huquqiy kafolati. –Toshkent, “Muharrir nashriyoti”, 2017. –B.28.
3. Jalolov M. Yangi Konstitutsiya oliy ta’lim sohasidagi qanday huquqlarni kafolatlaydi? <https://aniq.uz/yangiliklar/yangi-konstitutsiya-oliy-talim-sohasidagi-qanday-huquqlarni-kafolatlaydi>.
4. Tolipov O‘., Usmonboeva M. pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. –Toshkent, FAN, 2006. -B. 60.

O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDAGI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA DAVLAT SIYOSATI

Ollayorov Ulug‘bek Abdusattor o‘g‘li – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi Fanlarni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya

Mazkur maqolada Respublikamizda ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi o‘zgarish va muammolar, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligi, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalari faoliyatining o‘rni to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, qonun, qaror, farmon, matbuot, strategiya, aholi, internet, jamoatchilik, jurnalistika.

Yurtimizda inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son farmonida “Taraqqiyot strategiyasi” markazi Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishi holati yuzasidan tahliliy va axborot materiallarini Internet jahon axborot tarmog‘ida va ommaviy axborot vositalarida aks ettirib borish choralari ko‘rish ta’kidlab o‘tilgan.

Jumladan:

- Ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish, odamlarni qiynayotgan muammolar hamda

islohotlarning ijrosi ahvolini o‘rganishda ularning mehnatidan samarali foydalanish;

- Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

- Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o‘z vaqtida berib borish orqali yolg‘on ma’lumotlar tarqalishining oldini olish.

- Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish;

- Xorijda keng axborot kampaniyasini o‘tkazish, jumladan, nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston haqidagi materiallarni e’lon qilishni tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy diplomatik vakolatxonalariga moliyaviy resurslar ajratish;

- Mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligi va sohada mavjud muammolarni o‘rganish, ularni bartaraf etish hamda istiqbollarni belgilab olish uchun qulay media-maydon yaratish hamda xalqaro axborot bozorlariga chiqish, O‘zbekistonning ijobiy imidjini ilgari surish mexanizmlari, vositalari va kanallarini birgalikda ishlab chiqish, xalqaro maydonda PR-sheriklik loyihalarini amalga oshirish maqsadida yetakchi xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirish va hamkorlik aloqalarini o‘rnatish kabi bir qancha maqsadlar ilgari surilgan.

Jahonning rivojlangan davlatlarida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan unumli foydalanilmoqda. Chunki fuqarolik jamiyati rivojlangan mamlakatlarda jamoatchilik nazoratini samarali mexanizmlaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalari tan olinadi.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni keskin oshib ketganiga qaramay vaqtli matbuot tanqidiy-tahliliy maqolalar va chuqur asoslarga tayangan takliflarni ilgari surishda o‘z mavqeini saqlab qolmoqda. Shuning uchun xorijiy davlatlarda vaqtli matbuot internetda o‘z sahifalarini ochish orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda davom etmoqda.

Dunyodagi yetakchi ilmiy markazlarda jamoatchilik nazoratining amalga oshirish shakllari – jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik monitoringini o‘tkazish bo‘yicha turli davlat tajribalari, ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini olib borishdagi o‘rni o‘rganilmqoda. Jumladan, vaqtli matbuotning jamoatchilik nazoratini tashkil etishdagi faoliyati – ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ko‘tarib chiqayotganligi, mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida samarali nazoratni o‘tkazayotganligi, fuqarolarning murojaatlarini oshkora ko‘rib chiqayotganligi,

gazetalarda muammolar yechimlari bo‘yicha tegishli tashkilotlar tushuntirish berayotganligi bilan bog‘liq tadqiqotlar o‘tkazilmoqda.

O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga kenga e’tibor berilmoqda. “Keyingi yillarda yurtimizda ro‘y berayotgan tarixiy o‘zgarishlar natijasida ommaviy axborot vositalarini erkin fikr minbariga, xalqimiz manfaatlarining faol himoyachisiga aylantirish uchun mustahkam huquqiy zamin, ijtimoiy muhit yaratildi”. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilikning ishonchli himoyachisi va ularning xolis minbari bo‘lishi kutilgan maqsadga erishishning garovidir. Shundan kelib chiqib, ommaviy axborot vositalarining, shu jumladan, vaqtli matbuotning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yoritish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi o‘rnini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda har yili 27 iyun – nashriyot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida nishonlanadi. Ommaviy axborot vositalari hamisha jamiyat taraqqiyotining ko‘zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vositalardan biri bo‘lib kelgan. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning 1993-yil 24-iyundagi Farmoni asosida mazkur sanani nishonlash an’anaga aylandi.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalariga davlatning rahbarlik qilishiga chek qo‘yildi, axborot sohasiga bozor mexanizmlari izchil va bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, nodavlat televideniye, radio, axborot agentliklari tarmog‘i, shuningdek, bosma hamda audiovizual ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlaydigan jamg‘armalar rivojlanmoqda. Davriy nashrlar tizimi deyarli qaytadan tashkil etildi, yangi respublika umumsiyosiy gazetalar va jamiyatning turli guruh hamda qatlamlariga mo‘ljallangan boshqa ko‘plab bosma nashrlar va jurnallar tashkil qilindi. Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqaro axborot makoniga qo‘shildi.

So‘nggi yillarda Yer sayyorasining sun‘iy yo‘ldoshi orqali milliy tele-, radio-dasturlar translyatsiyasi yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda mamlakat telekommunikatsion tizimida 28 ta yo‘nalish bo‘ylab dunyoning 180 ta mamlakatiga uzatiladigan xalqaro kanallar mavjud. Mahalliy tele-, radio-kanallarda tayyorlangan ko‘rsatuvlar Internet global tizimi orqali aniq vaqt rejimida butun dunyoga translyatsiya qilinadi.

So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari sifatida 304 ta veb-sayt ro‘yxatga olingan. Elektron ommaviy axborot vositalari jadal ixtisoslashtirilmoqda. Ayni paytda ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy mavzularga ixtisoslashishidan tashqari, zamonaviy jamiyat uchun muhim bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy, tibbiyot, bolalar, sport va axborot-texnologiyalari mavzularini yoritish bilan shug‘ulanayotgan veb-saytlar soni ham ortmoqda.

O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari jamiyatda fikrlar xilma-xilligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har kim ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikrini ochiq aytish huquqiga ega. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari butun dunyoda bo‘lgani kabi tarqatayotgan axborotning xolisligi va ishonchliligi uchun javobgardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 27-iyundagi Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi.
<https://president.uz/uz/lists/view/6442>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining OAV xodimlarini tabrikladi va professionallikga chaqirdi.

<https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/26/president-media/>

4. <https://kun.uz/news/2015/06/27/27-iyun---nashriyot-va-ommaviy-ahborot-vositalari-hodimlari-kuni?q=%2Fuz%2Fnews%2F2015%2F06%2F27%2F27-iyun---nashriyot-va-ommaviy-ahborot-vositalari-hodimlari-kuni>

5. <https://lex.uz/>

MAKTAB BOSHQARUVIDA LIDER USTOZLARNI QO‘LLAB QUVVATLASH-TA’LIM SIFATI GAROVI

Xasanova Nigora Nizomovna – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi, amaliy fanlar sho‘basi musiqa madaniyati fani metodisti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlashda maktabdagi boshqaruvning ahamiyati hamda xalqaro tajribalarni puxta o‘rganilishi muhim ahamiyatga ekani haqida so‘z boradi.

Shuningdek, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlashda o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashuvi lozimligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ijodkorlik, ko‘nikma, musiqa madaniyati, muhokama, pedagogik amaliyot, Singapur tajribasi, taqdimot, o‘quv dasturi, xalqaro tajriba.

**Taraqqiyotning tamal toshi
ilm-fan va ta’lim-tarbiyada
Shavkat Mirziyoyev**

O‘qituvchilik sharaflı va mashaqqatlı kasb. Boshqa sohalardan farqli o‘laroq o‘qituvchilik kasbi bir necha yillardan so‘ng o‘z mevasini beradi. Maktabda ta’lim-tarbiya jarayonining sifat samaradorligida maktab rahbariyatining o‘quv jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, ta’lim muassasalarida dars taqsimoti O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2020-yil 30-iyundagi “Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 3271-sonli xatiga asosan belgilanadi.

Dars berishda o‘qituvchining:

- xalqaro olimpiadalarda g‘olib o‘quvchi tayyorlagani;
- xalqaro olimpiadalarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgani;
- chet tili va STEAM fanlaridan mutaxassisligi bo‘yicha xalqaro sertifikatga egaligi;
- TOP 1000 universitetlar reytingiga kiradigan universitetni bitirganligi;
- asosiy olimpiadalarning respublika bosqichi g‘oliblarini tayyorlagani;
- o‘qituvchi bo‘lib faoliyat yuritayotgan asosiy olimpiadalarning respublika bosqichi g‘oliblari;
- respublika bosqichidagi tanlovlarda (Yil o‘qituvchisi) sovrinli o‘rinlarga ega bo‘lgani;
- toifa ko‘rsatkichi kabi ustunlik jihatlari inobatga olinadi.

[1, 5-b]

Biroq ta’lim-tarbiya jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligi ish unumdorligini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, bugun ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanganlik darajasi kelgusi avlodning istiqbolini belgilab beradi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida” gi 246-sonli buyrug‘iga asosan o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi va kasbi mahoratini oshirish maqsadida metod kunlari joriy etildi. Shuningdek, 2024-yilning oktabr oyidan aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishi o‘qituvchilari uchun o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish yo‘lga qo‘yildi. Ta’limdagi ushbu islohot o‘qituvchilarga kasbiy mahoratini oshirish va metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan birga o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, yangiliklarga ochiq bo‘lishi, o‘zaro tajriba almashishiga zamin yaratadi. Shuning barobarida o‘quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq etishi, kelgusida tanlaydigan kasbiga bog‘lagan holda fanlarni o‘rganishiga keng yo‘l ochadi.

Demak, xalqaro ta’lim tajribalari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini yo‘lga qo‘yish orqali O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni barpo etishga hissa qo‘shadigan yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilgan ekanmiz, Prezidentimizning: “Ustoz-kelajakni 15 yil oldin ko‘ra olguvchi inson” deya bildirgan yuksak ishonchlarini unutmasligimiz kerak.

Zero, tarbiyalangan intellektual shaxsning kamol topishida xorij tajribasini milliy qadriyatlarga uyg‘un holda amaliyotga tadbiq etishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Nega aynan Singapur tajribasi o‘rganilmoqda, Yaponiya, Rossiya yoki Finlandiya emas?

Keling, Singapur ta’limining ba’zi jihatlarini o‘rganamiz. Demak, Singapur tajribasiga asosan:

Bilimlar bazasi-kundalik o‘qitish amaliyotida nazariya-amaliy aloqani mustahkamlaydi. Ular o‘qituvchilarga tushuncha beradi, shu jumladan:

1. Fan, uning mazmun va maqsadi;
2. O‘quvchi va uning o‘rganish jarayoni;
3. O‘qitish inobatga olinadi.

Pedagogik amaliyotlar (PA) to‘rtta asosiy o‘qitish jarayonini o‘z ichiga olib, ular yaxshi ta’lim berishning yuragi hisoblanadi. Bular:

1. Ijobiy sinf madaniyati;
2. Darsga tayyorgarlik;
3. Darsning o‘zlashtirilishi;
4. Baholash va fikr-mulohaza.

Samarali pedagogik amaliyotlar o‘quv reja va kasbiy bilimlar bazasi bilan ta’minlanadi.

Nima uchun Singapur tajribasi amaliyotga tadbiq etilmoqda?

Chunki, Singapur o‘quv dasturi qadriyatlar, ijtimoiy va hissiy farovonlik hamda xarakter rivojlanishiga asoslangan yaxlit ta’limga ishonadi. Har bir bola o‘rganishni xohlashi va o‘rganishi mumkinligiga ishonadi. Ta’lim tajribasini loyihalashda bolalarning o‘rganish ehtiyojlariga e’tibor qaratadi[2, 7-b].

G‘amxo‘rlik va xavfsiz ta’lim muhitida, bolalar fikrlash qobiliyatlari va moyilliklarini rivojlantirish orqali bilimlarni faol ravishda qurganda, baholash bolalarning ta’limdagi kamchiliklarini bartaraf etish uchun foydalanilishda gullab-yashnashiga ishonadi

Kontent-o‘z-o‘zini ifoda etish. Mening o‘quvchilarim nimani o‘rganadilar? Pedagogika-Mening o‘quvchilarim qanday qilib o‘rganadilar? Baholash-Mening o‘quvchilarim o‘rgandimi?

Mulohaza va muhokama

Tasavvur qilib ko‘ring-a, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi sizni mamlakatning Milliy o‘quv dasturi mazmunini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruh a’zosi sifatida jalb qildi. Mulohaza yuriting va muhokama qiling:

Sizningcha, o‘quv dasturi mazmuni qanday asosiy tamoyillar va qadriyatlarga asoslanishi kerak?

Siz o‘quv dasturining KPB sini ham ko‘rib chiqishingiz kerak bo‘ladi:

- Nimani o‘rganish kerak?
- Qanday o‘rganish kerak?
- Ular o‘rgandilarmi?
- Qanday qilib bu mazmun o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin?

(Ushbu natijalarga erishish uchun qanday shartlar talab qilinishi haqida o‘ylab ko‘ring)

GURUHLARDA ISH OLIB BORING



Guruhlar katta (2 guruh) yoki kichik (4-5) guruhlardan iborat bo‘lishi mumkin. Ta’lim sohasidagi boy tajribangiz haqida fikr yuriting va milliy o‘quv dasturimizni shakllantirishi kerak bo‘lgan asosiy tamoyillar va qadriyatlar haqida o‘ylab ko‘ring.

Qanday qilib, XXI asrda tanqidiy fikrlash, muammolarga kreativ yechim topish va hamkorlik qilish kabi ko‘nikmalarni musiqa madaniyati yo‘nalishida rivojlantirishimiz mumkinligini ko‘rib chiqing.

O‘qituvchilarning bilim bazasi



Rasmda nimani ko‘ryapsiz?



Ushbu suratni tomosha qilish uchun bir oz vaqt ajrating. Sizni e’tiboringizni nima jalb qilgani va suratni qanday talqin qilishingizga ahamiyat bering.

Muhokama

- Nimani ko‘rayapsiz?
- Nima sizning e’tiboringizni o‘ziga qaratdi?
- Suratga qanday sharh bergan bo‘lardingiz?

Nega biz narsalarga turlicha nazar solamiz?

- Umumiy fanlar;
- Sharhlashda sezilarli farqlar.

Farqlar, ehtimol, bizning dars beradigan fanimizga yoki bizning fikrlashimiz, dunyoqarashimizga bog‘liqdir?!

✓ Bizning diqqat nazarimiz nimadan iborat?

-Har bir fan bilimlar majmuasini o‘z ichiga oladi;

-Bilimlar to‘plamini bilib olishning yagona yo‘li uni o‘rganishdir.

Musiqa madaniyati fani-o‘quvchilarni ijodkorlikka, yaratuvchanlikka undaydigan, ichki his-tuyg‘ularni o‘ziga xos aks ettirishga xizmat qiladigan, bir necha fanlarni o‘zida birlashtirgan soha.

XXI asr ko‘nikmalarini faqat guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilarda shakllantirish mumkin.

❖ Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish uchun savollar:

- Faningiz mazmun-mohiyati nimadan iborat?
- O‘quvchilar o‘rganishlari va qila olishlari kerak bo‘lgan asosiy g‘oyalar va ko‘nikmalar qanday?
- O‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarni qanday o‘rganishlari mumkin yoki kerak?
- Fan orqali XXI asr ko‘nikmalarini qanday rivojlantirish mumkin?

Faningizning ahamiyatini targ‘ib qilish uchun harakat qiling. O‘quv dasturida berilgan 4 faoliyat turining amaliyotiga alohida e’tibor beriladi.

(har bir yo‘nalish: jamoa bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, ritmik harakatlarga jo‘r bo‘lish kabi faoliyatlar bo‘yicha maxsus tayyorgarlik ko‘riladi)

Musiqiy konsert (har bir guruh o‘z ssenariysi bilan taqdimot qiladi)

Ikki kishi jurnalist, ikki kishi ekspert vazifasini bajarish uchun ajratiladi.

Musiqiy taqdimotlar yakunlangach, guruhlar o‘zaro fikr almashadi.

Faoliyatning maqsadi:

1. O‘quv dasturi liderlari sifatida o‘qituvchilar turli fanlar bo‘yicha yaxshi tushunchaga ega bo‘lishi kerak.
2. Maktabda o‘quv jarayoniga o‘zgarishlar kiritilar ekan, turli fan o‘qituvchilari o‘zgarishlarning turli nuqtayi nazarini qanday qabul qilishlari mumkinligini ham tushunish muhim.

Pedagogik amaliyotlar

1. Baholash va fikr mulohazalar:

- Tushunish uchun tekshirish va fikr bildirish;
- Mazmunli topshiriqlarni belgilash;
- Mustaqil boshqarishni qo‘llab-quvvatlash.

2. Sinfda ijobiy madaniyat:

- O‘zaro munosabatlar va anglashuvlarni o‘rnatish;
- Ijobiy intizomni saqlash;
- Natijalar va kun tartiblarini belgilash.

3. Darsni tartibga solish:

- Oldingi bilimlarni faollashtirish;
- Qiziqish uyg‘otish;
- O‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish;
- Moslashuvchanlikni mashq qilish;
- Aniq tushunchani berish;
- Temp va uni saqlab qolish;
- Hamkorlikda o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash;
- Chuqur o‘rganish uchun savollardan foydalanish;
- Darsni xulosalash.

4. Darsga tayyorgarlik:

- Dars maqsadlarini belgilash;
- O‘quvchilarning qiziqishini hisobga olish;
- Kontentni tanlash va tartibga solish;
- O‘rganishni tartibga keltirish;
- Ta’lim strategiyalari to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- O‘quv vositalari va o‘quv resurslari haqida qaror qabul qilish.

Fanning tabiati, ya’ni bizning fanga bo‘lgan diqqat nazarimiz fan sohamizda pedagogik amaliyotni (PA) qo‘llashga qanday ta’sir qiladi?

O‘qituvchilik hunarimizni charxlash - bu belgilangan manzil emas, balki sayohatdir. Ushbu sayohat jarayonida ijodkor yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

Bizning o‘z kasbiy faoliyatimizda ma’lum muvaffaqiyatga erishuvimiz zamirida esa tinimsiz izlanish, mehnat, kreativ yondashuv, tashabbuskorlik va ijodiy hamkorlik mujassam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining “Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 3271-sonli xati, 2020-yil 30-iyun, Toshkent.
2. Internet sayti.

PEDAGOG KADRLAR MAQOMINI OSHIRISH VAZIFALARI DAVR TALABI

S.U.Kistaubayev - Jizzax DPU falsafa, tarbiya va huquq ta’limi kafedrası dotsenti, falsafa doktori (PHD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimiz ta’lim muassasalaridagi muhim masalalardan biri pedagog kadrlar mahoratini oshirish haqida fikrlar bildirilgan. Mahoratli pedagog kadrlar ta’lim sifatini oshirishning samarali garovidir.

Tayanch iboralar: Demokratik huquqiy davlat, dunyo hamjamiyati, ochiq fuqarolik jamiyati, ma’naviy yangilanishi, yol xaritasi, ijodiy meros, kreativ fikrlash, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalar.

Резюме: В данной статье одним из важных вопросов в образовательных учреждениях нашей страны является повышение квалификации педагогов. Квалифицированные педагогические кадры – эффективная гарантия повышения качества образования.

Ключевые слова: Демократическое правовое государство, мировое сообщество, открытое гражданское общество, духовное обновление, дорожная карта, творческое наследие, творческое мышление, информация и коммуникация, инновационные технологии.

Summary: In this article, one of the important issues in the educational institutions of our country is about improving the skills of pedagogues. Skilled pedagogic staff is an effective guarantee of improving the quality of education

Key words: Democratic legal state, world community, open civil society, spiritual renewal, road map, creative heritage, creative thinking, information and communication, innovative technologies.

Dunyo hamjamiyati oldida yaqin vaqtlarda yechishi zarur bo‘lgan muammolar qatoriga oliy ta’lim muassasalari muammolari, yani XXI asr talablari va ehtiyojlarini qanoatlantiradigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab berish muammosi turibdi. Bu vazifa oliy ta’lim oldidagi eng sharaflı burchlardan biri hisoblanadi.

Insonlarni tarbiyalash va ularga bilim berish juda murakkab jarayon bo‘lib, bu ishga hamisha jamiyatning yetuk namoyandalari, pedogoglar jalb etilgan. Yosh avlod tarbiyasi, uning mazmun-mohiyati nafaqat ularning kamoloti, balki mamlakat kelajagini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

“Etakchi olimlar, istedotli yosh ilmiy xodimlarning faoliyati va ilmiy tadqiqodlarni qo‘llab quvvatlash, jamiyatda ilm-fan namoyondarining obro‘-e‘tibori va nufuzini oshirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri bo‘ladi”[1]. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilyotgan islohotlar ko‘lami tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda. Shuningdek, demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurilmoqda, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini ta‘minlash, jamiyatning ma‘naviy yangilanishi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta‘minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida pedagog kadrlarning ma‘naviy qiyofasi, ularning aqliy va kasbiy mahoratini takomillashtirishga katta talablar qo‘yilmoqda. Bu haqda Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov quyidagilarni fikrlarni bildiradi: «Tarbiyachi - ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirishi, ma‘rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak»[2].

Respublikada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi bu insondir. Insoning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va tasirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish, xalqning boy intellektual me‘rosi va umumbashariy qadriyatlardan foydalanish asosida zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotinig muhim shartidir. Taraqqiyotimizning yangi 2016 davridan keyin ta‘lim sifati va pedagog kadrlar mahoratini oshirish masalasiga e‘tibor yanada ortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil qarori asosida Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim va kadrlar sifatini oshirish hamda pedagoglarning faolligini o‘stirish uchun yol xaritasi ishlab chiqildi va bajarilib borildi. Bu «yol xarita» si quyidagilar edi;

- I. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish
- II. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar
- III. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta’lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish
- IV. Davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar va sohalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini oliy ta’lim muassasalari tomonidan televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e’tiboriga yetkazish
- V. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning ilmiy-tadqiqot natijalari va innovatsion ishlanmalarini amaliyotga joriy etish tizimini samarali tashkil etish
- VI. Oliy ta’lim muassasalari rahbariyatining mamlakatni isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas’uliyatini oshirish[3].

O‘zbekistonnig istiqboli ko‘p jihatdan mavjud pedagog kadrlar saviyasiga, ularning yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabati hamda mahoratiga ko‘p jihatdan bog‘likdir. Pedagogning tajribali, bilimli va yuksak ma’naviyatli bo‘lishi o‘sib kelayotgan yoshlarning vatan taraqqiyoti uchun jon kuydiradigan, baland cho‘qqilarni egallaydigan baxtli avlod bo‘lib yetishishini kafolatlaydi. Ma’lumki, har qanday mamlakatning rivojlanish darajasini oshirish uchun o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, faol va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, yuqori malakali o‘qituvchi mutaxassislar zarur.

Yuqori malakali pedagogik kadr qanday bo‘lishi kerak u qanday shakllanadi degan savolga A.Xoliqov quyidagicha fikr bildiradi; “Pedagogik mahorat- yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o‘tmish qadriyatlarini, O‘rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari va yangiliklaridan xabardor bo‘lish, ilg‘or xorijiy davlatlarning o‘qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o‘rganish jarayonida tarkib topadi”[4].

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning samarali bo‘lishida malakali pedagog kadrlarning o‘rni beqiyosdir. Shu sababli bu borada ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Pedagoglarning malakasini oshirish masalasiga yangi tahrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunda ham e’tibor berilgan. Bu qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020- yilning 19- may kuni, Senat tomonidan esa 7- avgust kuni qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020- yil 23- sentabr kuni mazkur Qonunni imzolashi bilan, amalda bo‘lgan 1997- yil 29- avgustdagi «Ta’lim

to‘g‘risida»gi hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi Qonunlar o‘z kuchini yo‘qotdi. Ushbu qonunning 3-moddasida “Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta‘minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta‘lim talablari bilan belgilanadi”[5] deb ta‘kidlangan.

Hozirgi davrda mahoratli pedagog kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarining kasbiy mahoratii muntazam oshirilib, ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlari hamda o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha innovatsiyalari, ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar qilinmoqda. Samarali zamonaviy ta‘lim va innovatsion texnologiyalar, shuningdek ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish uchun ularni yuqori o‘rinda turuvchi oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga yuborilmoqda. Barcha oliy ta‘lim muassasalarida rahbar va pedagog kadrlarni multimedia tizimlari, masofadan o‘qitish usullaridan foydalanishi, ilg‘or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarini egallashi uchun butun jahon Internet axborot tarmog‘iga ulangan. Pedagog kadrlarning chet tilini amaliy o‘zlashtirish darajasini oshirish va undan o‘z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borish uchun keng imkoniyatlar, ya‘ni kurslar, seminarlar tashkil etilmoqda. Tabaqalashtirilgan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini rivojlantirish asosida malaka oshirishning muqobil shakllari joriy etilgan.

2023-yil 11-sentyabrda o‘zbekiston respublikasi prezidentining «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi 158-son farmoni qabul qilindi. Farmon bilan yangi o‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi tasdiqlandi. Hujjatdagi asosiy g‘oyalardan biri quyidagicha “Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish”[6] deb nomlangan.

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasida ham ta‘lim sohasi va pedagoglar masalasiga alohida e‘tibor qilinganligini ushbu qo‘yilgan rejalarda ko‘rishimiz mumkin. Bu davr Ichida ta‘lim muassalari va mas‘ul tashkilotlar zimmasiga 1 000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha ish haqini 2 barobar oshirish, 500 ming nafar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish hamda ehtiyoj yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun

pedagogik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni to‘liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish kabi katta vazifalar yuklatilgan. Bugungi kunda iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilishdan iboratdir.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun pedagoglar shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy pedagog qanday bo‘lishi zarur? Shu jihatdan ham ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy g‘oyani o‘zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo‘yicha ko‘plab pedagog va psixolog olimlar o‘z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. Mustaqil O‘zbekiston ta’lim sohalarida ishlaydigan mahoratli pedagoglar vatanparvarlik burchini tug‘ri anglagan holda ixtisosga doir bilimlarni chuqur o‘lashtirgan bo‘lishlari kerak. Eng muhimi ahloqiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiladigan, dunyoviy, diniy ilmlardan ham xabardor ma’naviy barkamol inson bo‘lmog‘i lozim. Bu borada mamlakatimizda juda katta islohatlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yolimizni qa’riyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko’taramiz- Toshkent ,O‘zbekiston, 2017,167-bet.
2. Karimov.I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. - Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kompaniyasi Bosh taxriyati, 1993,27-28-bet.
3. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son qaroriga asosida «Yol xaritasi»
4. Xoliqov.A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. T.: «IQTISODMOLIYA» nashriyoti, 2010,-19 bet.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasi.2020-yil 23 sentyabr,O‘RQ-637-son
6. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_-_2030_strategiyasi_asosiy_goyalar

TA’LIM SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA “AQL MARKAZ”LARNING TUTGAN O‘RNI

Turayev Abrar Saloxiddinovich – Jizzax DPU falsafa, tarbiya va huquq ta’limi kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ta’lim-tarbiya sohasi davlat va jamiyat rivojining eng asosiy manbasi va asosidir. Ta’limdagi zamonaviy tendensiyalar tahlili asosida samarali ta’lim

siyosatini ishlab chiqish rivojlanayotgan davlatlar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu jarayonda ta’lim muammolarini xolis o‘rganuvchi, ilmiy asosga ko‘ra istiqbolli loyihalar va modellarni taklif etuvchi “aql markazlar”ning o‘rni yuqori hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tezisda ta’limiy siyosat shakllantirilishi va amalga oshirilishida “aql markazlar”ning o‘rni, bu borasida global tendensiyalarga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mahalliy darajada tahlil markazlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zaruriyati ko‘rsatib berilgan. Dastlab, ijtimoiy-siyosiy fanlar doirasida “aql markazlar” tushunchasining izohi va talqinlar hamda bu kabi tuzilmalarning global konyukturasi borasida izohlar keltiriladi. Ayrim rivojlangan davlatlar tajribalariga murojaat qilinadi. Davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga ta’siri bilan bog‘liq jihatlari hamda tahlil markazlarning asosiy funksiyalari ko‘rsatib beriladi.

Tahlil markazlarining intellektual mahsulotlariga amaliy siyosiy ekspertiza, tadqiqotlar, tahliliy sharhlar, shuningdek, hukumat, siyosiy va jamoat arboblari tomonidan dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilishga yordam beradigan fundamental nazariy ishlar kiradi. Ushbu turdagi tashkilotlarning faoliyati, qoida tariqasida, istalgan siyosiy natijalar haqidagi ma’lum g‘oyalarga asoslangan strategik maqsadlarni belgilash usuli bilan ajralib turadi. Rivojlanayotgan davlatlardagi ta’lim xususiyatlaridagi ayrim muammolar ko‘p vaqt va resurslarni talab qilisha sharoitida mustaqil tahlil bilan shug‘ullanuvchi va bu borada raqobat muhiti shakllanishiga asos bo‘luvchi omil sifatida mahalliy aql markazlarga ijtimoiy buyurtmalar hajmini oshirish, bundan tashqari, mahalliy darajadagi ayrim ta’limiy muammolar misolida “aql markazlar”ni jalb qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, siyosat, “aql markaz”, tahlil, ekspert, ijtimoiy soha, AQSh, tahlil markaz, tajriba, fan, ta’lim muammolari, ta’lim bozori, ta’lim xizmatlari

Abstract

The field of education is the main source and basis of the development of the state and society. Developing an effective education policy based on the analysis of modern trends in education is one of the main tasks facing developing countries. In this process, the role of "think tanks" that objectively study educational problems and propose promising projects and models based on scientific basis is high. From this point of view, this thesis focuses on the role of "think tanks" in the formation and implementation of educational policy, global trends, and the need to support the activities of think tanks at the local level. First, the explanation and interpretations of the concept of "intellectual centers" within the framework of socio-political sciences and the global conjuncture of such structures are given. Experiences of some developed

countries are referred to. Aspects related to the impact on the domestic and foreign policy of states and the main functions of think tanks are shown.

The intellectual products of think tanks include applied policy expertise, research, analytical commentary, and fundamental theoretical work that supports evidence-based decision-making by government, policymakers, and the public. The activity of this type of organizations, as a rule, is distinguished by the method of setting strategic goals based on certain ideas about the desired political results. Some problems in the characteristics of education in developing countries require a lot of time and resources, to increase the volume of social orders to local intelligence centers, which are engaged in independent analysis and as a basis for the formation of a competitive environment in this regard, in addition, some local level On the example of environmental problems, the possibilities of attracting "intellectual centers" were considered.

Keywords: education, policy, "think tank", analysis, expert, social sphere, USA, think tank, experience, science, educational problems, educational market, educational services

Аннотация

Область образования является основным источником и основой развития государства и общества. Разработка эффективной образовательной политики на основе анализа современных тенденций в образовании является одной из главных задач, стоящих перед развивающимися странами. В этом процессе высока роль «мозговых центров», объективно изучающих проблемы образования и предлагающих перспективные проекты и модели, основанные на научной основе. С этой точки зрения в данной диссертации основное внимание уделяется роли «мозговых центров» в формировании и реализации образовательной политики, мировым тенденциям, а также необходимости поддержки деятельности аналитических центров на местном уровне. Во-первых, даются объяснение и интерпретации понятия «интеллектуальные центры» в рамках социально-политических наук и глобальной конъюнктуры таких структур. Приведен опыт некоторых развитых стран. Показаны аспекты, связанные с влиянием на внутреннюю и внешнюю политику государств и основные функции аналитических центров.

Интеллектуальные продукты аналитических центров включают прикладную политическую экспертизу, исследования, аналитические комментарии и фундаментальные теоретические работы, которые поддерживают принятие обоснованных решений правительством, политиками и общественностью. Деятельность организаций этого типа, как правило, отличается методом постановки стратегических целей, основанным на определенных представлениях о желаемых политических результатах. Некоторые проблемы в характеристиках образования в

развивающихся странах требуют много времени и ресурсов для увеличения объема социальных заказов местным разведывательным центрам, которые занимаются независимым анализом и как основа для формирования конкурентной среды в этом отношении. Кроме того, некоторый местный уровень. На примере экологических проблем рассматривались возможности привлечения «интеллектуальных центров».

Ключевые слова: образование, политика, «мозговой центр», анализ, эксперт, социальная сфера, США, аналитический центр, опыт, наука, проблемы образования, образовательный рынок, образовательные услуги.

Global ta’limiy jarayonlardagi eng muhim va asosiy tendensiyalardan biri bu ta’limning daromad sohasiga aylanishidir. Barchaga ma’lumki, ta’limdagi xususiylashtirish jarayonlari, ta’limdagi buyurmachi va taklif beruvchi manfaatdorligidagi yangicha anglashuvlar butun dunyodagi ta’lim bilan bog’liq xulosa va reytinglar uchun asosiy jihatlardan biri bo’lib qolmoqda. Mamlakatimizda ham so‘ngi ta’limiy islohotlarga e’tibor qaratilsa, ayni global tendensiyaning ta’sirini sezishimiz mumkin. Ta’lim sifati va samaradorligi shubhasiz jamiyat va davlatchilik rivojining asosi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, demokratik islohotlar jarayonida ta’lim siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga zo‘r berib harakat qilinadi. Turli tajribalar, eng ilg‘or namunalar va muayyan strategiyalar qabul qilinadi. Bu albatta, ijtimoiy zaruriyat va davr talabidir. Ammo masalalarning bir jihati borki, ayniqsa butun bir jamiyatni umumiy va qat’iy nazorat qiluvchi siyosiy tizimlardan demokratik tizimlarga o‘tayotgan jamiyatlarda ilg‘or tajribalarni qo‘llashdagi shoshma shosharlik, tajriba sinovlarsiz eskperimentlarni qo‘llash va ta’limga ortiqcha yuk bo‘lishi mumkin bo‘lgan “innovatsiyalar”ni joriy etishga kirishib ketiladi. Bu esa ta’limiy siyosatdagi izchillikning yo‘qolishi, resurslarning samarasiz ishlatilishi va umumiy saviyadagi uzulishlarga olib kelishi ehtimolini oshiradi. Dunyoning rivojlangan davlatlari tajribalaridan ma’lumki, islohotlar siyosatidagi o‘tish davrlarida bu jarayonlar obyektiv holat sifatida baholanadi. Bu jarayondan tegishli xulosalar olinadi va strategik vazifalar belgilanadi. Fikrimizcha ayni shu vaziyat Respublikamiz ijtimoiy hayotida namoyon bo‘lmoqda. Va eng muhimi bu jarayon ishtirokchilari ongidagi o‘zgarishlar, ta’limiy qadriyatlarga yondashuvlar va paradigmalardagi tendensiyalarni anglashdir. Ya’ni, biz resurslarimizni sarflayveramizmi yoki tegishli xulosalar olindimi, degan savolga butun jamiyat ijtimoiy ongida qanday javob shakllanganligini bilish muhimdir. Albatta davlat tizimi bu borada muayyan ishlarni amalga oshirmoqda. Asosiy islohotchi, yo‘lboshlovchi sifatida ta’lim siyosati ijrosi yo‘lga qo‘yilgan. Lekin, davlatlarning ham ichki, ham tashqi siyosati shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan mustaqil ekspertlik guruhleri,

zamonaviy til bilan aytganda “aql markazlar”ning bu boradagi o‘rni qanday degan savolga javoblar bormi?

Shu o‘rinda avvalo aql markazlarga to‘xtalib o‘tar ekanmiz, ijtimoiy-siyosiy fanlar doirasida tahliliy “mahsulotlar” ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi markazlarning global manzarasi borasida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tish mumkin. Bu mavzuda avvalo statistikaga murojaat qilinadi: AQShda joylashgan Pensilvaniya universiteti tadqiqotchilari har yili jahonda faoliyat yuritayotgan tahlil markazlarini o‘rganadi. Shuningdek, ular bir davlatda nechta tahlil markazlari mavjud, bunday markazlar nima bilan shug‘ullanishi kabi masalalarga to‘xtalib o‘tadi.

Ma’lumotlar ko‘ra, Yer qit‘asida jami 7815 tahlil markazlari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, shulardan 26,2 foizi Yevropada joylashgan, 25.2 foizi esa Shimoliy Amerikada joylashgan. Nisbatan quyi pog‘onada, 20,7 foiz ulush bilan Osiyo reyting «uchligi»ni yakunlaydi.

Mamlakatlar kesimida tahlil qilinganda, birinchi beshtalikni quyidagi davlatlar egallamoqda: Amerika Qo‘shma Shtatlari – 1872; Xitoy – 512; Buyuk Britaniya – 444; Hindiston – 293; Germaniya – 225.

Shuningdek, hisobotlarda ayrim sohalarda yuqori o‘rinlarni egallagan tahlil markazlari haqida ma’lumot mavjud. Jumladan, milliy xavfsizlik va mudofaa masalalari bilan shug‘ullanuvchi tahlil markazlari ham ayniqsa AQShda rivojlangan. Ya’ni, 22 ta tashkilot AQShda shunday muammolar bilan shug‘ullanadi. Ichki iqtisodiy muammolar bilan AQShda 25ta tahlil markazi shug‘ullanadi. Vaholanki, ro‘yxatning qolgan asosiy qismini ham Amerika Qo‘shma Shtatlarining tahlil markazlari egallagan. Masalan, ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan birinchi kuchli o‘ntalikni ko‘rib chiqaylik: 1-o‘rinni Yaponiyaning Ta’lim siyosatini o‘rganish milliy instituti egallagan bo‘lsa, 8-o‘rinda Chexiya Respublikasining Ijtimoiy va iqtisodiy strategiyalar markazi. O‘ntalikdagi qolgan barcha o‘rinlarni AQSh tahlil markazlari qo‘lga kiritgan. Demak, ushbu davlatlarda ta’lim tizimiga e’tibor yetarli darajada tashkil etilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoki ta’lim sohasida paydo bo‘ladigan har qanday muammoga o‘z vaqtida “muolaja” tayyorlanmoqda[1].

Tahlil markazlari davlat siyosatini o‘rganish bo‘yicha tahlil va ishtirok tashkilotlari bo‘lib, ular ichki va xalqaro muammolar bo‘yicha siyosatga yo‘naltirilgan tadqiqotlar, tahlillar va maslahatlar ishlab chiqaradi va shu bilan siyosatchilar va jamoatchilikka davlat siyosati bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Tahlil markazlari muvaqqat komissiyalar emas, balki doimiy organlar sifatida tuzilgan sho‘ba yoki mustaqil muassasalar bo‘lishi mumkin[2].

Ular zamonaviy demokratik davlatlarda ilm-fan va hukumat o‘rtasidagi o‘ziga xos ko‘prikdir[3].

Eng kuchli aql markazlari sanoati rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. Ularning yordami bilan ushbu mamlakatlarning rivojlanishi eng yaxshi trayektoriyalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Aql markazlari jamiyatdagi jarayonlarga va davlatning siyosiy tuzilmalariga bevosita ta’sir ko‘rsatishidan kelib chiqib, ekspert va tahlil markazlari sohasidagi yetakchi ekspert Jeyms Makgann ularni siyosiy qarorlarni qabul qilishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qonunchilik, ijro etuvchi, sud hokimiyati va OAVdan keyin “beshinchi hokimiyat”ga tenglashtiradi[4].

Vaqt o‘tishi bilan “aql markazlari” siyosiy elitaning tegirmoniga aylandi. Ular dunyoning rivojlangan mamlakatlarida siyosatni shakllantirishda yetakchi rol o‘ynaydi, turli vaziyatlarda ekspertlik fikrlarini tavsiya qiladi: global iqtisodiy inqirozga qarshi kurashishdan tortib jangovar harakatlar tahliligacha. Tahliliy va tadqiqot institutlari ommaviy tahlillar rivojiga imkon beradi, davlatning qarorlar qabul qilishida, islohotlarni ishlab chiqish va amalga oshirishida ko‘mak beradi.

“Aql markazi”ning asosiy vazifasi jamoatchilik hamda davlat idoralariga asosli, ishonchli va amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlarni taqdim etish ekani ma’lum. Buning uchun esa muassasa nisbatan mustaqil faoliyat olib borishi kerak. Aks holda, buyurtma ijrochisi o‘laroq mafkuraviy va siyosiy maqsadlarga muvofiq tadqiqotlar bilangina cheklanib qolishi hech gap emas. Bu esa nafaqat jamoatchilik, balki buyurtmachi, ya’ni davlat idorasining ham manfaatlariga ziddir[5].

Rivojlangan davlatlarda chuqur o‘rganilgan tahliliy ma’lumotlarning bozori shakllangan. Bu bozorda sotuvchilar – aql markazlari, buyurtmachi-xaridorlar esa – davlat, jamoat tashkilotlari va yirik kompaniyalar. O‘zaro raqobatlashadigan aql markazlari qaror qabul qiluvchilarning stoliga bir-biridan mustaqil, muqobil variantlardagi tahliliy xulosalar va yechim-takliflarni qo‘ya oladi. Albatta, arzon narxga emas.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida mamlakat istiqbolini belgilab beradigan hamda siyosiy qarorlar qabul qilishda ta’sir o‘tkazadigan “aql markazlarini” yaratish lozim degan masalaga ham to‘xtalib o‘tildi. Xususan, Sh.M.Mirziyoyev “Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari”mizni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta’sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Shu ma’noda, Ma’naviyat va ma’rifat, “Taraqqiyot strategiyasi”, Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiygumanitar

yo‘nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy “aql markazlari”ga aylanishi kerak”ligini ta’kidlaydi[6].

Tahliliy ma’lumotlar davlatning ichki va tashqi siyosiy holati, rivojlanishi va istiqbolining “qaymog‘i”dir va davlat siyosatining intellektual tayanchini tashkil etadi. Ayniqsa, bugungi kunda davlat har qachongidan ham mustaqil ekspertiza va diagnostikaga muhtoj. Bu vaqtni, pulni tejashga, strategik va taktik xatolarni minimallashtirishga yordam beradi. Bu vazifa esa “aql markazlari” tomonidan xal etilishi mumkin.

Bilim hozirgi zamonda har bir davlatning asosiy iqtisodiy manbalaridan biri sanaladi. U tunganmas va qudratli kuchga ega. “G‘oyalar bilimlar dvigateli uchun yoqilg‘idir” degan ta’rifni bejizga aytishmagan. G‘oyalar har bir mamlakatning iqtisodiy yuksalishini ta’minlaydi. G‘oyalar asoschisi – intellektuallarning bilimi va aqliy mehnati mahsuli bo‘lgan intellektual mulk davlatni har tomonlama mustahkamlaydi. Sovuq urush davridan keyin rivojlanishning asosiy mexanizmi texnologik taraqqiyot va bilimlarni ishlab chiqarishdan iborat bo‘ldi. Bunga 1990-yillarda AQShda kuzatilgan texnologik yutuqlar, ilmiy va ta’lim siyosatidagi an’analar yordam berdi. Ayni vazifa yuqori malakali kadrlar tayyorlash, fan va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi tadqiqot markazlari hamda universitetlar zimmasiga tushdi[7]. Bu esa, iqtisod fanlari doktori V.B.Supyanning so‘zlariga ko‘ra, AQShda “davlat – ta’lim – biznes” yaqindan hamkorlik qilishga asoslangan bilimlarni ishlab chiqarish va ularni keyinchalik ommalashtirish uchun juda samarali mexanizm mavjudligini anglatar edi[8]. Shu sababdan ham AQSh dunyoning turli burchaklaridan eng zo‘r iste’dod egalarini yaxshi haq evaziga ilmiy texnika muammolarini hal qilishga jalb etdi. Amerikada tadqiqotlar qilib Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan olimlarning aksariyati dunyoning turli mamlakatlardan kelib, bu yerda muqim yashab qolgan kishilardir.

“XX asrning 90-yillarida birgina Vashingtonda yuzga yaqin tahliliy markazlar mavjud bo‘lgan” bo‘lsa, 2000 yildan so‘ng umuman dunyoda tahliliy faoliyatga ehtiyoj o‘sishi kuzatildi, ya’ni ularning umumiy soni 4,5 mingga yetganini, 2009 yilning oxirlariga kelib esa 5,5 mingtani tashkil etganini qayd etish lozim. Ular faoliyatining ko‘lami, moliya manbalari, vazifalari bir-biridan farqlanadi. Ayrimlari ham ichki, ham tashqi siyosatning muayyan sohalariga, boshqalari esa ma’lum bir mintaqa muammolarini o‘rganishga ixtisoslashdi[9].

Tahlil markazlarining asosiy vazifasi ilmiy ekspertiza o‘tkazish va keyin uni real siyosatga kiritishdan iborat. Shunday qilib, ular tadqiqotchilar, siyosatchilar, ekspertlar va tijorat tuzilmalari vakillaridan iborat yagona siyosiy-akademik kompleksni tashkil qiladi[10].

Dunyodagi joriy holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqil aql markazlar jamiyat rivojiga salmoqli hissa qo‘shishi bilan birga, jamiyatning intellektual

salohiyatini oshirish hamda ilg‘or fikr egalarining minbari bo‘lishini ta’minlaydi. Mamlakatimizdagi joriy islohotlar samaradorligi borasidagi fikr yuritar ekanmiz, fikrimizcha ekspertlik guruhlar va markazlarni keng jalb qilish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Respublikamizda o‘nlab aql markazlari faoliyat yuritmoqda. Ularning aksari, yanada aniqroq aytganda, OAVlari va reytinglarda ko‘zga tashlanayotganlari davlat tuzilmalari qoshida tashkil qilingan yoki davlat tashabbusi asosida faoliyat yuritayotgan markazlardir. Nodavlat va mustaqil faoliyatga ega bo‘lgan aql markazlarni qo‘llab-quvvatlash orqali istiqbolli loyihalar va prognozlar erishish mumkin. Jumladan, ta’lim sohasidagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash, muqobil yo‘l haritalarini shakllantirish va mahalliy darajada ham ijro siyosatiga ta’sirini ko‘rsatuvchi tuzilmalarga ehtiyoj bor. Ayni kunda bu masaladagi muhokamalarda yurtimizning yetakchi mutahassislari aql markazlarimiz faoliyati samaradorligining pastligini izohlashda bir qator sabablarni keltirib o‘tishmoqda. Xususan, asosiy muammo sifatida nodavlat markazlarning moliyaviy holati masalasidir. Yana bir muammo sifatida bu kabi markazlarga ijtimoiy buyurtmalarnig kamligi va boshqalar.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bugungi kunda ta’lim bozori kengayib, ta’limiy xizmatlar ishtirokchilari soni ham ortib bormoqda. Bu o‘z –o‘zidan ta’lim siyosatidagi yangi tendensiya istiqbollarni baholashni talab etadi. Ta’lim xizmatlarining global bozori talabalari asosida raqobatbardosh ta’limni taklif etish bilan bog‘liq kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish ham davlat organlari ham xususiy tadbirkorlar uchun birdek zaruratdir. Bu esa birinchi navbatda ichki ta’limiy takliflar salmog‘ining ortishiga va sifatidagi o‘zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun bugungi ta’lim sohasidagi muayyan muammolarni o‘rganishda aql markazlarga buyurtmalar hajmini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Ta’limning turli bosqichlarida to‘planib qolgan va haligacha to‘liq yechimi taklif etilmayotgan muammolarni jamiyat va davlat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradigan aql markazlar vositasida hal etish dunyo tajribasida o‘z tasdig‘ini topib kelmoqda. Mavjud resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatini oshirmoqda. Masalan, bugungi kunda maktab ta’limi yoki umuman barcha ta’lim bo‘g‘inlarida zamonaviy darslik va ko‘llanmalarga ehtiyoj yuqori. Va ayni bu masalada davlat rahbariyati juda katta tashabbus va tajribalarni amalga oshirmoqda. Bu borada jamiyat ijtimoiy ongi va balki intellektuallarimiz ongidagi ayrim stereotiplarni yengib o‘tish zarurati seziladi. Xususan, bugungi kunda dunyoda yaratilgan eng ilg‘or darslik yoki ko‘llanmani o‘zbek tiliga tarjima qilib foydalanishga joriy qilish eng samarali yo‘ldir. Ya’ni, “velosipedni boshqatdan kashf qilishga” ehtiyoj yo‘q. Shu masalada respublika va mahalliy darajada o‘rganish, aholining fikrini bilish va bu jarayon haqiqatdan ham milliy mentalitetimizga (yoki ma’naviyatimizga) mos bo‘lish bo‘lmisligini aniqlash tadqiqotlari o‘tkazilishi mumkin. Bu jarayon mutloq

ob’ektiv amalga oshirilishi imkoniyati bor. Darslik mualliflarining diniy, irqiy, milliy va boshqa qarashlari, qadriyatlarini qay darajada bizning qadriyatlarimizga salbiy ta’sir qilishi mumkin? Bu kabi masalalarga tahlil, o‘rganish asnosida xulosalar berilishi lozim.

Ta’lim bilan bog‘liq jamoatchilikka e’tiborini torgan yana bir misolni keltiradigan bo‘lsak, oxirgi uch-to‘rt yilda diniy ta’lim bilan bog‘liq qator tortishuvlar ko‘zga tashlandi. Turli darajada muhokamalar o‘tkazildi. Ammo, mustaqil aql markazlari xulosalari bo‘ldimi? Jamoatchilikka ilmiy asoslangan javoblar berildimi? Dunyoviy davlatchilik sharoitida diniy ta’limning xususiyatlari xalqona tushuntirildimi yoki tavsiyalar shakllantirildimi? Bu kabi savollarning ba’zilari haligacha ochiq qolmoqda. Fikrimizcha aynan mustaqil aql markazlarining bu boradagi xulosalari muhimdir.

Ta’lim sifati bilan bog‘liq ta’limni zamonga moslash, kreativ fikrlashga yo‘naltirish, masofaviy ta’lim, mustaqil ta’limni tashkil etish va eng muhimi ta’lim mazmunining real hayotga mosligi va uni qo‘llay olish imkoniyati kabi masalalar eng dolzarb vazifalar bo‘lib turibdi. Bu yo‘nalishlarda davlat va jamiyatning ijtimoiy byurtmalari shakllantirilishi va davlat va nodavlat tahlil markazlarga taqdim qilinishi lozim. Raqobat va ishchanlik muhiti asosida ta’lim siyosati samaradorligini ta’minlash imkoniyati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akbarov U. O‘zbekistonni rivojlantirish uchun «miya markazlari» kerak// [https://kun.uz/news/2018/03/12/uzbekistonni-rivojlantirish-ucun-talil-markazlari-kerak?...](https://kun.uz/news/2018/03/12/uzbekistonni-rivojlantirish-ucun-talil-markazlari-kerak?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F03%2F12%2Fuzbekistonni-rivojlantirish-ucun-talil-markazlari-kerak)
2. Think Tanks and Policy Advice in the US, Routledge 2007 and in The Fifth Estate: Think Tanks, Public Policy, and Governance, Brookings Institution Press 2016).// Global Go to Think Tank Report 2020// University of Pennsylvania. – URL: file:///C:/Users/User/Downloads/2020_Global_Go_To_Index_03.17_FINAL.pdf MARCH 17, 2021
3. United Nations Development Program (UNDP). Thinking the Unthinkable. Bratislava: UNDP Regional Bureau for Europe and the Commonwealth of Independent States, 2003
4. «Tanklar» nima haqida o‘ylaydi? <https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/12/think-tank/>
5. Rajabov B. G‘oya – taraqqiyotga doya // “Tafakkur” jurnali, 2020-yil 3-son
6. Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир//<https://president.uz/uz/lists/view/4089>

7. Бўтаев У., Ғаниев О. «Ақлий марказлар» – давлат ва жамият бошқарувини ривожлантирувчи асос// Илми хабарнома. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. – Андижон. – 2021. – №1(53). – В.5-13.
8. Экономика США. Ресурсы, структура и динамика. Учебник. /Ред. В.Б.Супян. – Москва: Магистр: Магистр: ИНФРА-М, 2014. – С.480.
9. Ушкалов И.Г. Процесс трудовой эмиграции: состояние и перспективы// Российский экономический журнал, 1993. –№2. –С.4
10. Кобринская И. Я. «Мозговые тресты» и внешняя политика США / И. Я. Кобринская. М.:Международные отношения, 1986. С. 6-10.

OLIV TA’LIM MUASSALARIDA O‘QUV-PEDAGOGIK AMALIYOTINI SIFATLI TASHKIL ETISH MASALALARI

Nabiyev Mansur – Jizzax DPU katta o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolda ta’lim tizimi, oliy ta’lim va oliy ta’lim tizimining davlat va jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyati, pedagogik kadrlar tayyorlab berayotgan oliy ta’lim muassalarining faoliyati, pedagogik kadrlar tayyorlab berayotgan univertitet va institutlarning pedagogik amaliyotlarni 4+2 tizimi orqalib olib borish jarayonlari tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, oliy ta’lim, davlat va jamiyat, pedagogik kadrlar, univertitet, institut, pedagogik amaliyot, 4+2 tizimi

Аннотация

В данной статье система образования, высшее образование и социальная значимость системы высшего образования в жизни государства и общества, деятельность высших учебных заведений по подготовке педагогических кадров, педагогическая практика вузов и институтов по подготовке педагогических кадров через систему 4+2 анализируются процессы

Ключевые слова: система образования, высшее образование, государство и общество, педагогические кадры, вуз, институт, педагогическая практика, система 4+2.

Annotation

In this article, analyzed the educational system, higher education and the social importance of the higher education system in the life of the state and society, the activities of higher education institutions that train pedagogical personnel, the pedagogical practices of universities and institutes that train pedagogical personnel through the 4+2 system processes

Keywords: educational system, higher education, state and society, pedagogical personnel, university, institute, pedagogical practice, 4+2 system

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida sifatli o‘quv-pedagogik amaliyotni tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq, bu jarayon hal qilinishi kerak bo‘lgan bir qator muammolarga duch kelishi mumkin. Xususan:

Cheklangan manbalar: pedagogika universitetlari ko‘pincha cheklangan resurslar, jumladan, moliyalashtirish, jihozlar va o‘quv materiallari bilan kurashadi. Ushbu cheklov amaliyot davomida amaliy va yuqori sifatli ta’lim tajribasini taqdim etish qobiliyatiga to‘sqinlik qiladi.

Noto‘g‘ri nazorat: ta’lim amaliyoti davomida samarali nazorat juda muhim, ammo ko‘plab pedagogika universitetlari o‘z talabalari uchun tegishli nazoratni ta’minlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Tajribali ustozlar va supervayzerlarning cheklanganligi intiluvchan o‘qituvchilar uchun etarli yo‘l-yo‘riq va fikr-mulohazalarga olib kelishi mumkin.

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi nomuvofiqlik: sinflarda olingan nazariy bilimlar va haqiqiy o‘qitish holatlarida talab qilinadigan amaliy ko‘nikmalar o‘rtasida ko‘pincha uzilish mavjud. Bu bo‘shliq talabalarning amaliyot davomida olgan bilimlarini samarali qo‘llashlarini qiyinlashtiradi.

Mos kelmaydigan joylashtirish imkoniyatlari: ta’lim amaliyoti uchun joylashtirish imkoniyatlarining mavjudligi va sifati pedagogika universitetlarida juda katta farq qilishi mumkin. Ba’zi talabalar turli xil o‘qitish muhiti, sinf darajalari yoki talabalar populyatsiyasiga cheklangan ta’sir ko‘rsatishi mumkin, bu ularning har tomonlama rivojlangan o‘qituvchilar sifatida rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Talabalar ko‘pincha o‘rganganlarini haqiqiy ta’lim sharoitlarida qo‘llashni qiyin deb bilishadi. Buni hal qilish, nazariya va amaliyot o‘rtasida mazmunli aloqa o‘rnatish uchun professor-o‘qituvchilar va amaliyotchi o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish zarur. O‘quv rejasiga amaliyot, maydon kuzatuvlari va amaliy o‘qitish tajribasi kabi ko‘proq amaliy komponentlarni kiritish maqsadga muvofiq. Talabalarga nazariy bilimlarini amaliy tajribalar bilan bog‘lashda yordam berish uchun muntazam ravishda mulohaza yuritish va fikr-mulohazalarni o‘tkazish seminarlarini tashkil etish kerak. Shuningdek, talabalar turli xil ijtimoiy-iqtisodiy hududlardagi maktablar, qishloq va shahar jamoalari va turli xil madaniy kelib chiqishlarni o‘z ichiga olgan keng doiradagi ta’lim sharoitlariga ta’sir qilishdan foyda ko‘radi. Ushbu muammoni hal qilish uchun pedagogika universitetlari: talabalarning turli xil ta’lim muhitlaridan foydalanishini ta’minlash uchun turli maktablar va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, inklyuziv ta’lim amaliyotini targ‘ib qiluvchi, o‘quvchilarni marginallashtirgan yoki kam ta’minlangan jamoalar bilan hamkorlik

qilishga undaydigan dasturlarni ishlab chiqishi, Virtual tajribalarni taqdim etish va talabalarni turli ta'lim kontekstlari bilan bog'lash uchun texnologiya va onlayn platformalarni ommaviylashtirish zarur.

Samarali murabbiylik va nazorat pedagogik amaliyot davomida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq, kafedralar talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash uchun etarli malakali murabbiylar va nazoratchilar bilan ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ushbu muammoning echimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: tajribali o'qituvchilar va universitet professor-o'qituvchilarini jalb etgan holda kengroq yordam ko'rsatishni ta'minlash uchun murabbiylik tarmog'ini yaratish zarur. Muammolarni hal qilish va doimiy yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun murabbiylar va universitet professor-o'qituvchilari o'rtasida muntazam muloqot va hamkorlikni rag'batlantirish lozim.

Qonunchiligimizda ta'limga quydagicha ta'rif berilgan. “Ta’lim-ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon”[1,1-b.].

Ta'lim sifati jamiyat hayoti rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hodisalardan biri hisoblanadi. Har bir davlat yoki jamiyat zamonga mos ravishda o'zining ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilib rivojlantirib boradi. Ta'lim turlarini ichida faqatgina oliy ta'limgina davlat va jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlab beradigan ta'lim turi hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida alohida davlat va jamiyat ta'lim-tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan tarbiyachi pedagoglarni tayyorlab beradigan maxsus bilm yurtlar mavjud. Bunday maxsus bilm yurtlar pedagoik kadrlarni tayyorlab beruvchi universitet va institutlar hisoblandi. Davlat va jamiyat ijtimoiy hayotida pedagogik soha bilan shug'ullanuvchi insonlarni ahamiyati juda yuqori bo'lgani uchun davlat tomonidan maxsus qonunlar va qonun osti xujjatlari qabul qilib, ushbu soha rivojlantirilib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 21-iyunda “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-289 son qarori e’lon qilindi.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida [3, 1-b.].

Ushbu qabul qilingan qaror ta’lim-tarbiya tizimining rivojlanishiga, o‘qituvchi–pedagoglar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassalari faoliyatini rivojlantirish uchun muhim bir huquqiy asos bo‘ldi. Qarorlar asosida quyidagi islohotlar amalga oshirildi har bir ma’muriy hududda pedagogika sohasida faoliyat olib borayotgan oliy ta’lim muassasi tashkil qilindi. Mamlakatimizda 14 ta pedagogika oliygohida 27 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlanyapti. Mazkur ta’lim muassasalarida pedagoglarni tayyorlash metodikasi zamonaviy ta’lim-tarbiya talablariga muvofiq olib borilmoqda. Yurtimizda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.

Pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan 2-4 bosqich talabalarining malakaviy amaliyotini o‘tashlari uchun Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan, umumta’lim va maxsus maktablarda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “4+2” tartibda amaliyot tashkil etilmoqda. Bu o‘z navbatida, ta’lim-tarbiya hamda nazariya va amaliyotning uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. “4+2” tartibli amaliyot o‘tash tizimi joriy etilguniga qadar talabalar amaliyotni o‘quv rejaga muvofiq tarzda ma’lum bir muddatda amalga oshirishardi. Talabalarga amaliyotga maktablarda yoki maktabgacha ta’lim muassasalarida amaliyotni o‘quv yilini ma’lum bir vaqtda borishardi Bunday amaliyot tartibi talabani o‘z imkoniyatlarni yetarli darajada baholay olish imkonini bermasdi. Yangi tartibda joriy qilingan amaliyot shakli talabalardan oliy ta’limda professor-o‘qituvchilardan olingan nazariy bilimlar bilan birga amaliy bilimlar birga qo‘llay olish imkonini berdi. Bundan tashqari amaliyot davomida talabani kasbiy ko‘nikmalari rivojlanib borishiga, bozor iqtisodiyoti sharoitida ish bilan ta’minlanishiga sabab bo‘ladi. Ta’lim tizimidagi islohotlar davlat va jamiyat hayotida muhim ekanligini unutmazdan faoliyat olib boorish har bir fuqarodan talab qilinadi.

Oliy ta’lim bilan talabalar amaliyotga boradigan ta’lim muassalari o‘rtasida hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish zarur, uning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur.

1. Talabalarni amaliyotga yuboriyotgan oliy ta’lim muassasida mas’ul xodimlar amaliyot bo‘limi, fakultet dekani, kafedra mudiri, amaliyot rahbarlari aloqa o‘rnatishlari uchun talabalar amaliyotga borayotgan ta’lim muassasining rahbar va rahbar o‘rinbosarlarining doimiy tarzda yangilanib boriladigan telefon raqamlari bazasini shakllantirish kerak.

2. Amaliyotchi talabalarni amaliyot joyida davomat ishini xujjatlarini yuritilish tartibiga umumiy rahbarlik qilish direktor va direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosariga birlashtirish zarur.

3. Amaliyotchi talabalarga amaliyot joyida amaliyotga umumiy rahbarlikni maktab direktori va direktorining ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari olib borganida, maktab rahbariyati tomonidan berilgan topshiriqlarni ijronini kunlik nazorat qilish, kunlik davomatini aniqlash ishlarni kadrlar bo‘yicha inspektor tomonidan olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. Amaliyotga borayotgan talabalarning amaliyot holatlarini o‘rganish ishlari maktab rahbariyatining ishlab chiqarish va pedagogik kengashlarda kun tartibidagi masala sifatida qo‘yilishi va unda amaliyotchi talabalar ularning oliy ta’limdan birlashtirilgan amaliyot rahbarlarini ishtirokini ta’minlash maqsadga muvofiq ish bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan. Ta’lim to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunining 3-moddasi.

2. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan. Ta’lim to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunining 11-moddasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 21-iyunda “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-289 son qarori.

TA’LIM TIZIMIDA INSON RESURSIDAN RATSIONAL FOYDALANISH MASALALARI

Aliyev Murod – Jizzax DPU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada samarador inson resursini shakllantirishda ta’lim tizimi, uning o‘rni va ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, inson resursini tarbiyalashda xorijiy mamlakatlar tajribasi ham yoritib o‘tilgan

Tayanch so‘zlar: inson resursi, ta’lim, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim professional ta’lim, raqamlashtirish

Аннотация

В данной статье описывается система образования, ее роль и значение в формировании эффективных человеческих ресурсов. Также освещается опыт зарубежных стран в подготовке кадров

Ключевые слова: человеческие ресурсы, образование, дошкольное образование, общее среднее образование, профессиональное образование, цифровизация.

Annotation

This article describes the education system, its role and importance in the formation of effective human resources. It also highlights the experience of foreign countries in training

Keywords: human resources, education, preschool education, general secondary education, professional education, digitization

Bugunga kelib taraqqiy etgan va etayotgan davlatlarda olib borilayotgan innovatsion va raqamli rivojlanishga doir tendensiyalar diqqat markazida inson turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy reformalar zahirida jamiyatda mavjud inson resursi undan samarali foydalanish, yuksaltirish qaratilgan ulkan imkoniyatlar mavjud. Inson resursi jamiyatning barqaror rivojlanshi hamda taraqqiy etishdagi muhim komponent sifatida davlatning keyingi faoliyatida aynan mazkur komponentga e’tibor qaratish, uning salohiyatidan unumli foydalanishi strategik ahamiyatlidir.

Inson resursidan samarali foydalanishga doir ilmiy tadqiqotlarni o’rganish jarayonida mualliflar tomonidan turfa yo’nalish va sohalardan kelib chiqqan yondashuv va ilmiy tahlillar o’rganildi, inson resursidan ratsional foydalanishning kompleks ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Inson resurslaridan oqilona foydalanish umumiy mazmunga ega ekanligidan kelib chiqsak, uning qismlarga bo’lib olish orqali tadqiqotimizning aniq, izchil va faktik bo’lishini ta’minlaydi.

Maktabgacha yoshdagilar – inson resursi sifatida davlat, xususi maktabgacha ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi qatlam bo’lib hisoblanadi.

“Millatning kelajagi davlatda yosh avlodning ta’lim olish masalasi qanday yo’lga qo’yilganligiga bog’liqdir. Maktab ta’limi uchun asos bolalarning maktabgacha yosh davridanoq shakllanadi. Shuning uchun, agar bolalar maktabgacha yosh davridanoq ta’lim olishga qanchalik tayyorgarliklariga e’tibor qaratilsa, ularning maktabdagi va keyinchalik boshqa ta’lim muassasalarida o’qishlarining natijasi qanchalik ijobiy bo’lishini ko’rish mumkin”[1-12-b] Demakki, inson resursining ilk va kichik komponentlaridan biri maktabgacha yoshdagilar bo’lib hisoblanadi. Aynan shu yoshda ularning qay kasb-hunaga moyilligi, ratsional va ijodiy fikrlashi, tasavvurlari orqali nozik nihol sifatida bo’y ko’rsatadi. Bu xuddiki, meva beruvchi daraxtni orzu qilgan bog’bon, daraxtning ilk ko’chatlik davridayoq unga jiddiy e’tibor, g’amxo’rlik, munosib shart-sharoit yaratish lozimligi bilan izohlash mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizda bunday inson resursiga nafaqat ijtimoiy balki siyosiy ahamiyat berila boshladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarori, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son Farmoni va boshqa normativ-hujjatalar orqali ilk marotaba Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi.

Faoliyatiga ko‘ra, vazirlik ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kabi vazifalar yuklatildi. Bu tizimga jiddiy e’tibor qaratila boshlanib, quyidagi islohotlar amalga oshirildi. (1-rasm)

Islohotlar	2016-yillar	2020-yillar
Maktabgacha ta’lim tizimida qamrov darajasi	27.7%	60%
Maktabgacha ta’lim tizimida muassasalar soni	5265	18254
Maktabgacha ta’lim muassasasida bola tarbiyalanuvchilarnig soni	708 ming	1.7 mln
Davlat maktabgacha ta’lim muassasalari soni	5211	6200
Xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlar soni	54	700
Oilaviy maktabgacha muassasalar soni	Mavjud bo‘lgan	10 ming
Maktabgacha ta’lim tizimida davlat siyosatini yuritish maktabgacha ta’lim tizimini moliyalashtirish	200 mlrd so‘m	5.4 trln so‘m

(1-rasm) [2-98-99-b]

Islohotlarning natijasi o‘laroq yildan-yilgan maktabgacha ta’lim tizimining kichik inson resurslarining qamrovi ortib bormoqda. Shu sababli sohada raqamlashtirish jarayonini olib kirish maqsadida bolalarni bog‘chaga

joylashtirishning elektron navbati joriy etildi. Bunda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga murojaat etish orqali amalga oshiriladi. Endilikda ortiqcha byurokratik to‘siqlarsiz ota-onalar farzandlarini bog‘chaga navbatga berishda ovoragarchiliksiz joylashtirishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek, 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola ta’minoti uchun ota-onalar to‘lovi miqdorlariga nisbatan tumanlarning toifasidan kelib chiqib, kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llanila boshlanadi [3].

Umuman olganda, inson resursidan samarali va oqilana foydalanishdagi birinchi qadam, avvalo millatning istiqbolli yosh avlodi bo‘lib hisoblanadi. Ularga kerakli shart-sharoit yaratilib berilgan taqdirdagina, munosib chaqiriqqa, munosib javob olish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tizimida inson resurslaridan qay tarzda foydalanish to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlari keltirib o‘tamiz.

Yaponiyada maktabgacha ta’lim muassasalarining 59.9 foizi xususiy, 40.8 foizi davlatnikidir. Maktabgacha ta’limga Yaponiyada katta e’tibor qaratiladi, chunki psixologlarining ta’kidlashicha, 7 yoshgacha inson bilimlarni 70 foizini, qolgan 30 foizni umri davomida o‘zlashtirar ekan [4].

Maktabgacha ta’lim majburiy emasligiga qaramasdan, bolalar bog‘chalari va parvarish markazlariga talab katta bo‘lib, odatda bolalarni bog‘chaga joylashtirish uchun bu haqida oldindan harakatga tushiladi. Maktabgacha ta’lim muassasadan joy olish o‘rtacha 25 ming nafar bola navbatda turadi [5].

Yaponiyada bolalar bog‘chasiga 3 yoshdan qabul qilinadi va maktabgacha ta’lim muddati 3 yil davom etadi, keyin esa boshlang‘ich maktabga boriladi. Bola parvarishlash markazlariga bolani uch oylikdan joylashtirish mumkin, ammo bunday holat yaponiyaliklarda deyarli uchramaydi. Shuningdek, Yaponiyada maktabgacha ta’lim tizimining 80 foizidan ortig‘i xususiy bolalar bog‘chalari va parvarishlash markazlari hisoblanadi [6-31-b].

Germaniyada tafakkur ustaxonasi hisoblangan maktabgacha ta’lim muassalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog‘chasi xayriya jamg‘armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxonalar va tashkilotlar ham o‘z bog‘chasiga ega bo‘lishi mumkin [7].

Maktabgacha ta’lim tizimi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Germaniyada maktabgacha ta’lim tizimining quyidagicha institutlari mavjud:

1. Yasli bog‘cha (Kinderkrippe) – 2 oylikdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar qamrovini o‘z ichiga olib, gapirishni, qobiliyatlarini rivojlanishini o‘rganishadi.
2. Bolalar bog‘chasi (Kindergarten) – 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan shug‘ullanadi. Asosan ularning ko‘pchiligi xususiydir.
3. Maktabgacha sinflar (Vorklassen) - asosan 5 yoshdagi bolalar qabul qilinib, maktabga kirish uchun bolalar tayyorlanadi.

4. Maktab huzuridagi bolalar bog‘chasi (Schulkindergarten) – bunga 5 yoki yoshdan qabul qilinib, odatda maxsus maktablarga kirish uchun bolalar tayyorlandi. Shu bog‘chani muvaffaqiyatli bitirgan bolalar maxsus maktablarga imtiyozli qabul qilinadi.

Demak, mamlakat taraqqiyotining merosxorlari, vorislik rishtasining davomchilari bo‘lmish maktabgacha ta’lim tizimining inson resurslarini samarador qilib shakllantirish har bir mamlakat uchun muhim, birinchi galdagi ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Maktab yoshidagilar – inson resursi sifatida umumiy o‘rta, professional ta’lim tizimining subyektlari bo‘lib hisoblanadi. Mazkur inson resurslari qatlami jamiyatning taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Ular maktab davridanoq ilk ilmiy bilimlarni o‘zlashtirib, keyingi o‘quv tizimiga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydilar. Maktabgacha ta’lim tizimi subyektlari qanchalik muhim deb olsak, mazkur qatlam muhim ahamiyatga egadir. Chunki ular maktab davridayoq o‘zlaridagi mavjud salohiyat va inson kapitalidan unumli foydalanib xorijiy o‘quv yurtlariga grantlar yutib olishmoqda yoki xalqaro kibermakonda erkin kishi (freelancer) sifatida mustaqil daromad topmoqdalar.

Keyingi yillarda xalq ta’limi tizimi oldida turgan muamolar bartaraf etilib, salmoqli islohotlar amalga oshridi. Xususan, 2020-2021 o‘quv yilidan tajrib- sinov tariqasida 12 ta yo‘nalishda variativ o‘quv rejaları joriy etildi. Iqtidorli yoshlar uchun mutlaqo yangi turdagi 4 ta Prezident hamda 9 ta ijod maktablari tashkil etildi. Fan olimpadalarda ishtirok etib, g‘olib bo‘lgan oquvchilarga 200 baravardan 500 baravargacha bir martalik pul mukofotlari joriy etildi.

Bugunga kelib 2000 nafardan ziyod imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’lim xizmati tashkil etildi. Hozirda 5900 dan ortiq umumta’lim maktabida inklyuziv ta’lim bilan 64658 nafarga yaqin o‘quvchi qamrab olingan. 11 yillik ta’limga o‘tish munosabati bilan bo‘shab qolgan 383 ta kasb-hunar kolleji maktabga aylantirib qo‘shimcha 221 mingta o‘quvchi o‘rni yaratildi. [8-104-105] Bugunga kelib sohada raqamlashtirish ishlari ham jadal ketmoqda. Masalan, kundalik.com, erp.maktab.uz, xt.uzedu.uz, attestat.uzedu.uz platformlari yo‘lga qo‘yilib, foydalanuvchilar uchun qulayaliklar yaratilmoqda.

Yana bir e’tiborlisi shuki, O‘zbekistonda yangi professional ta’lim joriy etilib, birinchi marta har bir mutaxassisning xalqaro me’yorlarga mos malaka darajasini belgilab berishga asos bo‘ladigan hujjat — Milliy malaka tizimi qabul qilindi. Unga ko‘ra, 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etilib, mehnat bozorida o‘rta bo‘g‘in kasblari ishlab chiqidi. 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasida **Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi** [9] (keyingi o‘rinlarda – Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus

professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etildi.

Demak, samarador inson resursini shakllantirish maktabdan boshlanadi. Shunday ekan ta’lim dargohlarining munosib shart-sharitlar bilan jihozlanish, malakali pedagog-kadrlar bilan ta’minlanishi maktab o‘quvchilarni munosib va sifatli ta’lim berish mamlakatning keyingi istiqoblida muhim rol o‘ynaydi hamda mehnat bozorida ehtiyoj bo‘lgan o‘rta bo‘g‘in kasblarining ham joriy etishi bilan bog‘liq ta’limiy reforma bir tomondan ta’lim berishni, ikkinchi tomondan ularning bandligini ta’minlashda ahamiyatlidir.

Talabalar – oliy ta’lim tizimida o‘qiyotgan inson resurslaridir. Talabalar xar bir davlatning ijtimoiy jihatdan eng harakatchan, faol, faoliyati ilmiy soha bilan bog‘langanligi tufayli innovatsion, kreativ tafakkur shakliga ega qatlam xisoblanadi. Ular ilm-fan bilan bevosita shug‘ullanganliklari tufayli intellectual elitadir. Talabalar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni nazariy, amaliy jihatdan o‘rganadigan, jamiyatning yaxlit manzarasini idrok eta oladigan qatlamdir. Mazkur qatlam mamlakatning ishlab chiqarish (iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, ijtimoiy) jarayoniga tayyor kadr bo‘lib boradigan, siyosiy tizimning muhim komponentlaridan biridir.

Davlat statistika qo‘mitasi xabariga ko‘ra, 2021/22-o‘quv yili boshiga respublikadagi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalar soni 808,4 mingtani tashkil etgan [10].

Keyingi yillarda talabalar elitesini davlat tomonidan jiddiy qo‘llab-quvvatlanib kelmoqda. Xususan, oliy ta’limda tahsil oluvchilarning qamrovi oshirildi, tabaqalashtirilgan kontrakt to‘lov tizimi joriy etildi, nufuzli xorijiy ta’lim muassasalarida tahsil olish uchun mo‘ljallangan institutsional tizimi shakllantirildi (El-yurt umidi jamg‘armasi) hamda tizimning yildan-yilga raqamlashtirilib borilmoqda. Biroq, e’tirof etish kerakki, mavjud oliy ta’lim va xususiy olim ta’lim muassasalarining bitiruvchilarning mehnat resursi sifatida mehnat bozorida o‘rin egallay olmayotgani og‘ir nuqtalardan biridir. Bir tomondan, raqobatga asoslangan bozor munosabatlarida zamonaviy bilimlar, tanqiqdiy, tahliliy, kreativ tafakkurga ega bo‘lgan bitiruvchilarning aksar qismi ma’lum bir mehnat faoliyati bilan band bo‘lmoqda. Ko‘pchilik qismi esa teskari proporsianllikda gasterbayterlarga aylanmoqda. Ikkinchi tomondan, mavjud mehnat bozorida halol raqobatga asoslangan tanlov asosida ishga kirishning yangicha tizimi ya’ni o‘z salohiyati va bilimi orqali meritokratiya tamoyillari asosida ishga joylashishning o‘ziga xos tizimi ham joriy etild. Endilikda bitiruvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi byurokratik to‘siqlar, ovorgarchiliklarsiz ishga joylashish imkoniyati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatning innovatsion va raqamli rivojlanish davrida inson resurslariga har qachongidan e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Bu esa ta’limning quyi pog‘onasidan tortib, to yuqori akademik faoliyatga qadar

bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Samarador inson jamiyat taraqqiyotining muhim omili va komponenti bo‘lsa, sifatli ta’lim esa inson kapitalini yuzaga chiqarishdagi bosqich ekanligini bugungi kunning o‘z tasdiqlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘ychiyeva I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi – Toshkent, 2020. - B.12.

2. Sh.Asadov “O‘zbekistonda 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi natijalari Factbook” byulleten, T: Baktria press, 2021, 98-99-betlar

3. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida Prezidentining qarori, 30.12.2022 yildagi PQ-471-son (<https://lex.uz/docs/-6333357>)

4. Детский сад в Японии: Опыт развития детей группы. М, 2012

5. <https://galitravel.ru/doshkolnoe-obrazovanie-v-yaponii/>

6. To‘ychiyeva I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi – Toshkent, 2020.- B.31.

7. <https://www.bookyourstudy.com/ru/osobennosti-doshkolnogo-obrazovaniya-v-germanii>

8. <https://kun.uz/uz/news/2022/11/19/ozbekiston-oliy-talim-muassasalarida-talim-olayotgan-talabalar-soni-malum-qilindi>

FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASIDA INSON KAPITALINING ROLI

Rahmatullayev Sirojiddin – tadqiqitchi

Annotatsiya

Ilmiy bilimlar, tajriba, innovatsiyalar va samarali muloqotni o‘z ichiga olgan inson kapitali fan va ta’lim integratsiyasi uchun hayotiy ahamiyatga ega haqida maqolada fikr yuritilgan

Tayanch so‘zlar: Fan, ta’lim, integratsiya, inson kapitali, ilmiy bilim va tajriba, innovatsiyalar va tadqiqotlar, ilm-fan kommunikatsiyalari va jamoatchilikni jalb qilish

Аннотация

В статье утверждается, что человеческий капитал, включающий научные знания, опыт, инновации и эффективные коммуникации, жизненно важен для интеграции науки и образования.

Ключевые слова: Наука, образование, интеграция, человеческий капитал, научные знания и опыт, инновации и исследования, научная коммуникация и взаимодействие с общественностью

Annotation

The article argues that human capital, including scientific knowledge, experience, innovation and effective communication, is vital for the integration of science and education

Key words: Science, education, integration, human capital, scientific knowledge and experience, innovation and research, scientific communication and public relations

Fan va ta’lim integratsiyasi asosida ta’lim xizmatlari va mehnat bozorlarini samarali rivojlanishi oliy ta’lim xizmatlari sub’ektlari bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari tomonidan tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog‘liq. Chunki bozor munosabatlari sharoitida fan va ta’lim integratsiyasiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida innovatsiya yangiliklarini kiritish asosidagina amalga oshad. Fan va ta’lim integratsiyasiga asoslangan bozor iqtisodiyotining rivojlanishi erkin raqobatga asoslanishi va ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sub’ektlarini qanday mulkchilik shakllariga asoslanishidan qat’i nazar erkin raqobat asosida har bir mamlakatni jahon bozorida raqobatdosh bo‘lishini ta’minlash maqsadida intellektual jarayonni rivojlantirish ularning asosiy muammolariga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini intellektual darajalarini oshirishni ta’minlash uchun bozor talablariga asoslangan holda oliy ma’lumotli, malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb hisoblanadi [1].

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015- yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida “Ta’lim tarbiya sohalariga xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizini tashkil etganini va 2016- yilda bu sohani rivojlantirish uchun sarf - xarajatlar davlat byudjeti xarajatlarining 59,1 foizini tashkil etishi, shundan 33,7 foizi ta’lim tarbiya sohasi xarajatlarini tashkil qilishini”[2, 40-41-b] aytib o‘tgan edilar.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017- yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida “Ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg‘or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak”[3, 46-b] deb

ta’kidlab o‘tdi. Bundan ko‘rinib turibdiki intellektual oliy malakali mutaxassis kadrlar jahon xo‘jaligi bozorida raqobatdoshlikni ta’minlaydi. Buni eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Frantsiya, Angliya, Yevropa ittifoqi davlatlari misolida ko‘rib turibmiz.

Industrial jamiyat nazariyasining namoyondalaridan biri Dj. Gelbreyt o‘z vaqtida industrial tizim sharoitida o‘qitilgan va o‘rgatilgan kadrlar ishlab chiqarishning hal qiluvchi omiliga aylangan va u yuqori rivojlangan ta’lim tizimiga bog‘liq [4,54-b] deb hisoblangan. S. Fisher fan va ta’lim integratsiyasini ta’minlovchi asosiy inertsia inson kapitali tushunchasiga shunday ta’rif beradi : “Insonga daromad olib kelishi mumkin bo‘lgan qobiliyat inson kapitalidir. Inson kapitali tug‘ma qobiliyat, talant va shu qatorda o‘rganilgan (orttirilgan) kabi klassifikatsiyalashuvga ega”[5, 62-b]. Mazkur berilgan ta’rifga hozirgi kunda inson kapitali tushunchasining tor ma’nodagi ta’rifi sifatida qarash mumkin.

B.M.Genkin va B.G.YUdinlarning inson kapitaliga bergan ta’rifiga ko‘ra: inson kapitali – inson qobiliyatlarini tashkil etuvchi komponentlar (jismoniy salohiyat, yaratuvchanlik mahorati, bilim va ko‘nikmalar, mahorat, harakatchanlik) orqali namoyon bo‘lib, uy xo‘jaligi, korxonalar va mamlakatning daromad manbaini shakllantiradi.

Amerikalik iqtisodchi E.Denison Amerika iqtisodiyotini tubdan o‘rganib chiqdi. Denison 1929-1982 yillar oralig‘idagi Amerika iqtisodiyotini tahlil qiladi va iqtisodiyotda fan va ta’lim integratsiyasini yuqori o‘ringa qo‘yadi. Uning fikriga ko‘ra inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan xarajatlar faktori birlamchi omil emas, balki ularning natijaviy sifat ko‘rsatkichlari iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biridir. Denison izlanishlari xulosasiga ko‘ra, ishchi kuchi sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy faktor bu ta’lim tizimi hisoblanadi, ya’ni ta’lim tizimi inson kapitali shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omildir.

M.K.Meldaxanova inson kapitaliga mamlakat iqtisodiyoti barqarorligi, raqobatbardoshligi, innovatsion rivojlanishni ta’minlovchi bilim, malaka, ko‘nikmalar orqali jang‘arilgan inson resursi deb ta’rif beradi. K.S. Muxtorova va E.S. Detskovkaya tadqiqotlarida davlat siyosatining inson kapitaliga yo‘naltirilganligining mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan.

Fikrlar tahliliga ko‘ra, inson kapitali - bu iqtisodiyot va tashkilotlarni boshqarishda odamlar ega bo‘lgan va iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan to‘plangan bilim, ko‘nikma, tajriba va salohiyatni ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir. Keng ma’noda inson kapitali odamlarning iqtisodiyot va jamiyatga hissa qo‘shadigan barcha narsalarni: ularning bilimi, malakasi, salomatligi, madaniy me’yorlari va qadriyatlarini

qamrab oladi. Ushbu turdagi kapital binolar yoki jihozlar kabi moddiy emas, lekin u iqtisodiy rivojlanish va farovonlik uchun zarurdir.

Shu nuqtai nazardan, inson kapitali fan va ta’lim integratsiyasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu odamlarning ishlab chiqarish salohiyati va iqtisodiy qiymatiga hissa qo‘shadigan bilim, ko‘nikma, tajriba va malakalarni anglatadi. Fan va ta’lim integratsiyasi haqida gap ketganda, inson kapitali bir necha jihatdan harakatlantiruvchi kuch sifatida ishlaydi:

Ma’lumotli ishchi kuchi: Inson kapitali ilmiy sohalarda bilimli va malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim va ta’limga sarmoya kiritish orqali shaxslar tadqiqot, ishlanmalar va innovatsiyalarga hissa qo‘shish uchun zarur bo‘lgan tajriba va ilmiy tushunchaga ega bo‘ladilar.

Ilmiy bilim va tajriba: Inson kapitali ta’lim va ta’lim orqali odamlar egallagan ilmiy bilim va tajribani o‘z ichiga oladi. Turli ilmiy fanlar bo‘yicha maxsus bilimga ega bo‘lgan olimlar, tadqiqotchilar va o‘qituvchilar ilmiy tamoyillarni ta’lim dasturlariga integratsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ularning tajribalari dolzarb va dolzarb ilmiy mazmunni ishlab chiqish, samarali o‘qitish usullarini loyihalash va talabalarga bilimlarni uzatishni osonlashtirishga yordam beradi.

O‘quv dasturlarini ishlab chiqish: Inson kapitali ta’limning barcha darajalarida fan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy tushunchalarni chuqur tushunadigan o‘qituvchilar va mutaxassislar ilmiy yutuqlar va jamiyat ehtiyojlariga mos keladigan qiziqarli va tegishli o‘quv tajribalarini yaratishi mumkin. Ilmiy kashfiyotlar va rivojlanayotgan sohalarni o‘quv dasturiga integratsiyalash orqali inson kapitali ta’limning rivojlanayotgan ilmiy manzara bilan hamnafas bo‘lishini ta’minlaydi.

Innovatsiyalar va tadqiqotlar: Inson kapitali ilm-fan va ta’lim integratsiyasining muhim tarkibiy qismlari bo‘lgan innovatsiyalar va tadqiqotlarni faollashtiradi. Malakali tadqiqotchilar va olimlar ilmiy tushuncha, texnologiya va pedagogika sohasidagi yutuqlarni boshqaradi. Ular tadqiqot olib boradi, yangi bilimlarni ishlab chiqaradi va ilmiy tamoyillarni o‘zida mujassam etgan innovatsion ta’lim yondashuvlarini ishlab chiqadi. Akademiya va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikni rag‘batlantirish orqali inson kapitali izlanish, kashfiyot va tajriba madaniyatini rivojlantiradi.

O‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish: Inson kapitali o‘qituvchilarni fanni ta’limga samarali integratsiya qilish uchun zarur ko‘nikmalar bilan jihozlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ilm-fan yutuqlari va pedagogik texnologiyalardan xabardor bo‘lish uchun o‘qituvchilar doimiy trening va malaka oshirish imkoniyatlariga muhtoj. Bilimli o‘qituvchilar boshchiligidagi yuqori sifatli o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari

o‘qituvchilarga ilmiy tushunchalarni, so‘rovga asoslangan ta’limni va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini o‘z sinflariga kiritish imkonini beradi.

Ilm-fan kommunikatsiyalari va jamoatchilikni jalb qilish: Inson kapitali ilmiy bilimlarni keng jamoatchilikka tarqatishga ham ta'sir qiladi. Ilm-fan kommunikatorlari va kuchli muloqot qobiliyatlari va ilmiy savodxonlikka ega bo'lgan mutaxassislar ilmiy jamoatchilik va keng jamoatchilik o'rtasidagi tafovutni yo'q qiladi. Ular murakkab ilmiy tushunchalarni tushunarli tilga tarjima qiladi, qiziqarli ta'lim dasturlarini taqdim etadi va fan bilan bog'liq faoliyatni targ'ib qiladi. Jamiyatning fanga bo'lgan tushunchasi va qiziqishini oshirish orqali inson kapitali fan va ta'limning jamiyat darajasida integratsiyalashuviga hissa qo'shadi.

Siyosat va yetakchilik: Inson kapitali siyosatni shakllantirish va ilm-fan va ta'lim integratsiyasini qo'llab-quvvatlovchi yetakchilikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy printsiplarni yaxshi tushunadigan o'qituvchilar, tadqiqotchilar va siyosatchilar ilmiy ta'limga ustuvor ahamiyat beradigan dalillarga asoslangan amaliyot va siyosatni himoya qilishlari mumkin. Samarali etakchilik resurslarni taqsimlashni, o'quv dasturlarini ishlab chiqishni va fanni ta'lim tizimlariga integratsiyalashuviga yordam beradigan strategiyalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Kuchli ilmiy bilimlar bazasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bilimli shaxslar ilmiy kashfiyotlarni ilgari surish va uning ta'lim tizimlariga integratsiyalashuvini rag'batlantirish uchun zarurdir. Inson kapitali, shuningdek, samarali muloqot va ilmiy bilimlarni tarqatishni osonlashtiradi. Ajoyib muloqot va o'qitish qobiliyatiga ega bo'lgan olimlar va o'qituvchilar ilmiy tadqiqotlar va ta'lim amaliyotlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishlari, murakkab ilmiy tushunchalarni talabalar va keng jamoatchilik uchun tushunarli mazmunga aylantirishlari mumkin.

Sifatli ta'lim va kadrlar tayyorlash dasturlariga sarmoya kiritish orqali jamiyatlar fan va ta'lim integratsiyasiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan iqtidorli olimlar, tadqiqotchilar va pedagoglar zaxirasini tarbiyalashi mumkin. Bu malakali shaxslar o'quv dasturlarini shakllantirish, samarali o'qitish usullarini ishlab chiqish va talabalarda ilmiy tafakkurni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, inson kapitali ilmiy izlanishlar uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beradigan ta'lim tizimlari odamlarga ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash, o'rnatilgan nazariyalarni shubha ostiga qo'yish va real muammolarga innovatsion echimlarni taklif qilish imkonini beradi.

Fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan siyosat yuritgan mamlakatda aholi hayoti turmush sifati va darajasi yaxshilanadi deb

hisoblanadi. Jahonda fan va ta’lim integratsiyasini ta’minlashga doir keyingi 30-40 yillar ichida ularning rivojlanishini moliyalashtirishning bir necha modellari tashkil topdi. Shulardan fan va ta’lim integratsiyasi tizimini birinchi moliyalashtirish modeli neoliberalizm modeli bo‘lib, u M.Fidlin, F.Chaba va F.Xask tomonidan o‘rganilgan bu modelga asosan AQSH, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika mamlakatlarida qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ilmiy bilimlar, tajriba, innovatsiyalar va samarali muloqotni o‘z ichiga olgan inson kapitali fan va ta’lim integratsiyasi uchun hayotiy ahamiyatga ega. Malakali shaxslar, jumladan, olimlar, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar, kommunikatorlar va siyosatchilar tegishli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, tadqiqot o‘tkazish, o‘qituvchilarni tayyorlash, ilmiy tushunchalarni etkazish va etakchilikni ta’minlash uchun o‘z tajribalarini qo‘shadilar. Inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritish orqali jamiyatlar ilm-fan va ta’limning kuchli va samarali integratsiyalashuvini ta’minlashi mumkin, bu esa xabardor fuqarolar va ilmiy savodli ishchi kuchiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017, № 22, www.iqtisodiyot.uz.
2. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-iqtisodiyotimizda olib borilayotgan islohotlarni va tarkibiy o‘zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berishdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 40-41 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.46.
4. Antoshkina L.I. Vissheye obrazovaniye v sisteme obshestvennix interesov /monografiya/ L.I.Antoshkina – Donetsk: OOO «Yugo-vostok», LTD 2008. – B.54.
5. Fisher I.The Nature off Capital and Income. – L.,1927. – B.62

O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI

Xaydarov Sherzodbek Xomidovich – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasida faol sanalgan shakl, metod va vositalariga alohida

e’tibor qaratgan holda, ularning amaliy jarayonlarda tutgan o‘rni va hamiyati haqida fikr-mulohaza yuritadi.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, ijodkorlik, ijodkorlik qobiliyati, ta’lim, muammoli ta’lim, abstrakt-deduktiv metodi, Innovatsion metodlar, ilg‘or texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется формам, методам и средствам, действующим в развитии творческих способностей учащихся, а также комментируется их роль и значение в практических процессах.

Ключевые слова: студент, креативность, творческая способность, образование, проблемное обучение, абстрактно-дедуктивный метод, инновационные методы, передовые технологии.

Abstract. This article focuses on the forms, methods and tools that are active in the development of students' creative abilities, and comments on their role and importance in practical processes.

Keywords: student, creativity, creative ability, education, problem-based education, abstract-deductive method, innovative methods, advanced technologies.

Ijodkorlik o‘rganishning muhim jihati hisoblanadi. Ijodkorlik tufayli o‘quvchi o‘rganishga ijobiy munosabatda bo‘ladi va uning o‘rganishi yanada qiziqarli bo‘ladi. Ijodkorlik sabab o‘quvchi passiv ma’lumotni mahsulotga aylantirish orqali faollashtiradi. Yoshlikdan egallangan ijodkorlik tufayli insonlar kundalik hayotidagi muammolarni osonlikcha hal qila oladilar va balog‘at yoshida samaraliroq harakat etuvchi darajasida bo‘lishadi. Bu ta’limning asosiy maqsadlaridan biri: o‘quvchilarni kelajak hayoti uchun yaxshi jihozlash va ularni samarali fuqarolar qilib tarbiyalash. Shu sababli, ayni vaqtda respublika o‘quvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi, bu borada faol qo‘llaniladigan shakl, metov da vositalar hamda ularning ahamiyatiga e’tibor berilmoqda.

Ijodkorlik nima?

O‘quvchilarga samarali fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Suqrot dan to hozirgi kungacha ta’lim sohasida bst o‘zgarishlar ro‘y bergan bo‘lsa-da, o‘quvchilarga fikrlash qobiliyatini berishga intilish har doim ta’limning o‘zagidan joy olgan. Ijodkorlik oddiy ta’rifga ega bo‘lgan tushuncha emas.

Ijodkorlik — bu shaxsning asl mahsulot yoki yechim bstrac istagi. Istak va tasavvur hissi ijodkorlikning asosiy so‘zlaridir. Sternberg va Lubart (1998) fikrlariga ko‘ra, faqat ijodkorlik uchun o‘ziga xoslik yetarli emas. Torrance (1988) esa ijodkorlikni quyidagicha ta’riflagan: «Qiyinchiliklar, muammolar, ma’lumotlardagi bo‘shliqlar, yetishmayotgan elementlar, qandaydir qiyshiq

narsalarni sezish jarayoni: bu kamchiliklar haqida taxmin qilish va gipotezalarni shakllantirish; bu taxmin va gipotezalarni baholash va tekshirish; ehtimol ularni qayta ko‘rib chiqish va qayta sinovdan o‘tkazish va nihoyat natijalarni e‘lon qilish».

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda maktabdagi har bir ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarni hayotda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lishga tayyorlashni maqsad qilgan va XXI asr ko‘nikmalari bilan ta’minlovchi yangi vazifani bajaradi. O‘quvchilarning ijodkoqlik qobiliyatlarini rivojlantirish va bunda foydalaniladigan metod va vositalar mavzusi ham bundan mustasno emasdir.

O‘quvchilarning ijodkoqlik qobiliyatlarini rivojlantirish va bunda foydalaniladigan metod va vositalardan o‘quvchilarning turli sharoitlarga moslashish, jamiyatni hurmat qilish, g‘oyalarga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish bshtract ual qobiliyatlarini rivojlantirishi ham kutiladi. Ma’lumki, XXI asrdagi muhim ko‘nikmalar o‘quv faoliyatida kuchaytirilishi kerak bo‘lgan maxsus ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi, ya’ni tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlar, muammolarni hal qilish, metabillash, muloqot qobiliyatlari, hamkorlik, innovatsiyalar, ijodkorlik va axborot savodxonligi kabi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlaridir.

Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha o‘quvchilarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o‘quvchilarni aniqlash, ularga bundan bstra rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim.

TADQIQOT NATIJALARI

Hozirgi davrda o‘quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog‘liq bo‘lgan evristik va muammoli ta’lim o‘quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda. V. Karimova o‘z tadqiqotlarida ilmiy faoliyatni ushbu uch turi amalga oshirilganda shaxsning unga mos bo‘lgan sifatleri :

O‘quvchilar tomonidan tashqi olamni kuzatish jarayonida zarur bo‘ladigan sifatleri;

O‘quvchilar uchun faoliyatning ijodiy mahsulini yaratish sharoitlarini ta’minlovchi ijodiy faoliyat sifatleri;

O‘quvchilar bilish faoliyatini tashkil etganda uning oldingi ikki holatda-bilish va ijod holatida ko‘rinadigan sifatleri namoyon bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi.

Yuqorida sanalganlarni e‘tibordan chetda qoldirmagan holda, o‘quvchilarning ijodiy faolliklarini shakllantirishda bshtract-deduktiv metodidan foydalanish samaraga qaratiladi deyish mumkin. Negaki, bunda o‘rganiladigan tushuncha uchun ta’rif tayyor ko‘rinishda oldindan konkret misol v masalalar yordamida tushuntirilmasdan kiritiladi.

MUHOKAMA

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish mumkinligi dasturlarda belgilangan. Ammo ayrim holatlarda umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi tadqiqot doirasidagi mavjud ahvol o‘rganilganda, maktab o‘qituvchilari har doim ham mazkur metodlardan to‘laqonli foydalanmayotganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Ilg‘or o‘qituvchilar o‘zlarining o‘quv-uslubiy ishlarida zamonaviy metodlar orqali o‘quvchilarda ijodiy faollikni, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga harakat qilishadi, biroq ularning harakatlarida har doim ham yetarlicha o‘quvchi shaxsini ijtimoiylashtirishga, unda erkin fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga, qo‘yilgan masala yechimini ijodiy topishga undash motivi kuzatilmaydi.

O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan an’anaviy hamda zamonaviy shakl, metod va vositalar bilish metodlari bilan qiyoslanganda o‘ziga xos xususiyat namoyon bo‘ladi. Bu shundan iboratki, o‘qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarini ijodiy o‘zlashtirish vazifasi hal qilinadi. O‘qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiy bilishga xarakterli bo‘lgan sinab ko‘rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan ancha «yengillashtirilgan» sharoitlar mavjuddir.

Muammoli ta’lim orqali o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish

O‘qitishda muammoli ta’limdan foydalanish ham o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda va ijodiy faoliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O‘quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o‘quvchilarni ijodiy fikr «laboratoriyasi»ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir.

XULOSA

O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi hamisha ahamiyatli bo‘lgani singari bu jarayonlarda foydalaniladigan shakl, metod va vositalar ham doimiy ravishda o‘z ahamiyatiga egadir.

Maktab bosqichidagi ta’lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, joiz bo‘lsa, mazkur jarayonlarda ilk bilim olish davrlaridayoq o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy faoliyatni yanada takomillashtirish lozimligi bugungi kunning kun tartibidagi muammo bo‘lishi darkor. Zero, ilk bilim olish davrlarida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini takomillashtirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish, ta’limni samarali tashkil etishda darslarni noan’anaviy tarzda o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish,

bugungi ta’lim tizimlarida faol bo‘lgan eng ilg‘or shakl, metod va vositalarga murojaat etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni yanada takomil etish ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bartscher, Lawler, Ramirez va Schinault, 2001; Lubart & Sternberg, 1998.
2. Boltayeva SH. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta’limi, 2004, № 3.-34-34 betlar.
3. Boltayeva SH. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish. //Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari. / Ilmiy ishlar to‘plami.- Toshkent: Fan, 2006.-B.142-144.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi. T., O‘zbekiston 30 bet.
5. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (<https://zienjournals.com>)

ZAMONAVIY TA’LIMDA AYOLLARNING TUTGAN O‘RNI

Ergasheva Maxsuda Pulatovna – Jizzax DPU Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi kafedrasida dotsenti, sots.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ta’limni rivojlantirishda xotin-qizlarning bunyodkorlik vazifalari, davlat tomonidan ularga ko‘rsatilayotgan e’tibor, yaratilayotgan imkoniyatlar, yangi jamiyatda xotin-qizlar faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari masalalari atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, xotin-qizlar, farzand tarbiyasi, zamonaviy bilim, strategiya, daxldorlik, mas’uliyat, faollik, demokratik qadriyat

Аннотация

В данной статье подробно анализируются творческие задачи женщин в развитии современного образования, внимание, уделяемое им государством, создаваемые возможности, приоритетные направления деятельности женщин в новом обществе.

Ключевые слова: образование, женщины, воспитание детей, современные знания, стратегия, актуальность, ответственность, активность, демократическая ценность.

Annotation

In this article, the creative tasks of women in the development of modern education, the attention paid to them by the state, the opportunities created, and the priority directions of women's activities in the new society are thoroughly analyzed.

Keywords: education, women, child rearing, modern knowledge, strategy, relevance, responsibility, activity, democratic value

Ma'lumki, o'z taraqqiyotidan umidvor bo'lgan har qanday mamlakat yoshlar tarbiyasi va ularning kamolotini o'ylamasdan, bunday ulug' ishlarni amalga oshirmasdan o'z oldiga qo'ygan ulug' maqsadlariga erisha olmaydi. Chunki, taraqqiyot sari intilmagan, yosh avlodni buyuk yo'llar sari yetaklamagan millat oxir-oqibat xorlik va zorlikka, tubanlikka yuz tutishi tabiiydir. Bu borada esa yoshlarning tarbiyaviy va ma'naviy hayotini yuksaltirmoq uchun ota-onalardan ko'p va xo'p mas'uliyat talab etiladi. Farzand tarbiyasi taraqqiyotning eng muhim omili bo'lib, unda ayollarning o'rni va roli nihoyatda beqiyosdir. Ayniqsa, ma'naviyati boy, salohiyati yuksak, ongu-tafakkuri rivoj topgan, ziyoli, oqila ayollar jamiyatning tayanchi va kelajagini ta'minlaydigan yoshlarni tarbiyalashdagi faoliyatini yuksak baholamoq lozim bo'ladi.

O'tgan asrning boshlarida yashab ijod etgan ulug' mashhur jadid namoyondasi Abdulla Avloniyning ta'biri bilan aytganda, “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”, shuningdek, “...tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, ahloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? – degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi – uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”, deb javob bersak, bir kishi deyurki, “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qo'li to'qmoq onalarmi? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar”, der. Mana, bu so'z kishini yuragini ezar, bag'rini yondirur”[2]. Shu nuqtai-nazardan ham avvalo, davlat va jamiyat hayotida xotin-qizlarning har jabhada faolligini oshirish qanchalik muhim bo'lsa, ularning bu boradagi madaniyatini oshirish, ma'naviy va ilmiy salohiyatini yuksaltirish, ular ruhiyatidan mutelik va qaramlik, boqimandalik kayfiyatini yo'qotish masalalari o'z dolzarbligini hanuzgacha yo'qotmayapti. Sababi, tarbiya masalasi, ayniqsa, bugungi kunda ma'naviyati past bo'lgan xotin-qizlar tomonidan ko'plab jinoyatlarga qo'l urilayotganligi, sodir etilayotgan jinoyatlarning jamiyat va kelajak avlod uchun ijtimoiy oqibatlarini, oilalarning parokandalikka uchrashi, yosh avlodning axloqsizlashuviga sabab bo'layotganligi va hokazo muammolar xotin-qizlar faolligi jarayonlarida

ma’naviy va tarbiyaviy omilning ahamiyatini yanada oshiradi hamda bu boradagi ishlarni jadallashtirish vazifalarini o‘rtaga qo‘yadi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy sohalarda keng mehnat qilayotganligining o‘zi ham demokratik qadriyatlarga sodiqligini isbotlab turibdi. Umuman olganda, xotin-qizlarning ijtimoiy qiyofasini shakllantiradigan va unga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri ta’lim olish huquqidir. Aynan ta’lim olish va zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish huquqi va imkoniyatlari tufayli mamlakatimizda xotin-qizlar o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirishga, zamon bilan hamnafas tarzda bugungi kunning erkin va ozod fuqarosi, biror bir kasbni egallagan professional xodim, rahbar ayol, siyosatchi yoki tadbirkor sifatida o‘zini namoyon qilishga erisha olganligini alohida qayd etish lozim. Aynan ta’lim olish xotin-qizlarni asrlar davomidagi ilmsizlik, johillikning qurboni bo‘lishdan ozod qila oldi, ularni jamiyat taraqqiyotining teng huquqli va uni harakatga keltiruvchi kuch sifatida shakllanishiga imkon yaratdi. Davlatimiz rahbarining Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida donishmandlarning “Bitta qiz bolani o‘qitsangiz- butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz”, degan dono gapini tilga olib, ularni zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga o‘qitish orqali jamiyatda va oilasida munosib o‘rnini topishi uchun boshlangan ishlar bundan keyin ham izchil davom ettirilishini alohida ta’kidlagan edi. Albatta, davlatimiz tomonidan zamonaviy, sifatli ta’lim olish borasida xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlar demokratik qadriyat hisoblangan ta’lim olishning muqaddas omil ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

2023-yil 10-fevral kuni BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish bayonot berib, ilm-fan sohasida xotin-qizlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, bundan ilm-fan shunchalik ko‘p yutishini ta’kidladi. Bosh kotibning so‘zlariga ko‘ra, “Ayollar va qizlar ilmiy tadqiqot faoliyatiga xilma-xillik olib kiradi, ilm-fan asosiy kasbi bo‘lgan fidoyilar safini kengaytiradi va ilmiy-texnikaviy sohani yangicha qarashlar hisobiga boyitadi”[3]. Zero, yurtimizda bugungi kunda xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga jalb qilish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Shu bois, xotin-qizlar ilm-fan taraqqiyotining barcha sohaları rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Ayniqsa, bu borada 2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturi qabul qilinganini alohida ta’kidlash joiz. Shunga asosan, xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta’limda o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullarini to‘lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish, davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari to‘liq davlat byudjetidan qoplab berilishi tartibi joriy qilindi.

Shuningdek, endilikda xorijiy oliy ta’lim muassasalariga bakalavriat uchun -50 nafar, magistratura uchun - 10 nafar xotin-qizlarga har o‘quv yilida

“El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali qo‘shimcha grantlar ajratiladi. Qolaversa, har yili 2100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba xotin-qizlarning ta’lim kontraktlari mahalliy byudjetdan to‘lab berilishi, yosh farzandi bor talaba qizlarga masofaviy o‘qishga sharoit yaratish, doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun 300 tadan maqsadli kvota ajratilishi ham belgilandi [4].

Bugungi kunda respublikamizda 6 nafar akademik, 700 nafardan ziyod fan doktori, 4780 nafar fan nomzodi, 200 nafardan ortiq falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo‘lgan olim ayollar fan tarmoqlarining turli sohalarida ilmiy faoliyat olib bormoqda. Dunyoning nufuzli anjumanlarida o‘zbek olimalari o‘zlarining yuksak bilimlarini namoyon etib, salohiyati tilga tushmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani, uning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati va g‘amxo‘rligi bilan belgilanadi[1]. Shuning uchun ham, demokratik qadriyatlardan yana biri sifatida inson huquqlari ham bugungi kun xotin-qizlariga avvalo, insonning oliy qadriyat ekanligini anglashga, o‘zligini tushunib yetishga, o‘zining va birovlarining umri, hayoti va yashashining daxlsiz ekanligi bilishga imkon yaratdi. Mamlakatimizda inson huquqlarining amal qilinishi va ularning keng targ‘ib qilinishi xotin-qizlarda ushbu ne’matdan bahramand bo‘lish, uni boshqa sohalarga ham tatbiq qilish singari imkoniyatlarni taqdim qildi. Inson huquqlarining demokratik qadriyat sifatida ahamiyati yana shundan ham iboratki, xotin-qizlar o‘zlarini jamiyatning ikkinchi qismi ekanligini, davlat hayotida yaratiladigan barcha imkoniyatlar erkaklar bilan bir qatorda ayollar uchun ham yaratilishi lozimligini, o‘zlarini davlat hayotining va qarorlar qabul qilinishining muhim ishtirokchisi sifatida tushunishlariga imkon yaratdi. O‘zbekistonda bu borada ko‘plab ishlar qilinganligini ta’kidlagan holda, aytish lozimki, mamlakatimizning Konstitutsiyasida avvalo, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining tili, dini, irqi, jinsi va millatidan qat’iy nazar teng huquqli ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsa, mamlakatda istiqloq yillaridan yaratilgan ko‘plab qonunlarda ushbu masalalar yanada rivojlantirildi. Muhim tashabbuslardan yana biri — xotin-qizlar huquqlarini hamda tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohalaridagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazoratni o‘rnatish maqsadida Bosh prokuraturada alohida boshqarma tashkil etildi.

Bugungi kunda xotin-qizlar bilan tizimli ishlash, ularni rahbarlikka tayyorlash maqsadida ta’lim muassasalarida iqtidorli qizlar zaxirasi yaratildi. Oxirgi uch yilda iqtidorli talabalarga beriladigan Prezident davlat stipendiyasi va boshqa maxsus stipendiyalarning 48 foizi xotin-qizlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlar jami talabalar soniga nisbatan 50 foizni tashkil etmoqda. Magistratura bosqichida o‘qishini davom ettirgan, oliy ta’lim tizimida ilmiy-tadqiqot ishlari

bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Jumladan, ularning 3000 nafardan ortiq fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish bo‘yicha ilmiy faoliyat olib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun zamonaviy, sifatli ta’limini rivojlantirish erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlardan ham yuksak mas’uliyat talab etadi. Shu bois, davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, xotin-qizlar zamonaviy faol ayol imijini o‘zida shakllantirishi, xorijiy tillarni mukammal egallab borishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olishi, barcha sohalarda olib borilayotgan isloxlarga daxldorlik hissini oshirib borishi, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim innovatsion g‘oyalarni targ‘ib qila olish qobiliyatlarini rivojlantirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон хотин-қизларига табриги” // Халқ сўзи 2022 йил 8 март.
2. Авлоний Абдулла. Танланган асарлар: 2 жилдлик, 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар,набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари//Таҳрир хайъати: О.Шарафиддинов ва бошқ.; Тўпловчи: Б.Қосимов; Изоҳлар ва луғатни О.Тўлабоев тузган//. – Т.: “Маънавият”, 1998. – 36-37 бетлар.
3. Антониу Гутерриш. «11 февраль – Илм-фан соҳасидаги хотин-қизлар халқаро куни» эълон қилиниши муносабати билан берилган баёноти. 2023 йил 10 февраль.
4. Маҳкамова З. Мустаҳкам оила, фаол хотин-қизлар жамият фаровонлигини белгилайди.// Янги Ўзбекистон газетаси. 2022 йил 14 март.
5. Холбеков А., Назарқосимов С., Бердиев Б., Эргашева М. Ўзбекистонда ижтимоий ҳаёт трансформацияси./ Монография. Тошкент. “Ozbekiston savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”, 2021. – Б.162-240.

KREATIV SALOHİYATNI OCHISH VA RIVOJLANTIRISHNING TAHLILI

Xudoynazarova Madina Fayzulla qizi – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kreativ pedagogikaning ijtimoiy fanlar tizimi va ta’lim amaliyotidagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek, uzluksiz ta’lim jarayonida shaxsni o‘qitishning ijodiy yo‘nalishini amalga oshirishning pedagogik shartlari to‘g‘risida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar, ijodiy salohiyat, pedagogik kreativlik, o‘qituvchining kreativ salohiyati, kreativ salohiyatning tarkibiy asoslari va tamoyillari, o‘qituvchining kreativ salohiyatini belgilovchi mezonlar.

Аннотация: В статье оценивается роль и значение творческой педагогики в системе гуманитарных наук и образовательной практики; а также представления о педагогических условиях реализации творческой направленности обучения личности в процессе непрерывного образования и о творческих способностях, которые формируются у педагогов.

Ключевые слова: креативность, развитие креативности, факторы препятствующие развитию креативности, креативный потенциал, педагогическая креативность, креативный потенциал педагога, структурные основы и принципы креативного потенциала, критерии определяющие креативный потенциал педагога.

Abstract: The article evaluates the role and importance of creative pedagogy in the system of humanities and educational practice; as well as ideas about the pedagogical conditions for the implementation of the creative orientation of personality training in the process of continuing education and about the creative abilities that are formed by teachers.

Key words: creativity, development of creativity, factors hindering the development of creativity, creative potential, pedagogical creativity, creative potential of a teacher, structural foundations and principles of creative potential, criteria determining the creative potential of a teacher.

Вugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar shuni taqozo qilmoqda.

Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e’tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak, zamonaviy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi va bu esa pedagogikaning yangi innavotsion yo‘nalishi ya’ni kreativ pedagogikaga murojaat qilishga imkoniyat yaratadi.

Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta’lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o‘qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko‘rib chiqiladi.

Doimiy o‘zgarib turadigan tashqi va ichki dunyo, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faoliyat mazmuniga mos keladigan kreativ shaxsning shakllanishi

va rivojlanishi inson ontogenezing butun davri - tug‘ilishdan to umrining oxirigacha davomiylik, uzluksizlik va qamrab olishni talab qiladi. Mahalliy pedagogikada shaxsning kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida uning kasbiy va ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar deyarli yo‘q. An’anaviy professional tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning birlashuvi sifatida aniqlanadi. Bu faoliyatni o‘zlashtirish jarayonida tajribaning shakllanishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishini anglatadi. Ijodiy faoliyat tajribasini o‘rganish masalasi umuman ko‘tarilmaydi.

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo‘lgan, lekin mavjud tarbiya, ta’lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta’sirida ko‘pchilik tomonidan yo‘qolgan ijodiy yo‘nalishdir.

Kreativlik qobiliyati “Xudoning in’omi” va shuning uchun kreativlikni o‘rgatish mumkin emas degan ancha keng tarqalgan fikrdan farqli o‘laroq, M.M. Zinovkina boshqacha yondasuvga ishora qiladi. Texnologiya va ixtirolar tarixini o‘rganish, atoqli olim va ixtirochilarning ijodiy hayoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasi yuqori (o‘z davri uchun) fundamental bilimlar bilan bir qatorda maxsus bilimlar ombori yoki algoritmik fikrlash, shuningdek, ma’lum bilimlar, shu jumladan evristik usullar va texnikalarga ega bo‘lishgan [4].

Lotinchada “kreativlik” tushunchasi quyidagicha. “Creatio” – “yaratish”, “ijodkor” – “yaratuvchi”, degan ma’nolarni anlatadi, lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatining namoyon bo‘lishidir.

Ijodkor shaxslar - bu rassomlar, haykaltaroshlar, yozuvchilar, shoirlar, fotosuratchilar - turli xil ijod turlarida o‘z qobiliyatlarini amalga oshiradigan odamlar. Ijodkorlik, qoida tariqasida, ishbilarmonlarga xos xususiyatdir: dizaynerlar, reklama beruvchilar, marketologlar, brend-menejerlar va boshqalar.

Kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o‘zlashtirish, uni samarali amalga oshirish nafaqat ko‘nikma va ko‘nikmalarni rivojlantirish va integratsiyalashuvini, kasbiy ishni bajarishning individual uslublari va usullarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o‘zlashtirishni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni va o‘z ichiga oladi. Ijodiy shaxsning shakllanishini amalga oshirilgan ijodiy faoliyatga va olingan ijodiy natijalarga mos keladigan shaxsning shakllanishi va rivojlanishi deb ta’riflash mumkin. Bu jarayonning sur’ati va traektoriyasi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning o‘z faoliyati va ijodiy fazilatlarini, shuningdek, sharoitlar, hayotiy voqealar va kasbiy jihatdan aniqlangan omillar bilan belgilanadi. Ijodkor shaxsni shakllantirish va ijodiy ta’lim o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjuddir.

Asosiy qism. Ijod madaniyat singari, inson hayotiga, demak, ta’lim tizimiga ham kirib borishi kerak. Binobarin, ijodiy pedagogikaning ijtimoiy

fanlari tizimida ya’ni pedagogikaning yangi tarmog‘i sifatida rivojlanishi uchun qator shart-sharoitlar mavjud.

Kreativ pedagogika – bu ijodiy ta’lim fani va san’atidir. Bu pedagogikaning majburlash pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi, tanqidiy pedagogika kabi pedagogika turlariga qarama-qarshi bo‘lgan pedagogikaning bir turi hisoblanadi. Kreativ pedagogika o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, kelajagini yaratuvchisi bo‘lishga o‘rgatadi.

Kreativ pedagogika, har qanday fanga, xoh matematika, xoh fizika, xoh tillar, xoh iqtisod bo‘lsin, qo‘llanilish mumkin bo‘lgan pedagogikadir. Ma’lum darajada aytish mumkinki, uning metodologiyasi o‘qitish va o‘rganish jarayonini o‘zgartiradi.

Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi; Shuningdek shaxsda stenik tuyg‘ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g‘ururlanish, biror narsa o‘ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyasizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo‘ladi.

Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta’minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinasiyasi zarur deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday kombinasiyasi natijasi ongning ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o‘ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi[3].

Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini oshirishga yordam beradigan o‘qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ushbu texnologiyalar shaxsning o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantirishga, o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni oshirishga va voqelik bilan adekvat aloqada bo‘lishga to‘sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklarni rivojlanishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi faoliyatining ustuvor yo‘nalishi. muloqotning dialogik usullariga, yechimni birgalikda izlashga va turli ijodiy faoliyatga beriladi. Bularning barchasi o‘qitishning interfaol usullarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Interfaol ta’lim jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli ma’lumotlarni tahlil qilish asosida murakkab masalalarni yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta o‘ylangan qarorlar qabul qilishni, muhokamalarda qatnashishni o‘rganadilar. Buning uchun darslar

juftlik va guruh usullari asosida tashkil etiladi, ilmiy-tadqiqot loyihalari, rolli o‘yinlar qo‘llaniladi.[1]

Kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijalari bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat

1. Muammoli tamoyili.

Muammoli tamoyilidan foydalanish pedagogik faoliyat uchun yangilik emas. Kreativlikning mohiyati muammoli xarakterga ega bo‘lib, u muammoning nostandart yechimini topishdan iborat. Pedagogik amaliyotda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini muammolilik tamoyiliga muvofiq rivojlantirish ijodiy muammoli vazifalarda namoyon bo‘ladi, masalan, “Gipotezani ilgari suring va uni sinab ko‘rish rejasini tuzing ...”, “Dastlabki natijani baholash ...”, “O‘quv materialini boshqacha taqdim eting ...” va hokazo[2].

2. Ijodiy yo‘nalish tamoyili.

Bu tamoyil nafaqat reproduktiv, balki ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Kreativlikni rivojlantirish faqat maqsadli xarakterga ega bo‘lmasligi kerak, ya’niki erishilayotgan natija amaliyot so‘ngida natijaga erishish degan fikrdan yiroq bo‘lishi lozim. Bu holatda talaba topshiriqlarni tez va hech qanday hissiyotlarsiz bajarishlari kerak. Agar kreativlikning rivojlanishi bosqichli xususiyatga ega bo‘lib, har bir vazifa yoki faoliyat turi sinovning keyingi bosqichi sifatida qaralmasdan, balki o‘z-o‘zini sinab ko‘rish, o‘zini o‘zi anglash va qiziqarli faoliyat uchun imkoniyat sifatida yo‘naltirilgan bo‘lsa, u holda bajarilayotgan ish yuqori sifatli va o‘rganilayotgan konsepsiya ko‘rsatkichlari o‘shish darajasida bo‘ladi.

3. Butunlilik va izchillik tamoyili.

Bu tamoyil ijodkorlikni rivojlantirish dasturi tuzilmasi yaxlitlilik, izchillik, to‘liqlilikni talab qiladi. Faqat shu holatda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun vosita va usullarni tanlashning maqsadga muvofiqligi haqida gapirish mumkin. Kreativlikni bo‘lajak o‘qituvchining yaxlit qiyofasiga hamroh bo‘ladigan sifatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash lozim.

4. Individuallashtirish tamoyili.

Ushbu tamoyilning asosiy jihati har bir talabaning individual tarbiyaviy ish uslubini, uning shaxsiy rivojlanishining o‘ziga xos trayektoriyasini va ruhiy jarayonlarning ishlash xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Shunda dasturning har bir ishtirokchisining individual natijasi, shaxsiy xususiyatlar sifatida kreativlikning shakllanish darajasiga mos keladigan ijodiy yutug‘i bo‘ladi[8].

Kreativlikning rivojlantirishning bosh maqsadi bu o‘quvchilarning aqliy faoliyati va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat.

Shuningdek kreativlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga ham yordam beradi:

1. Talabalarni turli yo‘nalishlarda fikrlashga o‘rgatish;
2. Nostandart vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishni o‘rgatish;
3. Aqliy faoliyatning o‘ziga xosligini rivojlantirish.
4. Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishga o‘rgatish;
5. Tez o‘zgaruvchan dunyoda yanada samarali hayot va moslashish uchun zarur bo‘lgan fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish.

Xulosa: Demak, kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari sinfda maqsadli ravishda yaratilgan ijodiy tarbiyaviy muhitga bog‘liq bo‘lishi mumkin; o‘qituvchining ijodiy xulq-atvori namunasining mavjudligi va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ifodalovchi sifatida o‘qituvchining shaxsiyati; talabalar va o‘qituvchilarning birgalikda yaratilishi; ijodiy faoliyatdagi sub’ektiv o‘rni; ijodiy muhitni saqlash va muvaffaqiyat holatlarini yaratish. Talabalar ijodining eng samarali rivojlanishi ijodiy ta’limning uzluksiz tizimi sharoitida maqsadli, har tomonlama pedagogik ta’sir ko‘rsatish orqali ta’minlanadi. Bu va boshqa masalalarni ishlab chiqish bilan fundamental amaliy pedagogika sohasi sifatida kreativ pedagogika shug‘ullanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Torrance E.R. Creativity and futurism in education: Retooling Education 1980. Vol 100 P
2. Vygotsky L. S. Selected psychological studies. M., 1956.
3. Ermolaeva-Tomina L. B. The study of factors determining individual differences in the manifestation of creative activity // Psychology of creativity. M., 1990. pp. 117-130.
4. Zinovkina M. M. NFTM-TRIZ: Creative education of the XXI century (Theory and practice): Monograph. M., 2007.
5. Barnokhon R., Bakhtiyor P. The formation of creative thinking in teaching physics //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. ICIPPS. – C. 5-5.
6. Ruzimatova Barnokhon, Polvonov Bakhtiyor. “Development of students ' creativity in the course of studying general physics at technical universities.” “Scientific-technical journal: Vol. 2 : Iss. 2 , Article 4.

USE OF COLOR DESIGNATION COMPONENT TO REFLECT SELF-CONSCIOUSNESS

Zokirova Mahmuda Ravshan qizi – The English Language Methodist Jizzakh Regional Pedagogical Skill Center

Annotation

Color symbolism, as analyzed, has a long history, with ancient myths, folk legends, and fairy tales reflecting the importance people place on understanding the language of colors in the article. The meanings of colors in English languages have similarities, aiding comprehension. Learning English as a second language aims to become a true native speaker, and native English speech is colored with various hues. Phraseological units, a type of figurative language, significantly add vocabulary and cultural understanding, as their meanings are figurative rather than literal.

In order fully to appreciate the color picture, a "color consciousness" must be adopted. Colors fall into the "warm" and "cool" groups, and each color and shade has its psychological implications: red danger, blood, life, heat; green-nature, outdoors, freedom, freshness; etc. To build up personalities and to harmonize emotions and situations, these principles must apply, even to the extent of "color juxtaposition," or the psychological relation of the various colors to each other. For example, of two adjacent or contiguous colors, each tends to "throw" the other toward its complement, considerably affecting the emphasis or import of the color.

Keywords: color, color symbolism, colored expressions, black, red, grey, green, blue, brown, purple, pink, happiness, stimulation, elegance.

The human soul is affected by color in numerous ways; it can be inspired or oppressed, and it can generate feelings of warmth or chill. There is a long history of color symbolism. Folklore, fairy tales, and old mythologies all attest to the importance people have always placed on deciphering the - language of colors. The comprehension of colors is aided by the commonalities in meanings across English languages.

The goal of learning English as a second language is to become a true native speaker. Many English language learners and English-speaking students attempting to learn a foreign language have similar sentiments. One may notice that native English speech is colored with every hue in the rainbow when listening to it. The key to speaking English naturally is knowing when and how to utilize figurative language. Phraseological units are one kind of figurative language that significantly adds to vocabulary and cultural understanding. Their

meaning is figurative rather than literal, and it is not the sum of the meanings of the words that are part of the phraseological units.

While color conveys vital information on its own, it also takes on greater significance and symbolism when it is included into language units, especially stable ones. The purpose of this study is to examine English phraseological units that have a color designation component from a semantic analysis standpoint and ascertain their overall position within the phraseological fund. Throughout this paper, the following assignments are assigned:

- a) to explore the theoretical basis of phraseology;
- b) to identify the features of phraseological units containing in their composition color designation components and to perform semantic analysis of them.
- c) the most important criterion for the selection of works is their assignment to different genres, which helped us make the most accurate conclusion about the frequency of the use of —colored expressions in English literature.

Black. There are nine phraseological units in Arthur Conan Doyle's novel "The Sign of Four" that contain the term "black." The phraseological unit "black" appears five times in the novel "Teacher." There are just two phraseological units in the comedy "Three in a boat, not counting a dog" that have the classification "black." Black represents evil, grief, and misery.

Red. There are many different ways to interpret the color "red." The term "red" occurs four times in the detective story "Sign of Four," three times in the comedy "Three Men in a Boat (To Say Nothing of the Dog)", and twice in the novel "The Teacher." The detective story "The Sign of Four" uses phraseological units to denote feelings and emotions, such as "roars himself red in the face" and "it was a red light"; the novel "Three Men in a Boat (To Say Nothing of the Dog)" uses them to describe laughter until the characters' ears are red; and the novel "The Teacher" uses them to describe a person's appearance: "her hair was red - quite red."

White. White holds the third position in terms of the overall number of colored phraseological units. There are seven phraseological units with a "white" component in Conan Doyle's detective story. Charlotte Brontë used two —white terms in her writing. There were no phraseological units with a "white" component in Jerome K. Jerome's humor. White is a color that represents both innocence and purity as well as bad qualities, like in the case of the investigator in "The Sign of Four": "white feather in the side."

Grey. Grey is a neutral hue. Three instances of grey can be found in The Sign of the Four. There are two in the book "The Teacher." However, the phraseological unit with the component "grey" is missing from the comedy "Three Men in a Boat (To Say Nothing of the Dog)." A teacher once said,

"Overhung by long grey side-whiskers," "curly hair was thickly shot with grey" (The sign of four), "the hair grown grey," and "her grey hair strangely disheveled." These phraseological units typically refer to old age and grey hair.

Blue. Blue and black share comparable metaphorical meanings. In South Africa and ancient Egypt, it was regarded as a time of sorrow. The color blue is most frequently used in English to convey longing: "I saw it all blue," "softened by a mildly melancholy blue eye," etc. (Teacher). Additionally, this color represents nobility and consistency. The phraseological unit "blue" appears only once in Jerome K. Jerome's writings: "the old blue" that hangs on our walls was a commonplace everyday. Blue-concept terms are absent from the detective story "The Sign of Four."

Green, brown. Regarding how frequently green and brown phrases were used to create colored phraseological units, they tied for sixth place. Brown used to be associated with negativity. It is regarded as a representation of hopelessness and melancholy. The concept in question is commonly employed in phraseological units that depict the appearance of individuals or objects. Examples of such units include —to light a bit of brown paper in the writings of Jerome K. Jerome, or —rain-falling drops on its brown and sluggish waters or —brown, heavy clouds were drifting across the sky.

Purple and pink. Purple is the color of ultimate beauty and royalty. In all of Charlotte Bronte's writings, there is only a single phraseological unit that contains the word purple: "I saw the purple light of love." In Pink's works, Pink was not met. This color represents lightness and kindness. A few phraseological idioms in English contain the word "pink," which indicates a happy emotional state. For example, "to be in the pink, to be tickled pink."

As a result, every color has a unique meaning. Our findings demonstrate that phraseological units serve as a form of mirror that reflects the unique qualities and traits of a given country. After examining every —color term found in English dictionaries and reference books, we may conclude that the English language's color phraseology is defined by lexeme.

References:

1. Vinogradov, V. V. *Lexicology and lexicography: selected works* / V. V. Vinogradov. - M.: Nauka, 1977. -312P.
2. *Idioms Dictionary*. London: Harper Collins Publishers Ltd., 1997. 501 p.
3. Sukharev V.A. *Psychology of peoples and nations* / V.A. Sukharev, M.V. Sukharev. - D.: Stalker, 1997. -400 p.
4. Cowie A.P. *Phraseology – Theory, Analysis, and Applications*. Oxford: Clarendon Press.
5. Kholmurodova, O. (2020). Journal Article O'zbek-Ingliz ertaklari va ularning folklor janri sifatida shakllanishi. Архив Научных Публикаций JSPI.

6. Kholmurodova, O. (2020). Journal Article O'zbek va ingliz ertaklari motivlarining qiyosiy tahlili. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Jonauskaite D, Abu-Akel A, Dael N, et al. Universal patterns in color-emotion associations are further shaped by linguistic and geographic proximity. **Psychol Sci.** 2020;31
8. Elliot AJ. Color and psychological functioning: a review of theoretical and empirical work. **Front Psychol.** 2015
9. Amawi RM, Murdoch MJ. Understanding color associations and their effects on expectations of drugs' efficacies. (**Basel**). 2022
10. Elliot AJ, Aarts H. Perception of the color red enhances the force and velocity of motor output. **Emotion.** 2011

КАК ДОБИТЬСЯ ЭФФЕКТИВНОГО УРОКА?

Худайбердиева Феруза Абдукахаровна – Методист русского языка и литературы «Отдела методического обслуживания» Центра педагогического мастерства Джизакской области.

Аннотация

В статье речь идёт об одном из способов модернизации образования на компетентностной основе, а именно- посредством использования в школьном преподавании интерактивных форм обучения, интерактивные методы обучения обеспечивают решение образовательных задач в разных аспектах. Владение технологий интерактивного обучения способствует развитию у обучающихся качеств, отвечающих требованиям, прописанным в государственных стандартах нового поколения.

Ключевые слова: интерактивные методы обучения, диалоговое общение, методы обучения, языковая личность, инновационными формами обучения.

Введение

Чтобы добиться эффективного урока, можно следовать таким рекомендациям: Чётко определить тему, цели и тип урока. Нужно установить, чего учитель хочет добиться, и определить, как будет действовать, чтобы цель была достигнута. Отобрать учебный материал. Следует определить его содержание, объём, установить связь с ранее изученным, дополнительный материал для дифференцированной работы и домашнее задание. Выбрать эффективные методы и приёмы обучения. Нужно использовать разнообразные виды деятельности учащихся и учителя на всех этапах урока. Определить формы контроля за учебной деятельностью обучающихся. Продумать оптимальный темп урока, то есть рассчитать время на каждый его

этап. Продумать форму подведения итогов урока. Лучше проводить анализ вместе с учеником: ещё раз уточнить, всё ли было понятно, понравилось ли урок, какое задание было самым интересным. Составить интересное и увлекательное домашнее задание. Стоит чередовать разные типы заданий. Также для эффективности урока можно добавить в него эмоции, объяснять материал живо и интересно, активно жестикулировать, заглядывать в глаза ученикам и наблюдать за их реакцией.

Обсуждение

Важно, чтобы каждое учебное занятие на уроке соответствовало учебным целям урока, содержательно вовлекало учащихся в активную, конструктивную, аутентичную и совместную деятельность и было полезным, чтобы учащиеся могли извлечь уроки из участия в занятии и использовать их...

Что такое план урока?

План урока — это дорожная карта инструктора, показывающая, что ученикам нужно изучить и как это будет эффективно сделано во время занятий. Затем вы можете разработать соответствующие учебные мероприятия и разработать стратегии для получения отзывов об обучении учеников. Наличие тщательно составленного плана урока для каждого 2-часового урока позволяет вам входить в класс с большей уверенностью и максимизирует ваши шансы на получение значимого опыта обучения со своими учениками.

Успешный план урока учитывает и объединяет три ключевых компонента:

- Цели обучения
- Учебная деятельность
- Оценка для проверки понимания учащимися материала

План урока дает вам общее представление о ваших учебных целях, задачах обучения и средствах их достижения, и ни в коем случае не является исчерпывающим. Продуктивный урок — это не тот, на котором все идет точно по плану, а тот, на котором и ученики, и преподаватель учатся друг у друга. Вы можете сослаться на пример плана 2-часового урока [здесь](#).

Надо планировать последовательность урока таким образом, чтобы она была интересной и содержательной.

Роберт Ганье предложил процесс из девяти шагов, называемый событиями обучения, который полезен для планирования последовательности урока. Использование 9 событий Ганье в сочетании с пересмотренной таксономией образовательных целей Блума помогает в разработке увлекательного и содержательного обучения.

Привлеките внимание : привлечите внимание учащихся, чтобы они смотрели и слушали, пока преподаватель представляет учебный материал.

- Представьте историю или проблему, которую необходимо решить.
- Используйте мероприятия по разминке, текущие новости и события, тематические исследования, видеоролики YouTube и т. д. Цель состоит в том, чтобы быстро привлечь внимание учеников и вызвать интерес к теме.
- Используйте такие технологии, как кликеры и опросы, чтобы задавать наводящие вопросы темой, проводить опросы или получать ответ на спорный вопрос.

Информируйте учащихся о целях : позвольте учащимся организовать свои мысли относительно того, что они собираются увидеть, услышать или сделать.

- Включите цели обучения в слайды лекций, учебный план, а также в инструкции к мероприятиям, проектам и работам.

1. Стимулировать припоминание предыдущих знаний:

- Помогите учащимся осмыслить новую информацию, связав ее с чем-то, что они уже знают или с чем-то, что они уже испытали.
- Вспомните события предыдущей темы, интегрируйте результаты занятий в текущую тему или соотнесите предыдущую информацию с текущей темой.
- Спросите учащихся об их понимании предыдущих концепций.

2. Представляйте новый контент: используйте различные методы, включая лекции, чтения, занятия, проекты, мультимедиа и другие.

- Упорядочивайте и разделяйте информацию, чтобы избежать когнитивной перегрузки.
- Смешивайте информацию, чтобы облегчить ее запоминание.
- Пересмотренную таксономию Блума можно использовать для упорядочивания уроков, помогая вам разбить их на уровни сложности.

3. Обеспечивать руководство : Консультировать с учеников по стратегиям, которые помогут им в изучении контента, и по доступным ресурсам. С руководством по обучению скорость обучения увеличивается, поскольку учащиеся менее склонны терять время или разочаровываться, основывая результаты на неверных фактах или плохо понятых концепциях.

- При необходимости предоставляйте учебную поддержку в виде подсказок (сигналов, намеков, подсказок, пантомима), которые можно убрать после того, как ученик усвоит задание или материал.
- Моделируйте разнообразные стратегии обучения – мнемотехнику, ролевые игры, визуализацию.
- Используйте примеры и не примеры.

4. Практика:

- Дайте возможность учащимся применять полученные знания и навыки.
- Позвольте учащимся применять знания в групповых и индивидуальных мероприятиях.
- Задавайте вопросы, требующие глубокого изучения, ссылайтесь на то, что учащиеся уже знают, или побуждайте учащихся сотрудничать со своими сверстниками.
- Попросите учащихся пересказать, повторить или пересказать изученную ими информацию.
- Поощряйте детализации учащихся – просите учащихся разъяснять или объяснять детали и придавайте большую сложность их ответам.

5. Предоставляйте обратную связь:

- Предоставляйте немедленную обратную связь об успеваемости учащихся для оценки и облегчения обучения.
- Рассмотрите возможность использования обратной связи на уровне группы/класса (выделение типичных ошибок, приведение примеров или моделей целевого уровня успеваемости, указание учащимся того, чего вы не хотите).
- Рассмотрите возможность внедрения обратной связи с коллегами.
- Попросите учеников указать, как они использовали обратную связь в последующих работах.

6. Оцените производительность:

Чтобы оценить эффективность учебных мероприятий, проверьте, были ли достигнуты ожидаемые результаты обучения. Производительность должна основываться на ранее поставленных целях. Используйте различные методы оценки, включая экзамены/тесты, письменные задания, проекты и т. д.

7. Улучшить запоминание и передачу:

- Позволить ученикам применять информацию в личных контекстах. Это улучшает запоминание за счет персонализации информации.
- Предоставьте ученикам возможность соотнести проектную работу со своим личным опытом.
- Предоставьте дополнительную практику.

Создайте реалистичную временную шкалу

Список из десяти учебных целей нереалистичен, поэтому сузьте свой список до двух-трех ключевых концепций, идей или навыков, которые вы хотите, чтобы ученики усвоили на уроке. Ваш список приоритетных учебных целей поможет вам принимать решения на месте и корректировать план урока по мере необходимости. Вот несколько стратегий для создания реалистичной временной шкалы:

- Оцените, сколько времени займет каждое из занятий, а затем запланируйте дополнительное время для каждого из них.
- При составлении плана урока укажите рядом с каждым заданием, сколько времени, по вашему мнению, оно займет.
- Запланируйте несколько минут в конце занятия, чтобы ответить на оставшиеся вопросы и подвести итоги основных моментов.
- Запланируйте дополнительное занятие: музыкальная пауза (спеть песни, репетировать русские народные танцы) или вопрос для обсуждения на случай, если у вас останется время.
- Будьте гибкими — будьте готовы адаптировать свой план урока к потребностям учеников и сосредоточиться на том, что кажется более продуктивным, а не придерживаться первоначального плана.

Результаты

Планируйте завершение урока.

- Заккрытие урока дает возможность закрепить знания учеников.
- Конец урока полезно как для преподавателей, так и для учеников.
- Вы можете использовать закрытие для:
- Проверьте, насколько хорошо учащиеся понимают материал, и дайте ему знать для последующего обучения (соответствующим образом корректируйте свое обучение)-
Подчеркните ключевую информацию
- Свяжите концы с концами
- Исправьте недопонимание учащихся. Предварительный просмотр предстоящих тем

Ваши ученики найдут ваше завершение полезным для:

- Подведение итогов, обзор и демонстрация понимания основных моментов.

Есть несколько способов завершить урок:

- Сформулируйте основные моменты самостоятельно («Сегодня мы говорили о...»)
- Попросите ученика помочь вам их обобщить.
- Попросите всех учеников записать на листе бумаги, что, по их мнению, было основными моментами урока (провести метод “Рефлексия”).

Список литературы:

1. Крылова Н.Б. Проектные методы против классно-урочной организации образования Школьные технологии. - 2004. – № 5. – С.59.
2. Молочкина Н.Ю. Диагностика, анализ и мониторинг образовательного процесса в начальной школе. Журнал «Завуч начальной школы». 2002 г.
3. Ярвилехто Т.М Эффективный урок в начальной школе
4. Беспалько В.П., Беспалько Л.В. Педагогическая технология. Новые методы и средства обучения. – Вып. 2. – М.: Знание, 1989.
5. Крылова Н.Б. Проектные методы против классно-урочной организации образования Школьные технологии. - 2004. – № 5. – С.59.
6. <https://alekscdt.narod.ru/urok.html>

TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI: XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBA

J.X.Shodiyev – Jizzax DPU falsafa, tarbiya va huquq ta'limi kafedrası
o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada fan va ta'lim integratsiyasi, O'zbekiston Respublikasida ilmiy salohiyatni rivojlantirish dinamikasi va tendentsiyalari, xorijiy tajribani o'rganish masalalariga bag'ishlangan. Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning barcha jabhalarida integratsiya jarayonlarining faol rivojlanishi, fan, ijtimoiy hayot va ta'limning rivojlanish sur'atlarining sezilarli darajada tezlashishi integratsiya sur'atlarini jadallashtirish, uning ahamiyati va jarayonini takomillashtirish zarurligini anglash vazifasini dolzarblashtiradi. ta'lim va fanning integratsiyasi va uning mohiyatini aniqlash. Shu nuqtai nazardan, MDH mamlakatlari tajribasini o'rganish va respublikada ta'lim sohasining bugungi holati,

integratsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari va ta’lim jarayonining ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati bilan o‘zaro ta’sirining sur’ati katta ahamiyatga ega. MDH bo‘lmagan davlatlar

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, fan va ta’lim integratsiyasi, fan, ta’lim, innovatsiyalar, xorijiy tajriba, ilmiy markazlar va institutlar.

Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar dunyosida har qanday ta’lim transformatsiya va integratsiyani talab qiladi. Va shuning uchun innovatsiyalar va yangilik. Bu yangi va ijodiy mutaxassislarni olish imkoniyatini berishi mumkin. Ta’lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi – ta’lim, fan va ishlab chiqarish tashkilotlarining imkoniyatlaridan o‘zaro manfaatlar yo‘lida birgalikda foydalanishdir. Birinchi navbatda, kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, shuningdek, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish sohalarida ishlanmalar va boshqalar. Ushbu integratsiya jarayonlari faoliyatning turli sohalarining keng doirasini qamrab oladi va turli xil shakllarda namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, jamiyatdagi ta’lim darajasi ilmiy kashfiyotlar soni va tezligini, shuningdek, ularni sanoat sohasida tarqatish tezligini oshiradi. Zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyot fan, texnika va ta’limda sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi, bu jamiyatning ushbu eng muhim sohalarini o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning sifat jihatidan yangi darajasi bilan bog‘liq.

Integratsiya jarayoni ta’limning barcha darajalarini, fan va ishlab chiqarish tizimi va infratuzilmasini qamrab oladi va o‘zgartiradi. Hozirgi vaqtda ilmiy siyosatning yo‘nalishi:

- fundamental ilmiy g‘oyalar zaxirasini yaratish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun tegishli mutaxassislarni tayyorlashga ko‘maklashish;
- ilmiy-texnik loyihalarning moliyaviy tavakkalchiligini kamaytirish;
- akademik va amaliy fanlarning o‘zaro hamkorligini tashkil etishda vositachilik qilish.

Oliy ta’lim ilmiy tadqiqot instituti tadqiqot natijalari ijtimoiy ishlab chiqarishning texnologik rivojlanish bosqichiga qarab integratsiya jarayonining quyidagi turlarini ajratish imkonini beradi.

1. Mavjud ishlab chiqarish texnologiyasi bilan integratsiyalashuv va texnologik rivojlanishning keyingi bosqichiga o‘tish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni bosqichma-bosqich to‘plash.

2. Ilg‘or texnologiyani joriy etishda integratsiya, alohida korxonalar yoki tarmoqda "monotexnologiya" dan murakkab, "yuqori" texnologiyaga o‘tish.

3. Rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilagan holda yangi texnologiyalar majmuasini tadqiq qilish, ishlab chiqish va joriy etishning keng ko'lamli jarayoni.

Birinchi bosqich kichik shaharlarda yoki eng yirik aglomeratsiyalarda joylashgan universitet markazlarining etakchi roli bilan tavsiflanadi. Universitetlar ushbu markazlarga yangi texnologiyalar va ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi maxsus laboratoriya va institutlarni, konstruktorlik byurolarini jalb qildilar va shu bilan birga ilmiy-texnik firmalarning o'ziga xos "inkubatori" rolini o'ynadilar.

Ikkinchi bosqich iqtisodiyotning vujudga kelayotgan hududiy tuzilmasini takrorlash, amaliy fanning sanoat hududlarida bosqichma-bosqich konsentratsiyasi jarayoni bilan tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich ilmiy-texnikaviy inqilobning zamonaviy bosqichiga mos keladi. Hududlar “ilmiy muassasalarni jamlashning mutlaq huquqidan mahrum bo'lib, yangi rivojlanish sohalarida eng zamonaviy daraja paydo bo'lishi” bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanish bosqichlariga muvofiq, uni ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, jumladan, universitetlar bilan integratsiyalash shakllari ishlab chiqilmoqda. Integrasiyaning turli yo'nalishlari va shakllari paydo bo'lishi va takomillashib borishi bilan ularning bu jarayondagi roli va o'rni ortib boradi.

Integratsiyasining birinchi yo'nalishi - yagona axborot muhitini shakllantirish. Zamonaviy jamiyatda axborot aloqada, odamlar o'rtasidagi muloqotda, ilmiy, ta'lim va ishlab chiqarish faoliyatida juda muhim rol o'ynaydi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarishning faol o'zaro ta'siri bu erda axborot tashuvchilar ko'pincha bir xil aloqa sub'ektlari bo'lishi bilan bog'liq. Integratsiyasining birinchi yo'nalishining axborot integratsiyasi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni tezlashtirish va fan va ta'limning intellektual salohiyatidan nafaqat bitta mamlakatda, balki butun tsivilizatsiyada oqilona foydalanish imkonini beradi.

Integratsiyasining ikkinchi yo'nalishi uzluksiz (umrbod) ta'limning samarali tizimini yaratish bo'lishi kerak. Uzluksiz ta'lim so'nggi yillarda ishlab chiqarish tarkibidagi o'zgarishlar, jamiyat hayotining baynalmilallashuvi va yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan jahon hamjamiyatidagi o'zgarishlarga javob bo'ldi.

Integratsiyasining uchinchi yo'nalishi xodimlarni tayyorlash va "uskunaning hayot aylanishi" o'rtasidagi munosabatlarni yangilash orqali aniqlanadi. Texnologiya o'z rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o'tadi: ishlab chiqish, loyihalash, sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish, foydalanish va foydalanishdan chiqarish. Yuqorida tavsiflangan tsiklning har bir bosqichi

ma'lum darajadagi tayyorgarlik va profilga ega bo'lgan etarli miqdordagi mutaxassislarni talab qiladi.

Integratsiyasining to'rtinchi yo'nalishi - kadrlar tartibi, nomenklaturasi va mutaxassislarni tayyorlash mazmuni. Kadrlarga bo'lgan talab va yosh mutaxassislarni ish bilan ta'minlash muammosini faqat ta'lim tashkilotlarining integratsiyasi bilan hal qilish mumkin.

Integratsiyasining to'rtinchi yo'nalishining o'zaro ta'siri kasbiy ta'lim doirasidagi o'qitish usullari va shakllariga ta'sir qilmasligi mumkin. O'quv fanlari, o'qitish shakllari va usullari majmuasining sintezi bo'lajak mutaxassisda uning kelajakdagi kasbiy faoliyati ob'ekti haqida to'liqroq tushunchani shakllantirishga qaratilgan. Mutaxassisga millati va davlat mansubligidan qat'i nazar, o'z malakasiga muvofiq kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini beruvchi ochiq ta'lim makonini shakllantirish integratsiyaning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini alohida yo'nalish sifatida ko'rsatish mumkin. Bu o'quv jarayonini ilmiy va (yoki) ishlab chiqarish faoliyati bilan birlashtirishni o'z ichiga oladi va mutaxassisni keyingi kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashtirishning eng muhim shakli hisoblanadi.

Integratsiyasining yo'nalishio'zaro bog'liqlik yo'nalishlarini amalga oshirish shakllari o'zaro ta'sir sodir bo'lgan darajaga qarab tasniflanishi mumkin.

Eng oddiy (institutlararo) daraja alohida ilmiy, ta'lim va ishlab chiqarish tashkilotlari va ularning bo'linmalarining o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi.

Mahalliy tajriba bir qator Integratsiyaning turli yo'nalishlari larni o'z ichiga oladi:

- Birinchi holda oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalarini o'rtasidagi hamkorlik shakli bo'lgan o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualari (OTM) va o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, ikkinchi holatda esa universitetlar kafedralari (fakultetlari), laboratoriyalar (kafedralar) tajriba ishlab chiqarish maydonchalari va ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalarining ustaxonalarini bilan birlashmasi. Ushbu tuzilmalarning asosiy maqsadi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish samaradorligini ta'minlashdan iborat. Ishlab chiqarish va ilmiy tashkilotlarda oliy o'quv yurtlarining filiallari va tayanch bo'limlarini tashkil etish bo'yicha mavjud amaliyotni qayd etish lozim. Qoidaga ko'ra, ilmiy-tadqiqot institutlari va korxonalarining zamonaviy laboratoriya bazasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish uchun kafedralar filiallari, tayanch kafedralar esa universitetda yangi texnika va malakali mutaxassislarni talab qiladigan yangi mutaxassisliklar ochilganda tashkil etiladi. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash darajasini oshirish, o'quv jarayonini zamonaviy

ishlab chiqarish haqiqatiga yaqinlashtirish uchun ham filiallar, ham tayanch bo‘limlar zarur.

- Oliy o‘quv yurtlarini, akademik va tarmoq tadqiqot institutlarini birlashtirgan ilmiy-ta’lim markazlari. Ushbu tuzilmaga yuklatilgan asosiy vazifa fundamental ilmiy-texnikaviy muammolarni hal qilish uchun ilmiy salohiyatni jamlash va tegishli masalalar doirasida mutaxassislarni parallel tayyorlashdan iborat.

- Integratsiyaning oxirgi sohasi - bu universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va konstruktorlik byurolarini birlashtirgan muhandislik markazlari. Markazlarning asosiy faoliyati yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga joriy etish uchun zarur bo‘lgan kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining institutlararo integratsiyalashuvining xorijiy shakllari orasida Amerika tajribasi katta qiziqish uyg‘otadi. 70-yillarning boshidan boshlab Qo‘shma Shtatlarda kooperativ tadqiqot markazlari - kooperativ tadqiqot markazlari tashkil etildi. Ilmiy-tadqiqot markazlari eng yirik ilmiy-tadqiqot, o‘quv muassasalari va sanoat firmalari bo‘lgan universitetlarning ilmiy salohiyatini jamlaydi. Ularning hamkorligidan maqsad – fundamental ilmiy-texnikaviy muammolarni hal qilishda takroriyliklarga barham berib, birgalikda ilmiy tadqiqotlar olib borishdan iborat.

80-yillarda AQShda muhandislik tadqiqot markazlari - muhandislik tadqiqot markazlari (ERC) tashkil etildi. IIM va T vaICH integratsiyasining oldingi shakli o‘rtasidagi asosiy farq uning torroq faoliyat sohasidir. Muhandislik tadqiqot markazlari muhandislik va texnologiyani ishlab chiqish va undan ishlab chiqarish, qurilish va biotexnologiyada foydalanishga ixtisoslashgan. Ilmiy-texnika taraqqiyoti ilmiy-tadqiqot faoliyatini rejalashtirish va muvofiqlashtirishda davlatning rolini oshiradi, bundan tashqari, ilmiy-texnikaviy muammolarning tabiati ularni AQShning eng yirik monopoliyalari ishtirokida ham hal qilishni imkonsiz qiladi;

Bu shartnoma bo‘yicha ilmiy muassasalar yoki yangi turdagi tadqiqot institutlarini - federal moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot markazlarini (FFRDC) yaratish uchun sabab bo‘ldi. FFIRC ning asosiy mijozlari ERDA (Atom energiyasi va raketalarni rivojlantirish agentligi), Mudofaa vazirligi va HACA (Milliy Aeronavtika va kosmik ma‘muriyat) bo‘lib, ular o‘z navbatida asosan hukumat manbalaridan subsidiyalanadi. Bu FFIRCning buyurtmachimoliyachiga va asosiy ijrochiga bo‘ysunishini belgilaydi, bu universitet FFIRC universitetlar, sanoat firmalari yoki notijorat tashkilotlari tomonidan boshqariladi; Qo‘shma Shtatlarda ED integratsiyasining turli shakllaridan foydalanish ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflanadigan xarajatlarni kamaytiradi, ularning samaradorligini oshiradi va keraksiz takrorlashni bartaraf etadi.

SNP integratsiyasining mintaqaviy darajasi ilmiy (va o‘quv, shu jumladan) muassasalar va sanoat korxonalarining hududiy birlashmalari bo‘lgan, turli xil turdagi mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-ishlab chiqarish komplekslaridan (RPC) iborat. sanoat mahsulotlari.

Fan, ta’lim va ishlab chiqarishning sof shakllarini muayyan holatda birlashtirish yangi, hududiy sifat beradi. NPC ning eng keng tarqalgan turlari quyida batafsilroq muhokama qilinadi.

1. Davlat (milliy) miqyosda ENPlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik milliy tadqiqot dasturlari (NRP) doirasida amalga oshiriladi. Bunday dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga davlatning butun ilmiy-texnik salohiyati jalb etilgan. Ilg‘or mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik loyihalari davlat ta’lim, ilmiy-texnikaviy siyosatining asosiy quroliga aylanib, fan-texnika taraqqiyotining dolzarb yo‘nalishlarida taraqqiyotni ta’minladi.

2. Hozirgi vaqtda UNPning integratsiyalashuvining milliy (xalqaro) darajasining faol shakllanishi davom etmoqda. Bu jarayon Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida va dunyoning bir qator boshqa mintaqalarida siyosiy, iqtisodiy, fan va ta’lim integratsiyasi bilan parallel ravishda eng faol rivojlanmoqda.

Bir guruh olimlar (V.A.Slastenin, V.I.Jog, I.Yu.Borisova, V.A.Pleshakov, L.S.Podimova) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ilmiy va ta’lim xalqaro integratsiyasining eng muhim turlarini aniqlash imkonini berdi:

- Xalqaro integratsiyani ta’minlovchi axborot resurslarini yaratish; o‘qituvchilar, aspirantlar, talabalarining xalqaro almashinuvi, chet el amaliyotlarini amalga oshirish, professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish; hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy axborotlar, pedagogik texnologiyalar almashinuvi; monografiyalar va ilmiy maqolalarni birgalikda nashr etish.

- Universitet boshqaruviga hamkor universitetlar xodimlarini jalb qilish, sho‘ba korxonalarini tashkil etish, universitetlararo va xalqaro integratsiya bo‘yicha xalqaro markazlarni yaratish; yetakchi xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda universitet ma‘ruzalarini tashkil etish, qo‘sh diplom berish, chet el fuqarolarini o‘qituvchi sifatida ishga joylashtirish, qo‘shma ta’lim dasturlarini yaratish va amalga oshirish, chet tillarini o‘rganish sohasida qo‘shimcha ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish, talabalarni hamkorlikda o‘qitish; xalqaro ta’lim dasturlari.

- Xalqaro ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, qo‘shma xayriya tadbirlarini tashkil etish, madaniyat va sport sohasida xorijiy oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlik qilish, xalqaro talabalar olimpiadalari, turli davlatlarning milliy bayramlariga bag‘ishlangan qo‘shma madaniy tadbirlar, turli mamlakatlar madaniyat arboblari bilan uchrashuvlar o‘tkazish.

Ko'rib chiqilgan material ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining ob'ektiv mohiyatini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi: yagona axborot muhiti, uzluksiz ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash va "texnologiyaning hayot aylanishi", kadrlarni buyurtma qilish va mutaxassislarni tayyorlash, fanlar majmuasini yaratish, ta'lim shakllari va usullari, ochiq ta'lim maydoni) va turli xil shakllarga ega (ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, ilmiy-ta'lim va muhandislik markazlari, ilmiy-konstruktorlik markazlari, zavod-universitet tizimi, o'quv ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi va ilmiy va o'quv ishlab chiqarishi) kompleks, filiallar va tayanch boshqarmalar, texnopolislar va texnoparklar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abalkin L.I. O'zgaruvchan dunyoda davlat // Iqtisodiyot masalalari. - 2009. - 1-son. - 7-12-betlar.
2. Bogomolov V.A., Egorshev I.M. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlardagi ilmiy parklar va texnopolislar // Fan va texnologiya natijalari. - 1991. - T. 13. - B. 142-177.
3. Gabitov A.F. Globallashuv sharoitida Rossiyaning innovatsion tizimini shakllantirish va davlat tomonidan tartibga solish: tezisning referati. dis. ...kand. ekon. Fanlar - M.: nomidagi Moskva davlat universiteti. M.V. Lomonosov, 2006. - 45-51-betlar.
4. Glazyev S.Yu. Iqtisodiy rivojlanishning iqtisodiy nazariyasi. - M.: Nauka, 1990. - 232 b.
5. Kislyakova M.E. Rossiyaning innovatsion iqtisodiyotga o'tishi: muammolar va shartlar // TISBI byulleteni. - 2006. - 4-son. - 52-56-betlar.
6. Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi bozor o'zgarishlari tajribasi (institutSIONal jihatlar) / resp. ed. P.A. Minakir. - Vladivostok: Rossiya Fanlar akademiyasining Uzoq Sharq bo'limi, 2005. - 256 p.
7. Popova E. Rossiyaning innovatsion rivojlanishini rag'batlantirish chora-tadbirlari (ilmiy tadqiqot natijalari) // Intellektual mulk: Sanoat mulki. - 2006. - 10-son. - B. 4-12.
8. Saitov M.A.X. Rivojlanishning zamonaviy shakllari va jahon iqtisodiyotida ilmiy-texnikaviy zonalar faoliyatining tendentsiyalari // Iqtisodiyot fanlari savollari. - 2004. - 1-son. - 229-237-betlar.
9. Tatsuno Sheridan. Strategiya - texnopolislar: trans. ingliz tilidan / umumiy ostida ed. va kirish Art. IN VA. Danilova-Danilyana. - M.: Taraqqiyot, 1989. - B. 39-54.

USE OF INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS

Abdumalikova Dilorom Sobirjon qizi – English teacher of Ministry of Internal Affairs Jizzakh Academic Lyceum

Abstract

Vocational training is a complex and multifaceted process, based on which the opportunities for successful work in a particular profession, personal orientation, professional knowledge, skills, qualifications and professional qualities, work experience are integrated. appears in the The effectiveness of innovative methods and technologies in its formation today is great. Students' knowledge and skills are developed through the use of innovative methods in the educational process in order to improve the professional skills of students. In this article, I want to highlight the role of innovative methods and the importance of modern technology in professional development.

KEYWORDS: innovative methods, information technology, professional skills, educational effectiveness, pedagogy.

The Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan adopted a resolution "On measures for further development of computerization and introduction of information and communication technologies" in order to improve the professional skills of students in the educational process and to improve the skills and qualifications of teachers. Adoption of Resolutions No. 200 of June 6, 2002, No. 25 of February 16, 2006 "On Further Improving the System of Retraining and Advanced Training of Teachers". The use of innovative information technologies in the educational process will increase the effectiveness of teaching methods, change the work of teachers, improve their pedagogical skills, improve the pedagogical system. effective effect on structural change. In the professional skills of a teacher based on modern information technologies;

- simplifies the complex process of developing the technological basis of education at the level of modern requirements;
- special skills and competencies are formed to organize the teaching process on the basis of modern innovative technical means;
- Due to the openness of distance learning courses, there is a need for quality control and quality control of training materials;
- students' independent activity in the educational process improves, the effectiveness of the teaching process passes from teacher to student;

-Increases the organization and personal participation of students in the organization of the educational process;

-The use of modern communication technologies provides feedback to each student in the pedagogical activity of the teacher. Today, the teacher must take into account the capabilities and needs of students in the educational process. The system of education and upbringing promoted by the teacher should be person-centered, that is, differentiated, taking into account the different characteristics and qualities of the individual. Any system of education and upbringing is formed and developed in a certain social, scientific, technical, economic, cultural and, finally, political environment. Socio-economic factors are the top priorities of this environment. Scientific and technological progress, cultural and political environment can develop or slow down socio-economic changes. The education system serves to fulfill the main tasks of socio-economic and cultural development of the society, as secondary schools and higher education institutions prepare people for economic, cultural and political activities. That is why the teacher of educational institutions plays an important role as a cornerstone of the educational process. It is recognized by pedagogical scientists that one of the most important indicators of the use of such technologies in the educational process is the improvement of the ability to use different methods in modern educational institutions on the basis of innovative technologies. In particular, U.Sh. Begimkulov stressed the need to create a computer information environment in educational institutions and a database capable of meeting modern requirements, the development of hypertext and multimedia, imitation in teaching, communication systems, input, systematization, storage of necessary information using computer technology and suggests creating a database that is recommended for use. Therefore, in order to develop the knowledge, skills and competencies of teachers using innovative information technologies, as well as to improve the pedagogical skills of teachers in accordance with modern requirements, initiates the organization of distance learning courses. When using innovative technologies, the teacher can perform a number of tasks depending on its content. Innovative technology-based methods with active use perform the following main didactic functions:

-develops students' interest in science through the use of multimedia technology;

-At the same time, due to the interactivity of education, students' thinking skills are activated and the effectiveness of learning materials is increased;

-is important in that it allows you to model and visualize processes that are difficult or complex to demonstrate in real situations;

- Assimilation of learning materials are effective not only according to the level, but also according to the level of logical perception achieved by students;
- Provides the opportunity to organize distance learning not only for students who are learning or online education, but also for students who miss classes without a reason;
- Provides students with the opportunity to carry out specific research by searching for, finding, and answering problematic material through independent research;
- Provides opportunities for students to master a new topic, solve examples, essays, essays, self-study of educational materials, selection and analysis of information and data.

The clear orientation of a student's professional skills is determined by his / her worldview, interest in the pedagogical profession, and ability to engage in it. Researchers (N.V. Kuzmina, G.A. Murray, A. Adiner, N.A. Aminov, etc.) study the motives of students' desire to improve their professional skills and divide them into three types:

- Motives indicating the existence of compelling reasons;
- Motives based on interest in the study of certain disciplines;
- Motives that reflect the need to strive to communicate with people.

If these aspects are analyzed, the validity of career choice motives is not only one of the important subjective factors in reaching the peak of pedagogical activity, but also has a significant impact on the overall state of vocational training. In the process of preparing future professionals for professional activity, it is important that they have the personal, spiritual, moral, psychological and physical qualities necessary for future professional activity and their development indicators. After all, any professional activity requires a person to possess certain qualities. In describing their professional activities, most scholars refer to N.V. Kuzmina and Z.F. They rely on Yesarova's research. They distinguish the following components in the professional training of educators: 1. Knowledge (possessing gnostic ability). 2. Constructiveness (ability to design). 3. Communicativeness. 4. Organization.

Cognition (Greek —gnosis|| —knowledge||) refers to the student's field of knowledge, which includes in-depth knowledge of the subject, communication, psychological characteristics of the specialist, knowledge of self-awareness. Constructiveness (the ability to design) -this means a separate design of the activities of the specialist, taking into account the personal activities and educational goals. Communicativeness is a special feature of a specialist, which involves interacting with people and colleagues. In this case, the effectiveness of professional activity depends on its communication. Communication should be didactic. Organization is the ability of a specialist to organize his / her personal activity, as well as

methodologically correct activity, which is one of the important conditions for success in the educational process. The student's organizational skills are manifested, firstly, in the ability to organize the team, in which to unite the team, and secondly, in the ability to properly organize their personal work. It should be noted that these qualities, which should be reflected in the professional image of the specialist, are important not only in their interactions with colleagues, but also in their relationships with others.

References:

1. Kholikov A. Pedagogical skills. Study guide. Tashkent. -ECONOMICS, 2010
2. Sultanova G. «Pedagogical skills». Textbook. T., 2005
3. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated February 16, 2006 No 25 "On further improving the system of retraining and advanced training of teachers." // J.: 0 'Collection of Resolutions of the Government of the Republic of Uzbekistan.-Tashkent, 2006. -No 2. -B. 10-11.
4. Begimkulov U.Sh. Scientific and theoretical bases of introduction of modern information technologies in pedagogical training. -T.: "Fan", 2007. -159 p.

O‘QUVCHILARDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Bekmuratova Kamola Xasanovna – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya

XXI asrda raqamli texnologiyadan samarali foydalanish muhim ko‘nikma hisoblanib kelmoqda. Geografiya fanini o‘qitishda XXI asr ko‘nikmalarini singdirish – o‘quvchilarning global bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni hozirgi zamon muammolarini tushunishga va ularga yechim izlashga tayyorlashdir. XXI asrda nafaqat intellektual, balki emotsional ko‘nikmalar ham muhim hisoblanadi. Kodlash darslari, raqamli grafikalar yaratish yoki ma’lumotlarni tahlil qilish kabi amaliy mashg‘ulotlar bilan ularning texnologik savodxonligi oshadi

Аннотация. В XXI веке эффективное использование цифровых технологий является важным навыком. Внедрение навыков XXI века в обучение географии развитие глобальных знаний и навыков учащихся, подготовка их к пониманию современных проблем и поиску решений к ним. В XXI веке важны не только интеллектуальные, но и эмоциональные навыки. Техническая грамотность детей повышается с помощью практических занятий, таких как уроки кодирования, создания цифровых графиков или анализа данных.

Abstract. In the 21st century, effective use of digital technology is an important skill. The goal of the 21st century skills in geography education is to develop students' global knowledge and skills, preparing them to understand and solve contemporary problems. In the 21st century, it's not just intellectual skills that are important, but emotional skills as well. With hands-on activities such as coding classes, creating digital graphs, or analyzing data, their technological literacy is enhanced.

Tayanch so‘zlar: raqamli texnologiya, intellektual, kommunikativlik, loyiha, refleksiya, axborot, geografiya, GIS, Google Earth, kreativ, o‘quvchi, tanqidiy fikr.

Ключевые слова: Цифровые технологии, интеллект, коммуникативность, проектирование, рефлексия, информация, география, ГИС, Google Earth, креативность, читатель, критическое мышление.

Keywords: It's also a great way to learn about digital, intellectual, communication, design, reflection, data, geography, GIS, Google Earth, creative, reading, and critical thinking.

XXI asrda ta’limda zarur ko‘nikmalar o‘quvchilarga muvaffaqiyatli kelajak qurish imkoniyatini beradi. Bu ko‘nikmalar o‘z ichiga kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish, texnologiyadan foydalanish va ijodiy fikrlash kabi kompetensiyalarni oladi. Ular shaxsiy va professional rivojlanish, zamonaviy jamiyatda moslashuvchanlikni ta’minlash uchun muhimdir. Keling, XXI asr ko‘nikmalarini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqamiz:

O‘quvchilar tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari muhim, bu ularga ma’lumotlarni tahlil qilish, chuqur o‘ylash, sabablarni aniqlash va qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu ko‘nikma orqali murakkab muammolarni mantiqiy va tizimli yondashuvda hal qilish o‘rgatiladi. Ijodiy fikrlash yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va mavjud muammolarni yangicha usullar bilan yechish qobiliyatidir. Bu o‘quvchilarga yangi yo‘nalishlarda tajriba qilish, ijodkorlikda o‘zlarini sinab ko‘rish va innovatsion fikrlarni amalga oshirishda yordam beradi. XXI asrda texnologiyadan samarali foydalanish ko‘nikmasi muhimdir. Kompyuter savodxonligi, dasturlash, axborot xavfsizligi, internetda ma’lumot izlash va tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlarda mas’uliyatli foydalanish kabilar zamonaviy o‘quvchilarning texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llay olishiga yordam beradi. Ko‘pgina muammolar va loyihalarni amalga oshirish uchun birgalikda ishlash zarur. O‘quvchilar boshqa fikrlarni qabul qilish, turli nuqtai nazarlarga hurmat bilan yondashish va hamkorlikda ishlashni o‘rganishadi. Kommunikativlik esa o‘z fikrlarini aniq ifodalash, o‘zaro tinglash va samimiy munosabatda bo‘lish imkoniyatini beradi. Bugungi tez o‘zgaruvchi

dunyoda yangi bilimlarni tezda o‘zlashtira olish va o‘zini boshqarish zaruriy ko‘nikma sanaladi. Moslashuvchanlik bilan birga o‘quvchilarning o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘rganish va maqsadlarga yetishish qobiliyati ham rivojlanadi. Bu ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim tizimining yangilanishi, muassasalarda zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash va o‘quv jarayonlarini texnologiyalar bilan boyitish orqali amalga oshiriladi.

XXI asr ko‘nikmalarini o‘quvchilarda shakllantirish uchun zamonaviy o‘qitish metodlari, interaktiv texnologiyalar, loyihalarga asoslangan o‘qitish va boshqa ilg‘or yondashuvlardan foydalanish zarur. Quyida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan usullar haqida batafsil keltiriladi:

Loyihalar asosida o‘quvchilarga real hayotga oid masalalarni hal qilish uchun topshiriqlar beriladi. Ular guruhda ishlash, o‘zaro muloqot qilish, yangicha yondashuvlar topish orqali nafaqat ijodiy, balki tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Loyihalarni yakunlash davomida muammolarni hal qilish, rejalar tuzish va qaror qabul qilish kabi qobiliyatlari oshadi. Ushbu metodda o‘quvchilarga hayotiy muammolar beriladi va ular mustaqil ravishda yoki jamoa bo‘lib ularni yechish yo‘llarini izlaydilar. Bu yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, mustaqil o‘rganish va muammoni turli yo‘llar bilan yechish imkoniyatini kuchaytiradi.

XXI asrda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ko‘nikmalardan biridir. O‘quvchilar kompyuter, smartfon, internet, raqamli dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar va ta’lim platformalaridan foydalanishni o‘rganadilar. Masalan, kodlash darslari, raqamli grafikalar yaratish yoki ma’lumotlarni tahlil qilish kabi amaliy mashg‘ulotlar bilan ularning texnologik savodxonligi oshadi.

Jamoaviy ishlash orqali o‘quvchilar o‘zaro hurmat, tinglash, murosa qilish va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Guruhiy loyihalar yoki muammolar ustida ishlash jarayonida har bir ishtirokchi o‘z yondashuvini qo‘shadi, natijada har bir o‘quvchi o‘zining kuchli tomonlarini rivojlantiradi va muloqot qobiliyatlari oshadi.

Interfaol darslar va o‘yin texnikalari o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va motivatsiyalarini oshiradi. Bu usul orqali ular tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. O‘yinlar o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish va xatolar orqali o‘rganish imkonini beradi.

Ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar – insho yozish, loyihalar yaratish, san’at va dizayn faoliyatlari o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini ifodalash va kreativ fikrlash imkoniyatini beradi. Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining ijodiy imkoniyatlarini namoyish qilishlari va rivojlantirishlari mumkin.

Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarga o‘zlarini o‘rganish jarayonida kuzatish, qiyinchiliklarni tahlil qilish va o‘z ustida ishlash imkonini

beradi. Har bir darsdan keyin yoki loyihani yakunlagandan so‘ng o‘quvchilar o‘z muvaffaqiyatlari va kamchiliklarini baholashadi va kelajakda yaxshilanish yo‘llarini topadilar. Bu o‘z-o‘zini boshqarish va doimiy o‘rganish uchun muhim qadamdir.

XXI asrda nafaqat intellektual, balki emotsional ko‘nikmalar ham muhim. Sinf ichida empatiya, o‘z-o‘zini boshqarish, stressni boshqarish va ijobiy fikrlash bilan bog‘liq faoliyatlar orqali o‘quvchilar ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning o‘zaro muloqotda ochiq va konstruktiv bo‘lishlariga yordam beradi. Ushbu usullar XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar o‘z kelajaklariga tayyor bo‘ladilar va zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari osonlashadi. Geografiya fanini o‘qitishda XXI asr ko‘nikmalarini singdirish – o‘quvchilarning global bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni hozirgi zamon muammolarini tushunishga va ularga yechim izlashga tayyorlashdir.

Geografiyani o‘qitishda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi usullar samarali:

-Geografiyada raqamli xaritalar, geografik axborot tizimlari (GIS), sun‘iy yo‘ldosh suratlari va virtual haqiqat (VR) kabi texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning texnologik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, GIS orqali o‘quvchilar muayyan hududlarning iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslar taqsimoti yoki demografik ma’lumotlarini tahlil qilib, turli ma’lumotlar asosida muammolarni o‘rganishadi. O‘quvchilarni loyihalarga jalb qilish orqali real geografik muammolar, masalan, global iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi yoki qishloq va shahar geografiyasi kabi masalalarni o‘rganishga undash mumkin. O‘quvchilar o‘z loyihalarida geografik tahlil, xaritalar tuzish va atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni hisobga olish orqali ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

-O‘quvchilarga global va mahalliy geografik muammolarni hal qilish topshiriqlarini berish orqali ularni jamoaviy muhokama va mustaqil o‘rganishga jalb qilish mumkin. Masalan, suv resurslarining taqsimoti, aholi ko‘payishi yoki o‘rmonlarning kamayishi kabi muammolarni o‘rganishda o‘quvchilar turli faktlarni tahlil qiladilar va muammo yechimlarini ishlab chiqadilar. Geografiya fanida jamoaviy loyihalar orqali muayyan geografik mavzularni o‘rganish, ma’lumot yig‘ish va tahlil qilishni o‘rgatish mumkin. Masalan, guruh bo‘lib mahalliy aholi migratsiyasi yoki urbanizatsiya darajasini o‘rganish orqali o‘quvchilar hamkorlik qilish, muloqot va axborot almashish ko‘nikmalarini oshiradilar.

-Google Earth kabi platformalar orqali virtual sayohatlar uyushtirish o‘quvchilarga dunyoning turli burchaklari bilan tanishish imkonini beradi. Ular o‘rganayotgan hududlarning tabiiy va ijtimoiy xususiyatlarini ko‘rish, joylarning iqlimi, landshaftlari va odamlarning hayoti haqida chuqurroq

tushunchaga ega bo‘ladilar. Bu usul geografiyani vizual va qiziqarli o‘rgatishga yordam beradi. O‘quvchilarni muayyan mavzularda muloqot qilishga, o‘z fikrlarini aniq va ishonarli ifodalashga o‘rgatish uchun ochiq savollar va fikr almashinuvlar tashkil etiladi. Masalan, “Global iqlim o‘zgarishi bizning mintaqamizga qanday ta’sir qiladi?” kabi savollar o‘quvchilarning fikrlash va muammolarni tushunish darajasini oshiradi. Geografiyadagi har bir mavzudan keyin o‘quvchilar o‘zlarini baholashlari va refleksiya qilishi uchun vaqt ajratiladi. Bu orqali ular o‘zlarining bilimlarini qanday rivojlantirish kerakligini tushunishadi, kamchiliklarini aniqlashadi va yanada samarali o‘rganish usullarini qo‘llashni o‘rganadilar.

Ijtimoiy masalalar va global muammolarni o‘rganish jarayonida empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, tabiiy ofatlar yoki ekologik muammolar haqida dars o‘tishda o‘quvchilar bu muammolar odamlar hayotiga qanday ta’sir qilishini tushunib, atrof-muhitga hurmat va insonparvarlik hislarini shakllantirishadi. Bu usullar orqali geografiya fanini o‘qitishda XXI asr ko‘nikmalarini singdirib borish, o‘quvchilarning global bilimini kengaytirish, jamoaviy ishlash va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘z navbatida ularni zamonaviy dunyoning murakkab masalalariga tayyorlashga yordam beradi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, ularning ma’lumotlarni tahlil qilish, mantiqiy va asosli xulosa chiqarish, qarorlar qabul qilish va har xil manbalarni tanqidiy baholash qobiliyatlarini rivojlantirish demakdir. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi usullar samarali bo‘lishi mumkin:

O‘quvchilarga aniq javobi yo‘q, ochiq savollar berish orqali ularga chuqurroq o‘ylash imkonini berish kerak. Masalan, “Nima uchun bu muammo paydo bo‘lgan deb o‘ylaysiz?”, “Turli tomonlarning fikriga ko‘ra, qanday xulosaga kelish mumkin?” kabi savollar o‘quvchilarni tahlil qilishga undaydi. Muammoga asoslangan o‘qitishda o‘quvchilar amaliy muammolarni hal qilish jarayonida ularni tahlil qiladi, sabab va yechimlarini izlaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, atrof-muhit muammolari yoki iqtisodiy masalalar asosida mavzular ishlab chiqish mumkin. O‘quvchilarga turli mavzular yoki ma’lumotlarni taqqoslash va tahlil qilish topshiriqlarini berish orqali ularni asosiy va ikkinchi darajali ma’lumotlarni ajratishga o‘rgatish mumkin. Masalan, ikki xil maqola yoki voqea haqida ma’lumot berib, ularning farqlari va o‘xshashliklarini tahlil qilish topshiriladi. Dars davomida o‘quvchilardan o‘z fikrlarini izohlashlarini so‘rab, ularga tanqidiy fikrlash imkonini berish kerak. Bu usul ularga o‘z qarashlarini asoslash, dalillar bilan tasdiqlash va turli nuqtai nazarlardan qarash imkonini beradi. Dars davomida munozaralar tashkil qilish o‘quvchilarning fikrlarini ochiq bildirish, qarashlarini himoya qilish va boshqalarning fikrlarini tanqidiy tahlil qilishiga yordam beradi. Masalan, "Bir muammoni yechish uchun qanday

yo‘l tanlash kerak?” mavzusida jamoaviy muhokamalar uyushtirilishi mumkin. Rollarni almashtirish o‘quvchilarni boshqa nuqtai nazarlarni tushunishga o‘rgatadi. Masalan, biror voqeda turli tomonlarning roli va qiziqishlarini o‘rganish orqali o‘quvchilar masalani boshqa jihatdan baholashga o‘rganishadi. Bu usul orqali ular turli vaziyatlarda o‘z nuqtai nazarlarini qayta ko‘rib chiqishga odatlanadilar. Tanqidiy fikrlash uchun o‘qish va yozish mashqlari juda samarali. O‘quvchilarga turli maqolalar, adabiyotlar yoki yangiliklarni tanqidiy o‘qish topshirig‘i beriladi va ular o‘qilgan ma’lumotlarni tahlil qilgan holda o‘z xulosalarini yozadilar. Bu usul o‘quvchilarga ma’lumotlarni o‘qib tushunishni chuqurlashtirish imkonini beradi. O‘quvchilardan biror voqea yoki muammo qanday rivojlanishi mumkinligini tahlil qilishlarini so‘rash tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, “Agar odamlar suvdan foydalanganida chora-tadbirlarni o‘z vaqtida ko‘rmaganida nima bo‘lardi?” kabi savollar o‘quvchilarga mumkin bo‘lgan oqibatlarini tasavvur qilish va sabablarni aniqlashni o‘rgatadi.

O‘quvchilarga dars yakunida o‘zlarini baholash va o‘rganilgan mavzular haqida refleksiya qilish imkonini berish o‘z-o‘zini tahlil qilishni o‘rgatadi. Ular o‘z bilimlari va fikrlash qobiliyatlari to‘g‘risida o‘ylab, qaysi nuqtalarda yaxshilanish kerakligini aniqlashadi. O‘quvchilarga dalillar bilan ishlash, ularni tahlil qilish va dalillarga asoslanib xulosalar chiqarishni o‘rgatish tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Masalan, ular biror mavzu bo‘yicha turli dalillarni ko‘rib chiqib, qaysi dalil ko‘proq ishonarli ekanini aniqlashadi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish o‘quvchilarning akademik bilim olishiga yordam berish bilan birga, ularni kelajakda mustaqil va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga, turli vaziyatlarda chuqur va mantiqiy fikrlashga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilova N.G. Ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati // Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda ta’lim sifatini boshqarish muammolari: Xalqaro anjuman materiallari. – Qo‘qon, 2022 – B. 38-41.
2. Dilova N.G. O‘quvchilarning shaxsiy sifatlari – pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili // Science and education. Vol. 2, Issue 10 2021 – P. 558-566.
3. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. – T.: TDPU bosmaxonasi, 2015 – 107 b.
4. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik / Mualliflar: Musayev P. G., Musayev J.P. – T.: Sharq, 2019. - 176 b.
5. Ahmadaliyev Yu.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona, 2018. – 136-b

TA’LIM TIZIMIDA YOSHLARNING HAYOTIY MAQSADLARINI TO‘G‘RI SHAKLLANTIRISHNING G‘OYAVIY-TARBIYAVIY MASALALARI

Karimov Sanjar Sindorqulovich – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrası mudiri

Ta’lim tizimida yoshlarning hayotiy maqsadlarini to‘g‘ri shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ham qamrab oladi. Shu bois, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning hayotiy maqsadlarini belgilashda g‘oyaviy-tarbiyaviy yondashuvlarni qo‘llash muhimdir. Bu esa yoshlarning kelajakda jamiyatda munosib o‘rin egallashlari va komil inson bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Ayniqsa, globallashuv jarayonida yoshlarning hayotiy maqsadlarini to‘g‘ri shakllantirish masalasi yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Zamonaviy axborot oqimi va madaniy ta’sirlar yoshlarning qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, ta’lim tizimida g‘oyaviy-tarbiyaviy masalalarga e’tibor qaratish muhimdir. Bu esa yoshlarning milliy qadriyatlarni anglashlari va mustahkam hayotiy maqsadlarni shakllantirishlariga xizmat qiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Chunki, globallashuv nafaqat shaxsning moddiy turmush tarziga, balki uning ma’naviyati va ichki dunyosiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Virtual makonda har kuni millionlab axborot resurslarining paydo bo‘lishi ularning ta’sirining kuchayib borayotganligini vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Global tarmoq sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi internetning insonlarning dunyoqarashi va bilimni kengaytirishdagi ahamiyatini e’tirof etgan holda, oddiy axloqiy me’yorlarga zid bo‘lgan g‘oyalarni targ‘ib qilishda ham xuddi shu tizimdan foydalanilayotganini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Transmilliy jinoiy guruhlar, terrorchilar va mutaassiblar zamonaviy axborot texnologiyalarining ushbu imkoniyatlaridan bimalol foydalanmoqda. Binobarin, globallashuv dunyoni birlashtirishi va bir vaqtning o‘zida jamiyatlarni parchalashi haqidagi xavotirlar asosli.

Bu jarayonni talqin qilishda dunyo xilma-xilligini saqlash ahamiyatini ataylab kamaytirib, qudratli G‘arb davlatlarining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga bo‘rttirilgan urg‘u beriladi. Ularning asl niyatlari globallashuv niqobi ostida xalqlarning o‘ziga xosligini “tekislash”, butun dunyoda madaniy xilma-xillikni yo‘q qilish va ma’naviyatni bir xillashtirish atrofida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev bu masalaga to‘xtalar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: “Bugun qancha yoshlar soxta aldovlarga uchib, o‘z umrini xazon qilayotganini o‘ylab, to‘g‘risi, tunlari uxlamasdan chiqaman. O‘zingiz ayting, aziz birodarlar, bu achchiq haqiqat yuragimizga xanjar bo‘lib sanchilishi kerak emasmi? Axir, kechagina shu yoshlar, o‘zimizning qorako‘zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o‘g‘limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto‘g‘ri yo‘lga kirib ketdi? Biz nega g‘aflatda qoldik? Qachon, qayerda xatoga yo‘l qo‘ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo‘liga o‘tib ketdi? Nima jin urdi-yu ular o‘z ota-onasi, o‘z yurtining dushmaniga aylanib qoldi? Bugun bu mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo‘ladi”¹,

Darxaqiqat, bu kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun - mustahkam ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga, qat’iy hayotiy pozitsiyaga, aniq hayotiy maqsadlarga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri ekanligi ayon bo‘lmoqda.

Yoshlarning hayotiy maqsadlarini to‘g‘ri esa shakllantirish jamiyatdagi ustuvor g‘oyalar va mafkuraviy jarayonlar bilan bog‘langandir. Bu o‘rinda, milliy g‘oyaning - milliy va shaxsiy maqsadlarni uyg‘unlashtirishdagi ahamiyatini ta’kidlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy g‘oya muayyan xalqning tarixiy davomiyligini, hozirgi holatini va kelajak yo‘lini qamrab oladi. Unda xalq va jamiyat bilan aks-sado beradigan, milliy taraqqiyotning ajralmas sharti bo‘lgan ijtimoiy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladigan asosiy manfaat va maqsadlar ifoda etiladi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev milliy g‘oyaning asosilari masalasiga to‘xtalar ekan, “ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish **milliy g‘oyamizning** asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu–umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi”² deb ta’kidlaydi. Yoshlarning katta maqsadlarni ko‘zlashi va ularga intilishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash birinchi navbatdagi ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu strategik e’tibor

¹ Мирзиёев Ш. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи) – Тошкент, Халқ сўзи. 2017 йил 16 июнь № 119(6813).

² Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлиси ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4049>

yosh avlodni xalqning azaliy orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarishga qodir qudratli kuchga aylantirishga qaratilgan.

G‘oyalarning jamiyat mafkurasiga aylanishi uchun ilmiy, nazariy va uslubiy asoslar zarur. Faylasuf-olim J.Yaxshiliqov ta’kidlaganidek, g‘oya, eng avvalo, maqsadni bildiradi, uni amalga oshirish sari xalqni birlashtiradi, safarbar qiladi. Milliy g‘oya ijtimoiy g‘oyaning shakli sifatida millat mavjudligining butun spektrini – o‘tmishi, buguni va kelajagini qamrab oladi. U tub manfaat va maqsadlarni ifodalovchi, rivojlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi, yuksak va bunyodkorlik g‘oyalariga asoslansa, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy yuksalish katalizatori bo‘lib xizmat qiladi³.

O‘z hayotiy maqsadlarida Vatanga xizmat qilishga sadoqatli yoshlarni tarbiyalashda O‘zbekiston milliy mafkurasining asosiy g‘oyalarini uzluksiz tushuntirish zarur. Bu milliy va umuminsoniy tamoyillarga urg‘u berishni o‘z ichiga oladigan mafkuraviy tarbiyaning muhimligini keltirib chiqaradi.

Mafkuraviy tarbiya - bu jamiyatdagi shaxslarning bilish doirasidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa jihatlarni o‘z ichiga olgan o‘ziga xos dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu jarayon ma’lum bir mafkuraga asoslangan tamoyillarni maqsadli ravishda rivojlantirishni o‘z ichiga oladi, bu bir qator yetakchi e’tiqodlarni singdirish va mustahkamlash uchun tizimli harakatni ifodalaydi.

Mafkuraviy tarbiya alohida ish emas, balki kengroq tizimning ajralmas qismi ekanligini tushunish juda muhimdir. U jamiyatning keng kontekstida ajralmas komponent sifatida faoliyat yuritib, shaxslarga, ijtimoiy guruhlariga, millatlarga va umuman jamiyatga ta’sir qiladi. Mafkuraviy tarbiya - bu shaxslar yoki jamoalarning dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarga mos keladigan zarur mafkuraviy bilimlar bilan qurollantirishga qaratilgan jarayonlarning murakkab o‘zaro ta’siridir.

Amalda mafkuraviy tarbiya turli sohalarda, jumladan, oilada, mahallada, ijtimoiy-ommaviy muassasalarda, ma’muriy-siyosiy tashkilotlarda, mehnat jamoalarida rivojlanadi. Bu xilma-xil sharoitlar jamiyat tarkibidagi shaxslarning yaxlit rivojlanishiga birgalikda hissa qo‘shadi.

Mafkuraning ahamiyati shaxsning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini idrok etish, ular o‘zini tasavvur qiladigan ijtimoiy mavqeini hisobga olish bilan chambarchas bog‘liq. Mafkuraning asosiy jihati uning shaxsning dunyoqarashiga, jumladan, uning hayotiy maqsadlari va yetakchi tamoyillariga ta’sir ko‘rsatish, ularni oldindan belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan muayyan ijtimoiy harakatlar va faoliyatga undash qobiliyatidadir. Bu asosiy mohiyat butun dunyo bo‘ylab mafkuralarning umuminsoniy xususiyatini ta’kidlaydi. Siyosatshunos R.Jumayev ixcham ta’kidlaganidek, “Mafkura

³ Яхшиликков Ж.Я., Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. Монография – Т.: «Фан», 2017. –Б. 49

muayyan maqsadlar yo‘lida o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan insonlar o‘rtasidagi munosabat, kishilarning o‘zini va boshqalar orasidagi o‘rnini anglashi, baholashi va shu asosda mavjud ijtimoiy munosabatlar rivojiga yoki aksincha, uning barham topishiga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyatining modelidir ”.

Mohiyatan, har qanday jamiyat muayyan maqsadlar sari intilishi bilan birga, u o‘ziga xos mafkurani ham rivojlantiradi. Bu mafkuraviy asos nafaqat mafkuraviy tazyiqlarni oldini olish, balki mafkuraviy tazyiqlarni oldini olish uchun ham xizmat qiladi. Faylasuf olim S.Choriyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, jamiyatlar nafaqat o‘z maqsadlarini amalga oshirish, balki tashqi mafkuraviy ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatgan holda o‘zini potensial deideologizatsiyadan himoya qilish uchun ham mafkuralarni faol rivojlantirmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yoshlarning hayotiy maqsadlari va faoliyatini milliy manfaatlar va jamiyat maqsadlariga moslashtirish ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili bo‘lib turibdi. Bu uyg‘unlik nafaqat milliy o‘zlikni saqlashni ta’minlabgina qolmay, balki xalqni zamonaviy landshaftda oldinga siljituvchi dinamik kuch bo‘lib ham xizmat qiladi. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda, milliy qadriyatlar va intilishlarni yoshlar ongiga singdirishda, ehtimol, ta’lim va madaniy tashabbuslar orqali innovatsion yondashuvlarni o‘rganish, individual intilishlarning kengroq ijtimoiy maqsadlar bilan uyg‘un integratsiyasini yanada mustahkamlashi mumkin. Bundan tashqari, ta’lim tizimida ochiq muloqot va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yoshlarga davom etayotgan mafkuraviy munozaraga mazmunli va konstruktiv tarzda kirishish va unga hissa qo‘shish imkonini beradi.

TA’LIM JARAYONIGA INNOVATSION PEDAGOGIK VA KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV

Ergashev Orifjon Ungarovich – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada O‘quvchilarga bilim berishda o‘qituvchining kompetentlik darajasi va kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, pedagogika, kontseptsiya, tizim, gnoseologiya, investitsiya, kompetentsiya, texnologiya, kasbiy ko‘nikma.

Keng ma’noda “Innovatsiya” pedagogik tizimga yangilik kiritish yo‘li bilan ta’lim-tarbiya jaryonini maqbullashtirish, sifat va samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Pedagogik tizimga kiritilgan yangilik sifat va samaradorlikka salbiy ta’sir qilishi ham mumkin. Biz tizimga uning ichki zaxira va imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va

samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklarnigina innovatsiya deb tushunamiz. Pedagogik tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va samaradorlikka erishishga oid g‘oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin. So‘nggi 20-30 yil davomida pedagogik tizimga ko‘plab yangiliklar kiritilayotganligining guvohi bo‘lib turibmiz. Misol sifatida yangi kontsepsiyalar, investitsiyalar, DTS, testlar, muqobil o‘quv rejalar, yangi turdagi o‘quv yurtlari, texnologiyalar va shu kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Hozirgi kunda yangi texnika va texnologiyaning kirib kelishi ham amaliy ham nazariy bilimga ega bo‘lgan maxsus fanlarni yaxshi o‘zlashtirgan malakali kadrlarni etishtirish talabi asosida o‘quvchilarga darslarni hozirgi davrda zamon talablariga javob beradigan yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib boriladigan darslarga o‘quvchilarga yaxshi bilim beradi.

O‘quvchilarga bilim berishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati to‘g‘risida so‘z borganda ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor.

Xozirgi zamonaviy ta’lim texnologiyalarining har biri o‘zida o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazish shart-sharoiti to‘g‘risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko‘zlangan natijalarni, o‘quv mashg‘ulotning rejasi, ta’limning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. SHuningdek o‘qituvchi va o‘quvchining mazkur o‘quv mashg‘ulotida erishadigan maqsadi bo‘yicha hamkorlikdagi faoliyatining bosqichma-bosqich ta’riflanishini ham o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko‘rinib turibdiki, ta’lim jarayoniga ta’limning yangi, zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va ular o‘quv mashg‘ulotlarida keng ko‘lamda samarali foydalanilmoqda. Jumladan, o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik g‘oyalar amalga oshirilmoqda. Shu bois, o‘qituvchi bilim olishning yagona manbai bo‘lib qolishi kerak emas, balki o‘quvchi mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lishi lozim. Zamon talablariga javob beradigan fidoiy izlanuvchan yangilikga intiluvchan tashabbuskor kasbiy bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. O‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining o‘rni hozirgi kun mutaxasisi zamon bilan hamnafas bo‘lmog‘i lozim.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda zarur bilim va malakalarni hosil qilish yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Mashg‘ulotlarga oid didaktik, ko‘rgazmalar, multimediya,

kompyuter vositalari va inovatsion texnologiyalardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni olib borish bu borada kutilgan natijani beradi.

Respublikamizda qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilayotganligi natijasida zamonaviy ta’lim tizimiga muvaffaqiyat bilan joriy etilayotganligi zamon talablariga mos har tomonlama rivojlangan yuksak ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashni ta’minlaydi. Ana shunday zamonaviy talablarni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish zamonaviy o‘qituvchining kompetentlik darajasiga chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan pedagogika ta’lim to‘g‘risidagi fan inson hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirishdir.

O‘qituvchi kompetentsiyasi – uning nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakasi, dunyoqarashi, e’tiqodi va barcha shaxsiy individual ijtimoiy psixologik sifatlarining namoyon bo‘lishidir. Ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri, bu – o‘qituvchining o‘z fani bo‘yicha kompetentsiyaga ega bo‘lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo‘ladi. Bular:

- ilmiy bilish;
- gnoseologik bilish;
- pedagogik faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish;
- har qanday muammoli vaziyatlarning samarali echimini topishga ijodiy kreativ yondashish;
- ta’limiy, tarbiyaviy ta’sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;
- o‘zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o‘rganish va ichki psixologik zahirasi samarali foydalanish orqali o‘zini muttasil rivojlantirish.
- jamiyat va insonlarga, tabiatga borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo‘lish ijobiy pozitiv fikrlashga o‘tish tajribasidan iborat.

O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan talim modelining markazida o‘quvchi turadi. Har bir qadam, har bir maqsad o‘quvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanadi. Kommunikatsiya vositalari inqilobi, axborotning toshqindek ortib borishi va dunyodagi o‘zgarishlar bizning yashash, tafakkur qilish va muloqot tarzini o‘zgartiradi. Demak, zamonaviy ta’lim oldida yoshlarni umuman yangi shart – sharoitlarda yashashga o‘rgatish vazifasi turibdi. E’tibor bergan bo‘lsangiz, ko‘pchilik olim va pedagog – novatorlar an’anaviy o‘qitish shakl va usullari hayotni zamonaviy talablariga mos kelmasligini anglab etgan holda XX asrning ikkinchi yarmida muqobil

usullarni izlanishni boshlashdi va natijada interfaol o‘qitish yondashuvi yuzaga keldi.

Buyuk faylasuf Konfutsiy aytgan edi: “Men nimani eshitsam, unutamam, nimani ko‘rsam xotiramda saqlayman, nimani o‘zim qilsam, tushunaman”. Shuning uchun ta’lim jarayonida o‘quvchilarga faol bo‘lishni talab etadigan uslublarda dars o‘tish yaxshi natija beradi.

Bugungi kunda talim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, interfaol metodlarni qo‘llash talim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Bolalarga talim, bilim, malaka berish bilan birga, o‘z kasbiga, o‘z ishiga mehrlil bo‘lishni, ish vaqtida unga butun vujudi bilan berilib ketishini o‘rgatishimiz va o‘qtirishimiz darkor deb o‘ylayman. Bu borada Kompetenttsiyaviy yondashuv ayni muddao bo‘lardi. Ta’lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o‘qituvchining o‘z fani bo‘yicha kompetenttsiyaga ega bo‘lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim insonning (ta’lim oluvchining) hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirish bo‘lib u jarayon yoki oqibat natija sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan pedagogika ta’lim to‘g‘risidagi fan inson hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirishdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni

2. Tolipov U., Usmonboeva. M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

3. Пранскуне Э., Грудене С. и др. Новая роль и компетенция учителя. Литва.- 2011.

4. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda malaka oshirish tizimining vazifalari konferensiya materiallari. Toshkent-2011y.

MAKTABNI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ko‘bayev Akmal Sirliyevich – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasida dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Anotatsiya

Ushbu maqolada maktab ichki boshqaruvi tizimini tashkil qilish, boshqariluvchi tizim hamda boshqarish manbalari haqida, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida keng ko‘lamda ijtimoiy islohotlar, ijtimoiy munosabatlarning demokratik va insonparvarlik g‘oyalariga asoslanishini

ta’minlash, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish kabi ezgu maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilishi borasidagi fikr mulohazalar ustida to‘xtalib o‘tilgan.

Аннотация: В данной статье затрагиваются вопросы организации системы школьного внутреннего управления, управляемой системы и источников управления, широкомасштабных социальных реформ в Республике Узбекистан в годы независимости, обеспечения демократических и гуманистических идей общественных отношений, а также ориентации на реализацию благородных целей, таких как достижение социально-экономической стабильности.

Anotation: This article focuses on the organization of the school internal management system, the management system and the sources of management, the provision of large-scale social reforms in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, the foundation of democratic and humanitarian ideas of social relations, as well as the orientation towards the implementation of noble goals such as achieving socio-economic stability.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida keng ko‘lamda ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Islohotlar jamiyat hayotini yaxshilash, ijtimoiy munosabatlarning demokratik va insonparvarlik g‘oyalariga asoslanishini ta’minlash, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish kabi ezgu maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirildi. Ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini ta’minlashda rahbarlar va ularning kommunikativ faoliyati alohida o‘rin tutadi. Ta’lim muassasalari subyektlari faoliyatini tashkil etishga oqilona rahbarlik qilish esa islohotlar jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, kutilgan maqsadlarga erishishga imkon beruvchi muhim omil sanaladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi ta’lim-tarbiya muassasasidir. Uning rahbarlari zimmasiga yosh avlodni va tarbiyalash, inson shaxsini davrning goyalari ruhida tarkib toptirish jarayonini boshqarish vazifasi yuklatilgan. Madomiki, shunday ekan, maktab ishini asosda tashkil qilish o‘quv-tarbiya ishlariga rahbarlik va nazoratni boshqarish aqidalari asosida olib boorish muhimahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda har bir xojalik tizimi va ishlab chiqarish o‘chog‘i ikki tizimning: boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimining birligidir. Masalan, korxonada direktor boshchiligidagi zavod boshqarmasining butun boshqarma apparati boshqarish tizimiga kiradi.

Maktab ichki boshqaruvi tizimini tashkil qilishda hamana shu qoidalarga asoslaniladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganimizda maktab ichki boshqaruv tizimida ham boshqaruvchi (maktab ma’muriyati, kasaba uyushmasi

tashkilotlari) va boshqariluvchi tizimchalar mavjud. Masalan, maktab ichki tizimida direktor boshliq uning o‘quv, tarbiya va xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari boshqariluvchi tizimchasiga kiradi. Lekin bu tizimcha o‘z faoliyatida maktabdagi tashkilotlarga suyangan holda, ular bilan yaqindan hamkorlikda boshqaruv ishlarini amalga oshiradi.

Boshqariluvchi tizimcha esa o‘z yo‘lida bir qancha boshqarish manbalarga bo‘linadi. Ularga quyidagi manbalar kiradi:

1. Maktabning o‘quv-metodik va texnikaviy bazasiga taluqli ishlar;
2. Maktabni o‘qituvchi va tarbiyachi hamda texnik xodimlar bilan ta‘min etish ularni joy-joyiga to‘g‘ri qo‘yish va ular bilan ishlash;
3. Maktab jamoasi faoliyatida boshlang‘ich, to‘liqsiz o‘rta va o‘rta umumiy ta‘limni amalga oshirish;
4. Maktab o‘quv-tarbiya (1-11-sinflar) ishlari;
5. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlari;
6. Maktabning metodik ishlari;
7. Sinf rahbarlari;
8. Maktab o‘quvchilari bilan olib boriladigan ishlar;
9. Maktab kutubxonasi ishlari;
10. Ota-onalar qo‘mitasi ishlari;
11. O‘quvchilarga meditsina xizmatini tashkil qilish bo‘yicha ishlar;
12. Maktabning moliya-xo‘jalik ishlari;
13. Maktabning boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikdagi ishlari;
14. Maktab xujjatlarini yuritish ishlari;
15. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish ishlari;
16. Maktabning pedagogik tashviqot ishlari va shu kabilar.

Shunday qilib, maktabni boshqarish ishida samarali uslubni xosil qilish muammosi ko‘p kuch-g‘ayrat va bir talay vaqt sarflab hal etiladigan murakkab, ko‘p qirrali muammodir. Bu muammo darsxona yoki qiroatxonadan ko‘ra ko‘proq xizmat va jamoat faoliyati, shu jumladan, muntazam ravishda o‘z bilimini oshirish jarayonida hal etiladi. Bu muammo har bir maktab rahbarining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Maktabni boshqarish ijodiy jarayon bo‘lib, o‘ziga xos bir san‘ardir. Bu pedagogik jarayon maktab rahbarining xilma-xil ish usullarida namoyon bo‘ladi. Bu usullar esa har bir rahbarga maktabshunoslikning dolzarb masalalarini nazariy va amaliy jihatdan bilib olish, maktab-maorif sohasida ilgor pedagogik tajribalarni o‘rganish hamda bu sohadagi omilkor kishilarning maktabni boshqarish borasidagi fikr va mulohazalarini o‘rganish hamda mazkur fikr, mulohazalardan maktab ishini boshqarish jarayonida ijodiy foydalanish taqazo qiladi. Bundan esa, o‘z navbatida maktab ishini boshqarishda va rahbarlik uslubini yanada takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Har bir maktab rahbari ta’lim-tarbiya ishining u yoki bu masalasi yuzasi yuzasidan qaror qabul qilinganida, uning bajarilishini tashkil qilganida, qo‘l ostidagi (o‘qituvchi, sinf rahbari, tarbiyachi kabilar) xodimlar ishini nazorat qilganida u o‘z vazifalariga muvofiq ish ko‘radi. Lekin har bir rahbar bunda o‘ziga xos ravishda, boshqaruv jarayoni o‘zi uchun xos bo‘lgach, o‘z rahbarlik uslubini belgilaydin turli samarali usullar bilan ish ko‘radi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mutlaqo bir xil ikki kishi bo‘lmaganidek, rahbarlikda ham mutlaqo bir xil uslub yo‘q. Rahbarlik uslubi rahbarlarning o‘z qo‘l ostidagilar bilan bevosita aloqasida, ularning o‘zaro munosabatlarida tarkib topadi. Rahbarlik uslubi uchun demokratizm, jamoachilik, yuksak javobgarlik va siyosiy onglilik, tashabbuskorlik kabi aqidalar xosdir.

Har bir rahbar – tarbiyachidir. U pedagogik jamoani tarbiyalash uchun yuksak javobgarlikni his etish tuyg‘usiga to‘liq ega bo‘lmog‘i lozim. Rahbar qo‘l ostidagilar shaxsiga shu qadar pedagogik madaniyatlik bilan ta’sir ko‘rsata bilishi kerakki, bu ta’sir natijasida mazkur maktab pedagoglar jamoasining har bir a’zosida onglilik shakillansin, u pedagogic mehnatga nisbatan ijodiy yondashadigan, ijtimoiy hayotga faol qatnashadigan bo‘lsin. Maktab direktorining jamoaga tayanib rahbarlik qilish san’ati, qo‘l ostidagilarning, maktabdagi jamoat tashkilotlari vakillarining fikirlarini anglab olishi va tezda to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyatini boshqaruv ishini to‘g‘ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabning ta’lim-tarbiya va xo‘jalik masalalari kengashib muhokama qilinishi lozim, qabul qilingan qarorlarni bajarishda maktab pedagoglar jamoasining har bir a’zosi tashabbus ko‘rsatish zarur.

Rahbarning maktabni boshqarish bo‘yicha mehnatini qaror qabul qilish uchun sarflangan vaqtga qarab emas, balki uning faoliyatidagi pirovard natijani hisobga olish bilan baholash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. Toshkent-2018 yil.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, НМИУ, 2017.
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. 2020 yil.
4. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”. 2024 yil.
5. Axlidinov R.Sh. Maktabni boshqarish san’ati. –Toshkent, Fan, 2006.–304 b

TA’LIM MASKANLARIDA KASBIY RIVOJLANISHNING NAVBATDAGI BOSQICHLARI

O.O.Negmatov – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi fan metodisti

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar ta’lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal maktabgacha ta’lim tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta’limda eng muhim strategik yo‘nalish ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta’lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim maskanlarida innovatsion texnologiya ko‘rinishida faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kuchaygan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 28-iyundagi 198-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan 2024-2025- o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etish boshlandi.

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning ilg‘or tajribalarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga joriy qilish;

o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik va innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish uchun sharoit yaratish;

o‘qituvchilarning o‘zi ustida mustaqil ishlashi va ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishini tashkil etish;

o‘qituvchilarni fan va uni o‘qitish metodikasiga doir yangiliklar bilan tanishtirish;

o‘qituvchilarga o‘zaro tajriba almashish, shu jumladan, “Ustoz-shogird” tizimida hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish;


o‘qituvchilarning o‘zaro dars kuzatishi, refleksiv amaliyoti hamda maktab negizida malaka oshirishi uchun imkoniyat yaratib berish.

“Kasbiy rivojlanish kuni” – o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini muntazam boyitib borish, zamonaviy o‘qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’lim tadbirlari o‘tkazilishi belgilangan haftaning muayyan kuni.

“Kasbiy rivojlanish soati” – kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o‘quvlarda o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim maktablarida qo‘llashlarini tahlil qilish, ularga zarur metodik yordam ko‘rsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda maktab negizida malaka oshirish tadbirlari o‘tkaziladigan soat.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari tashkil etiladigan kunlar quyidagi jadval asosida belgilandi:

№	Kasbiy rivojlanish kunlari	O‘quv fanlari
1.	Dushanba	Ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya) o‘qituvchilari
2.	Seshanba	Filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o‘zbek tili/rus tili) o‘qituvchilari
3.	Chorshanba	Tabiiy fanlar (fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot, tabiiy fan – Science) o‘qituvchilari
4.	Payshanba	Aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) o‘qituvchilar
5.	Juma	Xorijiy tillar o‘qituvchilari
6.	Shanba	Amaliy fanlar (tasviriy san’at, chizmachilik, musiqa madaniyati, texnologiya, jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik) va boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari



Kasbiy rivojlanish kuni va Kasbiy rivojlanish soati tuzilmasi.

Umumta’lim maktablarida metodik kunning tashkil etilishi fan o‘qituvchilarining rivojlangan mamlakatlar metodikalarini o‘rganishi va ish faoliyatida foydalanish imkonini beradi. O‘zbekistondagi ta’lim tizimini yaxshilash borasida xorij tajribalarini o‘anish va xalqaro standartlarga javob beradigan tizim yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarning bari maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Hozirgi davrda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatlarini tashkil etish davr talablaridan biridir. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kun innovatsion texnologiyalarini ilm-fan va ta’lim sohasida muvaffaqiyatli qo‘llanilsa, yangi yosh avlod ana shu jahon tajribasi asosida saboq olib, ulg‘aysa, davlatimizning ertangi istiqboli, kelajagi yorqin bo‘lishiga shak-shubha yo‘q. Har tomonlama rivojlangan innovatsion tizimga ega mamlakatlardagina innovatsiya jarayonlari samarali amalga oshirilib, ilm-fan taraqqiyoti va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydigan mexanizmining asosini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil “7”-avgustdagi 246-son buyrug‘i.
2. JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti o‘qituvchisi diyor tursunov. “Singapur ta’lim tizimi”. Jizzax 2024 y.
3. Anvar Xo‘jayev, Singapur ta’lim tizimi : jahon maorifida yetakchi brendga aylangan, Ma’rifat.

2-BO‘LIM: TABIIY VA ANIQ FANLARNI O‘QITISHDAGI ILG‘OR TAJRIBALAR

FIZIKA FANINI O‘QITISH: ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI

Abdugaffarov Mirjalol Abduraximovich – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi fizika fani metodisti

Anotatsiya

Ushbu maqolada fizika fanini o‘qitishning o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Fizika ta’limi tabiat hodisalarini tushunish, sabab-oqibat aloqalarini anglash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali ilmiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada fizikani o‘qitishning metodologik yondashuvlari – amaliy mashg‘ulotlar, loyiha usuli, interaktiv texnologiyalar va tarixiy yondashuvlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, ekologik savodxonlik va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli alohida yoritilgan. Maqola, fizikani o‘qitish orqali yosh avlodni ilm-fan asosida fikrlashga va global muammolarni hal qilishga yo‘naltirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение преподавания физики в формировании научного мировоззрения учащихся. Образование по физике служит формированию научного мышления путем понимания явлений природы, понимания причинно-следственных связей и развития критического мышления. В статье представлена подробная информация о методических подходах к преподаванию физики - практических занятиях, методе проектов, интерактивных технологиях и исторических подходах. Также выделена роль экологической грамотности и современных педагогических технологий. В статье показано, что, обучая физике, можно направить молодое поколение мыслить на основе науки и решать глобальные проблемы.

Abstract: This article analyzes the role and importance of teaching physics in the formation of a scientific worldview in students. Physics education serves to form scientific thinking through understanding natural phenomena, understanding cause-and-effect relationships, and developing critical thinking. The article provides detailed information about methodological approaches to teaching physics - practical exercises, project methods, interactive technologies, and historical approaches. The role of environmental literacy and modern pedagogical technologies is also highlighted. The article shows that teaching physics can help direct the younger generation to think scientifically and solve global problems.

Kalit so‘zlar: Fizika fanini o‘qitish, ilmiy dunyoqarash, fizika ta’limi, tanqidiy fikrlash, tabiat qonuniyatlari, pedagogik metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, zamonaviy texnologiyalar, ekologik savodxonlik, tarixiy yondashuv, ilmiy tafakkur rivoji, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi

Ключевые слова: Преподавание физики, научное мировоззрение, физическое образование, критическое мышление, законы природы, педагогические методы, производственная практика, современные технологии, экологическая грамотность, исторический подход, развитие научного мышления, творческое мышление учащихся.

Keywords: Teaching physics, scientific worldview, physics education, critical thinking, laws of nature, pedagogical methods, practical exercises, modern technologies, environmental literacy, historical approach, development of scientific thinking, creative thinking of students.

Fizika fani insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. U tabiat qonuniyatlarini o‘rganish orqali texnologik rivojlanishning asosini yaratadi. Fizikani o‘qitish faqat nazariy bilimlarni yetkazish emas, balki o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va atrof-muhitni chuqurroq anglash ko‘nikmalarini mustahkamlashni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada fizikani o‘qitishning ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni va usullari ko‘rib chiqiladi.

Fizika va ilmiy dunyoqarashning uzviy bog‘liqligi

Ilmiy dunyoqarash insonning tabiat, jamiyat va tafakkur jarayonlari haqidagi qarashlar tizimini ifodalaydi. Fizika fanida tabiat hodisalari, ularning sabablari va natijalari chuqur o‘rganiladi. Bu esa o‘quvchilarni:

- Hodisalarni kuzatish va tahlil qilish,
- Sabab-oqibat aloqalarini anglash,
- Haqiqatga intiluvchi mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi.

Masalan, Nyuton mexanikasi, termodinamika qonunlari yoki elektromagnit maydon tushunchalari nafaqat tabiatni tushunishga yordam beradi, balki koinotning yagona qonuniyatlari asosida ishlashini anglashga zamin yaratadi.

Fizika ta’limining metodologik jihatlari

Fizikani o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Quyidagi metodlar bu jarayonda samarali:

1. **Amaliy mashg‘ulotlar va tajribalar:** Fizika darsida o‘tkaziladigan laboratoriya ishlari va tajribalar o‘quvchilarni nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Bu, ayniqsa, tabiat qonuniyatlarini o‘z ko‘zi bilan kuzatib, tasdiqlash imkonini beradi.

2. **Loyiha usuli:** Fizika sohasidagi muammolarni o‘rganishga asoslangan loyihalar ilmiy-ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, energiya resurslarini samarali ishlatish yoki atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha ilmiy loyihalar.
3. **Interaktiv o‘qitish:** Zamonaviy texnologiyalar (simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar) orqali fizik jarayonlarni modellashtirish, ularni oson va qiziqarli tarzda tushuntirish imkonini beradi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim aspektlar

Fizika fanini o‘qitish jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun quyidagi omillarni inobatga olish zarur:

- **Tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish:** Fizik qonunlarni o‘rgatish bilan birga, ularni qo‘llashdagi chegaralar va farazlarni muhokama qilish.
- **Tarixiy yondashuv:** Fizika rivojining tarixiy bosqichlarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda ilm-fan evolyutsiyasini anglash. Masalan, Kopernik, Galileo yoki Nyuton kashfiyotlarining ilmiy tafakkur rivojiga ta’siri.
- **Ekologik savodxonlik:** Fizika fanini o‘qitishda ekologik masalalar va barqaror rivojlanishga oid mavzularni kiritish.

Xulosa

Fizika fanini samarali o‘qitish nafaqat o‘quvchilarni ilmiy bilimlar bilan ta’minlaydi, balki ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa kelajakda tanqidiy fikrlashga ega, mantiqiy va ijodiy yondashuvlarni qo‘llay oladigan, atrof-muhitni anglaydigan va unga mas’uliyat bilan qaraydigan shaxslarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Fizikani o‘qitishda yangicha metodlarni qo‘llash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali yosh avlodga ilm-fan va texnologiya asoslarini chuqurroq tushuntirish va ularga global masalalar yechimida o‘z hissasini qo‘shish imkoniyatini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov, R. X. "Fizika ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash", Toshkent, O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2019.
2. Volfson, A. A. "Fizika darslarini tashkil qilish va o‘qitish metodikasi", Moskva, Prosveshcheniye, 2017.
3. Karimov, B. T. "Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik asoslari", Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim Akademiyasi, 2020.
4. Polat, E. S., Buharkina, M. Y. "Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari", Moskva, Akademkniga, 2018.
5. Holodnyy, M. E. "Fizika fanini o‘qitishda interaktiv metodlar", Sankt-Peterburg, Piter, 2016.
6. Hasanov, Q. A. "Barqaror rivojlanish va ekologik savodxonlikni shakllantirishda fizika fanining o‘rni", Toshkent, 2021.
7. UNESCO. "21-asrda ta'limning global tendensiyalari", Paris, 2020.

8. Dewey, J. "Ta'lim va tajriba", Toshkent, Ma'naviyat nashriyoti, 2020 (original asar tarjimasi).
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiya", Toshkent, 2022.
10. Internet resurslar:
 - Fizika bo‘yicha xalqaro olimpiada materiallari: <https://www.ipho.org>
 - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi veb-sayti: <http://www.uzedu.uz>

TABIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA BILIM, KO‘NIKMA VA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Axmedova Nargiza Bozorovna – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi biologiya fani metodisti

Annotatsiya

Tabiiy fanlarni o‘rganishning komponentlari bo‘lgan bilim, ko‘nikma va Qadriyatlarni shakllantirish orqali dars samaradorligiga erishish.

Kalit so‘zlar: Bilim, ko‘nikma, qadriyat, protsessual bilimlar epistemik bilimlar, kompetensiya.

Аннотация. Достижение эффективности урока через формирование знаний, умений и ценностей, которые являются составляющими обучения естественным наукам.

Ключевые слова: Знание, умение, ценность, процедурное знание, эпистемическое знание, компетентность.

Annotation. Achieving lesson effectiveness by developing knowledge, skills, and values, which are components of learning natural sciences.

Keywords. Knowledge, skills, values, procedural knowledge, epistemic knowledge, competence.

Nima uchun biz pedagog shaxsiga bunchalik e’tibor qartilayabdi. Ta’lim sifatini yaxshilash – davlatimiz siyosatining, olib borilayotgan islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri. Pedagoglar jamiyatda eng muhim o‘rin tutgan kasb egalaridir. Insonni tarbiyalab, atrofdagilarga, madaniyatga, Vatanga munosabatimizni shakllantiradigan asosan shular. Shuning uchun ham O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirishga bu qadar katta e’tibor qaratib, pedagoglarimizni xalqaro dasturlarda ishtirok etishga, dunyoning eng ilg‘or tajribalarini qo‘llashga undamoqda.

Tezlik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi dunyoda o‘qituvchi ma’lumotlarni orqasidan “quvib yetishi” mushkul vazifaga aylanib ulgurdi. Shu boisdan o‘qituvchilar “bilim beruvchi” vazifasidan “yo‘naltiruvchi” vazifasiga o‘tishi talab etilmoqda. Bizning o‘quvchilarimiz kelajakda hozir hali mavjud bo‘lmagan kasblarda ishlashiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Shuning uchun o‘quvchilarga faqat bilimlarni yetkazishning o‘zi yetarli bo‘lmasdan, ularni o‘zlari mustaqil bilim egallashlari uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish talab etilmoqda. Buning uchun avvalo o‘qituvchilarimiz yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi va ular orasidagi bog‘liqlik va farqlarni tushunishi zarur.

Tabiiy fanlar – kuzatish va tajribalar orqali tabiatni o‘rganishga va undan oqilona foydalanishga imkon beradigan bilimlar majmui. Qadim zamonlardan buyon odamlar tabiatni o‘rganishga, tabiat hodisalari mohiyatini tushunishga intilganlar. Bilim va tajribalar avloddan avlodga yetkazilgan. Bilim va tajribalar avloddan avlodga qanday yetkazilishi haqida o‘ylab ko‘rganmisiz? Bolalik davrlarimizda Bobojonlarimiz daraxt ko‘chatlarini ekishda nabiralarini yordam berishga chorlab, jismoniy mehnat orqali ularga o‘simlikning hayotiy shakllari haqida dastlabki bilimlarni berib, bog‘dorchilik kasbiga muhabbat tuyg‘usini oshiradi. Mana shu jarayonning o‘zi Qadriyat! Onalarimiz oilasidagi farzandlariga oziq-ovqat mahsulotlaridan qanday, qay tarzda foydalanishi va ular natijasida inson organizmiga foydali jihatlari haqidagi bilimlarni berishi ham Qadriyatdi! Tarbiyaning o‘zi ham eng oliy Qadriyat! Bilim, ko‘nima va qadriyatlar orasida qanday farqli jihatlari va bog‘lanishlari borligini bilasizmi? Keling, ularning mohiyatini anglash uchun maktab hayotiga nazar solamiz.

Bilim, ko‘nikma, qadriyat va munosabatlar tabiiy fanlarni o‘rganishda eng muhim vosita Tabiiy fanlar yosh avlodni bilimlarini kelajak hayotda To‘g‘ri ishlatishga yordam beradi. Tabiiy fanlarni yaxshi o‘rganish To‘g‘ri qarorlar qabul qilishga ko‘mak beradi. Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘qituvchilar asosiy kalit vazifasini bajaradi. O‘qituvchilar shifokorlardan kuchli, shifokorlar yanglishsa bitta qurbon qilishi mumkin, o‘qituvchi esa birdaniga 40 ta kishini qurbon qiladi. Kontentni bilish deganda faqat fanning mazmunini bilish nazarda tutiladi.

Bilim — kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma’lumotlarning inson tafakkurida aks etishi. Voqelik haqidagi bilgan ma’lumotlarimiz bilim darajasiga ko‘tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma’lumotlarning voqelikka mutanosibliigi; ikkinchidan, bu ma’lumotlar dalillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim.

Ko‘nikma — insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko‘nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo‘llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko‘nikma mazmunan

amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko‘nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko‘nikmalar bilim olishga, uni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Qadriyat – inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha.

Odamlar garchand bitta jamiyatda, bir davrda va o‘xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvuri, qarashlari o‘zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma’naviy qiyofasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir.

Bilim va tajribalar avloddan avlodga yetkazilgan. Bilim va tajribalar avloddan avlodga qanday yetkazilishi haqida o‘ylab ko‘rganmisiz? Bilimlarni biz ikki turga ajratamiz:

1. Protsessual bilimlar

2. Epistemik bilimlar

• **Protsessual bilimlar** deganda tabiatdagi jarayonlar To‘g‘risidagi bilimlar nazarda tutiladi. Ilmiy bilimlarni olish uchun olimlar foydalanadigan xatolarni minimallashtirish va noaniqlikni kamaytirish uchun takroriy • o‘lchashlar, o‘zgaruvchilarni nazorat qilish va ma’lumotlarni taqdim etish va uzatishning standart protseduralari kabi protseduralarni bilish.

• **Epistemik bilimlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:** Savollar, kuzatishlar, nazariyalar, farazlar, modellar va dalillarning ilmiy amaliyotdagi rollarini tushunish. Savolni shakllantiradigan va ilmiy izlanishga undaydigan qadriyatlar va mulohazalarni qadrlash, ilmiy izlanishning xilma-xil usullarini bilish. Ishonchli bilimlarni tasdiqlashda o‘zaro baholash va ilmiy konsensusning ahamiyatini tushunish.

Kompetensiyani rivojlantirish nazariyalari o‘quvchilar kasbiy kompetensiyaga erishish uchun nafaqat bilimlarni egallashlari, balki bilim, ko‘nikma va munosabatlarni birlashtirishi kerakligini ta’kidlaydi. Ko‘pgina tadqiqotlarda kompetensiya tuzilishi boshqacha ta’riflanadi Ko‘pgina kompetensiya ta’riflarining umumiy tushunchasi shundaki, u kasbiy vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan bilim, ko‘nikma va munosabatlarning birlashtirilgan qismlaridan iborat. Ko‘pgina tadqiqotchilar kompetensiyani bilim, ko‘nikma va munosabatlarning yaxlitligi deb ta’riflagan bo‘lsalar, biz integratsiyani o‘rganish jarayoni sifatida, kompetensiyani esa o‘quv mahsuloti sifatida o‘lchash kerakligini ta’kidlaymiz.

Integratsiya jarayonlari ma’lum darajadagi bilim, ko‘nikma va munosabatlarga olib keladi (ya’ni 2-daraja 1-darajaga qaraganda qiyinroq; masalan, yordamchi ishchi rahbarga qaraganda past darajadagi malakani talab

qiladi). Kompetensiyani o‘lchashda biz bunday bilim, ko‘nikma va munosabatlar darajasini baholashimiz mumkin, chunki ular kasbiy vazifani bajarish uchun birgalikda qo‘llaniladi. Bu kompetensiyaning ma’nosi (ya’ni mahsulot) vazifasini bajarish uchun ishlatiladigan bilim, ko‘nikma va munosabatlarning kombinatsiyasi bilan cheklaydi, bu esa uni To‘g‘ri va ishonchli baholashga yordam beradi. Biroq, bu bilim, ko‘nikma va munosabatlarni butunlay alohida o‘lchash mumkin degani emas. Bilim, ko‘nikma va munosabatlar birgalikda o‘lchanishi kerak (ya’ni, bir vaqtning o‘zida, bir kasbiy vazifada), chunki ular harakat namunalarida ko‘rinadi.

Biologiya fani darsliklari misolida:

7-sinf: Tangachaqanotlilar turkumi. Ipak qurti-Milliy matolarimizni.

Parazit chuvalchanglar xilma-xilligi. O‘simliklar va yeguliklarni istemol qilishdagi tartiblari.

8-sinf: Suyaklarni shikastlanganda yoki qon ketganda qon guruhlari mavzusida bir-biriga hurmat, odamiylik hislatlarini shakllantirish.

9-sinf: Zamburug‘lar mavzusida Non tayyorlash, Uglevodlar mavzusida Bug‘doy undurish (Sumalak tayyorlash), Oqsil mavzusi orqali esa Osh tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirish.

10-sinf: An’anaviy biotexnologiya, sut-qatiq, bug‘doy-go‘ja tayyorlanish jarayoni misolida.

11-sinf: O‘simliklarning quyoshga nisbatan munosabatida dehqonchilik va o‘simliklarga muhabbatini oshirish. Tabiiy yodgorliklarni asrab avaylash. O‘zbekistonda muhofaza qilinadigan hududlarni hamda O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan o‘simliklar va hayvonlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish bilan birga jonli va jonsiz Tabiatni asrash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bu maqolada Tabiiy fanlarni o‘qitishda darslikdagi mavzular yuzasidan berilgan bilimlar hamda amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilarda kundalik turmushida uchraydigan muommolarga mustaqil yechim topishini qadriyat sifatida shakllanishi yoritilgan, ya’ni, darsliklarda ilmiy hodisalar, tushuncha va tamoyillar o‘rganiladi. Ushbu amaliy mashg‘ulot o‘quvchilarda taqqoslash va dalillar asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Yondoshuvlardan esa qiziquvchanlikni rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda o‘quvchilar Tabiiy fanlarni o‘rganish bilan bir qatorda hayotiy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tabiiy fanlar. 6-sinf uchun darslik / K. T. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 167 b.
2. <https://lex.uz/docs/-5841063>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son.

3. www.markaz.tdi.uz- Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti.
4. Yuksalish sari 45 daqiqa (Samarali dars uchun tavsiyalar). N.Kuchkarova, M.Gadi, H.Burxonxo‘jayeva, va boshqalar. Toshkent-2024-yil 5-iyun.
5. <https://president.uz/oz/lists/view/3864> . O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020.

UMUMTA’LIM MAKTABLARI KIMYO FANI O‘QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SINGAPUR DARSLIKLARIDAN FOYDALANISH

Jabborov Maqsud Mashrabovich – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi kimyo fani metodisti

Аннотация

Mazkur maqola kimyo fanini o‘qitish, kimyo o‘qitish metodikasini fan sifatida takomillashtirishda Singapurning Science Ahead darsligidan foydalanish orqali o‘quvchilarda tadqiqotchilik, baholash va xulosalash ko‘nikmalarini shakllantirish haqida yozilgan.

Аннотация: В данной статье написано о формировании у учащихся навыков исследования, оценки и заключения путем использования сингапурского учебника Science Ahead в преподавании химии, совершенствовании методики преподавания химии как науки.

Abstract: This article is written about teaching chemistry, improving chemistry teaching methodology as a subject, and developing research, evaluation, and inference skills in students through the use of Singapore's Science Ahead textbook.

Kalit so‘zlar: Science Ahead darsligi, tabiiy fanlar, kimyo o‘qitish metodikasi, ko‘nikmalar, tadqiqotchilik, baholash va xulosalash.

Ключевые слова: учебник Science Ahead, естественные науки, методика преподавания химии, навыки, исследования, оценка и выводы.

Key words: Science Ahead textbook, natural sciences, chemistry teaching methodology, skills, research, evaluation and conclusion.

KIRISH

Umumiy o‘rta talim maktablarida fanlarni o‘qitish jarayonida fan-texnika taraqqiyoti, muhandislik, tabiiy fanlar va kundalik hayot bilan bog‘lab o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning dolzarb masalasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Masalan, 2030 yilga borib o‘quvchilar bilimni baholash bo‘yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning jahondagi etakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo‘yilgan.

- Bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa horij tajribasini yaxshilab o‘rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratsa, o‘sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifamizdir, degan edilar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev.

ADABIYOTLARNI TAHLILI

Ayrim olimlar maorif ishining rivojlanishi bilan tanishish uchun boshqa mamlakatlarga bordilar. Bu sayohatlarning natijalarini nashr etib, muallimlar o‘z milliy maktabini takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatdilar. Sarbonnadagi falsafa professori Viktor Kuzen nemis pedagoglari D.A.Kruze, Fridrix Tiriniig, Amerika pedagoglari G.Mann, G.Bernard, K.Stou, Turber, A.Fleksnerning, ingliz pedagogi M-Sedler va boshqalarning ishlari shular jumlasidandir. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlar Rossiyada ham ancha rivojlandi. Ayniqsa ulug‘ rus pedagoglari K.D.Ushinskiy va L.N.Tolstoyning ishlari katta e‘tiborga loyiq. Mamlakatimizda N. Usmonov, N. Salimova, P. Jo‘raev, Yu. Erxanova kabilar horijiy mamlakatlar ta’lim tizimi masalalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Singapur XX asrgacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lib, 1959-yildagina mustaqilligini qo‘lga kiritdi. O‘sha kezlari aholining 95 foizini xitoy, hind va malay xalqlari tashkil etgani bois darslar ularning ona tilida o‘tilgan. Ingliz tilida esa faqat yevropaliklar so‘zlashgan. Bunday vaziyatda yangi jamiyatni shakllantirish uchun, avvalo, yangi ta’lim tizimini joriy etish zarur edi. Natijada Singapur ta’limi bugungi kunga qadar 3 bosqichni bosib o‘tdi. Birinchi bosqich — 1959–1979-yillarda barcha ta’lim dasturlari standartlashtirildi. Maktablarda o‘qitish uchun asosiy til etib ingliz tili tanlandi. Shu yillari ta’limni rivojlantirish dasturi doirasida 83 ta maktab qurilib, davlat tomonidan moliyalashtirildi. Oliy ta’limni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

1979-yildan 1997-yilga qadar davom etgan ikkinchi bosqichda esa ta’lim sifatini oshirishga urg‘u berildi. Maktablarda sinflar bolalarning qobiliyatiga ko‘ra ixtisoslana boshladi. 1992-yili texnik ta’lim instituti tashkil etilib, maktablarda maxsus texnik ta’lim joriy qilindi.

1997-yildan ta’lim tizimidagi mavjud imkoniyatlarni ko‘proq mablag‘ evaziga yaxshiroq ta’lim olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, 2008-yildan

maktablardagi ommaviy ta’lim bekor qilinib, fuqarolar butun hayoti davomida olishi mumkin bo‘lgan individual ta’lim dasturlariga yo‘l ochildi.

Nima uchun Kembrij ta’limiy yondashuvi?

Tabiiy fanlar darsliklari majmuasining so‘nggi nashri Kembrij Boshlang‘ich tabiiy fanlar o‘quv dasturi asosida yaratilgan. Ushbu o‘quv dasturi qayta ko‘rib chiqilgan va fanda asosiy g‘oyalar, amaliyotlar va qadriyatlar, axloq va munosabatlarni o‘zlashtirish o‘rtasidagi muvozanat zarurligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, mavzular asosida texnologik ixtirolar, ijtimoiy ta’sirlar va fanning qimmatli jihatlari o‘zaro bog‘langan tarzda bayon etilgan. Shuningdek, u tabiiy dunyoda fundamental tushunchalarning keng qamrovini ochib beradi.

Bu turkumning o‘ziga xos jihati shundaki, u har ikki dunyo Buyuk Britaniyadan Kembrij o‘quv dasturi, shuningdek, Singapurdan sinovdan o‘tgan metodologiyalarni taklif etadi.

Science Ahead darsligi haqida

Science Ahead” majmuasi CAIE (1113) o‘quv dasturiga moslashtirilgan uch bosqichli dastur bo‘lib, o‘rta maktabgacha ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan.

Cambridge Assessment International Education CAIE (1113) - Kembrij xalqaro ta’limni baholash.

Bu o‘quvchilar uchun samarali o‘rganish uchun o‘qitiladigan tarkib bilan bog‘lanishi muhim. U konstruktiv-izlanish yondashuviga amal qiladi, ya’ni o‘quvchilarni o‘zlarida kontseptsiyani yaratish uchun izlanish va savollar berishga undaydi.

Ushbu turkum o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi, bu esa o‘quvchilarga ilmiy tushunchalar, jarayonlar va ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.

Darslikda o‘quvchilarga SnapLearn ilovasi orqali resurslarni ishga tushirish imkonini beruvchi kengaytirilgan haqiqat (AR) funksiyasi mavjud.

Onlayn o‘quv qo‘llanmalari o‘qituvchilar tomonidan taqdim etilgan raqamli resurslar bilan birga keladi. Ularni tahrirlash mumkin va ularni MCEduHub’dan olish mumkin. Unda dars konspekti, dars rejalari, Tabiiy fanni o‘rganish bo‘yicha o‘quv maqsadlari manbalari haqida umumiy ma’lumot, PowerPoint slaydlari va javoblar bilan qo‘shimcha mashq daftari mashg‘ulotlari javoblari mavjud.

Infografika o‘quvchilarni ajratish va qiyin tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda o‘quvchilar asosan vizual o‘rganuvchilardir. Vizual o‘rganish ularga ma’lumotni tezroq va uzoqroq qayta ishlash va saqlashga yordam beradi. Turkum o‘quvchilarga vizual o‘rganishga yordam berish uchun ko‘p sonli infografika va tasvir, rasmlardan foydalanadi.

Misollar jadvallar, diagrammalar yoki grafik grafik organayzerlar, bir qator voqealar, jarayonlar yoki qadamlar hamda vaqt jadvalini o‘z ichiga oladi.

“Ilmiy atamalar” rukni:

O‘quvchilar bilimni kengaytirish uchun ba’zi qiziqarli ma’lumotlar, g‘oyalar va texnologiyalar ular uchun o‘rganishni zavqli qiladigan qiziqarli bilim qismlari

“Bugungi kunda fan” rukni: Fan olamidagi zamonaviy ixtirolar, mavzu bo‘yicha so‘nggi ishlanmalarni, masalan, kashfiyotni namoyish etadi.

Matndan keyin berilgan savol yoki harakat faol o‘rganishni ta’minlaydi.

O‘quvchilarga o‘rganayotgan tushunchalarini atrofdagi dunyo bilan bog‘lash orqali ularning ahamiyatini ko‘rishga yordam beradi.

O‘quvchining izlanuvchanlik xususiyatini rivojlantirishga yordam beradi, tadqiqotchilik tafakkurini mustahkamlaydi.

Masalan:

“Tahlil qiling” rukni:

Savollar ko‘rsatmalari o‘quvchilarni o‘zlari bilgan tushunchalar haqida fikr yuritishga va o‘ylashga undaydi, o‘z navbatida o‘qituvchilarga oldingi bilimlarini baholashga imkon beradi. O‘quvchilar yuqori darajadagi fikrlashni mashq qilishlari va Kembrij o‘quvchisi kabi o‘z faoliyatiga o‘zi baho berish amaliyotini modellashtirishlari mumkin.

“Keling, o‘rganamiz” rukni:

Guruh yoki tengdosh muhokamasini o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlar sinfda osonlik bilan o‘tkaziladi, bu o‘quvchilarga faktlarni o‘rganishdan oldin tushunchalarni o‘rganish va muloqot va hamkorlik kabi 21-asr ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

“Muammoli ta’lim” rukni:

O‘quvchilarni ularga, ularning jamiyatga ta’sir qiladigan real hayotiy muammolarning mumkin bo‘lgan yechimlari uchun tanqidiy va ijodiy fikrlashga undash uchun tadbirlar.

Ushbu o‘quv uslubiy majmualar, shuningdek, o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish va reflektiv fikrlashni rag‘batlantirish uchun o‘rganishni baholash va monitoring qilish imkoniyatlarini beradi.

Mustahkamlash, takrorlash uchun topshiriqlar

Bo‘sh joylarni to‘ldirish va to‘g‘ri javob(lar)ni belgilash kabi turli formatlarda mavjud bo‘lgan bob oxiridagi savollar o‘rganishni mustahkamlash va o‘quvchilarning tushunchalarni umumiy tushunishini baholashga yordam beradi.

Fizika, kimyo va biologiya bo‘yicha MCE Cambridge IGCSE darsliklar majmuasi Kembrij Baholash Xalqaro Ta’lim dasturi asosida ishlab chiqilgan. Ular fizika, kimyo va biologiya bo‘yicha Kembrij o‘quv dasturi bo‘yicha

o‘qitishga asoslanadi. Ushbu majmua Xalqaro Kembrij tomonidan tasdiqlangan.

XULOSA

Hozirda tabiiy fanlarni o‘qitishda nazariyaga asoslangan ta’limdan, o‘quvchilarga tayyor o‘quv materiallarini berishga asoslangan yondashishdan ma’lum darajada voz kechib, o‘quvchining kundalik hayotida tabiiy fanlarga oid bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e’tiborni kuchaytirishimiz lozim bo‘ladi.

Bundan ta’lim bo‘yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o‘rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA - o‘quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari e’tiborga molik.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan.
2. Anvar Xo‘jaev, Singapur ta’lim tizimi: jahon maorifida yetakchi brendga aylangan, Ma’rifat gazetasi, 11.01.2019
3. https://www.mceducation.com.hk/jsci_res/simulation/JS_sim10_1_EE

O‘QUVCHILARDA TABIIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Xolboyeva Munisxon – Jizzax viloyati PMM, “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik – shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok etadi.

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiyalari :

- ✓ Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish
- ✓ Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash
- ✓ Ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish

TIMSS- Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash xalqaro dasturi bo‘lib, o‘quv dasturlariga

asoslangan, o‘quvchilarning maktab bilimlarini o‘zlashtirish darajalarini baholaydi.

PISA- The Programme for International Student Assessment (PISA) — o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur hisoblanib, dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o‘quvchi yoshlarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajalarini turli xil mantiqiy testlar ko‘rinishida baholashdan iborat yirik xalqaro loyihadir. Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o‘tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o‘rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan. Shuni inobatga olib, TIMSS va PISA savollaridan “Biologiya”, “Odam va uning salomatligi” darslarida foydalanish mumkin.

Masalan:

1- savol. Ivan diabet bilan og‘riydi.

U quyida keltirilgan maqsulotlardan qaysi birini o‘ta ehtiyotkorlik bilan iste’mol qilishi zarur ?

A. Mol go’shti B. Tuxum C. Sut D. Mevali sharbat

2-savol. Buyraklar – odam tanasi a’zosi. Erkak yosh bo‘lgan vaqtda uning ikkita buyragidan bittasi zararlanganligi sababli olib tashlangan edi. Uning hozir o‘g‘li bor.

Uning o‘g‘lida tug‘ilgan vaqtida nechta buyragi bo‘lgan? _____

Javobingizni asoslang.

PISA tadqiqoti topshiriqlaridan namunalar:

1- Topshiriq. Asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi 1/5-savol

O‘ng tomonda joylashgan “asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi” matnini o‘qing. Savolga javobingizni yozing.

Matn: “Butun dunyodagi asalari uylariga xavfli hodisa tahdid soladi. U “asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi” deb nomlanadi. Buning mohiyati shundaki, asalarilar o‘z uylarini tark etishadi va natijada nobud bo‘lishadi. Shunday qilib, mazkur sindrom o‘n milliardlab asalarilarning o‘limini keltirib chiqaradi. Olimlarning fikricha, asalarilar oilalari nobud bo‘lishining bir nechta sabablari bor.”



Savol: “Asalarini ko‘paytirayotgan va ularni tadqiq etayotgan insonlar shuni bilishlari muhimki, “asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi” asalarilargagina ta’sir etib qolmaydi. Qushlarni o‘rganayotgan insonlar ham uning ta’sirini payqashdi. Kungaboqar ham asalarilar, ham qushlar uchun oziq manbai bo‘lib xizmat qiladi. Asalarilar o‘simlikning nektari, qushlar esa urug‘i bilan oziqlanadi.

Shu bog‘liqlikni inobatga olib, asalarilarning yo‘q bo‘lib ketishi qushlar populyatsiyalarining qisqarishiga olib kelishi mumkinligini tushuntiring”.

Mazkur savolga to‘g‘ri javob berib, ball olishlari uchun o‘quvchilar gullar changlanmasdan turib, urug‘ hosil qila olmasliklarini o‘z javoblarida ifodalashlari kerak. Bu topshiriq “Hodisalarni ilmiy asoslash” kompetensiyasiga oid bo‘lib, o‘quvchilar tabiiy fanlardan egallagan bilimlariga asoslanib, hodisani ta’riflashlari zarur.

Topshiriq. Asalari uyalari nobud bo‘lishi sindromi 2/5-savol


Savol: O‘ng tomonda joylashgan “Imidaklopridning ta’siri” matnini o‘qing. Ochiluvchan ro‘yxatdan to‘g‘ri tugallangan jumlani tanlang. Keyingi jumlani to‘ldirib, olimlar tomonidan o‘tkazilgan tajribani tavsiflang.

Matn: “Olimlar fikricha, asalarilar oilalarining nobud bo‘lishining bir qancha sabablari bor. Shulardan bittasi imidakloprid deb nomlangan insektetsid bo‘lib, uning ta’sirida asalarilar uyasidan tashqarida mo‘ljal olish qobiliyatini yo‘qotishlari mumkin.

Olimlar imidakloprid asalarilar oilalarining nobud bo‘lishiga ta’sir etishi yuzasidan bir necha tajribalar o‘tkazishdi. Ular uch hafta davomida asalarilar oziqasiga imidaklopriddan qo‘shishdi. Turli uyalarda turli xil konsentrsiyalar qo‘llanildi. Ayrim uyalarda esa insektetsid umuman qo‘llanilmadi.

Insektetsid bilan ta’sirlashganidan keyin hech bir asalari oilasi darhol nobud bo‘lmadi. Shunga qaramasdan, 14-haftaga kelib, asalarilar uyalari bo‘shab qoldi. Tajriba natijalari quyidagi chizmada keltirilgan:”

Vertikal chiziqda o‘lgan asalari oilalari soni



Insektetsid ta’siridan keyingi haftalar soni

O‘quvchilar ochiluvchan ro‘yxatdagi uchta javobdan bittasini, ya’ni to‘g‘ri javobni tanlashlari kerak bo‘ladi. Bunda ular savol mazmunini tushunishlari aniqlanadi. Shunday qilib, bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilarning tabiiy fanlarning tadqiqot metodlarini qo‘llay olish kompetensiyasiga tegishli

bo‘lgan ko‘nikmalari tekshiriladi. Ochiluvchan menyuda quyidagi uchta variant taqdim etiladi: asalarilar oilasining nobud bo‘lishi; imidaklopidning ovqatdagi konsentratsiyasi; asalarilarning imidaklopidga ta’sirchan emasligi.

To‘g‘ri javob – bu birinchi variant. “Asalarilar oilasiga ko‘p miqdorda imidaklopid ta’sir ettirilganda, asalari oilalari tezroq nobud bo‘lgan.” Chizmani tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkin, ya’ni 14- haftadan 20- haftagacha 20 mg/kg ga nisbatan 400 mg/kg miqdorda preparat ta’sir ettirilganda, asalarilar oilasining nobud bo‘lish foizi oshgan.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishga tayyorgarlik ko‘rish uchun o‘tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o‘rganib chiqib, tahlil qilish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 8-dekabrda 997-son Qarori.
2. Nosirov A. “O‘quvchilar bilimi va kompetensiyasi xalqaro mezonlar asosida baholanadi”/uzedu.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash” tabiiy yo‘nalishdagi fan o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma, Toshkent, 2019

O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

B.N.Qodirov – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi matematika fani metodisti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim jarayoni tashkil etish jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanish va qulayliklari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bulutli texnologiyalar ta’lim muassasalarida ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va himoya qilish afzalliklarini beradi. Bu esa foydalanuvchilar uchun qulay va ishonchli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, bulutli texnologiya, foydalanuvchi, ma’lumot, xavfsiz, texnologiya, amaliy, hisoblash.

Abstract: This article provides information about the use and convenience of cloud technologies in the process of organizing the educational process. Cloud technologies provide the advantages of safe

storage and protection of data in educational institutions. This is convenient and reliable for users.

Keywords: Education, cloud technology, user, information, secure, technology, practical, computing.

Аннотация: В данной статье представлена информация об использовании и удобстве облачных технологий в процессе организации образовательного процесса. Облачные технологии обеспечивают преимущества безопасного хранения и защиты данных в образовательных учреждениях. Это удобно и надежно для пользователей.

Ключевые слова: образование, облачные технологии, пользователь, информация, безопасность, технология, практические, вычисления.

Мa’lumki, ta’lim sohasi har qanday jamiyatning muhim qismi hisoblanadi. Jamiyat esa ta’lim tizimi rivojlanmasa jadal o’smaydi. Rivojlangan dunyoda ta’lim ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning eng muhim sharti hisoblanib davlatning barqaror rivojlanishining manbai bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi davrda esa yosh avlodlarni zamonaviy texnologiyalarga asoslangan internet tarmoqlaridan foydalanishga talab yuqori. Bulutli texnologiyalar-bu Internet-foydalanuvchiga Internet-xizmat sifatida kompyuter resurslari taqdim etiladigan ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari. "Bulut" so'ziga qaraydigan bo‘lsak barcha texnik tafsilotlarni yashiradigan murakkab infratuzilmani ifodalovchi metafora sifatida mavjud. Bulutli hisoblash shuningdek, "bulutli hisoblash" atamasi ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasidir, unda foydalanuvchiga Internet xizmati sifatida kompyuter resurslari va imkoniyatlari taqdim etiladi. Foydalanuvchi o'z ma'lumotlariga kirish huquqiga ega ekanligi, va infratuzilma, operatsion tizim va o'zi ishlayotgan dasturiy ta'minot haqida qayg'urmasligi kerak. "Bulut" atamasi kompyuter tarmog'i diagrammasidagi Internet tasviriga asoslangan metafora sifatida yoki barcha texnik tafsilotlar yashiringan murakkab infratuzilma tasviri sifatida ishlatiladi. Shu sababli, bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoq xizmatlaridan foydalanish hamda o‘quv jarayoniga joriy etish samarali natija beradi. Bulutli texnologiyalar zamonaviy-kommunikatsion sohalarining jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanib, sifatli ta’lim natijalariga erishishda o‘z samarasini beradi. O‘quv jarayonini tashkil etishda bulutli texnologiyalardan foydalanib faqat amaliy topshiriqlarni bajarish bilangina chegaralanib qolmay, balki yagona axborot ta’lim tizimini kengaytirish imkonini ham beradi. O‘quv jarayonini bulutli texnologiyalarga asoslangan ta’lim muhitidan foydalanish o‘quvchilarga mustaqil shaxs

sifatida o‘z- o‘zini anglash hamda ta’limiy qobiliyatlarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Misol qilib ko‘rsatadigon bo‘lsak, o‘quvchi talabalarga zarur o‘quv resurslarini uzatish, topshiriqlarni yaratish va uni taqdim etish, topshiriqlar ijrosi bilan tanishib chiqish, baholarni o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, o‘quvchi va o‘qituvchi orasida o‘zaro munosabatni tashkil etadi. Bulutli texnologiyalarda ishlash foydalanuvchilarning ishini unumli va xavfsiz tizimida ishlashni ta’minlashga qaratilgan hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning quyidagi imkoniyatlari mavjud.

- Foydalanuvchi uchun virtual muhitda ishlash imkoniyatini yaratadi.

- Foydalanuvchi o‘ziga qulay bo‘lgan tizimni mustaqil ravishda yaratishga imkoniyat beradi.

- Foydalanuvchi tizimini yaratish va foydalanish xarajatlarini sezilarli darajada kamayadi. Bu xizmatlarning 70 foiziga Internet orqali amalga oshirish natijasiga erishiladi.

- Bulutli texnologiyalarning mobilligi natijasida foydalanuvchi undan dunyoning ixtiyoriy nuqtasida, istalgan paytda foydalanish imkoni beradi. Ushbu tizimning filiallari mavjud bo‘lib korxonalar uchun ancha qulayliklar tug‘diradi.

Bulutli texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarning xizmatlarini va umumiy foydalanishlarni tashkil etishi, uy vazifalarini hamda mustaqil topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarga keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Misol qilib ushbu jadvalni ko‘rib chiqsak.

Uyga berilgan topshiriqlar va bulut xizmatlari

Uyga berilgan topshiriqlarni o‘zlashtirishda operatsion tizimlardan foydalanish.	Google Chrome, OS, Zim, Desk, ZeroPC.
Ingiliz tilida mustaqil o‘zlashtirish uchun og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish uchun.	Google Chrome,(Office Online.)
Elektron testlarni tashkil qilish va o‘tkazish uchun bulut xizmatlarida foydalanish.	Google Chrome,(Office Online.)
Dasturlash asoslarini o‘rganish Shuningdek ularning funksional imkoniyatlaridan foydalanish.	Cloud9, Ideone

Yuqoridagi jadvaldan shunday xulosga kelish mumkinki, bulutli tarmoq xizmatlarining funksional imkoniyatlari tahlilidan so‘ng sanab o‘tilgan bulutli xizmatlarda samarali o‘qub jarayonlarini tashkil etish uchun yetarli zarur

imkoniyatlarni beradi. Bulutli texnologiyaga asoslangan tarmoq xizmatlarini nafaqat o‘qituvchilar balki o‘quvchilar uchun ham qo‘shimcha kuch sarflamasdan bunday nazoratni tez vasamarali tashkil etishga yordam beradi. Fan, ta’lim texnologiyalarning rivojlanishi uchun olim va pedagog mutaxassislarning hamkorligi, ilmiy-tadqiqot ishlarning natijasida amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Axborot texnologiyalari sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari hozirgi axborot sohasida alohida ahamiyatga ega. Shunday ekan, ta’lim olish, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda xalqaro axborot resuslaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilsa, ta’lim va ilmiy-tadqiqot sohasidagi xalqaro integratsiya muammolariga yechim topiladi.

Ma’lumotni saqlash uchun siz qimmatbaho kompyuter va aksessuarlarni sotib olishingiz shart emas, chunki hamma narsa “bulutda” saqlanadi. Kompyuterning ishlashi yaxshilanadi, chunki ofis ishlarida va boshqa sohalarda bulutli texnologiyalar masofadan turib dasturlarni boshqaradi, shuning uchun kompyuterda juda ko‘p bo‘sh joy qoladi. Har yili texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq muammolar kamayadi, chunki jismoniy serverlar soni doimiy ravishda kamayib boradi va dasturiy ta’minot doimo yangilanib turadi. Dasturni sotib olish narxi kamayadi, chunki dasturni “bulut” uchun faqat bir marta sotib olish kerak va bu hammasi, va ba’zida siz uni ijaraga buyurtma qilishingiz ham mumkin. Bulutli texnologiyalar saqlanadigan ma’lumotlar miqdorida cheklovlarga ega emas. Aksariyat hollarda bunday xizmatlar hajmi millionlab gigabaytni tashkil qiladi. Dasturlar avtomatik ravishda yangilanadi, shuning uchun yuklab olingan dastur larda bo‘lgani kabi, bunga rioya qilishning hojati yo‘q. “Bulut” dan har qanday operatsion tizimda foydalanish mumkin, chunki dasturlarga kirish veb-brauzerlar orqali amalga oshiriladi. Yangi bulutli texnologiyalar sizga har doim hujjatlarga kirish huquqini beradi, chunki asosiysi Internetning mavjudligi. Yaxshi xavfsizlik va ma’lumotlarni yo‘qotishdan himoya qilish, chunki yuborilgan ma’lumotlar avtomatik ravishda saqlanadi va nusxalari zaxira serverlarga tashlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobobekov Sh.R. Tarmoq xizmatlaridan o‘quv jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ilmiy-uslubiy jurnal. 2022-y
2. Sattorov A. Ma’lumotlar bazasini boshqarish sistemasi. T: Fan va texnologiya, 2006. 302-bet.
3. Закиров Ф. Информатика и информационные технологии Т: Алокачи, 2007. 175-bet.
4. Samigova N, Sunatova D, Abduraxmonov B, Temirova B. Mathcad tizimida matematik masalalarni yechich
5. Karimov A. Microsoft Access bilan dastlabki tanishuv. TDYI-2005. 79-bet.

TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNING IMKONIYATLARI VA AFZALLIKLARI

Abduqayumov Shohruh Jamolxon o‘g‘li – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi, magistr

Annotatsiya

Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalardan va sun’iy intellektdan foydalanish hamda o‘quvchilarni o‘qish darajasi va qobiliyati bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish. AI yordamida o‘quvchilarga o‘z darajalariga mos o‘quv materiallari yoki qiyinlik darajasi moslashtirilgan mashqlar berilishi. Sun’iy intellekt tizimi orqali o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, Sun’iy intellekt tizimi orqali o‘quvchini to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash.

Аннотация

Использование цифровых технологий и искусственного интеллекта в образовании и разработка программ по уровню и способностям учащихся. С помощью ИИ обучающемуся предоставляются учебные материалы, соответствующие его уровню или задачи с адаптированным уровнем сложности. Определение сильных и слабых сторон ученика с нарушениями системы искусственного интеллекта, правильное использование ученика с нарушениями системы искусственного интеллекта.

Abstract

The use of digital technologies and artificial intelligence in education and the development of curricula on the level and ability of students to learn. With the help of AI, the learner is provided with learning materials that are appropriate for his or her level of difficulty or a level of difficulty that is adapted to his or her level. Identify the strengths and weaknesses of students with AI disabilities, and empower them to do the right thing.

Tayanch so‘zlar: Sun’iy intellekt, raqamli texnologiya, AI, onlayn platforma, axborot, innovatsion, virtual ta’lim, o‘quvchi, o‘qituvchi, umumta’lim, maktab.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, цифровые технологии, ИИ, онлайн платформа, информация, инновации, виртуальное образование, ученик, учитель, общееобразование, школа

Keywords: Artificial intelligence, digital technology, AI, online platform, information, innovation, virtual education, student, teacher, public education, school, and so on.

Sun’iy intellekt – informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi

imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Hozirda SI turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi. 1990 yillarda SI taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997 yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmat bo‘yicha jahon chempioni Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo‘ldi.

Ta’limda raqamli transformatsiya va sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalari o‘qitish jarayonini samarali va individuallashtirilgan qilishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Quyida bu o‘zgarishlarning ba’zi asosiy yo‘nalishlariga to‘xtalib o‘taman:

- Sun‘iy intellekt o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlari, o‘qish uslublari va yutuqlariga qarab kuzatib boradi va shunga mos ravishda ularga moslashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqadi. Masalan, AI yordamida o‘quvchilarga o‘z darajalariga mos o‘quv materiallari yoki qiyinlik darajasi moslashtirilgan mashqlar berilishi mumkin.

- AI va raqamli transformatsiya ta’lim jarayonidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilarning yutuq va qiyinchiliklarini oldindan prognozlash imkonini beradi. Masalan, ayrim o‘quvchilarning qiyinchiliklar yuzasidan yordamga muhtojligini aniqlash va oldindan yordam berish mumkin bo‘ladi.

- Raqamli transformatsiya jarayoni ta’limda yangi ko‘nikmalarni shakllantirishda ham yordam bermoqda. O‘quvchilar raqamli ko‘nikmalarni rivojlantiradigan platformalar, masalan, kodlash yoki boshqa texnik ko‘nikmalarni o‘rganish uchun qulay muhitga ega bo‘ladi.

- AI yordamida ishlab chiqilgan robotlar va avtomatlashtirilgan vositalar ta’lim jarayonini ancha intuitiv va interaktiv qiladi. Masalan, matematik masalalarni yechishda yordam beruvchi robot yoki ilmiy tajribalarni o‘tkazish uchun maxsus qurilmalar mavjud.

- Ma’lum darslar va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali o‘qituvchilar vaqt va resurslarni tejashadi. Masalan, test natijalarini avtomatik tahlil qilish va ularni baholash tizimlariga integratsiya qilish mumkin.

- VR va AR texnologiyalari yordamida o‘quvchilar murakkab mavzularni o‘z ko‘zlari bilan kuzatishlari yoki amaliy tajribalarni ko‘rib o‘rganishlari mumkin. Bu, ayniqsa, fan va texnologiya sohalaridagi o‘qitish uchun katta ahamiyatga ega.

Bu texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun ularni ta’lim tizimiga to‘liq integratsiyalash, o‘qituvchilarni malakali qilib tayyorlash va xavfsizlik hamda maxfiylik masalalarini yodda tutish zarur. Shu tarzda, AI va raqamli transformatsiya o‘qitish usullarini yangi darajaga olib chiqadi va kelajak avlodlarni innovatsion vositalar bilan jihozlaydi.

Ta’limda sun’iy intellekt (SI) qo‘llanilishi o‘quv jarayonini yanada samarali, individuallashtirilgan va interaktiv qilishda katta ahamiyatga ega. Quyida sun’iy intellektning ta’limdagi asosiy ahamiyati bilan bog‘liq asosiy yo‘nalishlarni ko‘rib chiqamiz:

- Sun’iy intellekt o‘quvchilarning o‘qish darajasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olib, ularga individual tarzda moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etishga imkon beradi. Buning natijasida har bir o‘quvchi o‘z sur’atida va qobiliyatiga mos shaklda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

- Sun’iy intellekt o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun onlayn platformalarda qulay ta’lim imkoniyatlarini taqdim etadi. Masalan, Coursera, Khan Academy va Duolingo kabi platformalar sun’iy intellekt algoritmlarini qo‘llab, o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘quv yo‘nalishini taklif etadi, ularning yutuqlarini kuzatib boradi va ularga zarur yordam beradi.

- Sun’iy intellekt yordamida o‘qituvchilar va tizimlar o‘quvchilarning bilimlarini avtomatik baholashlari mumkin. Masalan, testlarni, insholarni yoki boshqa topshiriqlarni avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida tezkor va aniq baholash imkoni yaratiladi. Bu esa o‘qituvchilarni qimmatli vaqtni tejashga imkon beradi.

- Sun’iy intellekt o‘quv jarayonidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, o‘qituvchilarga o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Shu orqali o‘qituvchilar qanday yo‘nalishlarda yordam ko‘rsatishlari kerakligini aniq bilib oladilar va o‘quv jarayonini samarali tashkil qilishlari mumkin.

- Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan interaktiv tizimlar, masalan, o‘quvchi bilan muloqot qiladigan virtual yordamchilar yoki qo‘llanma dasturlari, o‘quvchilarga amaliy va hayotiy muammolarni hal qilishda yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi.

- Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarga raqamli va texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Xususan, kodlash, mashina o‘qitish, axborot xavfsizligi kabi sohalarda AI yordamida tayyorlov dasturlar ishlab chiqiladi, bu esa o‘quvchilarni bozor talablariga tayyorlashga yordam beradi.

- Sun’iy intellekt asosidagi tahlil vositalari yordamida o‘qituvchilar va boshqaruv tizimlari o‘quv jarayonida yuz beradigan muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklarni oldindan bashorat qilishlari mumkin. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchining qaysi sohada qiyinchiliklarga duch kelishini va qanday yordam kerakligini aniqlay oladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari bilan ta’limda yangi usullar va o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvlarni kiritish imkoniyati mavjud. Masalan, kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalari sun’iy

intellekt yordamida yanada rivojlanib, murakkab mavzularni ancha qiziqarli va interaktiv shaklda o‘qitishga imkon beradi.

Sun’iy intellektning ta’limdagi ahamiyati uning o‘qitish va o‘qish jarayonini takomillashtirish va har bir o‘quvchi uchun individual yondashuv yaratishda yotadi. Bu esa o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va bilim olishda yuqori natijaga erishuvchi qilishi bilan ahamiyatlidir.

Umumta’lim maktablarida sun’iy intellekt (SI) qo‘llanilishi o‘quv jarayonini yanada rivojlantirish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va samaradorligini kuchaytirish uchun juda foydali. Quyida sun’iy intellekt ning umumta’lim maktablarida foydalanishning asosiy afzalliklariga to‘xtalib o‘taman:

Sun’iy intellekt har bir o‘quvchining individual o‘rganish darajasi, qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’limni ta’minlash imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, kuchliroq bilim olishga va o‘quvchining rivojlanishiga yordam beradi. Misol uchun, SI tizimi orqali o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash mumkin, shunda unga to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash beriladi.

O‘qituvchilar sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan baholash tizimlaridan foydalanib, test va topshiriqlarni tezkor va aniq baholashlari mumkin. Bu usul vaqtni tejaydi va o‘qituvchilarga o‘quvchilarning bilimi haqida aniqroq tasavvur beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar o‘quvchilarni qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lgan joyda qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sun’iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va tahlil qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Bu orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning qaysi mavzularda qiynalayotganini aniqlashlari va bu borada o‘z vaqtida yordam berishlari mumkin.

Sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish vositalari va ilovalar, masalan, o‘yinlashtirish elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilar uchun darslarni qiziqarli va interaktiv qiladi. Bu usul o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshiradi va darslarni osonroq eslab qolishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar o‘quvchilarning harakatlari va yutuqlarini kuzatib borib, ehtimoliy qiyinchiliklar yoki o‘qishdagi pastlash holatlarini oldindan ogohlantirishi mumkin. Bu o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan aloqada bo‘lish va ularga kerakli vaqtda yordam ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

Sun’iy intellekt o‘qituvchilar uchun qo‘shimcha yordamchi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, o‘qituvchilar sun’iy intellekt yordamida darslarni tayyorlash, bilimlarni tushuntirish va ma’lumotlarni aniqlashda yordam oladilar. Bu ularga asosan ijodiy va strategik yondashuvlarni ishlatishga imkon beradi, bu esa o‘qitish jarayonini yanada boyitadi.

Sun’iy intellekt yordamida ta’lim tizimi yanada tengroq bo‘lib, har xil ehtiyojlarga ega o‘quvchilarga moslashgan ta’lim berish mumkin. Masalan, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga maxsus ehtiyojlariga mos tarzda ta’lim beruvchi Sun’iy intellekt dasturlari ishlab chiqilishi mumkin.

Sun’iy intellekt bilan ishlash umumta’lim maktablarida texnik va raqamli ko‘nikmalarni shakllantiradi. Kelajakda AI texnologiyalari bilan tanish va bu sohada ma’lum bilimlarga ega bo‘lish, o‘quvchilar uchun mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish imkoniyatini oshiradi.

Umumta’lim maktablarida Sun’iy intellekt yordamida innovatsion ta’lim usullari va yangi texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tezkor va samarali qiladi. Shu bilan birga, ta’lim dasturlarining dolzarbligi ta’minlanib, o‘quvchilar yangi mavzularni qiziqarli va zamonaviy usullar bilan o‘rganadilar.

Umumiy qilib aytganda, sun’iy intellektning umumta’lim maktablarida qo‘llanilishi ta’lim tizimini rivojlantirish, o‘quvchilar uchun yanada samarali va foydali ta’lim muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell, Stuart J.; Norvig, Peter.. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*, 4th, Hoboken: Pearson, 2021. ISBN 978-0-13-461099-3.
2. McCarthy, John; Minsky, Marvin; Rochester, Nathan; Shannon, Claude „A Proposal for the Dartmouth Summer Research Project on Artificial Intelligence“ (1955). 2007-yil 26-avgustda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2007-yil 30-avgust.
3. Ask the AI experts: What's driving today's progress in AI?“. McKinsey & Company. 2018-yil 13-aprelda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2018-yil 13-aprel.
4. Frank, Michael „US Leadership in Artificial Intelligence Can Shape the 21st Century Global Order“ (en-US). *The Diplomat* (2023-yil 22-sentyabr). — „Instead, the United States has developed a new area of dominance that the rest of the world views with a mixture of awe, envy, and resentment: artificial intelligence... From AI models and research to cloud computing and venture capital, U.S. companies, universities, and research labs – and their affiliates in allied countries – appear to have an enormous lead in both developing cutting-edge AI and commercializing it. The value of U.S. venture capital investments in AI start-ups exceeds that of the rest of the world combined.“. Qaraldi: 2023-yil 8-dekabr.
5. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical Simulation of Nonlinear Vibrations of Discrete Mass with Harmonic Force Perturbation. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10 (4), 71-75.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI

Sherzod Anorboyevich Egankulov – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotasiya

Ushbu maqolada o‘quv jarayonida elektron ta’lim resurslari yordamida o‘qitishni tashkil etish, bo‘lajak muhandislarni elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish, darslarida elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning psixologik va didaktik yondashuvlarini aniqlash uchun o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zaruriyati belgilab olindi.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim resurslari, kompyuter multimediasi, kompyuter savodxonligi, kasbiy kompetentlik, psixologik va didaktik yondashuvlar, axborot ta’lim muhiti, multimedia elementlari.

Аннотация. В данной статье проводится организация обучения с помощью электронных образовательных ресурсов в образовательном процессе, анализ теории и практики использования электронных образовательных ресурсов для будущих инженеров, а также определение психолого-дидактических подходов использования электронных образовательных ресурсов. на занятиях определялась необходимость развития профессиональной компетентности.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, компьютерные мультимедиа, компьютерная грамотность, профессиональная компетентность, психолого-дидактические подходы, информационная образовательная среда, мультимедийные элементы.

Annotation. This article provides an organization of training using electronic educational resources in the educational process, an analysis of the theory and practice of using electronic educational resources for future engineers, as well as the definition of psychological and didactic approaches to using electronic educational resources. The need to develop professional competence was determined in the classroom.

Keywords: electronic educational resources, computer multimedia, computer literacy, professional competence, psychological and didactic approaches, information educational environment, multimedia elements.

Вugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim muassasalari, shu jumladan, oliy ta’lim o‘qituvchilari oldida yangi muammolar, ya’ni o‘qitilayotgan fanning talabalar tomonidan o‘zlashtirilish sifati va samaradorligini oshirish vazifasi turibdi. Bu bevosita informatika va axborot texnologiyalari faniga ham taalluqlidir. Informatika va

axborot texnologiyalari fani mavzularini tushuntirishda va darslarni ko‘rgazmali tashkil etishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish, ya’ni multimedia muhitida har xil animatsiyalar, dasturiy vositalar orqali informatika va axborot texnologiyalari bilan o‘qitishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Elektron ta’lim resurslar asosida o‘qitish jarayonida aniq predmetni kompyuter asosida to‘liq o‘qitish, mavzular matnini tahrirlash, talabalar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida mavzuni bayon etish uslubini yaxshilash, talabalar elektron ta’lim resurslar asosida yaratilgan animatsiya elementlarini dars jarayonida ko‘rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Ta’limda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish va yaratishga oid tadqiqotlar xorijlik olimlar A.V.Osin, D.L.Krechman, A.I.Pushkov, A.V.Kaysin, mamalakatimiz olimlaridan Abduqodirov A.A, Tayloqov N.I, Begimqulov U.Sh va ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida turlicha yo‘nalishlarda tadqiq etilgan⁴.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axborot texnologiyalari sohasida shug‘ullanayotgan olimlar “multimediya” tushunchasiga har tomonlama ahamiyat berishmoqda. Ba’zi olimlar S.V.Simonovich, Bent B.Andersen, Kati Van der Brink multimedia tushunchasini birqancha ma’lumotlarni qo‘shilgan holda tasavvur qilishadi. Bunday ma’lumotlarga grafik, matnli, tovush va tasvirlarni birlashtiradilar. Boshqa guruh olimlar Shafrin Yu, Zaxarova I, Popov B multimediani maxsus texnologiya deb atashadi. Bunday texnologiya yordamida matn, grafika, tasvir va multiplikatsiyani dialog rejimda foydalanish qulaylik tug‘diradi⁵.

Elektron ta’lim resurslarni samarali qo‘llash, talabalarga bilim berish sifatini oshirish, uning mazmun-mohiyatini takomillashtirish, ta’limni zamonaviy talablar darajasida tashkil etish, ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim-tarbiya jarayoniga elektron ta’lim resurslarni joriy etish, ularda interfaol usul va vositalardan foydalanish ko‘zda tutilgan. Shu sababli, bugungi kunda ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan fan o‘qituvchilari oldida quyidagi muhim vazifalar turadi: talabalarining mustaqil bilim olishi, o‘rganish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda fanning o‘rni va ahamiyatini oshirish, mashg‘ulotlarini elektron ta’lim resurslar asosida tashkil etish va o‘tkazish, talabalarining faolligini oshirish, o‘zlashtirish darajalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan elektron ta’lim resurslarni qo‘llash, ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslardan samarali foydalanish.

⁴ J.Q.Boboqulov Python dasturlash tilining ma’lumot turlari mavzusini inovatsion yondashuv asosida o‘qitish metodikasi “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali. “Best publication» Ilm-ma’rifat markazi. O‘zbekiston 2022

⁵ A. B. Кайсина Анализ определений понятия “Учебное мультимедиаcредство”, 2009

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalardan ko‘rinib turibdiki, ta’lim muassasalari talabalarini mustaqil bilim olishiga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish va doimiy ravishda faolligini oshirib borish lozim. O‘qish jarayonida elektron ta’lim resurslardan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkil qilish ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

Ta’limning moddiy vositalari boshqacha tarzda elektron ta’lim resurslar deb ataladi. Elektron ta’lim resurslar ko‘pincha hissiy sezishga ko‘ra tasniflanadi (qaysi sezgi organlariga va ma’lumotni taqdim etish usullariga qarab, ular ta’lim jarayoniga ta’sir qiladi). Shu asosda elektron ta’lim resurslarni vizual, eshitish, audiovizual, simulyatorlar va universallarga ajratish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslar yordamida darslarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Rivojlangan xorijiy davlatlarda o‘qitishning bu usulini ta’lim sohasining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha tadbiq qilinmoqda. Hozirgi amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, elektron ta’lim resurslar yordamida talabalarni o‘qitish ikki barobar samaraliroq bo‘lmoqda. Mazkur vosita yordamida o‘qitishda an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan o‘rtacha 30% gacha vaqtni tejash mumkin hamda olingan bilimlar talabalar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Ma’lumki, eshitgan ma’lumotning to‘rt dan bir qismi xotirada qoladigan bo‘lsa, talabalarga beriladigan ma’lumlarni elektron ta’lim resurslari orqali amalga oshirsak, ma’lumotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 25-30% gacha ortadi. Shuningdek, mazkur o‘quv materiallari audio, video, grafika ko‘rinishida mujassamlashtirilgan holatda talabalarga berilsa, ma’lumlarni xotirada saqlab qolish 75% ga ortishi kuzatilmoqda.



1-chizma. Elektron ta’lim resurslaridan o‘quv jarayonida foydalanish imkoniyatlari.


Ta’lim sohasida elektron ta’lim resurslar yordamida talabalarga bilim berish quyidagi afzalliklarga ega: ta’lim jarayonida berilayotgan ma’lumotlarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyatining mavjudligi, ma’lumotlarni vizuallashtirish imkoniyati, dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishuvi, olingan bilimlar talabalar xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga erishuvi.

Lekin, mazkur elektron ta’lim resurslarini ta’lim jarayoniga qo‘llashning ayrim muammolari ham mavjud bo‘lib, u quyidagilardan iborat: ta’lim uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko‘rsatmalarni qo‘llanma shaklida elektron ta’lim resurslar ko‘rinishida ishlab chiqish, ishlab chiqilgan elektron ta’lim resurslar uchun multimedia elementlarini qo‘llash.

O‘quv materiallarini yaratish bo‘yicha hozirda Respublikamizda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga yetakchi mutaxassislar jalb qilingan bo‘lib, o‘quv materiallari ta’lim yo‘nilishlari bo‘yicha yaratilmoqda. Elektron ta’lim resurslar yordamida o‘quv va didaktik materiallar deyarli professional darajada ishlab chiqilishi mumkin [2].

Ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslardan foydalanishning asosiy maqsadi didaktik vositalardan foydalanib elektron resurslarni yaratishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy o‘qituvchining jamiyatni axborotlashtirish sharoitida ishlashga tayyorligini belgilab beradigan quyidagi axborot-kommunikativ salohiyatlar muhim hisoblanadi: kasbiy vazifalarni informatikaning zamonaviy vositalari va metodlarini elektron ta’lim resurslardan foydalangan holda bajara olish malakasi, kasbiy faoliyatda elektron ta’lim resurslardan foydalanish borasida tayyorgarlik darajasini real aks ettiruvchi, shakllanib ulgurgan shaxsiy sifatlari, vaziyatni to‘g‘ri baholash va pedagogik faoliyatda elektron ta’lim resurslardan foydalangan holda samarali qarorlar qabul qila oladigan maxsus bilimlarni tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lish.



2-chizma. Kasbiy kompetentlik darajalari.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, elektron ta‘lim resurslar ta‘lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega, buning uchun sifatli pedagogik dasturlar va mukammal uslubiyatdan foydalanish lozim.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida foydalanishga mo‘ljallangan ko‘plab elektron o‘quv materiallari yaratilganki, ularga elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, elektron ishlanma, o‘rgatuvchi dasturiy vositalar, virtual stend kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ular o‘zida boshqarilish imkoniyati, interfaol uslublar, sun‘iy intellekt elementlari, hissiy moslashuvchanlik kabi xususiyatlar muvjudligiga ko‘ra ta‘limda ma‘lum samaradorlikni ta‘minlaydi [3].

Hozirgi zamon elektron ta‘lim resurslari ta‘lim-tarbiya yo‘nalishda har xil imkoniyatlarga ega. Boshqa tomondan bu ta‘limning muammolari ham yo‘q emas.

Birinchidan axborot texnologiyalari va elektron ta‘lim resurslar shu darajada tezkor rivojlanib ketadiki, hattoki pedagogik izlanishlar va metodik ko‘rsatmalar shu darajada eskirib qolyapti.

Ikkinchi tomondan o‘qituvchining kasbiy faoliyatida texnik vositalar shunchalik xilma-xilki ularni qo‘llashda yangi usullar paydo bo‘ladi. O‘qituvchilar oldida esa elektron ta‘lim resurslarini ta‘lim jarayonida to‘g‘ri tadbiq qilishda yangi masalalar va muammolar paydo bo‘ladi. Elektron ta‘lim resurslarni fanlarga tadbiq etish – bilim darajasi va sifatini keskin oshiradi, bunda ma‘lum darajada nazariy va metodologik jixatlariga etibor berish kerak. Bular o‘qitishning didaktik prinsiplaridir.

O‘quv jarayoniga elektron ta‘lim resurslarni tadbiq etish qanday jarayon yuzaga chiqishini ko‘rib chiqaylik:

O‘qituvchi va talaba ortasida munosabat pedagogik jarayon bo‘lishi uchun har ikkala tomon aniq vazifa belgilab olishlari kerak. O‘qitilayotgan ta’limning mazmuni, harakteri va qiyinligiga qarab elektron ta’lim resurslar o‘z vazifasini belgilaydi. Yangi materialni qabul qilishga tayyorlash, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish va uni namoyish etish, tushuntirish, mustahkamlash, umumlashtirish olingan bilim, ko‘nikma va malakani tekshirib ko‘rish [4].

Ta’limni har bir talabaga individual ravishda yetib borishini taminlash, ta’lim jarayonida talabani ishtirokini kuchaytirish. Hozirgi zamon elektron ta’lim resurslari talabani individual imkoniyatlarini hisobga olib turli metodlar va usullarni qo‘llash imkoniyatini beradi.

Respublikamizning ta’lim muassasalarida intellektual jihatdan har tomonlama yetuk, komil, raqobatdardosh kadrlar tayyorlash maqsadida ta’limning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan e’tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy elektron ta’lim resurslarni barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilmoqda

Elektron ta’lim resurslarining yaratilish dinamikasi beshta bosqichdan iborat: dars jarayonida qisman foydalanishga mo‘ljallangan dasturlarning paydo bo‘lishi, dasturlardan jadal foydalanish, sistemalashtirish, to‘planagan ma’lumotlarni baholash, tajribalar o‘tkazish, kelajakni va imkoniyatlarni baholashni tanqidiy tahlil qilish, umumta’limiy dasturlangan pedagogik mahsulotlarni qo‘llash va elektron ta’lim resurslarning yaratilishiga oid tajribalar umumlashtirilishi, dasturlarni qo‘llashni metodik asoslash, o‘qituvchilarning elektron ta’lim resurslardan foydalanish savodxonligini ta’minlash, oliy ta’lim kurslarini yangi o‘qitish texnologiyalariga o‘tkazish, elektron ta’lim resurslarni ba’zi mavzularini o‘rganishda keng qo‘llash, darsga tayyorgarlik ko‘rishlari va o‘quv jarayonini boshqarish uchun o‘qituvchilarning elektron ta’lim resurslar bilan ishlash vaqtini uzaytirish, alternativ ta’lim metodi sifatida yangi axborot texnologiyalarini qo‘llashga o‘tish, an’anaviy ta’lim metodikasi sharoitida ba’zi mavzularni dasturlashtirilgan pedagogik mahsulotlardan faol foydalanishga o‘tish, elektron ta’lim resurslardan foydalanishning pedagogik tajribasi ijobiy natijaga olib kelgan fanlar mazmun va metodlarini qayta qarab chiqish hamda ta’limni to‘la yangi elektron ta’lim resurslari asosida tashkillashtirish [5].

Talabalar uchun biror fanni o‘zlashtirishda shu fan bo‘yicha bir qancha ma’lumotlarning mavjudligi, undan foydalanishning osonligi va soddaligi ularda ushbu fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Ayniqsa, fanni o‘qitishda elektron ta’lim resurslardan foydalanish ko‘rgazmalilikni ta’minlaydi va tasvirlarning animatsion harakatlari, ovozli yozuvlar, dam olish holatlarining mavjudligi talabalar diqqatini o‘ziga jalb etadi.

Shuningdek, talabalarga imkoniyatlar yaratishi, ularda qiziqishlar uyg‘otishidan tashqari o‘qituvchilar uchun ham muhim dastur hisoblanadi.

Chunki, unda o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan shu fan bo‘yicha davlat ta’lim standarti, fan soatlari o‘qitilishining taqvim rejalari, o‘tkaziladigan nazorat ishlari, mavzular va boblar bo‘yicha test savollari, avtomatik bajariladigan dasturlar va boshqa bir qancha imkoniyatlar mavjud [6].

Xulosa va takliflar. Dars mashg‘ulotlarini mukammal o‘tkazish o‘qituvchining mavzuli korgazmali va so‘zlab berishni elektron ta’lim resurslarga bog‘lab ko‘rsatish uning mahoratiga bog‘liqdir. Talabaning mavzuli qabul qilib olishi elektron ta’lim resurslar yordamida yanada yaxshilanadi. Darslarni qiziqarli va elektron ta’lim resurslar yordamida talabaga taqdim etishda o‘qituvchining ishini ancha yengillashtiradi.

Elektron ta’lim resurslarning didaktik xususiyatlarini aks ettirib ko‘rsatamiz.

Oldindan tayyorlangan darslarni kerak vaqtda ko‘rsatish, o‘qituvchi jadvallarni, grafiklarni chizma va sxemalarni chizishda vaqtni ko‘p sarflamay ko‘rsata olish, bu dars mobaynida o‘qituvchining mehnatini yengillashtiradi va mazmunli dars o‘tishga yordam qiladi.

Vaqtinchalik va keying qiyinchiliklarni yengishga imkoniyat tug‘diradi.

Internet manbalarini ishlatishda talabalarga vaqt va fazoda chegaralangan imkoniyatlarni ko‘rsatish mumkin.

Hodisa va jarayonlarning haqiqiyroq va kengroq ichiga kirib borishligining imkoniyatlari.

Tajriba, jarayon va hodislarni talabalarga elektron ta’lim resurslarisiz namoyish qilish, grafiklar, chizma va sxemalarni shakllantirishdagi o‘zgarishlarni kompyuter ekranida namoyish qilish elektron ta’lim resurslar yordamida bajarilsa mavzu yanada tushunarliroq bo‘ladi.

Elektron ta’lim resurslarini darsda qo‘llashdan maqsad nima?

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va elektron ta’lim resurslar orqali o‘qitish va nazorat qilishni yo‘lga qo‘yish. Test orqali nazorat qilish kompyuter yordamida juda tez va obektiv amalga oshiriladi, bu usul juda muhim ahamiyatga ega.

Elektron ta’lim resurslarni tadbiq etish talabalarda hal qiluvchi kompetensiyalarni shakllantirishga imkon beradi. Elektron ta’lim resurslar o‘quv dasturlari oldiga qo‘ygan masalalarni hal etishga yordam beradi.



3-chizma. O’quv jarayonida elektron ta’lim resurslarni qo’llash imkoniyatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfillayev M. X. Methods of teaching in multimedia e-learning literature// Journal “Continuous Education”. 4-son. Tashkent, 2002.
2. Yunusova D. Bo‘lajak matematika o‘qituvchisini innovasion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. – 165 b.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari.–T.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2004,
4. Хеннер. Е. К. Формирована ИКТ-компетентности учащихся и преподавателей в системе непрерывного образования Бином. Лаборатория знаний. 2008. 188 с.
5. Bo‘lajak muhandislarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. "NEW RENAISSANCE" xalqaro ilmiy jurnal. ResearchBib IF-2023: 11.01, ISSN: 3030-3753, Valume 1 Issue 8. 30.10.2024. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14012526>
4. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda didaktik vositalar. "Modern Science and Research (Zamonaviy fan va tadqiqotlar)" xalqaro ilmiy jurnal. ISSN: 2181-3906 2024. 30.10.2024. <https://zenodo.org/records/14014053>
6. Sh.Egamqulov. Pedagogical and psychological basics of using electronic literature in the learning process. Scopus, Web of Science umume’tirof etilgan indeksasiyalangan ma’lumotlar bazalari jurnallariga kiruvhchi “International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Jurnal. ISSN 2456-5083. Impact Factor 7.011. Vol-09, Issue-11 Nov-2020. www.ijiemr.org.
7. Elektron ta’lim resurslaridan foydalanib bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2023-yil 3-son. ISSN 2181-8274. <https://esijournal.uz/wp-content/uploads/2023/11/Talim-fan-va-innovatsiya-2023-yil-3-soni.pdf>

AXBOROT JARAYONIDA TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O‘RNI

Soatov Rasul Muxitdinovich – Jizzax DPU, falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada axborot jarayonida texnologiyalardan foydalanishning muhim xususiyatlari, zamonaviy Internet tarmog‘ining ijobiy va salbiy jihatlariga ham e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet, axborot, makon, globallashuv, “Axborot texnologiyasi”, Axborot xurujlari,

Аннотация: В данной статье рассматриваются важные особенности использования технологий в информационном процессе, положительные и отрицательные стороны современной сети Интернет.

Ключевые слова: Информационные и коммуникационные технологии. Интернет, информация, космос, глобализация, “Информационные технологии”, Информационные атаки,

Abstract: This article focuses on the important features of the use of technologies in the information process, the positive and negative aspects of the modern Internet network.

Keywords: Information and communication technologies. Internet, information. space, globalization, "Information technology", Information attacks,

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so‘z yuritish mumkin emas.

Hayotimizning eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, jahon axborot texnologiyalari bozorida munosib o‘rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur [1.86-bet].

Hozirgi kunda “Axborot texnologiyasi” tushunchasi faqat axborot texnologiyalari sohasidagi olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan emas, balki davlat hokimiyatining barcha tarmoqlarida faoliyat yuritib kelayotgan vakillar, siyosatchilar, iqtisodchilar, moliyachilar, psixologlar va o‘qituvchi-murabbiylar tomonidan ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Shu boisdan har qanday davlat, har qanday jamiyat axborot texnologiyalari muammosida jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Boshqacha aytganda, bugungi dunyoda axborot xafvsizligini ta’minlash muammolari axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalangan holati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa,

axborot qudrati kundan kunga kuchga aylanib, yadro poligonlardan ham xavfliroq tus olib bormoqda. Dunyo mamlakatlari tomonidan noxolis axborot tarqatish, uni salbiy talqin qilish yoki o‘z manfaatiga moslab uzatish holatlari avj olmoqda. Shu boisdan ham axborot xavfsizligini ta’minlash har qachongidan ham muhimroqdir. Bu borada axborot xavfsizligini ta’minlash yo‘llarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zarur va shart bo‘lib qolmoqda.

Axborot xurujlarining oldini olish, axborot xavfsizligini ta’minlash – davlatni ichki va tashqi xavflardan himoyalash demakdir. Bugungi axborot texnologiyalari yuksak taraqqiy etgan, axborot jamiyati qaror topib borayotgan sharoitda masalaning mohiyati o‘zgarib ketdi, kimki axborot tarqatishga egalik qilsa, dunyoning taqdiri o‘shaning qo‘lida bo‘lib qolmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bir tomondan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet axborot makonining globallashuv tendensiyasining tenglashishiga imkon yaratadi. Boshqa bir tomondan esa, turli mamlakatlarning texnik iqtisodiy rivojlanish sur‘atlaridagi farqlar chuqurlashuviga olib keladi. Bu esa eng avvalo, shu bilan bog‘liqki, barcha mamlakatlar ham o‘z iqtisodiy rivojlanishi tufayli tarmoqqa ommaviy qo‘shilishni ishlab chiqara olmaydilar. Shu boisdan Internet rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining eng muhim mezonlarini birlashtirgan ko‘zguga aylanmoqda hamda iqtisodiyot va texnikaning zamonaviy holatini jamlangan holda o‘zida aks ettirmoqda. Shuning uchun ham inson Internetni o‘zining ijtimoiy ehtiyojlari, shu jumladan, kommunikasion ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lgan yashash muhitining davomi deb hisoblashi zarur.

Hozirgi kunda dunyo globallashuvining yangi davri “axborot asri” tomoni qadam tashlanmoqda. Sun‘iy yo‘ldoshlar va Internet orqali telekommunikatsiyalarning faoliyat yuritishi har kim va har narsa uchun yer sharining xohlagan chekkasiga borish va joylashish imkoniyatini yaratadi. Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy salohiyatlari qanday ekani bilan ham bog‘liq.

Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim. Birinchi Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek, “Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arziyasiz tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazish mumkin” [2.113-bet]. Bundan shu narsa anglashiladiki, hozirda har qanday axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega.

Hozirda Internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniya, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Bu borada Birinchi Prezident shunday deydi, “Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarda, balki radio-televideniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi”[2.114-bet]. Shunday bo‘lsada, Internet bir qator salbiy jihatlarini keltirib chiqarayotganini ham doimo yodda tutishimiz lozim.

Jamiyatning barqaror taraqqiyoti sharoitida uni zararli axborotlardan himoya qilish va milliy saytlarni rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda ilmiy asoslangan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlarning Internet tarmoqlariga mansub bo‘lgan, innovasion texnologiyalarga asoslangan xorij tajribasini ilmiy o‘rganish maqsadga muvofiq. Bu borada ta’kidlash kerakki, jahonda global Internet tarmog‘idan foydalanuvchilarning soni muntazam oshib bormoqda, global Internetdan bundan 20 yil avval 4,1 foiz kishilar foydalangan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatgich 2019 yilda kelib 4,5 milliardni tashkil qildi, ya’ni bugungi kunga kelib yer sharida yashovchi 58,8 foiz aholi ushbu axborot tarmog‘idan foydalanib kelmoqda.

Binobarin, jahonda axborotning ijtimoiy fikrni shakllantirish va texnologik taraqqiyotga ta’siri tobora faollashayotgan hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlarning bu jarayondagi o‘rni va roli kun sayin kuchayib bormoqda. Hozirgi vaqtda “dunyo aholisining 58,8 foizi Internet tarmog‘idan foydalanadi, u o‘zaro bog‘langan axborot dunyosini tubdan o‘zgartirib yubordi, qit’alar, davlatlar, mintaqalar, xalqlar va avlodlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘q qilishiga sabab bo‘lmoqda va u yoshlar hayotida juda katta ahamiyat kasb yetadigan jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda”. Shu boisdan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, axborotni muhofaza qilish va xavfsizlikni ta’minlash, ma’lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishlash masalalariga alohida e’tibor qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Dunyoda axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalari insoniyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy intellektual hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Internetda ishlagan kishi dunyo yangiliklaridan xabardor bo‘ladi, ayrim yoshlar o‘zini virtual dunyoda ekanligini his qilmaydi. Unda ishlash ruhiy g‘oyalarning rivojlanishiga va sog‘ligiga zarar yetkazishi ham mumkin. Internet dunyo hamjamiyatini o‘zining beg‘araz (pornografik) saytlari bilan tashvishga

solmoqda, yoshlarning ongiga salbiy ta’sir qilib, ba’zi noan’anaviy xabarlarni ham tarqatmoqda. Belgiyalik olim Frenk Tevisson o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Yevropa mamlakatlarida 90 foiz talabalar Internetdan foydalanishar ekan. Ammo, ularning qaysi saytdan foydalanishlarini o‘rganilganda, atigi 10 foiz talaba bevosita o‘quv jarayoniga taalluqli saytlarga, 90 foizi esa pornografik mazmundagi saytlarga kirishni xush ko‘rishi ma’lum bo‘lgan. [3.48-s]

Hozirgi vaqtda Internetning har xil saytlari yoshlar ongiga salbiy ta’sir qiladi, lekin bu jarayon kun sayin unga o‘rganib qolayotganlar soni ortib bormoqda. Bunday ruhiy bog‘lanish fojeali oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ayrim yoshlar kompyuter klublarida har xil o‘yinlar bilan mashg‘ul. Bu nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa davlatlarda ham mavjud.

Yoshlarimizning ajdodlardan qolgan boy, ma’naviy merosini o‘qib-o‘rganish, teran anglashi ularni komillikka yetaklaydi, Internet tarmoqlari orqali dunyoni bilishi esa ularning intellektual salohiyatlarini oshishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, turli xil yovuzlik, o‘ldirish-otish, xunrezlik axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, yolg‘onchilik va hayosizlik asosida chop etilgan nashrlarni tarqatishga urinishlar, G‘arb estradasining o‘zga davlatlarga ham bostirib kirishini istagan “globallashuv tarafdorlari”ning asl muddoasi – madaniy yemirilishlar asri vujudga keltirish ekanligini nafaqat ziyolilar, balki yurtimizdagi har bir fuqaro anglab yetishi zarur. Tyexnika, texnologiya hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Mamlakat taraqqiyotida ularning roli shak-shubhasiz, beqiyosdir. Insonni sog‘lig‘ini tiklashdan tortib, iqtisodini yaxshilash, ma’naviyatini axborotlar bilan boyitish xususida va boshqa sohalar to‘g‘risida ham muhim fikrlarni aytishimiz mumkin. Lekin inson qalbi va tafakkurida shunday tushunchalar borki, ularni hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Vatan tuyg‘usi, millat g‘ururi, o‘zlikni anglash, yurt iftixori tushunchalari xususida pedagoglarning o‘giti, ota-ona ibratlari, avlodlar merosi, mustahkam iroda, e’tiqod va imon butligi uyg‘unlashgandagina inson komillikka intilib boradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.- B.86.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008.- B.115.
3. Nisnevich Yu.A. Informatsiya i vlast. M., Misl, 2000. – S.48.

MEDIA MAYDONDA MA’LUMOTLAR MAXFIYLIGI VA ULARNI HIMOYA QILISH

Qo‘shiyev Mirjalol Saidvali o‘g‘li – Jizzax DPU Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi kafedrası stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maxfiylik hamda ma’lumotlarni himoya qila olish barcha tizimlarda bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi va ushbu tizimlarning yashovchanligini va ishonchliligini oshishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda odamlar raqamli texnologiyalarga yashash, ishlash, hordiq chiqarish hamda boshqa vazifalarni bajarishda ko‘proq bog‘liq bo‘lib borgan sari, kiber hujumlar xavfi va turlari sezilarli darajada ortib bormoqda. Natijada bu ma’lumotlar xavfsizligiga putur yetkazishi bilan birgalikda iqtisodiy tomondan tashkilotlar uchun juda katta zararga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada kiber hujum turlari, ular qanday zararlar keltirishi hamda ma’lumotlar xavfsizligi uchun nimalar qilish lozimligi haqida fikrlar, ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kiberhujum, kiberxavfsizlik, fishing, ransomware, identifikatsiya.

Jadal rivojlanayotgan texnologiya asrimizning eng asosiy vazifalardan biri insonlarning og‘ir yumushlarini yengillashtirish bo‘lib qoldi. Buning uchun harakatni kamaytirib, ovoragarchiliklarning oldini olish hamda foydalanuvchilarga yashash joyidan chiqmagan holda faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini yaratish davr talabiga aylandi. Albatta bu tegishli ma’lumotlarni ma’lum bir platformaga kiritishni talab etadi. Bu holat ish faoliyatining tezlashuvi va samaradorlikning oshishiga sabab bo‘lishini rivojlangan davlatlar tajribasi orqali barchaga isbotlandi. Barcha ma’lumotlarning raqamli texnologiyalar orqali boshqarilishi muammolarning ham kelib chiqishiga sabab bo‘lishi tabiiy. Bunda ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi va bulardan o‘zga maqsadlarda foydalanish jiddiy muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Exploding topics sayti keltirgan statistikaga ko‘ra har yili o‘rtacha 71 milliondan ko‘proq odam kiber hujumdan jabrlanar ekan[1]. Demak, ushbu muammo, uning turlari haqida, shuningdek, ularni oldini olish uchun nimalar qilish zarurligi haqida ma’lumotga ega bo‘lish bugun barcha uchun zaruriyatga aylandi.

Insoniyat manfaati yo‘lida shu kungacha sanoqsiz internet saytlar yaratilgan bo‘lib, kundan kunga ularning soni ortib borayotganligidan foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun turli xil himoya yo‘llari o‘ylab topilgan. Ularga misol sifatida foydalanuvchilarning shaxsiy kabinetlariga kirishlari uchun o‘rnatiladigan shaxsni tasdiqlovchi

(identifikatsiya) ma’lumotlarni (barmoq izlari, yuz orqali tanish va boshqalar) qo‘shilganligi yoki telefon raqamiga yoki elektron pochta orqali tasdiqlash kodi yuborilishining joriy etilganligini keltirishimiz, bu esa xavfsizlikni bir necha barobar oshishiga sabab bo‘lganligini qayd etish lozim. Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki, oxirgi yillarda kompyuter hamda internet tarmog‘i orqali ruxsatsiz boshqalarning ma’lumotlariga, hisob raqamlariga kiruvchi va ulardan foydalanuvchilar ham ko‘paygan. Shu turdagi dastlabki kiberhujum 1988-yilda sodir etilib, taxminan o‘n mingdan millionlab dollargacha zarar keltirgan[2]. Oradan o‘ttiz yil o‘tib, ularning soni ham, turlari ham ko‘paygan.

Statistikaga ko‘ra, hozirgi vaqtda kiberhujum har 39 soniyada bir marota sodir bo‘ladi. Ayniqsa COVID-19 pandemiyasi boshlangandan beri kiberjinoyatlar darajasi 300 foizga oshgan. Kundan kunga ularning yangi turlari o‘ylab topilmoqda. Yuqorida keltirilgan Exploding topics saytida keltirilgan ma’lumotlarga keltirilishicha, bugungi kunda Fishing hujumlari kiberhujumlarning 31 foizini tashkil qilayotgan ekan. Bu firibgarlikning shunday turiki, undan ko‘zlangan asosiy maqsad foydalanuvchining maxfiy ma’lumotlariga ega chiqishdir. Fishing sxemalarining 85% elektron pochta manzillari, foydalanuvchi nomlari yoki parollarni o‘z ichiga olgan login ma’lumotlariga qaratiladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanib bajariladigan bu turdagi jinoyatda kiberjinoyatchilar foydalanuvchilarga qandaydir shouda g‘olib bo‘lgani to‘g‘risida telefonga xabar jo‘natishadi yoki buni mashhur brendlar nomidan foydalanib ijtimoiy tarmoqlar yoki elektron pochtdan yuborish orqali bajarishlari mumkin. Kiberjinoyatning yirik turlaridan yana biri bu ransomware dasturlari hisoblanadi. Ransomware kriptovirusli zararli dastur turi bo‘lib, agar to‘lov to‘lanmasa, jabrlanuvchining shaxsiy ma’lumotlarini nashr etish yoki unga kirishni butunlay blokirovka qilish bilan tahdid qiladi[3]. Buning statistikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 202-yil mobaynida 700 milliondan ortiq ushbu turdagi to‘lov dasturi hujumi sodir bo‘ldi. Barcha ma’lumotlar buzilishining 17% zararli bu turdagi dasturlarni yuqtirish bilan bog‘liq. 2019-yilda korxonalar har 14 soniyada to‘lov dasturi hujumlari qurboni bo‘lishdi. Yuqoridagi ma’lumotlar asosida ransomware butun dunyo bo‘ylab shaxslar va tashkilotlar uchun eng keng tarqalgan va eng tez o‘sib borayotgan tahdidlardan biriga aylanganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Kiber hujumlar iqtisodiy jihatdan tashkilotlarga juda katta zarar keltiradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, fishing hujumlari tashkilotlarning har daqiqada 17 000 dollardan ko‘proq pul yo‘qotishiga sabab bo‘lmoqda. Ransomware dasturlari tufayli esa sog‘liqni saqlash sanoati 2019-yilda taxminan 25 milliard dollar yo‘qotgan. Bir narsa aniqki, kiberhujumlar raqamli texnologiyalar sohasida bilimlarga ega bo‘lgan hakerlar tomonidan sodir etiladi. Shuningdek, bu turdagi holatlar sodir bo‘lishiga tashkilot hodimlarining ushbu sohada bilimsizligi, ehiyotsizligi hamda yetarli darajada ularga tushuntirishlar

berilmaganligi ham sabab bo‘ladi. Buning natijasi esa yuqoridagi kabi holatlarning kelib chiqishiga, kiberjinoyatchilarga esa o‘zlari xohlagan ishlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat beradi.

Tashkilotlarda ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Misol uchun hujjatlardan idorada va undan tashqarida foydalanishning asosiy qoidalarini belgilash mumkin. Firmaning har bir a’zosi nima qilish kerakligini bilishi uchun kirish, takrorlash, saqlash va boshqalarni tartibga soluvchi qisqacha qoidalar to‘plamini belgilash lozim[4]. Shuningdek, xodimlar uchun doimo xavfsizlik qoidalarini belgilash bilan birgalikda, ularni texnik tomondan bilimlarini mustahkamlab borish talab etiladi.

Bundan tashqari, bu turdagi jinoyatlarning oldini olish va aybdorlarga jazo tayinlash masalasi ham juda muhim omil hisoblanadi. Misol uchun yurtimizda kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda ushbu sohadagi xavf va muammolarni bartaraf etish masalalari O‘zbekiston Respublikasining 2022-yilning 15-aprelda qabul qilinib, iyul oyining ikkinchi yarmidan kuchga kirgan “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi. Shuningdek, ma’lumotlarning saqlanishini hamda shaxsning, jamiyatning va davlatning ma’lumotlari xavfsizligini ta’minlash “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni bilan himoya qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kiber hujumlar bugungi kunda juda jiddiy muammoga aylanib ulgurdi. Ularning sodir etilishi, firmalar, tashkilotlar tomonidan esa foydalanuvchilarining, mijozlarining ma’lumotlarni himoya qila olmasligi insonlarda ularning tizimlariga nisbatan ishinchning yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Kiber jinoyatlarni sodir etuvchilar foydalanuvchilarning ehtiyotsizligidan ham foydalanayotganligi ham bugungi kunda kuzatilayotgan holat hisoblanadi. Buning natijasi kompaniyalarga, ularning foydalanuvchilariga iqtisodiy tomondan ziyon keltirayotganligi va yuqorida keltirilgan holatlar ushbu jinoyatlarning jamiyat uchun juda xavfli ekanligidan dalolat beradi. Bir narsa aniqki, bir muammoni bartaraf etib u haqida insonlar yaxshiroq tushunchaga ega bo‘lganlaridan so‘ng jinoyatchilar buning yangi yo‘llarini o‘ylab topishaveradi va bu doimo yangilanib turuvchi jarayon ekanligini bugungi kungacha sodir etilgan kiberjinoyatlardan ham anglash mumkin. Shunday ekan, kiber hujumlar haqida bilimlarni doimo oshirib borish, xavfsizlik choralariга doimo e’tibor berish barchadan talab etiladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Howarth, J. (2023, June 13). The Ultimate List of Cyber Attack Stats (2023).<https://explodingtopics.com/blog/cybersecurity-stats#largest-data-breaches>

2. <https://www.cipherindia.in/post/do-you-know-when-the-first-cyber-attackhappened#:~:text=Thirty%20years%20ago%2C%20on%20July,worm%20tht%20targeted%20UNIX-based%20systems>
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Ransomware>
4. Liu, B. (2020, October 19). Seven Easy Ways to Improve Legal Document Security. <https://www.legalitprofessionals.com/legal-it-columns/65-guest-columns/12160-seven-easy-ways-to-improve-legal-document-security>
5. <https://www.lex/uz/uz/>

3-BO‘LIM: TILLAR VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA TA‘LIMIIY INNOVATSIYALARNING QO‘LLANISHI

СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СФЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РКИ

Шавкат Турабович Нишанов – Заведующий кафедрой методики преподавания языков и социальных предметов Джизакского областного центра педагогического мастерства.

Аннотация

В статье рассматривается специфика использования кейсов при обучении русскому языку как иностранному. В статье описаны профессиональные этапы учебного процесса кейсов и представлена инновационная трехкомпонентная модель кейса. Модель основана на особенностях преподавания русского языка как иностранного и учитывает уровень владения языком, особенности обучающихся и среду обучения. Автор определяет самые большие проблемы и положительные стороны использования кейсов и формулирует условия их эффективности. Разработанная и предложенная в статье структура падежа может быть использована при обучении любому европейскому языку (с некоторыми модификациями, связанными с особенностями культуры и быта той или иной страны). В статье сформулированы общие методические требования и условия повышения продуктивности обучения русскому языку как иностранному при использовании падежей, положительные и отрицательные стороны падежей в методике обучения русскому языку как иностранному.

Ключевые слова: кейс; русский язык как иностранный; методы обучения второму языку; обучение общению; обучающая интерактивность.

Среди современных методов обучения русскому языку как иностранному коммуникативный метод уже несколько десятилетий занимает центральное место. Преподаватели стремятся учить язык не как систему, а как средство общения, учить устному общению. Это означает, что в процессе освоения студенты должны не только запоминать элементы языковой системы, но и формировать навыки продуктивной речи, говорить и слушать (то есть генерировать и воспринимать тексты) в коммуникативных ситуациях, адекватно оценивая их условия и особенности. В этих условиях методы обучения РКИ интегрируют множество интерактивных, коммуникативных

и деятельностных подходов и форм, которые делают преподавание и изучение русского языка эффективными. Одним из таких новостных методов является метод кейс-стади. С одной стороны, хорошо известна и развита теория прецедентного действия в методиках обучения; с другой стороны, он должен регулярно обновляться в контексте меняющегося мира, требований системы образования и запросов обучаемых. В связи с этим мы хотели бы предложить преподавателям вузов и специальных (для взрослых) курсов, посвященных изучению РКИ, новую модель кейсов, позволяющую усовершенствовать учебный процесс, повысить его качество и повысить эффективность изучения иностранного языка.

Метод кейсов направлен на поиск решения «практически важной ситуации с целью осознанного усвоения содержания темы обучаемыми». Применительно к системе высшего образования данный подход направлен на формирование компетенций, необходимых для реализации будущей профессиональной деятельности.

Использование метода в нашей профессиональной сфере – преподавании РКИ – имеет свою специфику. Это касается как структуры кейса, так и особенностей его применения в учебном процессе. Эта специфика обусловлена тем, что конечной целью кейса является развитие навыков общения и построения текста на иностранном языке (даже если материалом кейса становится профессиональная терминология). Так специальная лексика вообще не фигурирует в содержании задач, взятых за основу кейсов (уровни владения языком А1, А2, В1), либо находится на втором плане (для уровней владения языком В2, С1, С2)). Иными словами, развитие профессиональных компетенций не является самоцелью кейс-метода в методике РКИ.

Мы не будем останавливаться на общих методических требованиях к использованию падежей в современной педагогической науке. В последнее время о нем очень много написано. Нас гораздо больше интересуют особенности, которые такой случай выявляет на занятиях РКИ, когда на первый план выходит их коммуникативный потенциал.

Использование корпуса в рамках РКИ предполагает следующие этапы:

1. Знакомство с конкретным случаем, коммуникативной задачей.
2. Накопление необходимой информации с целью приобретения навыков, необходимых для получения и оценки информации, которые помогут в поиске правильного решения. На начальном этапе решения кейса часть информации может предоставляться в предварительно сформированном виде.
3. Рассмотрение возможностей альтернативных решений и развитие коммуникативных навыков в процессе решения коммуникативных задач.

Цель кейса в обучении РКИ – способствовать развитию коммуникативных, социальных и культурных компетенций изучающих русский язык как иностранный. Это достигается созданием речевых ситуаций, максимально приближенных к жизненным.

Во-первых, обучаемые должны четко понимать, какие задачи они собираются решать. Это означает, что моделируемая задача должна соответствовать и соотноситься с аналогичной реальной жизненной, учебной или профессиональной, с которой обучаемый вполне может столкнуться в своей повседневной жизни. Если это условие не выполняется, задача теряет очень важный мотивационный аспект, без которого эффективность обучения может быть поставлена под сомнение. Кроме того, при построении задачи необходимо обозначить те условия, при которых будет осуществляться общение. Поэтому формулировка задачи должна быть детализирована. Он может включать в себя имя участника общения (ваш друг, кассир, продавец и т. д.), место общения (гостиница, магазин, больница и т. д.), точное описание коммуникативной задачи (к спросить, уточнить, рассказать, почувствовать и т. д.), время общения (сегодня утром, каждый день, вечером, завтра и т. д.) и всевозможные дополнительные подробности, необходимые для эффективного общения по конкретному предложенному случаю.

Во-вторых, кейс должен включать в себя минимальный перечень вспомогательных языковых или речевых материалов, которые можно или следует (в зависимости от уровня владения языком и способностей конкретного студента) использовать при работе над кейсом. К таким материалам относятся слова, фразеологизмы, готовые речевые обороты или словосочетания.

В-третьих, каждый должен с самого начала знать, каков будет практический результат их работы. Это, как было отмечено выше, может быть газета, открытка, презентация, выступление или что-то другое. Что важно, так это суметь создать этот продукт в ходе или в результате организованного обсуждения или представить его на занятии с последующим его совместным обсуждением?

Участники. Добавим, что представлять задачу необходимо так, чтобы содержащаяся в ней информация была четко структурирована и визуально хорошо воспринималась. Это обеспечивает лучшее усвоение лексики и речевых оборотов, позволяя соотнести содержание заданий и возможные варианты их решения.

Материалы и процедура. Принимая во внимание все вышеизложенное, можно рекомендовать следующую примерную модель корпуса. Мы разработали эту модель кейса, внедрили ее в учебный процесс:

1. Проблема, сформулированная с помощью текста, вводящего ситуацию.

2. Ключевые задания и лексический и/или грамматический материал и речевые образцы, частично или полностью помогающие найти решение проблемы.

3. Что-то осязаемое (газета, альбом, интернет-страница, аудиозапись и т. д.), в форме которого должны приниматься идеи обучаемого.

Таким образом, использование падежей требует определенных усилий как со стороны учителя, так и со стороны ученика. Преподаватель должен подготовить информацию, правильно оформить ее, поставить задачи и продумать систему работы. Слушателям требуется много времени для ее реализации. В большинстве случаев выполнить кейс можно только во внеурочное время во время самоподготовки по предмету.

Многие считают, что обучение русскому языку как иностранному может быть охарактеризовано как интересное, коммуникативное и успешное при условии, что грамотный преподаватель эффективно использует сочетание традиционных методов обучения и кейсов. Необходимо обратить внимание на выбор подходящих заданий, их соответствие текущей действительности, применение полученных на занятии знаний и психологическую готовность учащихся к решению подобных дел. Все эти теоретические и практические вопросы необходимо учитывать при определении долгосрочных целей, заключающихся в подготовке международно признанных и обладающих необходимыми теоретическими и практическими навыками и знаниями специалистов.

Использованная литература:

1. Бондарь, Е.Н. (2015) Формирование универсальных учебных действий участвующих на уроках химии посредством решения ситуационных задач. Вестник научных конференций. 1–3. pp. 24-25.

2. Государственные стандарты по русскому языку как иностранному. Элементарный уровень Базовый уровень. Первый сертификационный уровень. СПб. 48. 2009

3. Khashimova, D., Niyazova, N., Nasirova, U., Israilova, D., Khikmatov, N., & Fayziev, S. (2021). The role of electronic literature in the formation of speech skills and abilities of learners and students in teaching Russian language with the Uzbek language of learning (on the example of electronic multimedia textbook in Russian language). *Journal of Language and Linguistic Studies*, 17(1), 445-461. <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>

4. Niyazova, N., Pulatova, U., & Talipova, D. (2020). The Progressive Development of Uzbekistan on Influence of Pedagogical Staff. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(S2), 328-332. <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>

5. Бурханова Л.М. Доверительное управление как институт обязательственного права: особенности национального регулирования на примере гражданского законодательства Республики Узбекистан //Ex jure. – 2019. – №. 4. – С. 34-52.
6. Madinabonu, A., & Nasiba, N. (2020). The Role of Literary Texts in Teaching (On the Example of Modern Literature–Z. Prilepin). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05). <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>
7. Jurabekovna, N. N. (2020). The role of regional texts in language learning. Проблемы современной науки и образования, (1 (146)), 41-46. <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>.
8. Ниязова, Н., Ардатова, Е., & Сойипов, Х. (2021). Обучение языкам как основа развития юридической науки и образования. Общество и инновации, 2(2), 137-143. <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>.
9. Xalmuratova, M. T. (2021). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF DISTANCE LEARNING FOR LANGUAGES IN MEDICAL UNIVERSITIES IN A PANDEMIC SITUATION. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 18(4), 3965-3969.
10. ХОШИМОВА, Д., НИЯЗОВА, Н., & АРДАТОВА, Е. АКАДЕМИЧЕСКАЯ ПУБЛИЦИСТИКА. АКАДЕМИЧЕСКАЯ ПУБЛИЦИСТИКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью " Аэтерна", 140-146. <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>.
11. Бурханова Л. Договор лизинга по гражданскому праву Республики Узбекистан: особенности правового регулирования //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/S. – С. 387-395
12. Ниязова, Н. Ж. (2021, June). РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ ТЕКСТОВ В ОБУЧЕНИИ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ И СТУДЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ГАФУРА ГУЛЯМА). In Conferences. <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>
13. Ramazonov, N., Bozorova, N., Niyazova, N., & Choriev, O. (2021). ON THE RELATIONSHIP OF THE SUFI CONCEPT OF FAQR (رفق) AND THE CHARACTERS IN THE LYRIC POETRY OF ALISHER NAVOI. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8). <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>

INGLIZ TILINI FANINI INTERFAOL METODLAR ORQALI O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI

Eshtayeva Dildora Kaxarovna – Jizzax viloyati hududiy mahorat markazi
o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli chet tillarini o‘qitishda interfaol metodlardan va o‘quv materiallaridan foydalanishning ahamiyati borasida fikr yuritiladi. Bunda interfaol metodlar bilan birgalikda doimo qo‘llanilib kelingan an’anaviy ta’lim berish usullari taqqoslab, aniq kuzatuvlar asosida so‘ngra yakuniy natijaning xulosalari berilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, an’anaviy dars, zamonaviy texnologiyalar, TOEFL va boshqalari.

Abstract: This article discusses the importance of using interactive methods and educational materials in teaching different foreign languages. In this, traditional teaching methods, which have always been used together with interactive methods, are compared, and conclusions of the final result are given based on specific observations.

Key words: interactive methods, communicative approach, traditional lesson, modern technologies.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность использования интерактивных методов и учебных материалов при обучении различным иностранным языкам. При этом сравниваются традиционные методы обучения, которые всегда использовались вместе с интерактивными методами, и на основе конкретных наблюдений даются выводы об окончательном результате.

Ключевые слова: интерактивные методы, коммуникативный подход, традиционный урок, современные технологии.

Нozirgi kunda ingliz tili faniga va o‘rgatish uslubiga keng ko‘lamda katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu asnod, har qanday chet tili fani to‘rtta muhim aspekt (tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gairish)ga bo‘lib o‘rganiladi. Bu har bir jihatdan alohida malaka va tushunchalar berish jarayonida ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni olib kirish ta’lim sifati va samaradorligini oshirish demakdir. Xususan, xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishda bunday kommunikativ texnologiyalardan foydalanishning bir qancha ahamiyatli ustunliklari mavjud. Hozirda chet tili ko‘nikmalarini baholashning IELTS, CEFR, TOEFL kabi testlari ishlab chiqilgan. Bu jarayonlarda texnologik

vositalardan foydalanish chet tilining har bir aspektini o‘rgatishda noan’anaviy hamda interfaol topshiriqlar kabi zamonaviy yondashuvlar bilan qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish qismi uchun, albatta, turli qurilmalar, player, CD disklersiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababdan ham zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanish talab etiladi. Ta’kidlab o‘tish joizki, o‘quvchilarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish yurtimizda qadimdan rivojlanib kelgan. Turli she’rxonlik kechalarida, bahs-munozaralarda ham shu kabi uslublarni ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan. Bu usullar talabalarning tafakkur, zehn, mulohaza, iste’dod va nutqlarini rivojlantirish orqali ularni o‘z mustaqil fikriga ega, barkamol hamda komil inson bo‘lib shakllanishiga xizmat qilib kelmoqda. Ko‘rinib turibdiki, interfaol usulning eng asosiy maqsadi o‘quv jarayonlarida ta’lim sifatini oshirishga qulay sharoit yaratish orqali o‘quvchining faol fikr yuritishiga erkin atmosfera yaratishdir. U o‘zining potensialidagi imkoniyatlarini va aqliy salohiyatini namoyon etadi va o‘quv samaradorligi va sifatini oshirishga yordam beradi. Interfaollik asosida darslar shunday tashkil etiladiki, dars jarayonida hech bir o‘quvchi chetda qolmaydi. Har biri o‘zining o‘ylagan fikrlarini, bilimlarini ochiq-oydin, tortinmasdan bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki interfaol usullarda asosiy e’tibor faqatgina o‘qitish, bilim berishga emas, balki ularning fikrlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’i nazar fikrlashga undashga, darsga jalb qilishga qaratilgan. Ma’lumki, darsning turli xil o‘yinlar asosida o‘tilishi o‘quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish va kuchli bo‘lishlarini ta’minlaydi[1]. O‘yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o‘quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda barqaror o‘rnini topish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o‘yin zamirida umumiy qabul qilingan ta’lim prinsiplari, metodlar bo‘lishi kerak. O‘quv o‘yinlariga o‘quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O‘yinlar jarayonida o‘quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg‘ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko‘rsatadi. Ta’kidlash lozimki, o‘yin eng avvallo, o‘qitishning bir usulidir. O‘quvchilar o‘yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g‘alaba qozonishga intiladilar, o‘qituvchi ular orqali o‘quvchiga ta’lim-tarbiya ham beradi. O‘quvchi inglizcha o‘yin o‘ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi va qiziqadi. Ingliz tili darslariga qo‘yilgan eng muhim talablardan biri o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o‘qituvchilari Singapur ta’lim innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: -"Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bu usulni qo‘llash uchun hikoyaning boshlanishi o‘qib beriladi qanday yakun topishi o‘quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; -"Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o‘quvchilarga

topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar; -"Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; - "Chigal yozdi" ("Warm-up exercises") o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish;[2] yangi faoliyatga o'tish o'quvchi bolaning o'z asosiy faoliyatiga yangi munosabatni paydo qiladi. Unda burch hissi o'sa boshlaydi. O'zining vazifasi, maqsadi, uni bajarish lozimligi, uyga berilgan vazifalarni bajarish, takrorlash uning burchi ekanligi kabilarni anglab etadi. Bu yoshdagi bolalarni maktab dasturiga kiritilmagan juda ko'p atrof-muhit hodisalari haqidagi bilimlar qiziqtiradi. Bu qiziqishlar bolaning ko'pincha e'tiborga olinmaydigan ijodiy o'yinlarga nisbatan qiziqishlarida ham namoyon bo'ladi. Bunday o'yinlarda uning ijtimoiy qiziqishlari, emotsiyalari, jamoa uchun tashvishlanish kabi hislari aks etadi. Qiziquvchanlik kichik maktab yoshidagi bolalarning keng aqliy faolligini namoyon etilish shakli hisoblanadi. Vatanga kerakli inson bo'lish uchun o'qishning muhimligi va ahamiyatini bilishi uchun ochiqlik, ishonuvchanlik, ustozining barcha topshiriqlarini bajarishga tayyorlik xususiyatlari keng ijtimoiy burch motivlari, ma'suliyatlilik samarali shartlar hisoblanadi. Metodlar bu ma'lumotlar bejiz keltirilmadi. Mana shunday katta mas'uliyatni va xususiyatlarni pedagog bilgan holatda dars o'tishi va ular bilan aloqa o'rnatishi lozim. Boshlang'ich sinf yosh davri ilm o'rganish ayniqsa, chet tilini o'qitishning eng samarali pallasi ekanligini bilishimiz mumkin. Quyida chet tilini o'qitishning samarali va interfaol usullari haqida ma'lumot beriladi. Ingliz tilini o'qitishda bir necha effect beradigan usullar mavjud bo'lib yani ko'rish orqali eslab qolish. Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish. Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'qitish jarayonlarida innovatsion metodlardan foydalanish natijasida o'quvchilarning nutqi ravonlashadi, aqliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, to'g'ri va tez javob berish ko'nikmalari shakllanadi. Bu kabi interfaol usullar o'quvchi va talaba yoshlarni nafaqat bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi balki, psixologik jihatdan ruhlantirib turadi. Natijada o'quvchilar dars jarayoni uchun puxta tayyorgarlik ko'rishni boshlaydi va ta'lim sifatini oshiradi.

References:

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent – 2012 yil .[1]
2. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligi / M. P. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. – 2017. – № 4.2 (138.2). – С. 36-37. – URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
3. M.R.Otaboyeva Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi.[2]
4. www-internet sayidlardan keng foydalanildi.

MAKTABLARDA “IQTISODIYOT VA BIZNES” FANINI O‘QITISH: KELAJAK AVLOD UCHUN ZARUR BILIM VA KO‘NIKMALAR

Jalolov Sardor Xonnazar o‘g‘li – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi Iqtisodiy bilim asoslari fani metodisti

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktablarda “Iqtisodiyot va biznes” fanini o‘qitishning dolzarbligi va ahamiyati yoritilgan. Global iqtisodiy jarayonlar va texnologiyalar rivoji sharoitida o‘quvchilarga iqtisodiy va moliyaviy savodxonlikni oshirish, tadbirkorlik asoslarini o‘rgatish muhim ekani ta’kidlangan. Fanning asosiy maqsadlari va vazifalari, shuningdek, o‘qitishning samarali metodlari, jumladan, simulyatsiyalar, amaliy loyihalar va jamoaviy ishlash kabi usullar ko‘rib chiqilgan. Maqola yakunida o‘quvchilarning iqtisodiy tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishi, shaxsiy moliyaviy rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish kabi kutilayotgan natijalar tahlil etiladi.

Аннотация

В данной статье подчеркивается актуальность и важность преподавания «Экономики и бизнеса» в школах. Подчеркивалось, что важно повышать экономическую и финансовую грамотность, обучать студентов основам предпринимательства в условиях развития глобальных экономических процессов и технологий. Рассмотрены основные цели и задачи науки, а также эффективные методы обучения, в том числе моделирование, практические проекты и командная работа. В конце статьи анализируются ожидаемые результаты, такие как более глубокое усвоение студентами экономических понятий, развитие навыков личного финансового планирования и формирование предпринимательских навыков.

Annotation

This article highlights the relevance and importance of teaching “Economics and Business” in schools. It was emphasized that it is important to increase economic and financial literacy and teach the basics of entrepreneurship to students in the context of the development of global economic processes and technologies. The main goals and objectives of science, as well as effective methods of teaching, including simulations, practical projects and teamwork, are considered. At the end of the article, the expected results are analyzed, such as students' deeper assimilation of economic concepts, development of personal financial planning skills, and formation of entrepreneurial skills.

Kalit so‘zlar: Maktab ta’limi, iqtisodiy savodxonlik, biznes asoslari, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik, iqtisodiyot fani, amaliy loyihalar, simulyatsiyalar, o‘quv metodlari, kelajak avlod, moliyaviy rejalashtirish, biznes ko‘nikmalari.

Ключевые слова: школьное образование, экономическая грамотность, основы бизнеса, финансовая грамотность, предпринимательство, экономика, практические проекты, моделирование, методы обучения, будущее поколение, финансовое планирование, деловые навыки.

Key words: School education, economic literacy, business basics, financial literacy, entrepreneurship, economics, practical projects, simulations, educational methods, future generation, financial planning, business skills.

Hozirgi zamonaviy dunyoda iqtisodiyot va biznes sohalarining o‘rni tobora oshib bormoqda. Jamiyat hayoti, texnologiyalar va globallashuv jarayonlarining rivojlanishi tufayli yosh avlodni ushbu sohalariga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan maktablarda “Iqtisodiyot va biznes” fanini o‘qitish zarurati paydo bo‘ldi. Ushbu fan orqali o‘quvchilarga zamonaviy iqtisodiy va moliyaviy savodxonlik asoslarini o‘rgatish, biznes dunyosidagi asosiy tushunchalar bilan tanishtirish, va eng muhimi, hayotda foydalanishga yaroqli ko‘nikmalar berish maqsad qilib qo‘yilgan.

1. Fan joriy qilinishining asosiy sabablari

Maktablarda “Iqtisodiyot va biznes” fanini kiritishning bir necha asosiy sabablari mavjud. Avvalo, global iqtisodiy jarayonlar va texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanib bormoqda. O‘quvchilar hozirgi vaqtda iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lmagan holda, kelajakda ko‘plab imkoniyatlarni boy berishlari mumkin. Maktab yoshida iqtisodiy va moliyaviy tushunchalarni o‘zlashtirgan o‘quvchilar nafaqat o‘z shaxsiy moliyaviy holatini yaxshi boshqara oladilar, balki kelajakda biznes va tadbirkorlik sohalarida ham muvaffaqiyatli bo‘lish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar.

Ikkinchidan, jahon bozorining ochiqligi va mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarning kuchayishi tufayli, yoshlar global iqtisodiy jarayonlarni tushunishi va ularga moslashishi zarur bo‘lib qoldi. “Iqtisodiyot va biznes” fani yoshlarni xalqaro savdo, moliyaviy bozorlar va tadbirkorlik imkoniyatlari bilan tanishtiradi.

2. Fanning asosiy maqsadlari va vazifalari

“Iqtisodiyot va biznes” fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga iqtisodiyotning asosiy tushunchalarini, qonuniyatlarini va biznesni yuritish qoidalarini tushuntirishdir. Bu fan orqali o‘quvchilar iqtisodiy atamalarni o‘rganibgina qolmay, balki hayotda qo‘llash mumkin bo‘lgan moliyaviy va biznes ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Quyidagi vazifalar bu fan doirasida amalga oshiriladi:

- **Iqtisodiy savodxonlikni oshirish:** O‘quvchilar iqtisodiyotning asosiy tushunchalari, jumladan talab va taklif, iste’mol va investitsiya, inflyatsiya va iqtisodiy o‘sish haqida bilimga ega bo‘ladilar.
- **Moliyaviy boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish:** Moliyaviy rejalashtirish, daromad va xarajatlarni boshqarish, shaxsiy va oilaviy budget tuzish o‘quvchilarga hayotda moliyaviy qarorlarni to‘g‘ri qabul qilishga yordam beradi.
- **Biznesga oid ko‘nikmalarni shakllantirish:** Tadbirkorlik asoslari, biznes-rejalar yaratish, mahsulot va xizmatlarni bozorga chiqarish kabi masalalar o‘quvchilarning kelajakda o‘z biznesini boshlashga tayyorlanishlariga yordam beradi.
- **Amaliy bilim berish:** Fanning amaliy tomonlari ham alohida e’tibor talab qiladi. O‘quvchilarni amaliy loyihalar orqali iqtisodiyotning qanday ishlashini tushuntirish, jamoaviy ishlash va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

3. O‘qitish metodlari

“Iqtisodiyot va biznes” fanini o‘qitishda an’anaviy ma’ruza va darslardan tashqari, interaktiv va innovatsion usullarni qo‘llash katta samara beradi. Bu usullar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning dars jarayonida faol ishtirok etishiga ko‘maklashadi. Quyida ba’zi samarali metodlar keltirilgan:

- **Simulyatsiyalar va biznes o‘yinlari:** O‘quvchilarga iqtisodiy jarayonlarni tushuntirishda turli biznes o‘yinlari va simulyatsiyalardan foydalanish katta ta’sir qiladi. Masalan, kompaniya boshqaruvi yoki bozor sharoitida qaror qabul qilish jarayonini simulyatsiya qilish orqali o‘quvchilar real iqtisodiy vaziyatlarni his qilishadi.
- **Amaliy loyihalar:** O‘quvchilarga kichik tadbirkorlik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi berish ularga o‘z bizneslarini qanday boshlash haqida amaliy tajriba beradi. Bu orqali ular moliyaviy hisobotlar tuzishni va xarajatlarni boshqarishni o‘rganadilar.

- **Munozaralar va jamoaviy ishlash:** O‘quvchilarga real hayotdagi iqtisodiy va biznes masalalariga oid munozaralar tashkil etish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va turli fikrlarni muhokama qilish orqali masalalarni hal qilishga yordam beradi.

4. Fanning o‘quvchilarga ta’siri va kutilayotgan natijalar

“Iqtisodiyot va biznes” fanini maktablarda o‘qitish nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki umumiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. O‘quvchilar bu fan orqali quyidagi natijalarga erishadilar:

- **Iqtisodiy tushunchalarni yaxshiroq tushunish:** O‘quvchilar iqtisodiyot va biznesning muhim jihatlari, milliy va xalqaro iqtisodiyot jarayonlari haqida keng bilimga ega bo‘ladilar.
- **Shaxsiy moliyaviy rejalashtirish:** O‘quvchilar o‘z hayotlarida daromad va xarajatlarni boshqarish, moliyaviy maqsadlarni belgilash va ularga erishish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar.
- **Tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish:** Maktab davridayoq tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish orqali o‘quvchilar kelajakda o‘z bizneslarini boshlashga tayyor bo‘ladilar.
- **Yaratuvchilik va muammolarni hal qilish:** Fanning amaliy qismi o‘quvchilarda innovatsion fikrlash, kreativlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, bu esa ularga kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni beradi.

5. Xulosa

Maktablarda «Iqtisodiyot va biznes» fanining joriy etilishi yosh avlodga zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni beradi. Ushbu fan iqtisodiy savodxonlikni oshirib, shaxsiy moliyaviy boshqaruvni o‘rgatish bilan birga, tadbirkorlik qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Kelajakda ushbu fanning o‘quv dasturiga to‘liq kiritilishi yoshlarning iqtisodiy jarayonlarni tushunishini, muvaffaqiyatli tadbirkor va yetakchi bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim dasturlari:

- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining o‘quv dasturlari va qo‘llanmalari.
- "Maktabda iqtisodiy ta’limni rivojlantirish" bo‘yicha hukumat qarorlari va normativ hujjatlar.

2. Darsliklar va qo‘llanmalar:

- Smith, A. The Wealth of Nations (Millatlar boyligi). – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
- Marshall, A. Principles of Economics (Iqtisodiyot asoslari). – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

- "Biznes asoslari va tadbirkorlik" maktab o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrlari.

3. Ilmiy maqolalar va monografiyalar:

- Usmonov, A. "Ta’limda iqtisodiy bilimlar va biznes ko‘nikmalarini shakllantirish." O‘zbek iqtisodiyoti jurnali, 2021.
- Rasulova, M. "Iqtisodiy savodxonlik va moliyaviy boshqaruv bo‘yicha maktab ta’limi." Ta’lim va Rivojlanish Jurnali, 2022.

3. Xalqaro ilmiy manbalar:

- OECD. Entrepreneurship Education at School in Europe. European Commission, 2015.
- World Economic Forum. The Future of Jobs Report. 2020.

4. Internet manbalari:

- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti: www.xtv.uz
- World Economic Forum ta’lim bo‘yicha hisobotlari: www.weforum.org

O‘ZBEK TILI DARSLARDA INTERFAOL METODLAR SAMARADORLIGI

Kamaljonova Go‘zal Axmadjonovna – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi o‘zbek tili fani metodisti

Annotasiya

Ushbu maqolada O‘zbek tili dars mashg‘ulotlarida yangi ta’lim texnologiyalarini qo‘llash va o‘zbek tili darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari haqida ma’lumotlar berilgan.

Аннотация

В данной статье представлена информация об использовании новых образовательных технологий на уроках узбекского языка и современных методах организации уроков узбекского языка.

Anotation

This article provides information about the use of new educational technologies in Uzbek language lessons and modern methods of organizing Uzbek language lessons.

Kalit so‘zlar: yangi ta’lim texnologiyasi, pedagogik usullar, noan’anaviy ta’lim, interfaol metod, zamonaviy ta’lim, bilish, tushunish, qo‘llash.

Ключевые слова: новые образовательные технологии, педагогические методы, нетрадиционное образование, интерактивный метод, современное образование, знания, понимание, применение

Key words: new educational technology, pedagogical methods, non-traditional education, interactive method, modern education, knowledge, understanding, application.

O‘zbek tilini o‘qitishda o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta’lim tizimining takomillashuvi bilan bog‘liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda.

XX asrning oxirgi yillariga qadar o‘qitish metodlari sifatida tushuntirish bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar o‘zbek tili ta’limi darslarini tashkil etishda ko‘proq qo‘llanilib kelindi. Ayni vaqtda internet olamiga keng ko‘lamli va shiddatli tezlikdagi axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o‘quvchiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o‘z darslarida qo‘llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o‘qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta’lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta’minlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim va hayotiy ko‘nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya–ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Ko‘p yillar davomida an’anaviy dars o‘tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo‘lib keldi. An’anaviy darsda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o‘quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlashni taqozo etadi. Noan’anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg‘ulot turidir. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to‘qnashuvi yuzaga keladi. O‘quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog‘onaga ko‘tariladi. O‘qituvchi

shu tarzda o‘quvchilarni faollashtiradi, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarning dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi. Darsning mazmunli o‘tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o‘qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to‘g‘ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o‘qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o‘tishni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchi doimo o‘z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo‘lishi va o‘z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo‘lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o‘quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo‘ladi.

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asaosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.

Interfaol metod-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metod. Interfaol metod va usullar: “4 taraf”, “Svetafor”, “Crocodil”, “Byuzen”, “3,4,5,6,7”, “Kalit so‘z”, “Predmet”, “Aqli qo‘llar”, “Nechta harf shuncha fakt”, “Logotip”, “Men shoirman”, “Aktivator 3,2,1”, “Quvnoq harflar”, “Toj”, “M”, “Tugun kimga tushdi?” va hakoza.

Hozirgi kun o‘zbek tili o‘qituvchisi bu yangi ta’lim usuli va metodlaridan qay darajada foydalanyapti? Bizningcha darslarda bu metodlardan ayrim murabbiylar unumli foydalanmayapti. Jamiyatning axborotlashuvi ta’lim tizimida uzluksiz innovatsiyalarni talab etadi. Bugun har qanday uslub darhol eskirishi va yangi metodlar bilan boyitilishi mumkin. Dars mashg‘ulotida kerakli natijalarga erishish qaysi omillarga bog‘liq? Dunyoning turli mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’limda innovatsiyalarni qo‘llash bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda “innovatsiya”, “interfaol usullar”, “innovatsion texnologiyalar” to‘g‘risida yaxshi axborotlar to‘plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta’lim muassasalarida o‘rgatish samaradorligini orttirish bo‘yicha aniq tavsiyalar yetarli emas.

O‘zbek tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish turli bosqichlarda amalga oshiriladi. O‘zbek tili o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo‘llanadigan usullar,

mashqlar variantlari ko‘p. Fonetik, grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida o‘yinlar orqali ta’limga ped texnologiyalarni tatbiq etish ham muhim o‘rin tutadi. O‘yinlarni boshqa mashq turlaridan farqi shuki, bunda bir tamondan, o‘quvchilarning zerikishi, charchog‘iga barham berilsa, ikkinchidan tamondan, bolalarning fikrlash jarayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi. Bu vazifani to‘liq bajarish maqsadida, eng avvalo, olimlar hamda maktablar, akademik litsey, kasb-hunar maktablari va oliy ta’lim muassasalarida ishlayotgan o‘qituvchilar hamkorligida bir necha muammolarni yechish lozim.

Jumladan:

- yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyatini aniqlash va uning nazariy asoslarini yaratish;
- uning prinsiplarini ishlab chiqish;
- pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llashning samarali yo‘llarini tanlash va hokazo. Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda.

O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘shishiga olib keladi. Shuningdek ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari izlab topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Hozirgi kunda dars jarayonlarida an’anaviy metodlar qo‘llanilish natijasida, ta’lim oluvchilarning axborotni eslab qolish ko‘rsatkichining eng yuqori darajasi 30 foizni tashkil etar ekan. Noan’anaviy metodlar qo‘llanilganda esa, ularning axborotlarni o‘zlashtirish darajasi yanada ortib boradi. Bugungi kunda barcha fanlar qatori o‘zbek tili darslarini ham hozirgi zamon talablariga

muvofiglashtirish, zamonaviy ta’lim metodlari asosida o‘qitish yuzasidan faol ishlar olib borilmoqda.

“O‘zbek tili” darslariga noan’anaviy darslarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘z kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor hissini kamol toptirishda “O‘zbek tili” darslarining o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o‘quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o‘zlashtirilishiga zamin yaratish, o‘quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Biroq ta’lim mazmuni, usuli va vositalarini "O‘quvchilarning ijodiy, mantiqiy, obrazli va assotsiativ fikrlash, tafakkur qilish, tafakkur mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirish" 2 bosh maqsadidan kelib chiqib, izchil va sistemali, aniq amaliy natijalarni olish nuqtai nazaridan tashkil etib ta’lim samaradorligini ta’minlash dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Ta’limda interfaol metodlarni qo‘llashdan asosiy maqsad – o‘qituvchining o‘z pedagogik xazinasini qayta ko‘rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqori sifatli metodik yo‘nalishga intilishini hosil qilish, izlanishlar, tajribalarga undashdir. Ta’lim mazmunini boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim. O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishda pedagogik omillarni ham ko‘plab topsa bo‘ladi. Ular ta’lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga mustahkam didaktik asos bo‘la oladi va ularni ta’lim mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o‘ziga xos innovatsion jarayon bo‘lib, bunda o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili fanining chuqur o‘zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o‘yinlar va kompyuter texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo‘lishi mumkin. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlanishi, o‘z fikrini erkin va ravon bayon eta olishi, so‘zlarni to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llash ko‘nikma va malakalari rivojlantirishda asosiy fan hisoblanadi. Shuning uchun ta’limning dastlabki bosqichidayoq o‘zbek tilini o‘qitishga alohida e’tibor berish lozim. So‘nggi yillar davomida ta’lim tizimiga an’anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi- o‘quvchilarning muloqot olib boorish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida

emotsional aloqalar o‘rnatishga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlatdi. Shu bilan birga, amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning asabiy zo‘riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘rganishda innovatsion metodlar. *Science and Education*, 7(5).
2. Шайхисламов, Н. (2020). Она тили ва адабиёт дарсларида замонавий педагогик технологияларни куллаш махррати. *Science and Education*
3. Курбанович, М. К. (2020). Инновационная деятельность как обязательный компонент личной педагогической системы преподавателя. *Суз санъати*, (3), 219-225.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/ona-tili-va-adabiyot-darslarida-zamonaviypedagogik-texnologiyalarni-qo-llashning-o-ziga-xos-jihatleri>
5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*, 15(3), 49-57.
6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. *Universum: технические науки*, (8-1 (77)), 27-29.

ЖАМИЯТ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ МУҲИТИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

М.Сайидов – Жиззах ДПУ доценти, ф.ф.н.

Аннотация

Ушбу мақолада жамият маънавий –ахлоқий муҳити тушунчаси унинг мазмун –моҳияти, характер – хусусиятлари ва уни тоқомилаштириш йўллари ҳақида сўз боради. Шунингдек ижтимоий муҳит асослари, таркибий қисмлари хилма хиллиги ҳамда даражадалари асосланган.

Калит сўзлар: давлатчилик, миллий давлатчилик, жамият, муҳит, маънавий муҳит, ахлоқий муҳит, ижтимоий муҳит, сиёсий муҳит, илмий муҳит

Бугун Ўзбекистонда миллий давлатчилик тарихида мутлақо янги ходиса бўлган демократик фуқаролар жамияти барпо этилмоқда. Бу жамият асос эътибори билан янги бўлиб, у бир томондан, миллий кадриятларга таяниши иккинчи томондан эса умуминсоний маданият ютуқларига асосланиши билан диққатни тортади. Шу сабабли бугунги жамиятимиз ўзига хос маънавий-ахлоқий муҳитни юзага келтиришга эҳтиёж сезмоқда. Президентимиз Ш.Мирзиёев айтганларидек “Халқимизнинг маънавий қудрати ва бой кадриятларини асраб – авайлаш ва бутун дунёга тараннум этмоғимиз зарур” [1,48]ю

Ўзбекистон жамиятининг ҳозирги ривожланиш босқичида жамият ҳаётига оид бир неча муаммоларнинг илмий-назарий ечимларини ишлаб чиқиш долзарб бўлиб турибди. Шундай муаммолардан бири ва энг асосийси жамият маънавий-ахлоқий муҳитини такомиллаштириш масаласидир. “Жамиятнинг маънавий-ахлоқий муҳити бу-одамларнинг ўзаро муносабатлари ва ўзаро ҳамкорлигининг натижасидир” [3,12].

Жамиятнинг маънавий-ахлоқий муҳити тушунчаси бир неча характерли хусусиятларга эга. Биринчидан, бу одамлар ҳаётининг ахлоқий жихатларини ифодалайди; иккинчидан, бу муҳит турли жамоаларда турлича бўлади; учунчидан, маънавий-ахлоқий муҳит жамият тараққиётининг ахлоқий-маданий қиёфасини белгилайди. Айни пайтда, ҳар бир жамият ўз маънавий-ахлоқий муҳитини таъсис этади. Маънавий-ахлоқий муҳитнинг шаклланишида шахс бир маслакка эга шахсларнинг бирлашувчанлик фаолияти муҳим ўрин тутади. Чунки “жамият-шахсларнинг уюшган мажмуидир” [4,64]. Шу маънода маънавий-ахлоқий муҳитнинг юзага келишида шахс компоненти муҳим ўрин тутади. Айни пайтда, маънавий-ахлоқий муҳит жамиятнинг ривожини билан уйғун ҳолда такомиллашиб боради.

Шахс ва жамият муносабатлари оралиғида маънавий-ахлоқий муҳит боғловчи ролини ўйнайди. Бу боғловчилик шахсга ҳам, жамиятга ҳам тенг таъсир қилиш қонуниятига эга бўлади.

Бизнинг бугунги жамиятимиз мутлақо янги асосларга таянган ҳолда ривожланиб бормоқда. Унинг асосини миллий ва умуминсоний кадриятларни уйғун қабул қилиш ташкил қилади. Бунинг маъноси шуки, жамиятимиз турмуш тарзи ва ахлоқий тарбияда миллий кадриятларга; ижтимоий ҳаёт, инсоний фаолият ва тизимли ривожланишда эса умуминсоний кадриятларга асосланади. Бу ҳам жамиятимиз маънавий-ахлоқий муҳитининг ўзига хос тарзда бўлишини тақозо этади. Буларнинг барчаси жамиятнинг маънавий-ахлоқий муҳитини йўналтириб боришни тақозо этади. Француз файласуфи Д.Дидро таъкидлаганидек, “инсон айнан жамиятда ўз эҳтиёжларига қониқиш ҳиссини ва ўз имкониятларидан фойдаланиш йўлини топади. У айнан шу ерда ўз ҳис-туйғуларини, табиат

ато қилган самимийлик, дўстлик, меҳрибонлик, бағрикенглик ва изтироб чекиш фазилатларни кўрсатади”[5,63]ю Бу фикр диққат қилишга лойиқ. Негаки, жамиятимизда ижобий ва салбий омилларнинг таркиб топиши ёки одамларни улардан биридан таъсирига тушиши муаян муҳитда рўй беради. Худди шу ўринда жамият маънавий-ахлоқий муҳитининг таркиби намоён бўлади.

Аввало “муҳит” тушунчаси ҳақида. “Муҳит”- бу қонуниятларидан бири бўлиб, у инсон мавжуд бўлган ҳолат ва жойни англатади[6,60]ю Илмий адабиётларда “ижтимоий муҳит” тушунчаси сифитида ҳам кенг қўлланилади. Ижтимоий муҳит-бу инсонни ўраб турган ва унинг онги ҳамда хулқига фаол (бевосита ва билвосита, стихияли ва онгли) таъсир ўтказувчи барча ижтимоий шарт-шароитлар, фаолиятлар ва алоқадорликларни белгилашда хизмат қилувчи фалсафий категориялардан биридир. “Ижтимоий муҳит” тушунчаси кенг ва теран маънога эга. Ижтимоий муҳит ҳақида гап кетганда “сиёсий муҳит”, “иқтисодий муҳит”, “маънавий муҳит”, “ахлоқий муҳит”, “илмий муҳит”, каби унинг таркибий қисмларини тушуниш мумкин[7,72].

Ижтимоий муҳитнинг асослари ёки таркибий қисмлари хилма-хил ва турли даражада намоён бўлади. Масалан, микро, мезо, меҒо даражаларини кўрсатиш мумкин. Бизнинг жамиятимизда ижтимоий муҳитнинг таркибий қисмларида маънавий-ахлоқий жиҳат асосий элемент ҳисобланади. Шу маънода ижтимоий муҳитнинг қуйидаги таркибий қисмлари муҳим аҳамиятга эга:

1.Оила муҳити. Бу муаян шахсларнинг, яъни ота-она ва фарзандларнинг бир оилада яшаб, ўзаро муносабатларга киришишидан иборат. Оила муҳити умумий ва хусусий хусусиятларга эга бўлади. Барча оилаларга хос бўлган ҳолатлар умумий хусусиятни, бир оилага хос бўлган одатлар хусусий хусусиятни ифодалайди. Оила муҳити жамият маънавий-ахлоқий муҳитининг бирламчи негизи ҳисобланади. Чунки Ўзбекистон оилаларида маънавий-ахлоқий тарбия бирламчи масала ҳисобланади. Инсоннинг ҳаёти ва турмушида, айниқса ёш авлоднинг камол топиши, ахлоқий вояга етишида оиланинг ўрни ва вазифаси беқиёсдир.Биринчи президентимиз И.А.Каримов таъкидлаганидек: “Бола туғиган кунидан бошлаб оила муҳитида яшайди. Оилага хос анъаналар, қадриятлар, урф-одатлар бола зуваласини шакллантиради. Энг муҳими фарзандлар оилавий ҳаёт мактаби орқали жамият талабларини англайди, ҳис этади”[2,35].

Халқимиз тарихига назар ташлайдиган бўлсак, энг қимматли анъаналар: ҳалоллик, ростгўйлик, ор-номус, шарм-у ҳаё, меҳр-оқибат, меҳнатсеварлик каби барча инсоний фазилатлар энг аввало оилада шаклланган. Шу маънода оила жамият ичидаги муҳитдир. Бу муҳитнинг ўз салтанати ва ўз худуди бор. Бунда кўплаб микро муҳитлар анъаналари,

урф-одатлари маънавий-ахлоқий меъёрлар синтезлашади. Ворисийлик қонуниятига кўра таҳлил этилиб такомиллашиб боради. Оила ана шу асосларга таянган ҳолда кишилик тафаккури ва ижтимоий ҳаракатининг улуғ кашфиёти даражасига етган. Кишилар учун муқаддас муҳит ҳисобланмиш оила инсонларнинг табиий, иқтисодий, ижтимоий, ҳуқуқий ва маънавий-ахлоқий муносабатлари замирида вужудга келади. Албатта оила жуфтлик қонуни асосида юзага келади. Бу жараёнда энг аввало муайян микро муҳитдаги соғлом турмуш тарзи ва маънавий-ахлоқий муносабатлар муҳим роль ўйнаб қолмай, балки бошқарувчилик, назорат ва йўналтирувчилик каби ахлоқий вазифаларни ҳам бажаради. Инсонининг, айниқса ёш авлоднинг ахлоқий камол топишида оиланинг ўрни ва роли бениҳоя катта. “Оила ижтимоий-тарихий хусусиятга ва муайян тузилишга эга бўлган ижтимоий гуруҳнинг кўринишидир” [8,56] деб берилган таърифда ҳам оила муҳитининг инсон шаклланишида ва унинг ахлоқий камолотида нечоғлик муҳим аҳамиятга эга эканлиги таъкидланган.

2. Мактаб муҳити. Шахснинг келажак тақдирида белгиловчи омиллардан бири мактаб муҳити бўлиб, бу муҳитни оқил раҳбар, яшаш, ўқув жамоаси, маънавий-ахлоқий тарбия, ўқитувчиларнинг одиллиги, билимдонлиги, қатъийлиги, талабчанлиги, масъулият хисси, ўқитувчи ва ўқувчиларни тақдирлаш, мактабнинг ўзига хос обрўси, анъанаси, ўқувчиларнинг дарсга қатнашиш тартиб-интизоми, дарс сифати, спортчилари, иқтидорлиларнинг кўп ёки озлиги ва бошқаларни ўз ичига олади. Инсон мактаб муҳитида шахс сифатида вояга етади. Агар оилада унинг маънавий-ахлоқий шакилланишига пойдевор қўйилса, мактабда бу ҳолат ривожлантирилади. Шахснинг ахлоқий онги айнан мактабда шаклланиб, маромига етади. Инсон кейинги ҳаётида мактаб муҳитида олган кўникма, масала ва тажрибаларига таяниб яшайди.

3. Иш жойи муҳити. Раҳбар, ходимлар ва жамоа аъзоларининг ўзаро муносабати, ўзаро ҳурмат, ишчанлик, жамоа ор-номуси, шон-шуҳрати учун кураш, масъулият хисси, манфаатдорлик, эътибор, талабчанлик, ғамхўрлик, рағбатлантириш усуллари, юқори лавозимларга тавсия этиш, жамоа билан фихрланиш кабиларда иш жойи муҳити катта аҳамият касб этмоқда. Чунки иш жойида шахснинг маънавий-ахлоқий қиёфаси тўлиқ намоён бўлади. Шу сабабли олимлар бу борада қуйидаги олтин қонидани қатъий таъкидлашади: шахс хизмат доирасида ўзига бўйсинувчиларга, раҳбариятга, жамоадошларга ва мурожаат қилувчиларга ўзига нисбатан яхши муносабат келтирадиган ахлоқий муносабатда бўлиши шарт [9,5]. Бу қоидага амал қилиш учун шахсга имконият ва шарт-шароит керак. Бундай шароитни иш жойининг маънавий-ахлоқий муҳити таъсис этади.

4. Маҳалла муҳити. Бу бир неча оилалар уюшмасидан иборат, ижтимоий, иқтисодий ва ахлоқий мақсадлар йўлида бирлашувчи кишилар

макониدير. Маҳалла муҳити жамиятнинг жамоатчилик тамойилини руёбга чиқаради. Бизнинг жамиятимизда маҳалла муҳити шахс ахлоқий фаолиятининг муҳим макони ҳисобланади. Айтиш лозимки, маҳалладаги маънавий-ахлоқий муҳит жамиятимиз маънавий-ахлоқий муҳитининг негизини ташкил қилади. Бу муҳитда Шарқ ахлоқ фалсафаси реалликка айланади. Маълум бўладики, микро муҳитнинг мажмуи жамият организмни ташкил қилади. Шу маънода жамиятнинг маънавий-ахлоқий муҳити деганда ана шу микро муҳит назарда тутилади. Микро даражада чойхона муҳити. Мижозлар суҳбати, гурунги, гап-гаштаклари ёки бўш вақтни оқилонга ўтказиш шакллари. Дўстлар давраси муҳити. Эзгуликка, ўзаро хурматга, бир-бирига ёрдам, яхши ва ёмон кунларида бирга бўлиш ҳис-туйғуси, кўллаб-қувватлаш ва ҳ.к. Қариндошлик муносабатларни ташкил этувчи микро муҳит: ўзаро ғамхўрлик, ўзаро ёрдам, яхши ва ёмон кунларда хабардор бўлиб туриш, аждодларининг яхши анъаналарига риоя қилиш, фарзандлар ўртасида қариндошлик масъулиятини англаш.

5. Илмий муҳит. Илмий-тадқиқот муассасаларида илмий ва руҳий, ишчанлик, ёшларга ғамхўрлик, ўқув-услубий, илмий тадқиқотлар учун қулай шароит, маънавият ва маърифат, соғлом муҳит, ўзаро хурмат, талабчанлик, масъулият, ўзаро ёрдам, ижтимоий химоя, рағбатлантириш кабилар киради.

Носоғлом, ғаразли манфаатларга асосланган алоқа ва муносабатлар, бу тўдалар микдоридан қатъий назар жамиятнинг соғлом муҳитига хавф туғдирувчи салбий ҳодиса бўлиб, нафақат ўз оиласи, фарзандлари тарбиясига қатта зарар етказувчи, балки жамиятга зарар, унинг осойишталигига, тинчлигига, хавфсизлигига путур етказувчи “Зараркунандалик” дир. Шарқ ва Ғарб олимлари ҳар бир инсоний жамиятда маънавий-ахлоқий муҳитни бузишга ва бу йўналишни ноинсоний йўлга буриб юборишга уринувчи кучлар бўлиши мумкинлигини қайд этадилар. Шу сабабли олимлар инсон онги ва қалбида “эзгулик ва ёвузлик” каби тушунчалар асрлар давомида сақланиб келаётганлигини таъкидлайдилар[10,40].

Жамият маънавий-ахлоқий муҳитига нисбатан фалсафий ёндашувлар анъанаси тадрижий равишда шаклланиб келган. Лекин бу ёндашувлар яқдил характерга эга эмас. Жумладан, баъзилар жамият маънавий-ахлоқий муҳитини “донишмандона яшаш тажрибаси” деб, бошқалар эса “бахт-саодатга олиб борувчи қисқа йўл” дея ва учинчилари “абადий ҳаётга етиш учун илохий қонунларга амал қилиш манбаи” деб уқтирадилар[11,35]ю Бу талқинларнинг барчаси тўғри, лекин уларда маънавий-ахлоқий муҳитни шакллантиришдаги ижтимоий-тарихийлик принципи ҳисобга олинмаган. Бизнинг фикримизча, жамият маънавият-ахлоқий муҳитининг тушунчалари, нормалари, принциплари ва

кадриятлари жамиятнинг ривожланиш манбаи бўлган ижтимоий-тарихий жараёнда шаклланиб, такомиллашиб боради.

Шундай қилиб, муҳит- бу инсонни ўраб турган ва унга бевосита ёки билвосита таъсир этувчи шароитлар йиғиндисидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М Янги Ўзбекистонда эркин ва фаравон яшайлик. Тошкент. ТАСВИР нашриёт уйи 2021.-52 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. Т. Ўзбекистон. 2008 й.
3. Анальбоев Б.Г. Человек как предмет познания. – Л.,: ЛГУ. 1978
4. Уткин А.И. Векторы Глобальных перемен: анализ и оценки основных факторов // Полис. 2000.1. –С. 12.
5. История в энциклопедии И.Д. Алембер. – М.: НАУКА, 1978 – с. 63.
6. Донцов А.И. Проблемы Групповой сплоченности. – М.,: Высшая школа. 1979. – с. 60.
7. Нормуродов Б. Ижтимоий муҳит ва унинг тараққиётдаги ўрни.// Таълим – тарбия жараёнида ижтимоий муҳитнинг роли. Қарши 2004. – Б. 21.
8. Ўразов Х., Ғозиев Э., Орипова Л. Оила ахлоқи ва одоби Т., 2012. 25 –Б.
9. Ботавсина Р.Н. Этика делавых отношений. Учебное пособие. – М, : Финансии и статистикий 2005. – б. 5.
10. История этических учений. Пед общ. Ред. А.А. Гусейнова. – М.,: Мысль. 2002. С 40-41.
11. Голубева Г.Г. Этика – М.,: Экзамен. 2005. С 100.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Vaxobov Ulug‘bek Bahodir o‘g‘li – Jizzax DPU Tarix fakulteti “Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi” kafedراسи o‘qituvchisi

Annotatsiya

Hozirgi davrda xalqimiz eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug‘vor maqsadlar bilan yashamoqda. Buning uchun esa albatta yoshlar ma’naviy-axloqiy qiyofasini takomillashtirish lozim. Maqolada aynan ana shu jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit soz: Axloq, oila, jamoatchilik fikri, ma’naviy-axloqiy qiyofa, mahalla, tarbiya, yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati.

Mamlakatimizda adolatli fuqarolik jamiyati qurish, har taraflama inson manfaatini ta’minlash, xalqimiz ertaga emas, bugun yaxshi yashashi bo’yicha islohotlar, yoshlar bilan ishlash bo’yicha mutlaqo yangi tizim yaratilgani hammamizga ayondir. Bu kabi ezgu g’oyalarning zamirida inson va uning manfaatlari mujassam bo’lib, uning samaradorligi davlatimiz ma’naviy qarashlarida yangilanish, aholi tafakkurida o’sish, yoshlarning ijtimoiy faolligi, Vatan va mamlakat taqdiriga daxldorlik xissining kuchayishi, umuman olganda ma’naviy-axloqiy qiyofaning yuksalishi bilan bog’liqdir. “Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e’tibor va g’amxo’rlik ko’rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki yoshlar – bizning kelajagimiz”[1].

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, oliy o’quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta’lim maskanlari — “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo’lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Yoshlar jamiyatning eng faol va xarakatchan qatlami bo’lib, ijtimoiy hayotdagi o’zgarishlarga bevosita sababchi bo’ladigan hamda yaratuvchanlik g’oyalarini jamiyatga tatbiq etuvchi asosiy omil va salohiyatli kuch hisoblanadi. Ularni ijtimoiy, ma’naviy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, shuningdek, jamiyatda o’z o’rnini egallashlari uchun mavjud barcha sharoitlarni yaratish orqali ularning bor potentsiallarini ro’yobga chiqarish zarurdir. “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hozir mavjud bo’lgan va kelajakda tuziladigan bu uyushmalarning barchasini birlashtirib, ularga nafaqat moliyaviy, moddiy-texnik nuqtai nazardan, avvalo, g’oyaviy-uslubiy, ma’naviy jihatdan amaliy yordam ko’rsatiladigan, ularning ishini muvofiqlashtiradigan asosiy tashkilot sifatida faoliyat olib boradi”[2]. Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat “Yoshlar parlament”lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo’yicha komissiya tashkil qilindi.

2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg’usi, bag’rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan,

hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash hamda yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish kabi ustuvor vazifalar belgilandi[3].

Yosh salohiyatli kadrlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash yo‘nalishida:

– davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarida iqtidorli, tashabbuskor, raqobatbardosh kadrlar zaxirasini shakllantirish choralarini ko‘rish;

– yoshlarda muammolarni hal etish, qaror qabul qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muloqot qilish, moslashuvchanlik, stressni yengish kabi hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha maxsus o‘quvlarni rivojlantirish;

– yoshlarda korporativ etika, jamoaviy ish, keys-menejmentga doir bilimlarni shakllantirish orqali ish jarayoniga moslashib ketishiga ko‘maklashish tizimini yo‘lga qo‘yish;

– yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining hamkorligini muvofiqlashtirish;

– yoshlarning erkin fikrlovchi, ishbilarmon, tadbirkor hamda intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan bugungi kun qahramoni timsolini yaratish va uni yoshlar orasida keng targ‘ib qilish;

– yoshlar hayoti, o‘y-kechinmalari, orzu-niyatlari, dolzarb muammolarini internet, radio, televideniye, gazeta va jurnallarda keng yoritish bo‘yicha shart-sharoitlarni yaratish.

Hozirgi davrda xalqimiz eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug‘vor maqsadlar bilan yashamoqda. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi[4]. Buning uchun esa, har birimizda yangicha fikr, yangicha dunyoqarash, metin qat’iyat, bukilmaz iroda, umuman olganda ideal ma’naviy-axloqiy qifoyamiz shakllangan bo‘lishi lozimdir.

Bejizga Eronning sobiq Prezidenti M.Hotamiy: “Dunyoda hayotni va xavfsizlikni amalda ta’minlash har bir kishi boshqalarning madaniyati va tafakkur tarzining emas, ularning an‘analarini, urf-odatlarini va farqlarini to‘la tushungandagina mumkin bo‘ladi. Boshqa jamiyatlarning madaniy va ma’rifiy me‘yorlarini tushunishning murakkabligi ular bilan dialog o‘rnatishni zarur qilib qo‘yadi. Agar ishtirokchi tomonlar o‘zlarining haqiqiy qarashlarini to‘g‘ri

ifodasalar, diolog haqiqiy va ahamiyatli bo‘ladi, aks holda o‘z sharoitidan ajralgan tashabbuskor va boshqa tomon o‘rtasidagi diolog ma’nosiz bo‘lar va shubhasiz, qandaydir foyda yoki yaxshilik keltirishga layoqatsiz bo‘lgan bo‘lar edi”[5] – degan edi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yildi. Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 – 2020-yillarda 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi, 30-iyun – “Yoshlar kuni” deb e’lon qilindi.

“Mahallabay” o‘rganishlar orqali yoshlarning bandligini ta’minlash, kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlikka jalb etish, shuningdek, ular o‘rtasida madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida yangicha tizim asosida barcha tuman (shahar)larda “Yoshlar dasturlari”ni amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi. Respublikada yoshlar manfaatlarini himoya qiladigan 830 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlashga qaratilgan “Beshta muhim tashabbus” ilgari surildi[6].

Homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish, aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish asosiy vazifa qilib belgilab olingan.

Xulosa qilib aytganda, hozirda dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va ilmiy tadqiqot institutlarida yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual faoliyatni qaror toptirish, ilmiy-texnik, kreativ, tanqidiy tafakkurning rivojlantirish masalalarini tahlil etishga qiziqish keskin kuchaydi. Mazkur yo‘nalishda, ayniqsa, yoshlik davrida tafakkurini rivojlantirishning ustuvor usullari va shart-sharoitlarini ifodalovchi mexanizmlarni aniqlash hamda joriy etish muammosiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu sababli innovatsion tafakkurni shakllantirish va uning ilmiy-texnik tafakkur xususiyatlarini ijtimoiy-gumanitar fanlarning tegishli kategoriyalari asosida tahlil etish dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Jild 1. –Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, B. 32.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Jild 1. –Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, B. 518.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi” Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr. O‘RQ-406-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. B.6.
5. Хотами М. Ислам, диалог И гражданское общество. М.: изд. “Рос ПЕН”, 2001. –С. 36.
6. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida (lex.uz)// 23-сон 18.01.2021.

O‘QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH USULLARI

Muqimov Eldor Razzoqovich – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi tarix fani metodisti

O‘z mamlakati va o‘zi yashayotgan hududning tarixini bilmaslik butun jamiyatning ijtimoiy-madaniy darajasiga ta’sir qiladi va milliy o‘ziga xoslik yo‘qolib boradi. Milliy o‘zlik implantatsiya qilinadigan narsa emas. Bu tuyg‘uni maktab o‘quvchilari, talabalarni tarix faniga qiziqtirish orqaligina tarbiyalash mumkin.

Bugungi kunda yoshlarning tarix sohasidagi bilimlari yetarli deb bo‘lmaydi. Bizningcha, buning bir necha sabablari bor. Eng avvalo, tarix fanini o‘qitishning an’anaviy usuli o‘zini oqlamayotganligi vaziyatga jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. O‘quv dasturlari hamon sovet davridagi qolip asosida ishlab chiqilmoqda va kitoblarda ko‘plab hato ma’lumotlar uchramoqda shu asosda darsliklar nashr etilmoqda.

Umumta’lim maktablari uchun tarix fanini o‘qitish bo‘yicha amaldagi davlat ta’lim standartlari tarixiy sanalar, joy nomlarini eslab qolish, O‘zbekiston va jahon tarixining eng qadimgi davridan XX asr boshlariga qadar insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan muhim voqea va jarayonlar haqida ma’lumotlarni yodda saqlash, bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchi ongini «ma’lumotlar ombori»ga aylantirishga yo‘naltirilgan. Ammo o‘quvchiga tarixiy-tadqiqot metodlarini o‘rgatish, bunda muzeylardan, yodgorliklardan, arxeologik tepaliklardan, arxivlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish haqida so‘z bormaydi.

Yapon xalqida ajoyib bir maqol bor: «Kimgadir yaxshilik qilishni istasang, unga baliq berma, baliq tutishni o‘rgat». Hozirda umumta’lim maktablarida 5-11 sinflarda jami 12 dona darslik o‘qitiladi. Ularning hammasi sanalar, joy nomlari, tarixiy-voqealarga to‘la. Maktablarimizning aksariyatida an’anaviy ta’lim usullari qo‘llanmoqda. Bunday usul o‘tgan asrning 70-90 yillarida samara bergan bo‘lishi mumkin. Chunki u vaqtlarda o‘quvchining diqqatini o‘ziga tortadigan turli-tuman texnologiyalar hali udum bo‘lmagan, o‘quvchi uchun yagona qiziq joy, bu – maktab bo‘lgan. Hozir o‘quvchilarning diqqatini tortadigan texnologiyalar juda ko‘p. Bular qatoriga maktablar yaqinida ochib qo‘yilgan kompyuter o‘yinlari klublaridan tortib, har bir o‘quvchining qo‘lida uchratish mumkin bo‘lgan smartfonlargacha kiritish mumkin. Ana shu chalg‘ituvchi unsurlardan o‘quvchining diqqatini dars mashg‘ulotlariga qaratish hozirgi dunyoning eng dolzarb muammosidir. Shuning uchun ham bugunning o‘quvchilarga o‘qitishning yangi strategiyalari va yondashuvlari orqali murojaat qilish kerak.

Aks holda o‘qituvchilar, masalan, tarix fani o‘qituvchilari deyarli har kuni o‘quvchilar tomonidan beriladigan «Tarix zerikarli», «Eslab qolish kerak bo‘lgan sanalar juda ham ko‘p», «Qachonlardir bo‘lib o‘tgan voqealar haqida bilishim nimaga kerak?» kabi savollarga duch kelaverishadi.

Ta’lim va tarbiya sohasidagi faoliyat ko‘rsatuvchi tadqiqotchilarning fikricha, zamonaviy ta’lim o‘quvchilarning mustaqil faoliyati, jamoaviy ishi, o‘z-o‘zini o‘qitishi, innovatsion va amaliy mashg‘ulotlar, tanqidiy fikrlash, tashabbuskorlikka e’tibor qaratishi lozim. Tarix ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lganligi sababli, o‘qituvchilar o‘quvchilarni qiziqtirishga harakat qilishlari va ularni tarixni yodlashdan ko‘ra tushunishga undashlari kerak.

Buning dunyoda tan olingan bir necha usullari mavjud. Ulardan birinchisi o‘quvchilarda faollikni oshirish va ularni o‘qitish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanishdir. So‘zsiz, interfaol ta’limning eng muhim uslublari va tamoyillaridan biri, bu darsda ommaviy axborot vositalari va texnologiyalardan foydalanishdir. Masalan, o‘quvchilarni tarix darsiga jalb qilishning eng oson yo‘li birgalikda film tomosha qilish hisoblanadi. Dunyoning yirik kinokonsernlari tomonidan, shu bilan birga O‘zbekistonda ham juda ko‘plab tarixiy filmlar ishlangan va ishlanmoqda. Kino sanoati uchun tarix bitmas-tuganmas manbadir. Kinoijodkorlar tomoshabinlarni jalb qilish uchun muhim voqealar va tarixiy davrlardan ko‘p foydalanadi.

Aytaylik, 8-sinf o‘quvchilari uchun Ashtarxoniylar davri (XVII-XVIII) asrlar tarixini o‘qitishda, yaqinda ishlangan «Bahodir Yalanto‘sh» filmidan parchalardan foydalanish ayni muddaodir. Filmida o‘qituvchi ashtarxoniylar sulolasi davrida siyosiy-harbiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayot haqidagi fikrlarini so‘raydi, zaruriy xulosalar chiqarishida ko‘maklashadi. Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda «Qo‘qon shamoli», Abdulla Qodiriy romanlari asosida

sahnalashtirilgan «O‘tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi filmlardan foydalanish mumkin. Yoki 10-sinf o‘quvchilari uchun Ikkinchi jahon urushi arafasida Yevropa va fashistlar Germaniyasi tarixini o‘qitishda «Pianinochi», «Shindler ro‘yxati» kabi filmlar asqotadi. Film yakunida totalitar tuzumlar xavfi va Ikkinchi jahon urushining dahshatlari haqida o‘quvchilarning fikrlari so‘raladi va shu yo‘l bilan ularda mavzu bo‘yicha asosiy ko‘nikmalar hosil qilinadi.

Mavzuga qarab to‘liq filmlar, animatsion filmlar, teleshoulardan parchalar, hujjatli filmlar, Youtube hostingidagi videolar va boshqalarni tanlash mumkin. Qanday film bo‘lsa ham o‘quvchilarning yosh kategoriyasiga mos bo‘lishi va sinf o‘quvchilarida haqiqiy reaksiya uyg‘ota olishi lozim. Film yakunida o‘quvchilar qanchalik ko‘p debatga jalb qilinsa, tarixning ma’lum qismini shunchalik ko‘p o‘rganadi.

Hozirda deyarli barcha maktablarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan bo‘lib, internet tarmog‘i bilan ta’minlangan. O‘quvchilarni har kuni sinfdan olib chiqish mushkulligi uchun ular bilan tez-tez vertuval ekskursiyalar o‘tkazish lozim. Binobarin, tarix fani moziyga sayohat bilan uyg‘un tarzda olib borilmas ekan, o‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqish yo‘qolib, dars mashg‘ulotlarida zerikish yuzaga keladi. Hozirda shunday dasturlar chiqqanki O‘zbekiston va Jahonning tarixiy qadamjolar, ziyoratgohlar, muzeylar olamiga sayyohat qilish imkonini beradi. Jumladan, Tarix fanini o‘qitishning yana bir samarali usuli hisoblangan vertuval ekskursiya orqali amalga oshiriladi.

Tarixni hammadan ham ko‘proq sevuvchilar bu yozuvchilardir. Ma’lum tarixiy mavzularni o‘quvchilar o‘qiyotgan badiiy adabiyotlar bilan bog‘lab tushuntirish ham yaxshi samara beradi. Masalan, Fransiya tarixini o‘rganishda Aleksandr Dyumaning «Uch mushketyorlar» romani qisman bo‘lsa-da yordam beradi. Ushbu kitob yordamida tarixiy faktlarni badiiy to‘qimalardan ajratib olish uchun o‘quvchilarni bahs-munozaraga tortish mumkin. Sovet davrida O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asari bilan bog‘lab tushuntirish mumkin.

Tarix darslarini geografiya bilan bog‘lab tushuntirish ham yaxshi samara beradi. Chunki joylarni hodisalar bilan bog‘lash o‘rganishni osonlashtiradi. Ba’zida tarix darslariga geografiya o‘qituvchisini taklif qilish yaxshi samara beradi.

Navbatdagi usul o‘yinli dars usulidir. O‘quvchilar o‘rganish paytida o‘ynashsa yoki zavqlanishsa, yaxshiroq o‘rganadilar va tez zerikib qolmaydilar. O‘yinni har qanday o‘quv muhiti yoki darsiga qo‘shish mumkin. Ularning ichida eng mushkuli tarixdagi sanalarni eslab qolishdir.

Tan olish kerakki, hozirgi tarix darsliklarida sanalar haddan tashqari ko‘p, ular asosan oylar va yillar ko‘rinishida. Masalan, Ikkinchi jahon urushini

olaylik. O‘quvchilarga urushning boshlanishi sanasi 1939 yil 1-sentyabrda Germaniyaning Polshaga bostirib kirishi bilan boshlanganligini eslab qolishga majburlash o‘rniga oddiy topshiriqdan ishni boshlash, masalan, "1-sentyabrda qanday muhim voqealar yuz bergan?", savolini o‘rtaga tashlash mumkin. Shunda o‘quvchilar 1-sentyabrni nafaqat jahon urushining boshlanish sanasi ekanligini, shu bilan birga ayni sanada Yaponiya jahon urushida taslim bo‘lganligi, O‘zbekiston mustaqilligi kuni ekanligini yoki uzoqroq tarixda Yevropaning eng mashhur qiroli – Fransiya qiroli Lyudovik XIV hukmronligining tugagan sanasi ekanligini ham bilib oladilar.

O‘quvchilarni tarixga, tarixiy manbalarga qiziqtirishda turli fondlar, nodavlat-notijorat tashkilotlaridan ham foydalanish mumkin. Bunda nodavlat-notijorat tashkilot shaklidagi, maqsadi yoshlarning e’tiborini vatan tarixiga, o‘zlarining kichik shahar va tumanlari tarixiga jalb qilish bo‘lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan maxsus ta’lim va ko‘ngilochar dasturlar yordam beradi. Quyida shunday loyihalardan birini amalga oshirish mexanizmini ko‘rib chiqamiz.

Loyihaning birinchi bosqichi maktab o‘quvchilari o‘rtasida ma’lum shahar yoki tuman haqidagi eng yaxshi ertak tanlovi bo‘lib, unda ishtirok etish uchun yoshlar o‘zlarining hududlari tarixini o‘rganishlari, bobo va momolaridan so‘rashlari, muzeylarga borib manbalar yig‘ishi kerak bo‘ladi. Tanlovda, eng muhimi, maktab o‘quvchilarini qiziqtirish va hudud tarixini o‘rganish jarayoni zerikarli mashg‘ulot bo‘lib qolmasligidadir. Shu bois maktab o‘quvchilari to‘plangan ma’lumotlarga asoslanib, o‘zlari yoqtirgan shahar haqida qisqacha badiiy asar, ertak yozadilar. Eng yaxshi asar muallifi mukofot oladi.

Loyihaning ikkinchi bosqichida eng yaxshi ertak asosida badiiy-dekorativ ob’jekt yaratiladi va shahar yoki tuman markazida o‘rnatiladi. Ob’jektga QR-kodli uskuna o‘rnatiladi. Tashrifchilar QR-kodni skanerdan o‘tkazib, maktab o‘quvchisi yozgan, hudud tarixidan hikoya qiluvchi ertakni alohida sahifada o‘qishi mumkin bo‘ladi.

Musobaqa davomida va badiiy-dekorativ ob’jekt loyihasidan so‘ng yoshlar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkaziladi. Yig‘ilgan ma’lumotlar yoshlar ongidagi o‘zgarishlarni kuzatishga yordam beradi. Ushbu loyiha haqiqatan ham ularning tarixni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirdimi va o‘z shahri va ehtimol, o‘z mamlakati o‘tmishi haqida bilish istagini uyg‘otdimi, aniq bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, yoshlar oldiga qo‘yilgan vazifa tarixni o‘rganishning odatiy usullaridan farq qiladi. Loyihaning amalga oshirilishi natijasida maktab o‘quvchilari o‘zlari tug‘ilib o‘sgan hudud tarixini eslab qoladilar va qiziqishi ortadi. Yondashuv an’anaviy o‘qitish usulidan farq qilib, yosh bolalarda ijodkorlik, yangilikka intilish va o‘zini namoyon qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bu usul maktab o‘quvchilarining tarix fanini o‘rganishga bo‘lgan

qiziqishini oshiradi va eng muhimi, ularni biror narsani o‘rganishga majburlamaydi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan usullar yordamida katta hajmdagi voqea-hodisalar va tarixiy sanalarni eslab qolish mumkin. Shu bilan birga, tarix fanini o‘qitishning davlat ta’lim standartlarini ham qayta ko‘rib chiqish zarurdir. Hozirda tarix fani umumta’lim maktablarining 5-sinfidan boshlanadi va unda o‘quvchilar «Vatan tarixidan hikoyalar» (To‘maris, Shiroq haqidagi va boshqa afsonalar) darsligini o‘qishadi.

O‘quvchiga to‘satdan Ahamoniylar shohi Kir II yoki Doro I haqidagi afsonalarni tushuntirish kam samara beradi, o‘quvchini tarix faniga qiziqtirishi qiyin. Umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishni «kichik vatan-katta vatan-dunyo» tamoyili asosida qayta tashkil etish kerak, deb hisoblaymiz. Bu qanday ishlaydi? 5-sinfidagi o‘quvchilar, eng avvalo, o‘zi yashab turgan mahalla va tuman, ya’ni kichik vatanining tarixi, undagi yodgorliklar bilan bog‘liq o‘tmishni o‘rganish bilan tarix ilmiga kirib keladi. Keyingi sinflarda viloyat, respublika, jahon tarixini bosqichma-bosqich o‘zlashtirib boradi. Bunda o‘quvchi hududdagi muzeylar, arxivlar (katta sinflarda), yodgorliklar, yoshi ulug‘larning hikoyalaridan manba sifatida foydalanadi. Shunda o‘quvchida, avvalo, vatan haqidagi tasavvur shakllanadi. O‘z kichik vatanining mamlakat tarixida tutgan o‘rnini, o‘z davlatining jahon tarixida tutgan o‘rnini yaxshiroq anglashiga yordam beradi. O‘z mamlakati tarixini yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi jahonning boshqa davlatlaridagi voqea-hodisalar bilan solishtiradi, xulosalar chiqaradi. Shu yo‘sinda o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt urf-odatlarini, milliy o‘ziga xosligi, qadriyatlarini o‘rganadi va kelgusi avlod uchun asraydi. Oxir-oqibatda o‘quvchi nafaqat tarixni o‘zlashtiradi, balki umuminsoniy madaniyat tashuvchisi sifatidagi o‘rnini saqlab qoladi.

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH

Quvvatov Mahkam Usmonovich – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi nemis va fransuz tili fani metodisti

Annotatsiya

Ushbu maqola xorijiy tillarni o‘qitishda o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Unda kreativ fikrlashning mohiyati, uning xorijiy tilni o‘rganishdagi ahamiyati va asosiy yondashuvlar yoritilgan. Muammoli vaziyatlar yaratish, rol o‘yinlari, assotsiativ fikrlash texnikalari va madaniy kontekstni o‘rganish kabi metodlar o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini shakllantirish uchun samarali vositalar sifatida taqdim etiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, jumladan onlayn

platformalar, ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari sifatida ko‘rib chiqilgan. Maqola xorijiy til o‘qitish jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarni kelajakdagi ijodkor shaxslar sifatida shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Xorijiy tillarni o‘qitish, kreativ fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlar, rol o‘yinlari, assotsiativ fikrlash, madaniy kontekst, innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv o‘qitish usullari.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o‘rganish nafaqat muhim, balki hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. Biroq, chet tillarni o‘rgatish jarayonida faqat grammatik qoidalar va so‘z boyligini o‘rgatish yetarli emas. Bu jarayon o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va o‘z g‘oyalarini erkin ifodalashga o‘rgatadigan muhim vositaga aylanishi lozim. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘rgatishda o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlar va usullar ko‘rib chiqiladi.

Kreativ fikrlash nima va uning xorijiy til o‘rganishdagi roli

Kreativ fikrlash – bu muammolarga noodatiy yechimlar topish, yangicha fikrlash, va mavjud bilimlarni yangi kontekstda qo‘llash qobiliyatidir. Xorijiy tilni o‘rganishda kreativ fikrlash birinchidan erkin muloqot qilishga imkon beradi, shu bilan birga muqobil so‘z va iboralar topishni osonlashtiradi, bundan tashqari turli madaniy hamda ijtimoiy kontekstlarda moslashish qobiliyatini oshiradi

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar

O‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun xorijiy til darslarida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin :

1. Muammoli vaziyatlar yaratish (Problembiertes Lernen)

Muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarni fikrlashga majbur qilish mumkin. Masalan, “Siz biror yangi shaharda sayohat qilaypsiz va mehmonxona topishingiz kerak” kabi vaziyatlarni yaratib, o‘quvchilardan turli yechimlar taklif qilishni so‘rash mumkin. Bu nafaqat kommunikativ ko‘nikmalarni, balki ijodiy yondashuvni ham rivojlantiradi. Masalan aytaylik siz Germaniya bo‘ylab sayohat qilib yuribsiz. Misol uchun Myunchen shahrida mehmonxona topishingiz kerak. Shu vaziyatda turli xil yechimlarni taklif etishingiz zarur.

Zum Beispiel:

- 1.Sagen sie bitte, gibt es hier ein Hotel ?
- 2.Wo liegt das Hotel Maritim ?
- 3.Wie kann ich zu einem Hotel fahren ?
- 4.Gibt es hier auch Gasthäuser ?
- 5.Wo liegt die Stadt Giesing ?

Die Bundesrepublik Deutschland



Flagge



Wappen

In Giesing wohnt das Leben!

Seit einem halben Jahr lebe ich in München, in meinem Lieblingsviertel Giesing. Giesing ist ganz normal. Giesing ist nicht toll. Giesing ist nicht, in: Und genau das gefällt mir so gut. Hier leben Alte und Junge zusammen, Arbeiter und Studenten, Deutsche und Ausländer. Der Stadtteil gehört uns allen und hier finden wir auch alles: Es gibt Läden, Werkstätten, viele Kneipen und Restaurants. Ich wohne mit meiner Familie in der Tegernseer Landstrasse. Von hier aus kommen wir überall sehr gut zu Fuß hin: Der Kindergarten ist gleich um die Ecke, zur Schule ist es auch nicht weit, mein Friseur ist im Nachbarhaus und zur Post sind es keine 50 Meter.

2. Rol o‘yinlari va ijodiy topshiriqlar

Rol o‘yinlari o‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni aks ettirish imkonini beradi. Masalan:

- Turist va gid o‘rtasidagi suhbatni sahnalashtirish.
- Yangi mahsulotni reklama qilish uchun matn yoki plakat yaratish.

In Leipzig erfahren Sie, wo Nietzsche die Leviten gelesen wurden

Auch wenn das fachliche Interesse bei Ihrem Leipzig-Besuch im Vordergrund steht: Einen Blick über das Veranstaltungsgelände sollten Sie schon riskieren, und erfahren, was durch Goethes „Faust“ in die Weltliteratur eingegangen ist, wo im Mittelalter herrliche Kirchen, Burgen und Stadtanlagen entstanden und an welchem Ort Berühmtheiten wie Nietzsche zur Schule gingen.

Bu mashqlar nafaqat til ko‘nikmalarini, balki ijodiy yondashuvni ham mustahkamlaydi.

3. Assotsiativ fikrlash texnikalari

O‘quvchilardan biror so‘z yoki iboraga bog‘liq bo‘lgan boshqa so‘zlarni topish va ulardan hikoya tuzishni so‘rash. Masalan, “Reisen” so‘ziga

assotsiatsiya sifatida “ Abenteuer, Landkarte, Koffer ” kabi so‘zlar tanlanib, ular yordamida hikoya yozish mumkin.

Zum Beispiel: Marias Eltern haben eine Reise gemacht. Maria hat ihre Freundinnen eingeladen. Sie haben die ganze Nacht im Wohnzimmer eine Party gefeiert und getanzt. Dann hat Maria das Wohnzimmer wieder aufgeräumt, aber sie hat einen Luftballon vergessen. Maria ist im Wohnzimmer eingeschlafen. Ihre Eltern sind am Morgen um 11 Uhr zurückgekommen und waren sauer. Sie haben gedacht, dass Maria die ganze Nacht ferngesehen hat.

4. Madaniy kontekstda tilni o‘rganish

Til o‘rganish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatni ham o‘z ichiga olishi kerak. O‘quvchilarga turli mamlakatlarning tabiati, davlat ramzlari, tarixi, urf-odatlarini, san’at asarlari yoki voqealarini o‘rganishni taklif qilish ularning dunyoqarashini kengaytirib, ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

Texnologiyalardan foydalanish

Bugungi kunda xorijiy til o‘qitishda texnologiyalar ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan

- **Onlayn platformalar va ilovalar** orqali o‘yin tarzidagi topshiriqlarni bajarish.
- **Video va audio materiallar** yordamida o‘quvchilarning tilni idrok qilish va uni qayta ishlash qobiliyatlarini oshirish.
- **Virtual haqiqat (VR)** texnologiyalari yordamida haqiqiy til muhitiga tushish va yangi vaziyatlarni sinab ko‘rish.

Natijalar va xulosa

Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat ularning til o‘rganish samaradorligini oshiradi, balki ularni kelajakda turli muammolarni hal qila oladigan, ijodkor va tashabbuskor shaxslar sifatida shakllantiradi. O‘qituvchilar innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlardan foydalangan holda o‘quvchilarga til o‘rganishni qiziqarli va samarali tashkil etishlari mumkin.

Xulosa va tavsiyalar

1. Darslarda ijodiy yondashuvni talab qiluvchi topshiriqlarni ko‘paytirish kerak.
2. Texnologiyalardan faol foydalanishni tashkil etish zarur.
3. O‘quvchilarning individual qiziqishlarini hisobga olish muhim.

Kreativlik va xorijiy tilni o‘rganishning uyg‘unlashuvi o‘quvchilarni yangi cho‘qqilarni zabt etishga ilhomlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Brown, H. Douglas.** Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education, 2014.
 - o Til o‘rgatish jarayonida ijodiy yondashuv va interaktiv metodlarning nazariy asoslari haqida.

2. **Richards, Jack C., & Rodgers, Theodore S.** Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2020.
 - Xorijiy tillarni o‘qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va metodologiyalar.
3. **Harmer, Jeremy.** The Practice of English Language Teaching. Pearson Education, 2015.
 - Til o‘rgatish jarayonida texnologiyalardan foydalanish va kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari.
4. **Larsen-Freeman, Diane.** Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press, 2011.
 - Xorijiy tillarni o‘qitishda ijodiy va muammoli yondashuvlarning tavsifi.
5. **Vygotsky, Lev S.** Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
 - Kreativ fikrlashni shakllantirishda sotsial va psixologik omillarning ahamiyati.
6. **Ellis, Rod.** Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford University Press, 2003.
 - Vazifa asoslangan o‘qitish metodlari va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish usullari.
7. **Thornbury, Scott.** How to Teach Speaking. Pearson Education, 2005.
 - Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish va ijodiy fikrlash usullari.
8. **Jones, Ken.** Simulations: A Handbook for Teachers and Trainers. Routledge, 1995.
 - Rol o‘yinlari va simulyatsiyalar yordamida kreativlikni rivojlantirish.
9. **Oxford, Rebecca L.** Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Newbury House, 1990.
 - Til o‘rganish strategiyalari va ijodiy o‘qitish metodlari.
10. Mahalliy ilmiy va uslubiy jurnallar, masalan:
 - O‘zbekistonda xorijiy tillar (UzSWLU ilmiy jurnali).
 - Til va adabiyot ta’limi.

BASKETBOLCHILARNI SARALAB OLIH HAMDA DASTLABKI O‘RGATISHNING XUSUSIYATLARI

Sodiqov Jalol Jamolovich – Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi jismoniy tarbiya ChQBT fani metodisti

Annotatsiya

Mazkur maqolada yosh basketbolchilarni saralab olish hamda dastlabki o‘rgatish uslubiylatining xususiyatlari tahlili bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: yosh basketbolchilar, jismoniy va funksional tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, ko‘nikma, malaka, tezlik-kuch sifatleri.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jalb qilgan holda iste’dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda bolalar va o‘smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sinfdan tashqari sport to‘garaklari va seksiyalari mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘zinig kutilgan samaralarini beradi.

Yosh basketbolchilarni tayyorlashda, avvalambor, o‘sayotgan organizmning fiziologik xususiyatlariga va tayyorlash vazifalarining ish xususiyatlariga mos kelishiga asoslanishi kerak. To‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘yilgan jismoniy va funksional tayyorgarlik asoslari asosiy malaka va mahoratlarni shakllantirish jarayoni bilan birgalikda kelgusida yuqori sport natijalariga erishish uchun yordam beradigan ishni olib borishga imkoniyat tug‘diradi.

Quyidagi vaziyatlarni hisobga olish zarur:

- yosh o‘zgarishi bilan birga, bolaning organizmi ham o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlar nafaqat son jihatdan (bo‘y, vazn), balki sifat jihatdan ham egadirlar. Shuning uchun kattalarga qo‘yiladigan talablarni, bolaning yoshiga mutanosib ravishda yuzaki tarzda kamaytirib, bolalarga qo‘yish mumkin emas;
- bola organizmining rivojlanishi uzluksiz, ammo notekis holda ketadi (kechadi). Ma’lum bir davrlarda muhim o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi (bo‘ynning mushak massasining o‘sishi, organ va tizimlarining rivojlanishi har xil yoshga qarab bo‘lingan davrlarda sur‘at jihatdan ham, metabolik jarayonlar xarakteri jihatdan ham turlichadir). Masalan, qizlarning jinsiy yetilishi davri o‘g‘il bolalarnikiga qaraganda ancha ertadir, qizlar 11-13 yoshda bo‘y va vazn jihatidan o‘g‘il bolalardan o‘zib ketishadi, o‘g‘il bolalarda mushak kuchi 13-14 yoshda, ayniqsa, jadal ravishda o‘sadi, qiz bolalarda esa 11-12 yoshda;
- bolalarning jismoniy sifatlarning va boshqa qobiliyatlarning rivojlanish sur‘atlari ma’lum bir davrlarga to‘g‘ri keladi. Natija ma’lum bir

jismoniy sifatlarni va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulayroq shart-sharoitlar yaratiladi. Masalan, sezuvchanlik tezligi 15 yoshgacha rivojlanadi, yuqori tezlikning o‘sishi 13- 14 yoshlarga, ayniqsa, jadal ravishda bo‘lib o‘tadi. O‘g‘il bolalarda yuqoriga sakrash natijalarining eng yuqori o‘sishi 9-13 yoshda kuzatiladi, keyinchalik bu jarayon barqarorlashadi, qizlar esa ba’zan 15 yoshdan keyin vaqtinchalik yomonlashadi ham.

- harakatning har xil turlarida qizlarning va o‘g‘il bolalarning ko‘rsatkichlari yoshiga qarab bo‘lingan guruhlariga qarab turlicha bo‘ladi. Shuning uchun yosh o‘sishi natijasida vujudga keladigan shart-sharoitlarni hisobga olish kerak;

- har bir organizmning yakka tarzda rivojlantirishini yodda tutish zarur. kalendar, yoshidan tashqari, jismoniy rivojlanish saviyasini, harakatlantiruvchi imkoniyatlarini, jinsiy yetilish va h.k. tasniflaydigan biologik yoshni ham hisobga olish tavsiya etiladi. Kalendar yoshi biologik yoshga to‘g‘ri kelmasligi ham mumkin.

Zamonaviy talablar darajasida yuqori sport natijalariga erishish har bir xohlovchining qo‘lidan kelavermaydi. Shuning uchun BO‘SM da ishlashda muvaffaqiyat bir qator omillarga bog‘loiqdir. Eng muhim omillardan esa o‘quvchilarni tanlashdir. BO‘SMga bolalar 11-12 yosh qabul qilinadi. Keyingi yillarda o‘quvchining boshlanishi va yuksak sport mahoratiga erishishning yosh chegaralari keskin pasayganligi tufayli BO‘SM ga bolalarning 8 yoshdan qabul qiluvchi tayyorgarlik guruhlari tashkil etilmoqda. Bu guruhlarining asosiy vazifasi-shug‘ullanuvchilarning salomatligini mustahkam-lash va o‘yinning asosiy ko‘nikmalari hamda mahoratini shakllantirishdir. Basketbol mashg‘ulotlar moyillagini aniqlash imkonini beruvchi bolalar qobiliyatining rivojlanishi dinamikasini o‘rganib borish, ayniqsa, muhimdir.

Basketbolda sport jihatidan yanada takomillashuvi istiqbolli bo‘lgan bolalarni, iloji boricha, ertaroq va to‘g‘ri aniqlash o‘quvchilar tanlashning birinchi navbatdagi muammosidir.

Yosh basketbolchilarni tanlab olishda bir qator aniqlovchi tavsifnomalar ajralib turadi:

- bo‘yining ko‘rsatkichlari;
- jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi;
- texnik tayyorgarlik va harakatlarni tez o‘rgatib olish qobiliyati;
- taktik fikrlash va mahoratni rivojlantiruvchi qobiliyatlar;
- ruhiy barqarorlik.

Bu qobiliyatga baho berish sport muassasalariga qabul qilish uchun tayyorlangan nazorat mashqlar va mezonlarga asos qilib olingan. O‘quvchilar tanlash muvaffaqiyati oldindan, yaxshi tashkil etilgan ish bilan aniqlanadi. Uning asosiy mazmuni – bu sport muassasalari murabbiylarini umumiy ta’lim

maktablari va ularning o‘qituvchilari bilan uchrashuvlari, o‘quvchilarni yig‘ish, axborotlar, umumiy ta’lim maktablari negizida tayyorgarlik guruhlarini tashkil etish, musobaqalar va boshqa ommaviy tadbirlarga borib turishdadir. O‘qitish natijalarini oldindan aytib berish ancha qiyin bo‘lganligi uchun tanlov ikki bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqichning maqsadi saralash tanlovining nomzodlarini aniqlash. Shuning uchun murabbiy maktabdagi jismoniy tarbiya darslariga, bayramlarga, musobaqalarga va boshqa tadbirlarga qatnab, oldindan katta miqdordagi bolalarni ko‘rib chiqadi. O‘quvchilarni tanlashdagi birlamchi mezonlar quyidagilardir: sog‘ligida nuqsonlarning yo‘qligi, harakatlarning muvofiqligi, umumiy harakatchanlik, o‘yinlar faoliyatiga moyilligi. Birlamchi ko‘rikda tanlab olingan bolalar saralash tanloviga qo‘yiladi. U jismoniy sifatlar rivojlanishning boshlang‘ich darajasi va maxsus qobiliyatlarini tavsiflovchi nazorat mashqlarning majmuasi bo‘yicha o‘tkaziladi.

Bular tayyorlov guruhlarining o‘quv mashg‘ulot ishlari jarayonida murabbiyning bundan keyingi kuzatuvlari uchun boshlang‘ich ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchi bosqich bolalarni o‘rganishda, ularning o‘qib-o‘rganish jarayoni va rivojlanishini kuzatishga qaratilgan. Bu davrda basketbol talablariga yakka qobiliyatlarining mos kelishi tekshiriladi. Bunda bolaning o‘zini tutishi, mustaqillik va jamoachilik hisslarning namoyon bo‘lishi, faolligi, dovyurakligi, maqsadga yiqilishi va sport-texnika ko‘nikmalarini tez o‘rnashiga bo‘lgan qobiliyati o‘rganiladi. O‘quvchilarni tanlash uslubiyati turli testlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Ular qiziqtirayotgan omillar bo‘yicha xolisona tavsifnomalar olish imkonini beradi: jismoniy sifatning rivojlanganlik darajasi, maxsus muvofiqlik, o‘yinga qobiliyatlar oliy asab faoliyatining xususiyatlari, ruhiy holatlari va shifokor ko‘rsatmalari. Jismoniy sifatlariga baho berish uchun nazorat mashqlar ishlatiladi. Ular birinchi galda tezlik-kuch sifatlarining rivojlanganlik darajasi haqida bilish imkonini beradi. Ushbu sifatning rivojlanganlik darajasi ko‘p narsani oldindan aytib berishi mumkin. Bir vaqtda maxsus muvofiqlashuvlar ham o‘rganib boriladi.

Nazorat mezonlar majmuasiga quyidagilar kiradi: baland startdan 20 metr masofaga yugurish, turgan joyidan uzunlikka sakrash, sakrash balandligi, 1,5 metr masofadan to‘pni tez uzatish, jarima to‘pini tanlash sathini aylanib chiqish, to‘p o‘ynab tezlikka yugurish 40 m, baland startdan 60 va 30 m ga yugurish. O‘g‘il va qiz bolalarning har bir yoshi uchun alohida mezonlar o‘rnatilgan. O‘yin qobiliyatlarini aniqlash quyidagi harakatchan o‘yinlarda bolalarning o‘zini tuta bilishiga qarab amalga oshiriladi:

«Choparlar», «ovchilar», «to‘p uchun kurash», «tezda qalqonga». Har bir o‘yinda o‘yin qobiliyatlarining turli tomonlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmuasi qayd etiladi. Oliy asab faoliyati va ruhiy holatlarning xususiyatlariga baho berish uchun o‘quvchilarni tanlashda ularning psixofiziologik tavsiflari hisobga olinadi. Chunki ular o‘yin faoliyati jarayonida nafaqat yorqin

namayon bo‘ladi, balki ular mutaassib ham. Sportcha takomillashuv jarayonida yo‘naltirilgan o‘zgarishlar ham kam ta’sir qiladi. Bunda ularning natijalarini oldindan aytib borish juda qimmatlidir, chunki o‘yin sifati yosh ulg‘aygan sari o‘zgarmasa, demak, yuksak rivojlanish darajasi bir qayd etilsa, undan ham kattaroq yoshda yana ham yuksakroq natijalarga erishishi mumkinligiga kafolat berish mumkin. Tibbiy-biologik hamda shifokor nazorati ham muhim ahamiyatga egadir. Mana shu hosil qilingan ma’lumotlarni bir-biriga taqqoslab, qiyos qilinishi basketbol mashg‘ulotlariga sportchi qay darajada qodir ekanligini xolisona ravishda aniqlash imkonini beradi. Bolaning sport mashg‘ulotlarida muntazam ravishda qatnashishi qay darajada maqsadga muvoffiqligini belgilash uchun nazorat qilish davri ikki yilga davom etadi. Bolaning yosh-jins xususiyatlarini hisobga olib o‘g‘il va qiz bolalarga texnik va taktik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha asosiy vazifalarini soddalashtirilgan tarzda quyidagicha taqsimlab chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Rasulev O.T. Basketbol. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 1998 y.
2. Rasulev O.T., Sokolova N.D., Ismatullayev X.A. Basketbol. ixtisos kursi bo‘yicha dastur. Toshkent, 1993-y.
3. Sokolova N.D., G‘aniyeva F.V., Ismatullayev X.A. Basketbol. Ma’ruzalar to‘plami. Toshkent, 2001-y.
4. Rasulev A.T. Itskov R.I. Ofitsialnoe pravila igrov basketbol. T., izdatelskiy otdel UzGIFK, 1991

O‘ZBEKISTONDA ARXELOGIYA INSTITUTI TASHKIL ETILGUNGA QADAR FAN SIFATIDA ARXELOGIYANING RIVOJLANISHI (XX ASR 70-YILLARI)

Yuldashev Jamol Juraboyevich – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asrda Rossiya arxeologiyasining O‘zbekiston arxeologiyasiga ta’siri, XX asrda o‘zbek arxeologiyasining rivojlanish bosqichlari, XX asr 50-60 yillarida arxeolog olimlarning yetishib chiqishi va ularning olib borgan arxeologik ekspeditsiyalarining ilmiy asoslari hamda arxeologiya institutining tashkil topishiga turtki bo‘lgan omillar haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: tarix, arxeologiya, etnografiya, ekspeditsiya, numizmatika, fanlar akademiyasi, o‘lkashunos, kolleksioner, institut, sharqshunos, havaskor arxeolog, muzey, qal’a.

Qadimshunoslik qadimiy moddiy madaniyat yodgorliklariga asoslanib kishilik jamiyati o‘tmishini o‘rganuvchi fan arxeologiyadir.

Mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurol-yarog‘lar, zeb-ziynatlar, uy-joy, ustaxonalar, mudofaa va irrigatsiya inshootlarining qoldiqlari hamda o‘tmishga oid turli topilmalar Arxeologiyaning bosh manbai bo‘lib, ularni chuqur ilmiy o‘rganish asosida o‘tmishdagi kishilik jamiyatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarixining umumiy manzarasi tiklanadi. Shu sababli, arxeologiya tarix fanining bir tarmog‘i hisoblanadi.

O‘zbekiston arxeologiyasi haqida gap ketganda, XX asr 70-yillarida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar institutining tashkil etilishi muhim bosqichdir. O‘zbekiston hududidagi moddiy madaniyat yodgorliklarini o‘rganuvchi ilmiy muassasa. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti negizida (1970 yil) Samarqandda tashkil etilgan. Institutda tosh davri arxeologiyasi, Turon arxeologiyasi, Movarounnahr arxeologiyasi, ilmiy ishlab chiqarish bo‘limlari; tarixiy yodgorliklarning kimyoviy va texnologik tadqiqoti hamda konservatsiya qilish laboratoriya, kutubxona (55 mingdan ortiq asar) bor; Toshkent, Xiva va Termiz arxeologiya bo‘limlari tuzilgan. Institut „O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi“ nomli yillik to‘plam nashr etadi (1959 yildan). Arxeologiya institutida arxeologiyaning dolzarb masalalari buyicha bir necha xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi (1973, 1986, 1988, 1991, 1994, 1997). Institut qoshida aspirantura va doktorantura, arxeologiya mutaxassisligi bo‘yicha maxsus doktorlik ilmiy kengashi mavjud. Ushbu muassasa hozirda arxeologiya markaziga aylantirilgan va maqola davomida muassasaning tarixiga to‘xtalib o‘tamiz[8].

Albatta, O‘zbekiston arxeologiyasining rivojlanishi XIX va XX asr davriga to‘g‘ri keladi.

Tarix fanini rivojlanishida arxeologiyaning o‘rni kattadir. Arxeologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixi xorijiy mamlakatlarda XVIII asrga to‘g‘ri keladi.

Arxeolog olim T.M.Mirsoatov kitobida XIX asr haqida gap ketganda, albatta, Rossiya arxeologiyasining O‘zbekiston arxeologiyasiga o‘zaro ta’sirini ham aytib o‘tish kerak. XIX-asrda Rossiyada ham arxeologik ishlar olib borilgan. A.S.Uvarov tomonidan katta masshtabda arxeologik qazish ishlari olib borildi. SHaxsan uning tashabbusi bilan Peterburgda arxeolog numizmatikalarni jamiyati tashkil kilindi. XX asrda esa ayniqsa, taraqqiy etdi. Ammo, bizning Markaziy Osiyo hududida, garchi insoniyat tarixini barcha davrini aks ettiruvchi yodgorliklarni ko‘p bo‘lishiga qaramay bu jarayon sust darajada bo‘ldi. Bunga sabab, chor Rossiyasini ham, qizil imperiyani ham

Markaziy Osiyo respublikalariga nisbatan mustamlakalar sifatida munosabatda bo‘lishi edi. XX asrning ikkinchi yarmiga qadar Yahyo G‘ulomovdan tashqari Markaziy Osiyo respublikalarida birorta ham milliy mutaxassislardan arxeolog yo‘q edi. Shuning uchun, Markaziy Osiyo hududida arxeologik izlanishlarni asosan rus olimlari olib borar edilar[1, 14-bet].

Ma’lumki, XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o‘zbek xalqining mukammal, to‘la-to‘kis tarixini yorituvchi arxeologik ma’lumotlar deyarli yo‘q darajada edi. SHuning uchun ham o‘zbek xalqini tarixi haqida gapirilganda faqat yozma manbalarga asoslangan edi xolos. Vaholanki, bizning ajdodlarimiz tarixi sinfiy jamiyatda emas, balki ibtidoiy tuzum davrida, ya’ni arxeologlarning xulosalariga ko‘ra ajdodlarimiz tomonidan mehnat qurollarini ilk bor yasagan vaqtlaridan boshlanadi. SHuning uchun, akademik Ya. G‘. G‘ulomov har qaysi davr uchun alohida mutaxassis arxeolog yetishtirishga kirishdi. Bu borada Ya. G‘ulomov Peterburg olimlari bilan kelishib, 1960- 1970 yillar mobaynida A. Asqarov, U. Islomov, M. Qosimov, S. Rahimov, R. Sulaymonov, T. Mirsoatov kabilarni fan nomzodlari qilib tayyorladilar. Bu milliy kadrlar Ya. G‘. G‘ulomov boshchiligida O‘zbekistonimiz hududida keng ko‘lamda arxeologik qidiruv va qazish ishlarini olib bordilar. Ya. G‘. G‘ulomovning tashabbuslari bilan milliy kadrlardan mutaxassis arxeologlar tayyorlash ishiga yanada e’tibor kuchaytirildi[1, 16-bet].

O‘zbekistonda arxeologiya fani eng yosh ilmiy sohalardan biridir. SHuni qayd etish lozimki , o‘lkani tadqiq etishga oid birinchi qadamlar XIX asrning oxiridan boshlab qo‘yilgan edi. Avval bu ish bilan havaskor o‘lkashunoslar va kolleksionerlar shug‘ullanganlar. Faqat 1 marta, 1884-yilda bu yerda markazdan arxeolog olim N . I . Veselovskiy boshchiligidagi arxeologiya hay’ati yuborilgan edi. Ammo, bu hay’at Osiyoning xom g‘ishtlardan barpo etilgan murakkab inshootlarida qazish ishlari olib borishga tayyor emas edi va u qadimgi tarixning Afrosiyob qal’asidek nodir yodgorligi (qadimgi Samarqand) haqida salbiy taqrizni taqdim etdi. Ko‘hna yodgorliklarning haqiqiy qiymati va ahamiyatini ko‘rsatib bergan asosiy ishlar esa Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi (THAT , 1895) V. L. Vyatkin, E. T. Smirnov, M. S. Andrev, N. G. Mallinskiy, A. A. Divaev va boshqalarning faoliyati bilan bog‘liq. [2]

O‘zbekiston arxeologiyasini o‘rganish davri 3 ga bo‘linadi .

1. Rossiya mustamlakasi davri.
2. Sovet hukmronligi davri.
3. O‘zbekiston mustaqilligi davri.

O‘zbekiston arxeologiyasini birinchi bosqich davri Rossiya mustamlaka davri 3 bosqichdan iborat. Rossiya mustamlakasi davrining 1 bosqichi 1819 – yilda kapitan Muravyov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyaning yuborilishi bilan bog‘liq. Bu ekspeditsiya Xiva xonligi hududidagi turli xil arxeologik

yodgorliklarni ro‘yxatga oladi. U o‘zining ilmiy xulosalarini frantsuz, ingliz va nemis tillariga tarjima qilib, bu ilmiy xulosalarga tayangan holda birinchi bo‘lib, O‘zbekiston hududida ibtidoiy odamlar yashaganligi haqida fikr yuritadi.

2 bosqich, XIX asrning II yarmida boshlangan. Bu davrda Bartol’d, Jukovskiy, Veselovskiy kabi sharqshunos olimlar, Pun, Lerx, Vyatkin, Paslavskiy, Postroumov va boshqa havaskorlarning O‘rta Osiyo arxeologiyasi va tarixini o‘rganishga xizmatlari katta bo‘ldi.

3 bosqich, Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagining tuzilishi bilan bog‘liq. 1895 – yilda Bartol’d tomonidan to‘garak tashkil etilgan. 1895 – yilda Astroumov rahbarligida muzey tashkil etiladi. O‘zbekiston arxeologiya havaskorlar to‘garagi Bartol’d boshchiligida tashkil etilgan.

Ikkinchi bosqich davri ham 3 bosqichdan iborat:

1). 1917 – 1938 – yillarda davom etgan. 1918 – yilda moddiy madaniyat tarixi va Rossiya akademiyasi tuzildi. Unga barcha arxeologik, san‘at, madaniyat va me‘morchilik yodgorliklarini hisobga olib ularni davlat himoyasiga olish vazifasi qo‘yildi. Arxeologik tadqiqotlarni kengaytirish maqsadida O‘rta Osiyo hududida 5 ta ekspeditsiya tashkil etiladi.

1. 1936 – yilda Masson boshchiligida Termiz arxeologik ekspeditsiyasi;
 2. 1937 – yilda Bernshtam boshchiligida Yettisuv arxeologik ekspeditsiyasi;
 3. 1937 – yilda Tolstov rahbarligida Xorazm ekspeditsiyasi;
 4. 1937 – yilda Masson rahbarligida Farg‘ona arxeologik ekspeditsiyasi;
 5. 1937 – yilda Shishkin rahbarligida quyi Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasi.
- [2]

O‘zbekiston arxeologiyasini o‘rganishda, uni taraqqiy ettirishda o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, taniqli olim, Xorazm tarixini antik davr, o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda professor S.P.Tolstovning ilmiy ekspeditsiyalari katta ahamiyatga ega.

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Xorazm vohasi arxeologik madaniyati va tarixini (paleolit davridan mil. XVIII-XIX asrlargacha) tekshirish maqsadida uyushtirilgan ekspeditsiya (1937). Xorazmni arxeologik va etnografik jihatdan o‘rganish 1928-1929 yillarda boshlangan A.Yu.Yakubovskiy boshchiligidagi ekspeditsiya Xorazmshohlar poytaxti – Urganch (hozirgi Ko‘hna Urganch) dagi me‘moriy yodgorliklarni va ilk o‘rta asr shahri Mizdaxqon (Xo‘jayli yaqinidagi Gavr qal‘a) da qazishma ishlari olib borgan. 1934 yildagi Toshhovuzdagi Zamaxshar shahar xarobasida M.V.Voevodskiy ekspeditsiyasi faoliyat yurgizgan. 1936 yil Ya.G‘ulomov va T.Mirg‘iyosovlar Mang‘it yaqinida joylashgan milodiy I ming yillik o‘rtaliriga oid zardo‘shiyalar qabristonini tadqiq etgan. 1937 yil Ya.G‘ulomov Guldursin, Norinjon va Pilqal‘a shahar xarobalarini tekshirgan. Shu yildan Xorazm arxeologik etnografik ekspeditsiyasiga S.P.Tolstov rahbarlik qildi.

Ekspeditsiya tarkibi yildan yilga arxeolog, etnograf, antropolog, rassom, me'mor va boshqa mutaxassislar bilan kengaytirilgan. Ekspeditsiya a'zolari Ayozqal'a, Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Qurg'oshinqal'a, Qizilqal'a, Ko'zaliqir, Teshikqal'a kabi noyob arxeologik yodgorliklarni ilmiy tadqiq etdilar. Qazishlar natijasida turli davrlarga mansub bo'lgan Xorazm vohasining juda ko'p tarixiy yodgorliklari: xarobalar, qal'alar, istehkomlar, kanallar qadimgi madaniyatni o'rganishga yordam beruvchi yozuvlar, suratlar, uy anjomlari, muhrlar, kumush, mis haykalchalar topildi[3].

Xorazm tarixi haqida so'z ketganda, albatta, umrini fanga, arxeologik izlanishlar Vatani va o'zbek xalqining uzoq va yaqin o'tmishi, xususan xo'jaligi, madaniyati va ma'naviyatining noyob qadriyatlarini izlab topishga va ularni keng ko'lamda tadqiq etishga bag'ishlagan zabardast olim va bag'ri keng ustoz Yahyo G'ulomovning ilmiy izlanishlarini har bir arxeolog olim bilishi zarur.

Mustaqil arxeologik tadqiqotlarni Ya.G'ulomov ilk bor 1936-yilda qadimgi Xorazm yerlarida havaskor arxeolog do'sti T.Mirg'iyosov bilan birgalikda boshladi. 1937-yilda uning guruhiga arxeolog A.I.Terenojkin va arxitektor B.N. Zasipkinlar jalb etildi.

Ya.G'ulomov qadimgi Xorazm yerlarida saqlanib qolgan son-sanoqsiz arxeologik yodgorliklar, bu ko'hna o'lkani qachonlardir obi hayot bilan ta'min etgan ko'hna sug'orish tarmoqlarining quruq o'zanlari va atrofda sochilib yotgan turli-tuman arxeologik topilmalarni o'rganar ekan, dehqonchilik xo'jaligining asosi hisoblangan sug'orish tarixi bilan jiddiy shug'ullanishni ilmiy-tadqiqotlarining o'zagi sifatida qaraydi[4].

2). Ikkinchi bosqichda O'zbekiston hududida arxeologik tadqiqotlar anchagina rivojlandi. Unda sobiq SSSR fanlar akademiyasining O'rta Osiyo respublikalaridagi filiallari, Leningrad va Moskvadagi ilmiy tashkilotlar, moddiy madaniyat tarixi akademiyasi, sharq madaniyati muzeyi kabi tashkilotlar O'zbekiston hududida arxeologik tadqiqotlarni olib bora boshladi. 1939 – yildan boshlab fanlar akademiyasi tashkil topgan.

3). Uchinchi bosqich 1945 – yildan keyingi davrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda yuqoridagi ekspeditsiyalar tarkibiga o'zgartirish kiritildi. Yettisuv ekspeditsiyasi - 1944 – 1949 – yillarda Tyanshan Oliy ekspeditsiyasi , 1951 – 1955 – yillarda esa Qirg'iziston arxeologik etnografik ekspeditsiyasi davom ettirildi. 1946 – 1952 – yillarda Farg'ona arxeologiyasini Bernshtant rahbarligida Pomir oloy va Pomir Farg'ona ekspeditsiyalarini o'rganildi. 1970 – yilda Farg'ona ekspeditsiyasi tashkil etildi[2].

Uchinchi bosqich davri mustaqillik davri arxeologiyasiga birinchi va ikkinchi davr arxeologiyasining rivojlanishi poydevor vazifasini o'tadi. O'zbek arxeologiyasining hozirgi kundagi bosh ilmiy yo'nalishi va maqsadi mamlakatimiz hududida shakllangan kuhna madaniyat, qadimgi Sharq

madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini isbotlagan holda, bu madaniyat tarixining o‘rlab qirralarini tinimsiz tadqiq qilish, O‘zbekiston mustaqilligi bergan cheksiz imkoniyatlar sharofati bilan ushbu hududda yashayotgan millatlar va elatlarning ota meros, ilmiy, madaniy boyligi bo‘lgan qadimiy tarixning haqqoniy manzarasini qayta, xolis yaratish yo‘lidagi tinimsiz izlanishlardan iboratdir.

Arxeolog olim, ustozlarimiz Pardayev Muxtor va A.Berdimurodovlar o‘zlarining arxeologik izlanishlarida XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o‘zbek xalqining mukammal, to‘la-to‘kis tarixini yorituvchi arxeologik ma’lumotlar deyarli yo‘q darajada ekanligini ta’kidlaydilar. Shuning uchun, o‘zbek xalqini tarixi haqida gapirilganda faqat yozma manbalarga asoslangan va sinfiy jamiyatda yashagan ajdodlarimizni faoliyatlari to‘g‘risidagina so‘z yuritar edilar xolos. Vaholanki, bizning ajdodlarimiz tarixi sinfiy jamiyatda emas, balki ibtidoiy tuzum davrida, ya’ni arxeologlarning xulosalariga ko‘ra ajdodlarimiz tomonidan mehnat qurollarini ilk bor yasagan vaqtlaridan boshlanadi. Shuning uchun, akademik Ya. G‘. G‘ulomov har qaysi davr uchun alohida mutaxassis arxeolog yetishtirishga kirishdi. Bu borada Ya.G‘ulomov Peterburg olimlari bilan kelishib, 1960-1970 yillar mobaynida A.Asqarov, U.Islomov, M.Qosimov, S.Rahimov, R.Sulaymonov, T. Mirsoatov kabilarni fan nomzodlari qilib tayyorladilar. Bu milliy kadrlar Ya.G‘.G‘ulomov boshchiligida O‘zbekistonimiz hududida keng ko‘lamda arxeologik qidiruv va qazish ishlarini olib bordilar. Ya.G‘.G‘ulomovning tashabbuslari bilan milliy kadrlardan mutaxassis arxeologlar tayyorlash ishiga yanada e’tibor kuchaytirildi.

Bunday ilmiy dargohni vujudga kelishi nafaqat O‘zbekiston Respublikasi, balki Markaziy Osiyo respublikalarining xalqlari uchun juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu esa bugungi o‘zbek arxeologiya maktabi muvaffiqiyatlarining asosiy tamal toshini qo‘ygan. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutida mazkur maskan tashkil etilgandan buyon shu kunlargaacha yuqori darajada, sof ilmiy muhit hukmronlik qilib kelganligi va bu maskanda zamonaviy ibora bilan aytganda “Jahon standartlari” darajasida tadqiqot ishlari olib borayotgan yuqori malakali mutaxassislarning jamlanganligi natijasidir[5,11-bet].

Xullas, 1970-yil Arxeologiya instituti tashkil etilguniga qadar O‘zbekistonda arxeologiya fani rivojlanishida rus va o‘zbek arxeologlarining ilmiy–tadqiqot ishlari hamda arxeologik ekspeditsiyalar arxeologiya fanining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

O‘zbekiston hududidagi moddiy madaniyat yodgorliklarini o‘rganuvchi ilmiy muassasa sifatida faoliyat boshladi.

Hozirgi kunda Arxeologiya instituti O‘zbekistonda olib boriladigan arxeologik tadqiqotlarga ilmiy-metodik rahbarlik kiluvchi markaz bo‘lib, respublika hududidagi barcha moddiy madaniyat yodgorliklarida qazish ishlari

olib borish uchun ruxsatnoma beradi. Uz tadqiqotlarini UzMU, Samarqand Davlat Universiteti, O‘zbekiston Badiiyot akademiyasi San’atshunoslik instituti, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Tarix instituti va boshqa ilmiy muassasalar bilan muvofiqlashtirib olib boradi. Arxeologiya instituti xalqaro ilmiy dasturga binoan respublikaning kator viloyatlarida Fransiya, Germaniya, Polsha, Italiya, Rossiya kabi mamlakatlar ilmiy markazlari bilan hamkorlikda arxeologik kazishmalar olib boradi (1984 yildan) [8].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.M.Mirsoatov, S.T.Mirsoatova. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. Farg‘ona.2002. 14-bet
2. O‘zbekiston tarixi jurnali. Toshkent 2003 y, 4-son
3. J.Yuldashev S.P.Tolstovning Xorazm vohasi arxeologiyasini o‘rganishdagi o‘rni. Tafakkur ziyosi, ilmiy-uslubiy jurnal № 3, 2019.
4. Tafakkur ziyosi 2019 y 4-son “Yahyo G‘ulomov- O‘zbekiston arxeologiyasining yirik vakili” 122 b
5. A.E. Berdimurodov, M.H.Pardaev “Mustaqillik yillarida o‘zbek arxeologiyasining taraqqiyoti” O‘zbekiston moddiy madaniyat tarixi jurnali № 37 11 bet.
6. Fan va turmush jurnali. Toshkent 2006 y, 5-6 sonlari
7. O‘zbekiston tarixi jurnali. Toshkent 2001 y, 4-son
8. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

MUSTAQILLIK-YILLARIDA JIZZAX VILOYATI TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARINING O‘RGANILISHI

Axmedjonov Norpulat Akramovich – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD,)Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillikdan so‘ng, Jizzax viloyati tarixiy-madaniy yodgorliklarining o‘rganilishini yillar tasnifida va madaniy meros obyektlarini o‘rgangan arxeolog-tarixchi olimlarning ilmiy faoliyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Arxeologik obyekt, madaniy meros, mozorqo‘rg‘on, urbanizatsiya, ochiq varaqa.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об исследовании памятников истории и культуры Джизакской области после обретения независимости и научной деятельности археологов-историков, изучавших объекты культурного наследия.

Ключевые слова: археологический объект, культурное наследие, кладбище, урбанизация, раскрытая листовка.

Abstract: This article presents information about the study of historical and cultural monuments of the Jizzakh region after independence and the scientific activities of archaeological historians who studied cultural heritage sites.

Key words: archaeological site, cultural heritage, cemetery, urbanization, open leaflet.

Jizzax - O‘zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan bo‘lib, miloddan avvalgi bir mingginchi yillarda yuzaga kelgani ko‘plab tarixiy manbalarda tilga olingan. Boy tarixga ega bo‘lgan shahar urbanistik jarayonining yuzaga kelishi bronza davriga borib taqaladi. Tarixchi-arxeolog olimlar tomonidan shaharning yoshini aniqlash, uning tarixiy obidalari qoldiqlarini o‘rganish borasidagi tadqiqot ishlari davom etib kelmoqda⁶.

Jizzax viloyati tarixiy-madaniy yodgorliklarining o‘rganilishini quyida qisqacha keltirib o‘tishimiz mumkin.

1992-yilda Gritsina A. A. boshchiligida Zomin tumanida Zomin otryadi tomonidan Qo‘rg‘ontepa (O‘rdatepa), Jartepa, Azlartepada (Azizoytepa) arxeologik tadqiqotlar olib borilgan⁷.

1993-yilning may, iyun, iyul oylari o‘rtalarida O‘z FA Arxeologiya instituti Zomin otryadi Jizzax viloyati Zomin tumani hokimligi bilan yil oxirigacha uzaytirilgan biznes-shartnoma bo‘yicha ishlarni davom ettirgan⁸. Arxeologik qazishmalarning asosiy maqsadi Arab geograflari va tarixchilariga ko‘ra, O‘rta asrlar Zomin yoki Sarsanda hududidagi qadimiy aholi punktini o‘rganish edi. Shu maqsadda ikkita qazish ishlari olib borildi (to‘rtinchi va beshinchi). Bu hali ham Zomindagi eng qadimgi joy(miloddan avvalgi II-I asrlar). Zomin tumani markazining shimoliy chekkasida joylashgan va XII-XIII - asr boshlarida O‘rta asr zaminidagi rabot ichida joylashgan Jartepada ham qazishmalar davom etdi. Bu yerda Zomin kulol ustalari makoni ham o‘rganildi. Bundan tashqari, Zominning o‘zida va uning atrofida batafsil razvedka ishlari amalga oshirilgan edi.

2000-yilda Jizzax viloyati Forish tumani Chimqo‘rg‘on qishlog‘i hududidagi qum karerlarida qidiruv ishlarini olib borilishi natijasida, qayroqtosh uchirindidan ishlangan tosh o‘zak topilgan. Ushbu o‘zak ishlanish texnikasi va xom-ashyosiga ko‘ra Qo‘turbuloq topilmajoyi materiallariga o‘xshashdir. Bu topilma birinchidan, Jizzax viloyati hududlari ham paleolit davri odamlari tomonidan o‘zlashtirilganligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, ularning madaniy-davriy jihatdan Samarqand botig‘i qabilalari bilan o‘xshashliklaridan

⁶ Хайдаров Х., Усмонов Қ. Жиззах тарихи. –Тошкент: «O‘qituvchi» НМИУ, 2009. -288 б.

⁷ Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Грицина А.А. Отчет о работах Зааминского отряда в 1992 г.). -Б.1-2.

⁸ Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Грицина А.А. Отчет о работах Зааминского отряда в 1993 г.). -Б.1-19.

guvohlik beradi⁹. Yurtimizning boy o‘tmishining barcha tarixiy bosqichlarida Jizzax viloyatining muhim tarixiy jarayonlardagi ishtirokini kuzatamiz. Biroq, yaqin kunlarga ushbu hududda paleolit davri odamlarining yashaganligiga doir ma’lumotlar deyarli yo‘q edi. So‘nggi yillardagi izlanishlar natijasida Samarqand viloyati qadimgi tosh davri madaniyatlari qo‘shni Jizzax hududlariga ham tarqalganligi haqida mulohazalar o‘rtaga tashlanmoqda.

2007-yilning may oyida Jizzax viloyat hokimligi rahnamoligida O‘zR FA Y.G‘ulomov nomli arxeologiya instituti «PUDRATCHI» (direktor Pidayev Sh.R.) bilan «Jizzax vohasi qadim tarixi va qadriyatlarini o‘rganish markazi» (rahbari Nosirov O‘.N.) sifatida faoliyat yuritadigan «Jizzax vohasi qadim va o‘rta asrlar tarixini o‘rganish» ilmiy loyahasini bajarish uchun xo‘jalik shartnomasi imzolangan¹⁰. Ilmiy loyihani amalga oshirish uchun O‘zR FA arxeologiya institutida maxsus ekspeditsiya tashkil qilindi. Ekspeditsiya tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ldi: Pardayev M.H. (ekspeditsiya boshlig‘i), Gritsina A.A. (yetakchi ilmiy xodim), Suyunov S.S. (katta ilmiy xodim), Pardayev A.H. (katta ilmiy xodim), Toshboyev F.E. (ilmiy xodim), Ubaydullayev I.H. (kichik ilmiy xodim), G‘ofurov J.I. (kichik ilmiy xodim), Hamroyev G‘.G‘. (kichik ilmiy xodim), Xolboyev Z.T. (kichik ilmiy xodim), Axmedjonov N.A. (laborant).

Xo‘jalik shartnomasiga asoslangan ushbu ilmiy loyiha materiallaridan quyidagilar ma’lum bo‘ldi. Ya’ni loyiha bo‘yicha nafaqat Jizzax vohasining shaharsozlik madaniyati, balki butun qadimgi va o‘rta asrlar tarixi muammolari yechimi ko‘tarilishi ko‘zda tutilgan. Shu bois Qaliyatepa, Qizlartepa (Jizzax), Qo‘rg‘ontepa (G‘allaorol) va qadimgi mozor qo‘rg‘onlarda (Baxmal, Zomin) olib borilgan ilmiy qazuv ishlari voha tarixining turli davrlari va turli jabhalariga oydinlik kiritish rejalashtirilgan. Xo‘jalik shartnomaning smeta sarf-harajatlari 2007-yil uchun 23,0 mln (yigirma uch million) qilib belgilangan. Amalda esa uning faqat 50% ya’ni 11,5 mln so‘m «Pudratchi» hisobiga o‘tkazilgan. Oqibatda shartnomaning Baxmal tumani bilan bog‘liq bandi bajarilmay qolganligini ko‘rishimiz mumkin¹¹.

Shu bilan birga, Jizzax vohasi o‘troq dehqon aholi bilan ko‘chmanchi chorvador qabilalar o‘rtasidagi «retranslyator» mavze hisoblangan. Vohada bu ikki xil turmush tarzidagi aholining madaniyatida umumiy o‘xshashlik va o‘zaro qorishuv sezilarli darajada kuchli bo‘lgan. 2007-yilda G‘ulbo

⁹ Сайфуллаев Б. Джуракулова Д.М. Жиззах воҳасининг палеолит даври топилмалари. «Қадимий Жиззах воҳаси –Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (Сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт)» (Республика илмий-амалий конференция материаллари). –Т.: «VNESHINVESTPROM», 2019. -534 б. –Б.5-7.

¹⁰ Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Ўзбекистон Фанлар академияси Я.Ғуломов номли археология институти. 2007-йилда Жиззах воҳасида хўжалик шартномаси асосида ўтказилган қазув-тадқиқотлари илмий ҳисоботи). - 75 б.

¹¹ Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Ўзбекистон Фанлар академияси Я.Ғуломов номли археология институти. 2007-йилда Жиззах воҳасида хўжалик шартномаси асосида ўтказилган қазув-тадқиқотлари илмий ҳисоботи). - 75 б.

mozorqo‘rg‘onlarining ochilishi Jizzax qadim tarixi uchun o‘ziga xos ilmiy yangilik bo‘lgan.

Bundan tashqari, Qizlartepadagi tadqiqotlar rivojlangan o‘rta asrlarda (IX-XII) «Sharq renessansi» davrida Jizzax vohasi ham rivojlanishning yuksak cho‘qqisiga erishganidan, shahar-qishloqlarda iqtisodiy va madaniy hayot rivojlanganidan dalolat berganligi bo‘yicha xulosalar qilingan.

2007-yilning I choragida Jizzax viloyati hokimligi rahnamoligida O‘z R FA Y. G‘ulomov nomli Arxeologiya instituti bilan «Jizzax vohasi qadim tarixi va qadriyatlarini o‘rganish markazi» o‘rtasida xo‘jalik shartnomasi tuzildi va ushbu shartnomaning dasturiga muvofiq Qaliyatepa 3-rabotida qazuv tadqiqotlari 2007-2008-yillarda o‘tkazilgan¹². Qaliyatepa shahar xarobalari Jizzax shahri «Qaliya-Mo‘lkanlik» mahallasining sharqiy qismida, «Jizzax» avtostansiyasidan 700 metr shimolda, Jizzax-Paxtakor magistral yo‘li yoqasida joylashgan.

2007-2008-yillarda Sangzor daryosiniig quyi oqimida joylashgan Jizzax vohasining antik va o‘rta asrlar shahar hayoti tarixi ushbu madaniy vodiyning eng qadimgi va ulkan arxeologiya obidasi Qaliyatepa yodgorligi bilan uzviy bog‘liq¹³. Qaliyatepa shahar xarobalari Jizzax shahri «Qaliya-Mo‘lkanlik» mahallasining sharqiy qismida, «Jizzax» avtostansiyasidan 700 m. shimolda, Jizzax-Paxtakor magistral yo‘li yoqasida joylashgan. Hajm jihatdan Jizzax vohasining eng katta arxeologiya obidasi hisoblangan Qaliyatepa bir-biriga uzviy bog‘langan 6 ta turli shakldagi tepaliklardan iborat. Shimol-janub yo‘nalishi bo‘yicha yastangan ushbu kompleksning hozirgi saqlanib qolgan qismi umumiy maydoni 50 ga.ni tashkil qiladi. Qaliyatepa ham o‘rta asr sharq shaharlari singari an’anaviy uch qismdan iborat bo‘lib, ark - shahar hokimi saroyi; shahriston - mudofaa devori, harbiy burjlar bilan o‘ralgan, ark bilan tutashib ketgan shahar mavzeyi; rabotlar-mudofaa devori va xandaqlardan tashqarida alohida joylashgan bo‘lib, ular 5 ta tepalikdan tashkil topgan.

2008-yilda Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumanidagi Ko‘rpassoy mozorqo‘rg‘onlarida ham dastlab qazuv ishlari olib borilgan. Ko‘rpassoy mozorqo‘rg‘onlari Turkiston tizma tog‘larining shimoliy yon bag‘rida, Uvob va Ko‘rpa qishloqlari chegarasida, Ko‘rpa qishlog‘ini, sharq tomondan o‘rab turuvchi tog‘ yonbag‘irlari bo‘ylab joylashgan. Shu yerda sharqdan g‘arbga qarab cho‘zilib ketgan ko‘plab mozorqo‘rg‘onlar mavjud. Ular Uvobsoyning Ko‘rpa qishlog‘iga oshuvchi g‘arbiy dovonidan boshlangan. Ushbu

¹² Пардаев М.Х. ва бошқ. Қалиятепа 3-рабодида 2007-2008 йилларда ўтказилган археологик тадқиқотлар хусусида. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар (2008-2009 йиллар). 7-сон. Самарқанд, 2012. –Б.148-161.

¹³ Пардаев М.Х., Убайдуллаев И.Х., Гофуров Ж.И., Холбоев З.Т., Эргашева Б.С., Пардаев Ш.М. Қалиятепа 3-рабодида 2007-2008 йилларда ўтказилган археологик тадқиқотлар хусусида.Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2008-2009 йиллар 7-сони. Самарқанд, 2012. -Б.148-161.

yodgorliklar dastlab arxeologlar M.A.Pardayev va A.A.Gritsina tomonidan qayd qilingan.

2008-yilda Jizzax viloyati Zomin tumanidagi G‘ulbo mozorqo‘rg‘onlari majmuasining 3-qo‘rg‘onida Jizzax otryadi tomonidan qazuv ishlari o‘tkazilgan¹⁴. Ushbu o‘rganilgan mozorqo‘rg‘on shu paytgacha ochib o‘rganilgan G‘ulbo mozorqo‘rg‘onlar majmuasiga taalluqli bo‘lib ularning g‘arb tomonida joylashgan. Mozorqo‘rg‘on aylanasi 42 m, diametri 14 m. Mozorqo‘rg‘on ustiga tortilgan tuproq uyumi - materikdan 110 sm baland. Qo‘rg‘on shu yerdagi tabiiy soz tuproqdan ko‘tarilgan. Tuproq uyumida yong‘in (kuygan) izi alomatlari bor¹⁵.

Qazish qo‘rg‘onning g‘arbiy yarmidan boshlangan. Dromos yo‘nalishi aniq bo‘lgach uni ochish boshlandi. Dromos zinali. Qazish natijasida qabr Kenkol qabrlari tipida: ya’ni, g‘arbdan perpendikulyar keluvchi dromosga tutashuvchi lahad (katakomb)dan iborat ekanligi ma’lum bo‘ldi. G‘ulbo mozorqo‘rg‘onlardagi dafn odatlari, qabrlardagi ko‘chmanchilarga mansub buyumlar va o‘troq aholiga mansub ashyo (sopol ko‘za)larning ham uchrashib milod boshlarida o‘lkamizda qizg‘in tarzda iqtisodiy, siyosiy va etno-madaniy aloqalar kechganligidan guvohlik beradi. Uni milodiy 1-2 asrlari bilan davrlashtirish mumkin.

2009-yilda Gritsina, de la Vesier, Abdulgaziyeva, Gaybullayevlar boshchiligida Jizzax viloyati Zomin tumanidagi To‘rtko‘ltepa karvonsaroyida arxeologik qazishmalar olib borilgan. Undan g‘ayrioddiy shakldagi idishlar topilgan va XII asrga tegishli hisoblanadi¹⁶.

2010-yilning oktabr oyi so‘nggida O‘z FA Y.G‘ulomov nomidagi Arxeologiya instituti Jizzax ekspeditsiyasi G‘allaorol tumani Mullabuloq qishloq fuqarolar yig‘iniga qarashli Tepa-Mulkush qishlog‘i hududida rejadan tashqari, tezkor qidiruv-qazuv tadqiqotlarini o‘tkazgan. Bunga sabab Tepa-Mulkush qishlog‘ining shimoliy qismidagi Saodat Davurboyevaga qarashli fermer xo‘jaligi bog‘idan, tasodifan, sopol ostadonlar majmuasi topilganligi bo‘lgan. Majmua 10 dona bo‘lib tarix ilmi uchun g‘oyat katta topilma ekanligi ayon bo‘lgan. Bu Jizzax viloyati hududidan topilgan dastlabki, ko‘p sonli «klassik» usuldagi ostadonlar majmuasi bo‘lib, vohadan faqat 2 dona tasodifan topilgan ostadonlar ma’lum bo‘lgan. Shu bilan birga bu hududdagi arxeologik

¹⁴ Пардаев М.Х. Пардаев, Тошбоев Ф.Э. 2008-2009 йилларда ўтказилган археологик тадқиқотлар хусусида. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2008-2009 йиллар 7-сон. Самарқанд, 2012. -Б.137-147.

¹⁵ Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг антик давр маданияти. тар. фан. фал. док. (PhD) учун ёзилган дисс. автореферати. Самарқанд, 2017.

¹⁶ Грицина А.А., Омонкулова Н.Н. Уникальный сосуд из Турткультепа. Археология Узбекистана. 2014. № 2 (9). -С.59.

yodgorliklarning saqlanishi achinarli holatda ekanligi ham alohida ta’kidlab o‘tilgan¹⁷.

2013-yilning bahorida O‘zR FA Arxeologiya instituti va SamDU Arxeologiya kafedrasining paleolitchilar guruhi Jizzax viloyatining Forish tumani hududlarida qidiruv ishlarini olib bordi va bu yerdan bir qator yangi yodgorliklar topib o‘rganildi. Zarafshon vohasidagi Chashma, Jom, Bulung‘ur va Jizzax viloyati Forish tumani topilmajoylarining ochilishi bu yerdagi paleolit davri jamoalarining butun voha bo‘ylab qo‘shni hududlarga ham keng tarqalganliklarini ko‘rsatadi¹⁸.

2013-yilda O‘z FA Arxeologiya institutining Dashtobod arxeologik jamoasi Qoratepa posyolkasi va uning tumani bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirdi. Otryad sentyabr oyida quyidagi tarkibda ishlagan: otryad boshlig‘i Arxeologiya institutining yetakchi tadqiqotchisi A. A. Gritsina, arxitektor V. R. G‘aybullayev. Jizzax viloyati madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha Bosh inspektor S. S. Qoraboyev, shuningdek, mahalliy hokimiyat tomonidan samarali yordam ko‘rsatilgan.

«Antik davr va ilk o‘rta asrlarda So‘g‘d va Ustrushonada urbanizatsiya jarayonlari» mavzusida Jizzax viloyati Kultepa va Qoratepa (Zomin tumani) yodgorligida barcha turdagi arxeologik ishlar olib borish uchun 041-sonli Ochiq varaqa 2013-yil 1-iyulda taqdim etilgan¹⁹. U ijrochi O‘z FA Arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi, Dashtobod otryadi boshlig‘i A. A. Gritsinaga berilgan. Ish 2013-yil 16-sentabrda boshlangan. 2013-yil 23-sentabrda ishlarni yakunlangan.

Amalga oshirilgan kichik qazishmalar shuni ko‘rsatdiki, aholi punkti juda jadal rivojlangan va bir necha qurilish bosqichlaridan omon qolgan. Materikka tushishning iloji bo‘lmaganiga qaramay, nisbatan kichik madaniy qatlamda uchta turar-joy ufqlari va bir xil miqdordagi qurilish davrlari aniqlandi.

2013-yilning iyun oyi ikkinchi yarmidan O‘z R FA Y.G‘ulomov nomidagi Arxeologiya institutining Jizzax otryadi Jizzax viloyati Jizzax shahridagi Qaliyatepa shahar yodgorligida rejali qazuv ishlarini boshladi. Qazuv ishlari Qaliyatepa shaxristoni janubiy darvozasining sharqiy tomonida joylashgan ark qismida amalga oshirilgan²⁰.

¹⁷ Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Фарбий Уструшонада зардуштий қавмлар излари. О‘zbekiston arxeologiyasi. №1 (2)-2011. –Б.85-88.

¹⁸ Сайфуллаев Б. Джуракулова Д.М. Жиззах воҳасининг палеолит даври топилмалари. «Қадимий Жиззах воҳаси –Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (Сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт)» (Республика илмий-амалий конференция материаллари). –Т.: «VNESHINVESTPROM», 2019. –Б.5-7.

¹⁹ Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Отчет о работах Даштабадского археологического отряда. Самарканд, 2014). -25 б.

²⁰ Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Қалиятепа ёдгорлиги арк қисмида 2013 йилда олиб борилган археологик қазув тадқиқотлари илмий ҳисоботи.Самарқанд, 2014). -20 б.

Otryad tarkibi Pardayev M. (otryad boshligi), Gritsipa A.A. (katta ilmiy xodim), Pardayev Sh.M. (katta ilmiy xodim izlanuvchi) ilmiy xodimlardan va yer qazish ishlariga jalb qilingan 15 dan ortiq laborantlardan iborat bo‘lgan.

Planigrafik qazishma ishlari arkning janubiy-g‘arb qismidagi eng baland, alohida ajralib turgan markaziy imoratlar joylashgan, janubiy mudofaa devoriga yaqin joyda o‘tkazilgan. Qaliyatepa arkining tashqi ko‘rinishi uzunchoq sharqdan g‘arbga cho‘zilgan. Shahristonning janubiy mudofaa devorlari bir vaqtning o‘zida ark uchun ham mudofaa istehkomi sifatida xizmat qilgan.

2015-yilda Jizzax viloyatidagi Toshbuloq yodgorligidagi dala tadqiqotlari bo‘yicha O‘zbek-Amerika arxeologik ekspeditsiyasi «Qoraxoniylarni arxeologik o‘rganish» loyihasi doirasida ish olib borgan²¹.

Toshbuloq arxeologik yodgorligi ilk bor 2011-yilda Zomin arxeologik tajriba loyihasi doirasida F.Maqsudov va M.Frchetti tomonidan sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida topilgan. Toshbuloq dengiz sathidan 2100 metr balandlikda, Malguzar tizmasining baland tog‘larida, O‘zbekiston Respublikasi Chegara qo‘shinlari tomonidan qo‘riqlanadigan chegara zonasida joylashgan. Yodgorlikda dala tadqiqotlari o‘tkazish uchun chegara zonasida qolish uchun ruxsatnomalar 2012, 2013 va 2015-yillarda olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-4068-son Qarori
2. Haydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi. –Toshkent: «O‘qituvchi» NMIU, 2009. -288 b.
3. Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Грицина А.А. Отчет о работах Зааминского отряда в 1992 г.). -Б.1-2.
4. Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Грицина А.А. Отчет о работах Зааминского отряда в 1993 г.). -Б.1-19.
5. Sayfullaev B. Djurakulova D.M. Jizzax vohasining paleolit davri topilmalari. «Qadimiy Jizzax vohasi –Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasi tizimida (Siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot)» (Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari). –T.: «VNESHINVESTPROM», 2019. -534 b. –Б.5-7.
6. Madaniy meros agentligi joriy arxivi (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Ya.G‘ulomov nomli arxeologiya instituti. 2007-yilda Jizzax vohasida xo‘jalik shartnomasi asosida o‘tkazilgan qazuv-tadqiqotlari ilmiy hisoboti). -75 b.

²¹ Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Отчет Узбекское-Американских археологический экспедиции о полевых исследованиях на памятнике Ташбулак в Джизакской области в 2015 году (проект «Археологические изучение Караханидов А И К»), 2016). -20 с.

7. Madaniy meros agentligi joriy arxivi (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Ya.G‘ulomov nomli arxeologiya instituti. 2007-yilda Jizzax vohasida xo‘jalik shartnomasi asosida o‘tkazilgan qazuv-tadqiqotlari ilmiy hisoboti). -75 b.
8. Pardaev M.H. va boshq. Qaliyatepa 3-rabodida 2007-2008 yillarda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar xususida. O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar (2008-2009 yillar). 7-son. Samarqand, 2012. –B.148-161.
9. Pardaev M.H., Ubaydullaev I.H., G‘ofurov J.I., Xolboev Z.T., Ergasheva B.S., Pardaev Sh.M. Qaliyatepa 3-rabodida 2007-2008 yillarda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar xususida. O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar 2008-2009 yillar 7-soni. Samarqand, 2012. -B.148-161.
10. Pardaev M.H. Pardaev, Toshboev F.E. 2008-2009 yillarda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar xususida. O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar 2008-2009 yillar 7-soni. Samarqand, 2012. -B.137-147.
11. Toshboev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antik davr madaniyati. tar. fan. fal. dok. (PhD) uchun yozilgan diss. avtoreferati. Samarqand, 2017.
12. Грицина А.А., Омонкулова Н.Н. Уникальный сосуд из Турткультепа. Археологию Узбекистана. 2014. № 2 (9). –С.59.
13. Pardaev M.H., G‘ofurov J.I. G‘arbiy Ustrushonada zardushtiy qavmlar izlari. O‘zbekiston arxeologiyasi. №1 (2)-2011. –B.85-88.
14. Sayfullaev B. Djurakulova D.M. Jizzax vohasining paleolit davri topilmalari. «Qadimiy Jizzax vohasi –Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida (Siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot)» (Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari). –T.:, «VNESHINVESTPROM», 2019. –B.5-7.
15. Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Отчёт о работах Даштабадского археологического отряда. Самарканд, 2014). -25 б.
16. Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Qaliyatepa yodgorligi ark qismida 2013 yilda olib borilgan arxeologik qazuv tadqiqotlari ilmiy hisoboti. Samarqand, 2014). -20 b.
17. Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Отчет Узбекское-Американских археологический экспедиции о полевых исследований на памятнике Ташбулак в Джизакской области в 2015 году (проект «Археологические изучение Караханидов А И К»), 2016). -20 с.

“SHAXS” VA “MULOQOT MADANIYATI” TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHIIYATI

Normatov Sanjar Abdug‘ani o‘g‘li – Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi” kafedrası o‘qituvchisi,

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shaxslar o‘zaro bir-biri bilan muloqot qilishi, o‘z o‘y-fikrlarini, istak va hohishlarini bir-biriga yetkazishi. Yani ayrim kishi muayyan ijtimoiy guruh, millat, xalq, davlat, jamiyatning qandayligi va istiqbolida qay darajada turishi, shaxslar o‘rtasidagi muloqotning qanday prinsiplar asosida o‘rnatilganligi haqida fikr va muloxoza yuritadi.

Kalit so‘zlar: muloqot, til, munosabatlari, hamkorlik, shaxs, jamiyat, verbal, noverbal, bag‘rikenglik, aloqa, muvozanat, inson

Annotation

In this article, individuals communicate with one another, conveying their thoughts, desires, and desires to each other. That is, some people reflect and discuss the extent to which a particular social group, nation, people, state, society stand and what principles are established in communication between individuals.

Keywords: communication, language, relationships, cooperation, individual, society, verbal, noverbal, tolerance, communication, balance, human

Insonning o‘z o‘zini anglashi shaxslararo munosabatlarning yaxshilanishi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi va mustahkamlanishida muloqot bosh bug‘in bo‘lib hisoblanadi. Yani ayrim kishi muayyan ijtimoiy guruh, millat, xalq, davlat, jamiyatning qandayligi va istiqbolida qay darajada turishi, ular o‘rtasidagi muloqot madaniyatining qanday prinsiplar asosida o‘rnatilganligiga bog‘liq.

Shaxs tushunchasi uning ma‘no mazmuni bugungi kunga qadar xar xil talqin qilingan. Bu tushunchani shakillantiruvchi o‘zagi qadimgi tarixiy davrlarga borib taqaladi va muayyan bosqichlarni o‘z ichiga olgan holda shakllangan ya‘ni odam rivojlanish tadrijiy evaluytsiyasini qamrab olgan holda bosqichma bosqich vujudga kelgan. Zero inson zoti davrlar osha ijtimoiy mavjudotga aylandi. Bu ilmiy dalillar va ma‘lum ma‘noda faraziyalarga tayanadi, Tealogik nuqtaiy nazardan esa insonni yaralishi ilohiylik asosida talqin qiladi[1]. Uning yaratuvchining mo‘jizasi ekanligiga ishora qiladi. Inson zotining individ sifatida o‘zini takommillashtirib borishi uning shaxs sifatida shakllanishiga asos bo‘ladi. Shaxs tushunchasiga falsafiy lug‘atda quydagicha ta‘rif berilgan: O‘zining ijtimoiy shart sharoitga bog‘liq bo‘lgan va individual

suratda ifodalangan sifatlarga yani intellektual, emotsional, va irodaviy sifatlarga ega bo‘lab odam[2].

Umuman falsafiy antropologiyaning[3] o‘rganish obyektlaridan biri bu shaxs tushunchasi hisoblanadi. Moddiy dunyodagi inson shaxsiyati va uning yaratuvchanlik qobiliyati doimo fan nuqtaiy nazaridan markaziy o‘rinda bo‘lib kelgan. Inson falsafiy munosabatlarning mohiyatini ochish jarayonida shaxs xususiyatlarini va uning sifatlarini anglash muhim hisoblanadi chunki borliqdagi barcha mavjudotlar va inson o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni anglash iduvid va shaxsning yashab qolish mohiyatini tushinishga yordam beradi.

Falsafa tarixida inson shaxsiyatini o‘rganish muammosi eng dolzarb va ko‘p qirrali muammolardan biri hisoblanadi. Har bir fan nuqtaiy nazaridan shaxsning tabiati va mohiyati o‘ziga xos tarzda tushunadi bu yondoshuv psixologiya pedagogika, siyosatshunoslik, sotsiologiya, tarix va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarga ham hosdir. Falsafada shaxsni umumiy va unversallik asosida munosabatlar tizimini tadqiq etsa boshqa fanlar esa shaxsni o‘zlarinig tadqiqot mavzusiga asoslangan holda tor mutaxassislik nuqtaiy nazaridan talqin qiladi. Bizningcha shaxsni obyektiv nuqtaiy nazardan oladigan bo‘lsak shaxs jamiyatda shakillanadi rivojlanadi va faoliyat ko‘rsatadi. Shaxs ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatida o‘ziga xos induvidal xususiyatlar bilan o‘zligini namoyon qiladi. Ekzissetalizim falsafasi vakillaridan biri N.A.Berdiyevning fikricha “Shaxs ijodiy inergiya markazi bo‘lib” ma’naviy axloqiy hodisadir. Inson mohiyati bevosita erkinlik va ijodiylikni tashkil qiladi shaxs tushunchasini izohlaydi”[4].

K.Marks shaxsning mavjudligini bevosita ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida ko‘radi[5]. E.Fromning fikricha, “Altruist odam shaxsiyatiga alohida e’tibor bergan holda uni optimist harakter mavjudligi va u hayotga qiziquvchan, xushfe’l, hayratlanish qobiliyatini yo‘qotmagan shaxs sifatida talqin qiladi”[6]. Bunday odamlaraing ichki ruhiy holati faqat ijobiy bo‘lib. Har qanday qiyinchiliklarga dosh berishga qodirdir. Jamiyatning inqiroz holatlarida bunday shaxslar odamlarga dalda berib, ruhiy ko‘tarinkilik holatini jamiyatda ko‘paytiradilar. Bunday shaxslarni Fromm jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuch, deb hisoblaydi[7]. Induvidning shaxsiyati u hayot kechirayotgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida shakllanadi. Bu munosabatlar ob’ektiv bo‘lib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi asosida olib borgan faoliyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ta’sirida bo‘lishi yoki ularga ta’sir ko‘rsatishi, o‘zgartirishi va rivojlantirishi ehtimolini ham hisobga olish lozim. F.Engles va K.Marks tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy faoliyat munosabati subyekti to‘g‘risidagi nazariyasiga ko‘ra shaxs va jamiyatning o‘zaro munosabati asosida shaxs shakillanishi yani shaxs ijtimoiy munosabatlar maxsuli ekanligini bildiradi[8].

Shaxsning o‘ziga xosligi uning genetik va fiziologik xususiyatlari uning o‘z-o‘zini tutish madaniyati va ongida nomoyon bo‘ladi. Gegel metafizikasi qadriyat masalasida shaxs murakkab yaxlitlik sifatida ko‘radi. Gegel tasavuricha ayni shu yaxlitlik oliy darajadagi shaxsning namoyon bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Biz bu oliy shaxsni metafizik mavjudot deb olsak jamiyatdagi qadriyatlar uning a‘zolarining umumiy qiymati bilan o‘lchanadi ana shunday vaziyatda davlat maqsad emas vositaga aylanadi. Umiy ma’noda Gegel shaxsni davlat taqdiriga ta’sir ko‘rsatuvchi real kuch sifatida baholaydi[9]. Neofreydizimning yirik vakillaridan biri Erik Erikson tushuntirishicha, “individning shaxs darajasiga ko‘tarilishi inson umrining daslabki yillari bilan chegaralanib qolmaydi, balki bosib o‘tgan butun hayotini qamrab oladi”[10].

XIX asrning dastlabki choragida Amerika va G‘arbiy Yevropa davlatlarida shaxs va uning mohiyati to‘g‘risida ilmiy konsepsiyalar va nazariyalar yaratilishiga qaramasdan, shaxs fenomeni umumiy yaxlit o‘rganishga bo‘lgan extiyoj ortib boraverdi. Shunday bir vaziyatda K.K.Plotonov, B.G.Anonev, L.Bejevichlar shaxs muammosini o‘rganuvchi fan psixologiya degan fikrni ko‘tarib chiqdilar[11]. Bu bir yoqlama fikrlash ta’sir doirasida, shaxs-psixologik jarayonlar, holatlar, xususiyatining yig‘indisi degan xulosaga kelinadi.

Bizningcha bunday xulosaga kelish ham mutloq to‘g‘ri emas chunki shaxs bu murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy individ bo‘lib uning mohiyatini bir fan doirasida ochib bo‘lmaydi. U bilan qiziquvchi barcha fanlar asosida unga kompleks yondoshuv ta’lab etildi.

Shaxs o‘zining ijtimoiy mohiyati va faoliyati bilan boshqa kishilardan ajralib turuvchi fenomen hisoblanadi; shaxsning ijtimoiy-ruhiy noyobligini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy aloqador; har bir shaxs yashab turgan muhit ta’sirida tarbiyalanadi va uning noyobligi ham yashash muhiti bilan taqozolanadi; o‘z millatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida mujassam etmagan va milliy ruhiyatga ega bo‘lmagan odamni uning millatdoshlari shaxs sifatida tan olmaydi hamda u umuminsoniy taraqqiyotga ham o‘z hissasini qo‘shmaydi.

Bizning kundalik hayotimizni muloqotsiz ta’savvur qila olmaymiz. Insonlar o‘rtasidagi barcha aloqalarning asosiy markazida o‘z aro muloqot qilish orqali ma’lumotlar almashish turadi. Muloqot tushunchasiga tarif Falsafa qomusiy lug‘atida quydagicha keltirilgan “Muloqot bu subyektlarga xos bo‘lgan o‘z aro yani bir shaxsning boshqa inson bilan munosabatda bo‘lish usuli” sifatida ta’rif berilgan bo’sa[12]. Psixalogik lug‘atda esa Muloqot — belgilar tizimi orqali subyektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi[13]. Psixologiyaga oid kitoblarda: “Muloqot – hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni; muloqot belgilar tizimi orqali

sub’ektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi. Muloqot-kamida ikki kishining o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, bu ta’sir davomida axborot almashinadi, munosabat o‘rnatiladi va rivojlantiriladi, tugatiladi yoki korreksiyalanadi” – degan ta’riflar berilgan.

Ijtimoiy psixalogik tushunchalar lug‘atida esa muloqotga quydagicha tarif berilgan “Muloqot bu guruhlar yoki shaxslar o‘rtasidagi ma’lum bir jarayon bo‘lib. Bunda insonlar hayoti davomida aqliy salohiyati natijasida ortirilgan tajriba asosidagi o‘zaro ma’lumotlar, mulohozalar, fikrlar va o‘z his tuyg‘ularini ifodalash jarayonidagi munosabatlar nazarda tutiladi[14].

Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi yana bir boshqa tarifda esa muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni deyiladi. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi ma’lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma’lum tartibda aloqaga kirishishga yo‘naltiruvchi, ularning emotsional holatlari (mamnunlik, shodlik, g‘azab, qayg‘u, hijron va shu kabilar) haqidagi ma’lumotlar o‘tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga yetkaziladi va shaxslararo aloqalar o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib muloqot ikki kishining bir biri bilan o‘zaro axborot almashgan holda suhbatlashishiga va fikr almashishi aytiladi.

Muloqot bu suhbatdosh bilan ma’lum mavzuni to‘liq anglab yetishi uchun dalillar, g‘oyalar, takliflar, so‘rovlar, ma’lumotlar shikoyatlar va boshqalarni bir kishidan boshqasiga o‘tkazish yoki o‘zaro ma’lumot almashishga aytiladi.

Xulosa qilish uchun, muloqot madaniyati, ijtimoiy, falsafiy va insonlararo munosabatlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan prinsiplarga asoslanadi. Bu prinsiplar, insonlararo munosabatlarda sodiq, ishonchli, insoniy bo‘lishni, ozodlik, adolat, barqarorlik va yuqori darajadagi munosabatlarni ta’minlashni, insonlarga muhim qadriyat sifatida boshqa shaxslar fikrlarni hurmat qilishni, boshqalarning qarorini tushunishgan holda to‘g‘ri qabul qilishni va boshqalarning fikrini eshitishni o‘rgatishni talab qiladi. Muloqot madaniyati, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, jamiyatda ma’lum ma’noda munosabatlarni ijobiy va tizimli bo‘lishini ta’minlaydi. Shu ma’noda shaxs muloqot madaniyatining to‘g‘ri shakillanishi insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning ijobiy jihatdan yangi darajalarga ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Westminster Handbook to Evangelical Theology. – Louisville: Westminster John Knox Press, 2004. – P.88.

2. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12593-2021-06-03-10-00-58>
3. Edelmann B. Philosophical Anthropology//The Stanford Encyclopedia of Philosophy, 2016.// <https://plato.stanford.edu/entries/philosophical-anthropology/>.
4. Чориев А. Инсон фалсафаси II мустақил шахс. – Т.: Чинор, 2002. – Б.5.
5. Marx Karl. Economic and Philosophic Manuscripts of 1844.// <https://www.marxists.org/archive/marx/works/1844/manuscripts/preface.htm>. – April 9, 2023.
6. Fromm E. The art of loving. – New York: Harper & Row, 1956.
7. Po‘latova D.A., Ro‘zmatova G.M. G‘arb falsafasi tarixi. – Toshkent.: «Fan va texnologiya», 2018. – Б.406
8. Marx, K., & Engels, F. (1970). The German Ideology. New York: International Publishers.
9. Po‘latova D, Ro‘zmatova. G. G‘arb falsafasi tarixi. -Т: «Fan va texnologiya», 2018, 459 bet
10. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: 1996. С. 114
11. Платонов К., Анонев Б. и Беевич Л. (1977). Проблемы личности в современной психологии. Москва: Наука. С.48
12. Философский словарь 6-Изд. – М., 1991. – С.208-309.
13. Maxsudova.M. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo'llanma. – Т.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006. – Б.5.
14. Коллектив, личность, общение: Словарь социально-психологических понятий. – Л., 1987.

4-BO‘LIM: MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM-TARBIYA OLDIDA TURGAN DOLZARB VAZIFALAR

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Meliboyev Anvar Rashidovich – Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent

Anotatsiya

Maqolada ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy ta’lim, bugungi kunda zamonaviy o‘qituvchi o‘quvchiga qanday ta’lim berishi kerak, 4K modeli, 4K ko‘nikmalari, boshlang‘ich sinflarning yangilangan darsliklari, darslarda zamonaviy metodlardan unumli foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim sifati, “ijtimoiy ko‘nikmalar”, zamonaviy o‘qituvchi, 4K modeli, 4K ko‘nikmalari, yangi darsliklar, zamonaviy metodlar, ta’limni tashkil qilish shakllari.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы повышения качества образования, современного образования, того, как современный учитель должен учить ученика сегодня, модель 4К, навыки 4К, обновленные учебники начальных классов, эффективное использование современных методов на уроках.

Ключевые слова: Качество образования, “социальные навыки”, современный педагог, модель 4К, навыки 4К, новые учебники, современные методы, формы организации образования

Abstract: In the article, improving the quality of education, modern education, how a modern teacher should teach a student today, 4K model, 4K skills, updated textbooks of primary classes, effective use of modern methods in lessons issues have been considered.

Key words: Quality of education, "social skills", modern teacher, 4K model, 4K skills, new textbooks, modern methods, forms of educational organization.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimi kundan kunga takomillashib bormoqda. Xususan, uzluksiz ta’lim tizimini samarali tashkil etish va unga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishishda g‘oyatda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’lim o‘quvchilarga beriladigan bilimlarning to‘laqonli amalga oshirilishini ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich ta’lim - shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e’tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida “o‘quvchi shaxsi”ni yaratadi, maktabga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi. Boshlang‘ich ta’limning eng muhim asosiy maqsadi keyingi ta’limning mustahkam poydevorini yaratish, ularning o‘quv va bilish faoliyatini mustaqil boshqarish malakalarini rivojlantirishdan iborat. Ma’lumki, o‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta’lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko‘proq e’tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz. Yangi tajriba bilan esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovasion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Xususan, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda o‘qish, yozuv, hisoblash, AKT savodxonligi, o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda savodli o‘qish malakalarini shakllantirish, o‘qiganlarini tushunish darajasini oshirish kichik maktab yoshidan amalga oshiriladi.

Bu islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi sababli barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo‘lgan talab yanada oshmoqda. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF5712-sonli Farmoniga binoan ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shu maqsadda “Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” muhim

ahamiyatga ega ekanligi haqida aytgan.

Shu maqsadda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkurni rivojlantirishning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati bu-moddiy voqelikdagi muhim jihatlarni ajratib, mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishga o‘rgatishdir. Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchi oddiy narsalar to‘g‘risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqiqatidan umumiy fikr topishga harakat qiladi. Bunda ularda asosan ko‘p savollar yuzaga keladi va kata yoshdagilarga juda ko‘p savollar beradi. Shubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to‘la foydalanilmagan imkoniyatlarga ega. Ma’lumki, kreativ (lotincha-ijodiy) tafakkur murakkab bilish faoliyatidan biri bo‘lib tadrijiy ravishda, izchil o‘zaro bog‘langan jarayonlardan tashkil topadi. Bu jarayon kichik yoshdagilarda dastavval savollarning tug‘ilishi, amaliy vazifalarning aniqlanishi, masalani yechish yoki savollarga javob qidirish jarayonlarining amalga oshishi bilan xarakterlanadi. Bu esa dars va darsdan tashqari jarayonlarda o‘quvchi oldida turgan aniq vazifa yoki masala-bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolarning ifodasida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri qo‘yilgan vazifa (masala) ko‘pincha ifodalanishi shart bo‘lgan maqsadni ham o‘ziga aks ettiradi. Kreativ tafakkurning navbatdagi komponentlari quyidagicha aks ettiriladi: bunda savollarga javob izlash, masalani yechishga yordam beradigan yo‘llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko‘nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ularni tatbiq qilish va boshqalar o‘z aksini topadi. O‘quvchi ushbu konkret holdagi vazifani bajarish uchun qo‘yilgan savollarga beriladigan javoblarni ayrim paytlarda tevarak-muhitdagi obyektlardan topishga harakat qiladi. Mazkur holatning samaradorligi ko‘p jihatdan uning kuzatuvchanligi va sinchkovlik sifatlariga bog‘liq. Berilgan savollarga javoblarni to‘plangan tajriba va yig‘ilgan bilim zahiralari bilan izlab topish ko‘zga tashlanadi. Masalan, amaliy ish, laboratoriya mashg‘uloti, nazorat ishi topshirayotgan, kichik guruhlarda jamoaviy ishlash o‘quvchining fikr yuritishi, mulohazasi va xulosa chiqarishida namoyon bo‘ladi.

Kreativ tafakkur ijodiy xayol bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchi amaliy faoliyatda bir talay savollarga javoblarni o‘z tasavvuri yordami bilan topadi. Jumladan, har xil taxminlar, farazlar, kashfiyotlar, amaliy ixtirolar ham ana shu yo‘sinda amalga oshadi, ya’ni tafakkur yordami bilan zarur natijalarga erishiladi. Shuningdek, kreativ tafakkur jarayoni ijodiy yo‘naltiruvchi mashqlar asosida ba’zi bir vazifalarni hal qilish, bajarish, muhokama yuritish, mulohaza qilish, fikrlash, faraz qilish singari jarayonlar mantiqiy fikr yuritish usullari va vositalarini qo‘llash yo‘li bilan nihoyasiga yetkaziladi. Masalan, boshlang‘ich sinf matematika, tabiiy, ona tili va o‘qish savodxonligi kabi fan asoslarini o‘zlashtirishda xuddi shunday jarayon yuzaga

keladi. Dars jarayonlarida kreativ fikr yuritish davomida o‘quvchilar tomonidan goho kamchilik va xatolarga yo‘l qo‘yiladi. Natijada ularda berilgan javoblar yoki qo‘llanilgan vositalardan shubhalanish hissi paydo bo‘ladi. Oqibatda natijalarni tanqidiy tekshirish masalalari ham yuzaga keladi va o‘quvchida tanqidiy fikrlashning kriteriyalari paydo bo‘la boshlaydi.

Bunda fikr yuritishning mantiqiy jihatlari umumlashtirish va xulosa chiqarish, isbotlash, dalillash, asoslash, rad qilish, inkor etish kabilar ijodiy tafakkur asoslarini hosil qiladi. Kreativ tafakkur jarayonida o‘quvchi o‘quv masalasini hal qilishda o‘zgalarning yordamiga tayanib ish ko‘radi. Ayrim hollarda masala yoki topshiriqni hal qilish, yechish paytida ijodiy tafakkur o‘zaro munosabat jarayonida, muloqot asosida sodir bo‘ladi. Muloqot asosida o‘quvchilar fikr almashish, suhbatlashish, muhokama qilish, bahslashish, isbotlash, dalillash kabi mantiqiy usullardan foydalanadilar. Tarixiy taraqqiyotning natijalariga qaraganda, yirik ilmiy kashfiyotlar, falsafiy mushodalar, ilmiy nazariyalar, konstruktiv ijodlarning aksariyati buyuk kishilar tomonidan ijtimoiy tafakkurning mahsuli sifatida dunyo yuzini ko‘rgan. Binobarin, ijodiy tafakkur faqat masala (muammo)ni hal qilish bilangina bog‘liq bo‘lmasdan, balki bilimlarni egallash, muammoni tushunish, narsa hamda hodisalarni tanqidiy jihatdan analiz qilish va hokazolarda ham juda zarurdir.

Tafakkur muammoli vaziyatni analiz qilish natijasida uni ravshanlashtirib, yechish mumkin bo‘lgan masalaga aylantiradi. Kreativ tafakkur jarayoni mavjud bilimlarga chambarchas bog‘liqdir. Shu narsani alohida qayd qilib o‘tish kerakki, o‘zaro muloqot qilishda tafakkur muhimroq, mavqeliroq o‘rin tutadi. Hozirgi zamon ta’limi oldida turgan asosiy maqsad, o‘quvchi shaxsini bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o‘rgatishdan iborat.

Shuningdek, zamonaviy darslarni tashkil qilish negizida “4K” modelini qo‘llash asosida o‘quvchilarda kommunikativ, tanqidiy fikrlash, kreativlik va kooperativ ko‘nikmalarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bigingi kunda ta’limni isloh qilish tizimiga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri “4K” modelidir.

“4K” modeli kolloboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi tushunchalarni qamrab oladi.

1) kollaboratsiya (hamkorlik) - ta’lim oluvchining jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish;

2) kommunikativlik - odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish;

3) kreativ fikrlash - o‘z maqsadiga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko‘nikmalarini o‘rgatish;

4) kritik (tanqidiy) fikrlash - o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda

etish, masalaga tanqidiy yondashish demakdir.

Bu metodologiya bolalarning rivojlanishiga qaratilgandir. Ushbu kompetensiyalar asosidan tasavvur etish, g‘oyalarni ilgari surish, dalillar keltirish, ma’lumot yetishmasligini ta’kidlash va izlash, o‘z g‘oyalarini shakllantirish va boshqalarning g‘oyalarini rivojlantirish, taxmin va mulohazalarini baholay olish, guruh maqsadlarini qabul qilish va umumiy natijani baholash kabilar o‘rin oladi. Ular maktab o‘quvchilariga mustaqil o‘qish va boshqalar bilan birgalikda tadqiqot olib borish, o‘zini ko‘rsatishga imkon beradi.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini mustaqil rivojlantiradigan jarayondir.

Endi 4K mdelining har bir bo‘limiga alohida to‘xtalib o‘tamiz:

Kollaboratsiya - darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlik - darsliklar o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganadilar.

Kreativ fikrlash - darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar, innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Kritik fikrlash - ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar. Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak.

Boshlang‘ich sinflarda tadqiqotli o‘qitish usulidan foydalanilsa, o‘quvchilarining faoliyat turlari juda rang-barang bo‘lishi mumkin. Ayrimlarini sanab o‘tamiz:

- o‘z oilasi (uyi, ko‘chasi) tarixini so‘rab bilish va hikoya qilib berish;
- berilgan mavzu asosida mustaqil xabar tayyorlash va uni taqdimot qilish;
- ob-havoni kuzatish va uni maxsus kundalikka qayd qilish;

- qaysidir mashinaning modelini yig‘ish;
- mustaqil ravishda qaysidir fikr (qoida)ning isbotini topish;
- ertak yoki qiziq voqea o‘ylab topish va hikoya qilib berish;
- hikoyaga rasmlar chizish yoki ulardan multfilm yaratish;
- asar (ixtiro) muallifiga savolnoma tayyorlash;
- yangi materialni rasm, jadval yoki tajriba yordamida mustaqil tushuntirishni uyda tayyorlab kelish;
- krossvord tuzish;
- o‘quv qo‘llanmasi bo‘limlari uchun (“aqliy hujum” yordamida yoki eng yaxshi nom tanlovi orqali) qiziqarli nomlar o‘ylab topish va h.k.

Zamonaviy ta’lim yod olishga yo‘naltirilgan kontent o‘rniga o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Shu bilan birga, fanlarda berilayotgan mavzu va topshiriqlar maktab bitiruvchilarining jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga ko‘maklashuvchi hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. An’anaviy ta’limda nima? qachon? qayerda? degan savollarga javob topilar va bu o‘quvchilarning xotirasini rivojlantirar edi. Ko‘nikma shakllanmagani hisobiga bolalar hayotda duch keladigan masalalar, muammolarga javob topa olmasligi mumkin. Agar o‘quvchida muammoga keng qamrovli yechim topish ko‘nikmasi shakllantirilsa, muammoga duch kelganda unga qanday yechim topish ustida bosh qotiradi.

Zamonaviy ta’limda zamonaviy o‘qituvchi ta’lim shaklini mavzu, o‘quvchilar va tarjibasidan kelib chiqib tanlaydi. Bunda albatta zamonaviy metodlar qo‘l keladi.

Xulosa shuki, o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida o‘quvchilarda 4K modelini darslarda tadbiq etish maqsadga muvofiq. Bunda albatta zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish lozim. Har biq o‘qituvchi bu omillarga e’tibor bersa zamonaviy ta’lim o‘z maqsadiga erishadi. 4K modeli asosida ta’lim berish quyidagi natijalarga olib keladi:

- ✓ o‘quvchining o‘rganish jarayonini boyitadi;
- ✓ o‘quvchilarga kognitiv (atrof-olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta’limi) axborot beradi;
- ✓ o‘quvchilarda materialni o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otadi;
- ✓ o‘quvchilarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarni shakllantirish imkoniyatlarni kengaytiridi;
- ✓ axborotni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- ✓ o‘quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlar beradi;
- ✓ turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy darajadagi guruhlar o‘rtasida ijobiy o‘zaro munosabatlarni ilgari suradi;
- ✓ hamkorlik shunday holatki, ta’lim jarayoni subyektlari birgalashib

faoliyat qiladi, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam, jamotchilik yuzaga keladi.

Qolaversa, ta’limning asosiy maqsadi– o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat. Shuni hisobga olgan holda raqobatbardosh, hamkorlikka shay, turli hayotiy vaziyatlarda muammolarni anglab, ularni hal qilishga dadil kirishuvchi, tafakkur kuchiga ishonuvchi, jamoada mustaqil mulohazalarini ayta oladigan, o‘z fikr va qarashlarini himoya qila oladigan, savodxon kadrlarni tarbiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi Xalq ta’limi tizimini 2023-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini to‘g‘risidagi PF5712 sonli Farmoni. <https://www.lex.uz>.
2. A.A.Ismailov, G.O.Tog‘ayeva va boshqalar. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash”, metodik qo‘llanma, Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2019 yil, 112 bet.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, 2003.
4. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya”. -T.: TDPU 2007.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi: “Nasaf”, 2000.
6. Timoti Uoker. “Finlandiya ta’lim mo‘jizasi”, “Global books”, 2023.
7. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. -T.: 2023.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA ZAMONAVIY KASBLARGA YO‘NALTIRISHNING ZARURIYATI

Ergasheva Nigora Erkinovna –Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasida katta
o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada to‘garak mashg‘ulotlarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati, ushbu mashg‘ulotlarning maqsad va vazifalari, natijadorligi haqida fikr yuritilgan. Maqolada berilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘garak mashg‘ulotlarida zamonaviy kasblarga qiziqtirishning zaruriyati, usullari hamda yo‘llari haqidagi ma’lumotlar ushbu maqola mazmunining oshishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: to‘garak, kasb, kasb tanlash, o‘quvchi, o‘qituvchi, boshlang‘ich ta’lim.

Аннотация: В этой статье рассматриваются роль и значение кружковых занятий в повышении эффективности обучения, цели и задачи этих занятий, результативность. В статье приводятся сведения о необходимости, методах и путях привлечения учащихся начальных классов к современным профессиям в круговых занятиях, что способствует повышению содержания статьи.

Ключевые слова: круг, профессия, выбор профессии, ученик, учитель, начальное образование.

Abstract: This article discusses the role and importance of circle classes in improving the effectiveness of learning, the goals and objectives of these classes, and effectiveness. The article provides information on the need, methods and ways to attract primary school students to modern professions in round-robin classes, which contributes to improving the content of the article.

Keywords: circle, profession, choice of profession, student, teacher, primary education.

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, xalqimizning hayoti, davlatimizning siyosiy faoliyatida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonda xalqimiz o‘zining buyuk kelajagini yaratmoqda. Uni yaratishda ulug‘ ajdodlarimiz - buyuk pedagog-faylasuflar, din arboblari, mutasavvif donishmandlar, ulug‘ allomalarning ta’limotlarini o‘rganish sari yo‘l ochildi. Asrlar mobaynida xalqimiz saqlab kelayotgan milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ilmiy tadqiq qilib rivojlantirishga yangi imkoniyatlar yaratildi.

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko‘p jihatdan uning intellektual potentsiali bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy potentsiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg‘or bo‘ladi. Shuningdek, davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalari doirasidan tashqari yangi zamonaviy fanlar va axborot texnologiyalariga doir bilimlarni o‘zlashtirish zamon talabiga aylanmoqda.

Hozirda boshlang‘ich ta’lim tizimining asosiy vazifalari o‘quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash, ularga mustaqil fikrlash, o‘zligini anglash, bilimlarni o‘rganishda, maktabda va maktabdan tashqari ishlarda faollik, boy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni o‘rgatish, o‘z shaxsidagi “men”ini tanitish, yuksak axloqiy fazilatlar va estetik ruhda tarbiyalashdan iborat. [2,9-bet]

Tez sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi davrda, yoshlarni milliy, sharqona qadriyatlarni hisobga olgan holda zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan kasb sohiblarini tayyorlash muammosi davlat miqyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda

hukumatimizning qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari talablari asosida rivojlantirilishiga qaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi o‘zgarishlarning muvaffaqiyati dastlab ta’lim-tarbiya mazmunini o‘zgartirish, uni davr talablari asosida yangilash hamda ta’lim oluvchilarning ma’naviyati va intellektual salohiyati darajasining yuksalishi bilan bog‘liqdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 4-bo‘limidagi 37–51-moddalarida ta’limga qaratilgan bir qator islohotlar, jumladan, har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 barobar oshirish, maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va amaliy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish ta’lim sohasidagi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanadi [1, 36-b].

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o‘quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so‘ngra kasbga yo‘llash lozim bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflardan o‘quvchining qiziqish va qobiliyatlarini to‘g‘ri tashxislanib, kasbga yo‘naltirish ishlariga asos solinadi. To‘garak mashg‘ulotlari bola o‘z ustida ishlashi, o‘zi qiziqqan yo‘nalishi bo‘yicha shug‘ullana olishi, qo‘shimcha bilimga ega bo‘lishi uchun imkon beradi. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar o‘qish va o‘rganish bilan birga o‘zaro ijodiy tajriba ham almashishadi. Bir yo‘nalishda izlanayotgan, bo‘lajak yosh mutaxassislar shakllanadi. O‘quvchilar to‘garaklarni o‘zlari erkin tanlashi, bir vaqtning o‘zida bir necha to‘garakka qatnashi va qiziqishiga ko‘ra to‘garakni almashtirishi mumkin. Bu kelajakda bolalarning biror-bir kasbni tanlashida boshlang‘ich pog‘ona vazifasini o‘taydi. To‘garak rahbari to‘garak mashg‘ulotida samaradorlikka erishish uchun to‘garak mashg‘uloti ishlanmasiga alohida e‘tibor qaratishi, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tuzishi lozim.

Bugungi kunda to‘garak ishi o‘quvchilar uchun qiziqishlariga asoslanib ixtiyoriy ravishda tanlangan faoliyatning shaxsiyat uchun muhim, qadriyatlarga asoslangan, individual tajribasini o‘zlashtirish sohasiga aylandi. Bu o‘quvchilarga kasbiy o‘zini o‘zi belgilashda yordam beradi, asosiy tarkibiy qismda olingan bilimlarini, kuchli tomonlarini amalga oshirishga yordam beradi. Ongli ravishda to‘garak ishlari orqali kasb tanlash uchun o‘quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning

o‘ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o‘zining shaxsiy sifatlariga ko‘ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o‘z malakasini takomillashtirish talab qilinadi. Bunday ko‘nikmalarni bevosita to‘garak ishlari orqali shakllantirish, o‘quvchilarning biror bir hunarni egallashlarida ko‘rsatmalar berish maqsadga muvofiqdir. Zamon rivojlanib borayotgan bir davrda o‘rganish lozim bo‘lgan manbalar va bilimlar ko‘paymoqda va ularni o‘zlashtirish imkoniyatlari tobora og‘irlashib bormoqda. Shu sababli har sohada juda tez o‘sish su‘ratlarini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekistonni rivojlantirishda bizning jamiyatimizga har tamonlama komil inson kerak, biz pedagoglar ana shunday yoshlarni tarbiyalab, yetishtirib chiqarishimiz lozim.

To‘garak bu-ma'lum bir bilim sohasiga qiziqishni kuchaytiradigan va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarning ixtiyoriy birlashmasi. U mashg‘ulotlar dasturining mavjudligi, muntazamligi, vaqt davomiyligi va ishning o‘ziga xos profili bilan tavsiflanadi.

To‘garak ishlari o‘quvchilar uchun qo‘shimcha ta’lim shakllaridan biri bo‘lib, u turli xil komplekslar, seksiyalar va klublarni tashkil etishdan iborat.

To‘garak mashg‘ulotlari quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim;

- mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadga bo‘ysundirilganligi;
- qatnashchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilganligi;
- ilmiyligi va izchilligi;
- bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga qaratilganligi;
- amaliy ahamiyatga ega ekanligi va h.k

Bu islohotlarni amalda tadbiq qilinishi hozirgi kunda ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning faoliyatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bugungi zamonamiz yoshlari zamon talabiga javob bera oladigan bilimli, zukko har tomonlama ma`nan yetuk kadrlar bo‘lishi talab etilmoqda. Bunday zamonaviy bilim egalari bo‘lgan yoshlar kasb- hunarlarni, xorijiy tillarni puxta egallashi hamda katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo‘yishi lozim. Chunki bu yoshlar ertangi kunimizni hal qiluvchi kuchidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk maktabga qadam qo‘yganlaridanoq o‘qituvchi tomonidan kuzatib boriladi. Dastlab o‘quvchilardan qanday kasb egasi bo‘lishi so‘ralganida, ular ko‘pincha katta lavozimlarning egasi bo‘lishini istashini to‘g‘ridan to‘g‘ri aytishadi. Bu kasb tanlashlari ba’zida tez-tez o‘zgarib turishadi. Ularni ruhiyatini tushirmasdan ularga to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsatish o‘qituvchining vazifasidir. Boshlang‘ich sinflarning uchinchi, to‘rtinchi yillariga kelib esa bolalardagi iqtidor, salohiyat yanada yaqqol ko‘rina boshlaydi. Ular o‘rtasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo‘lishi kerakki, yuqori sinflardagi o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan

qiziqishlari, o‘y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari barcha kasblar uchun zarur va muhim bo‘lgan shaxs xislatlari bor ekanligini aytib o‘tish kerak:

-mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat ehtirom;

-mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;

-o‘z ishini rejalashtira olishi va nazorat qila bilishi;

-ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish;

-ish batartib va intizomli bo‘lishi;

-toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab olabilish;

-materiallar va vaqtni tejash, va mas’uliyatlilikdir.

Ana shu xislatlar va fazilatlarining hammasini o‘quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim. Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin sayohat qildirish, ularni shu kasblar bo‘yicha kerakli bo‘lgan bilimlarini olish kerakligini asta-sekin uqtirib borish lozim. Shu bilan bir qatorda o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini baholay olish ko‘nikmasiga, ya’ni aqli, qiziqishi, har xil kasblar bo‘yicha bilimli, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotga ega bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko‘rsatuvchi mezonlar:

-kognitiv (axborotga ega ekanligi) ;

-kasbga qiziqish mezoni;

-amaliy mezon.

Kuzatishlar va tadqiqodlar shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarini tahminan 30% da tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang‘ich sinflardayoq namoyon bo‘lar ekan. O‘qituvchilarning vazifasi esa ularning bu qiziqishlarini imkon qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirish, kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratib, to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdan iboratdir. O‘qituvchi bolani qaysi kasbga qiziqishi, mehri, iqtidori borligini sezganda unga yaxshi munosabat bilan yondashish, kerakli bo‘lgan yo‘l-yo‘riqni ko‘rsatib shu kasbga nisbatan yanada qiziqishini oshirishdan iboratdir. Ba’zi hollarda bolani o‘zi tanlangan kasbga iqtidori, salohiyati yetarli bo‘ladi, ammo uning ota-onasi yoki yaqinlari qarshilik ko‘rsatadi. Bu noto‘g‘ri ekanligini bolaning ota-onasiga tushuntirish, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish lozim. Demak o‘qituvchilarning bu borada ota-onalar bilan ham farzandlarining qiziqishi yuzasidan tez-tez suhbatlar o‘tkazib turish lozim. Bu bolani to‘g‘ri kasbni egallashda, o‘qituvchi va ota-onaning hamda bolani bir maqsad sari yo‘nalishiga yordam beradi.

Kasbga yo‘naltirish ishi o‘quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining

xususiyatlariga mos kasblariga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Sinfdan va maktabdan tashqari ish o‘quvchilarni kasb-korini ongli ravishda tanlashda, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko‘p jihatdan yordam beradi.

Maktablarda to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma’lumotlarni to‘liqroq anglab yetishi shuningdek, ularning kasb tanlashidagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg‘or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma’ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu tadbirlar o‘quvchining shu kasbga bo‘lgan qiziqishini yanada qat’iylashishini vujudga keltiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagilar tavsiya etiladi:

- kasbga yo‘naltirishda yakka tartibda ishlashga e’tibor qaratish;
- mavzu yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish;
- turli kasblarga oid audio, video materiallar bilan tanishtirish;
- sinfdan tashqari ishlarni kasb tanlashga yo‘naltirish;
- turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvchlar tashkil etish;
- madaniy tadbirlar tashkil etish.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, bolani kasbga to‘g‘ri yo‘naltirish va unga har tomonlama ko‘mak berish o‘qituvchining eng muhim vazifalari va burchlaridan biridir. Aksincha, uni o‘zi qiziqmagan va iqtidori namoyon bo‘lmagan kasbga majburan yo‘naltirish bolaga va jamiyatimizga nisbatan adolatsizlikdir. Zero o‘quvchilarni o‘z vaqtida kasbga to‘g‘ri yo‘naltirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
- 2.Pulatova D.T. Innovatsion ta’lim jarayonida bolalarda ekologik tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish. Zamonaviy ta’lim 2016 yil, 9-b.
3. Bo‘latov S.S., Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. – T.: Fan va texnologiya, 2016 yil. 36-b
- 4.www.ziyonet.uz

BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINING TARKIBIY QISMLARI.

Eryigitova Maxfirat Maxmudjon qizi – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi boshlang‘ich ta’lim fani metodisti

Annotatsiya

Ta’lim beruvchi mutaxassislar - ta’lim tizimining eng faol ishtirokchisi. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyaning rivojlanganlik darajasi yuqori darajada bo‘lishi muhim. Mazkur maqolada ayni shu masala yuzasidan to‘plangan nazariy ma’lumotlarga asoslanib, aynan boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lish zaruriyati va kasbiy faoliyatlari mobaynidagi ahamiyati hamda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyati yuzasidan munozara aks etadi.

Аннотация

Педагоги являются наиболее активными участниками системы образования. Педагогу важно иметь высокий уровень развития профессиональной компетентности. В данной статье на основе собранных теоретических данных по данному вопросу речь идет о необходимости владения учителями начальных классов профессиональной компетентностью и ее значении в ходе профессиональной деятельности, а также о структурной профессиональной компетентности учителей начальных классов. отражена суть частей.

Annotation

Educators are the most active participants in the education system. It is important for the teacher to have a high level of professional competence development. In this article, based on the theoretical data collected on this issue, it is the need for primary education teachers to have professional competence and their importance during their professional activities, as well as the structural professional competence of primary education teachers. the discussion on the essence of the parts is reflected

Kalit so‘zlar: ta’lim, ta’lim tizimi, pedagogik mahorat, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, o‘quvchi, zamonaviy maktab.

Ключевые слова: образование, образовательная система, педагогическое мастерство, учитель начальных классов, компетентность, профессиональная компетентность, ученик, современная школа.

Keywords: education, educational system, pedagogical skills, primary education teacher, competence, professional competence, student, modern school.

Mamlakatimizda "o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi" atamasini o‘rganish va undan foydalanish XX asrning 80-90 yillariga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda mahalliy olimlarimiz ushbu ta’lim hodisasi va turli xil kompetensiya tarkibiy qismlarini chuqur kontseptsiyalashga qaratilgan istiqbolli urinishlarni amalga oshirdilar. Hozirgi kunda "o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi" toifasi XXI asr o‘qituvchisiga zamonaviy talablar sharoitida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ta’lim siyosatiga yangi talablar qo‘ymoqda, ular davlat va jamiyatning dolzarb ehtiyojlariga javob berishi kerak. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi 2030-yilgacha bo‘lgan konsepsiyasi, ta’lim tizimida xalqaro tajribada munosib o‘rin egallashida, ta’limning kompetensiya modellariga o‘tish bilan o‘qituvchilarning malakasiga qo‘yiladigan talablar va ularni tayyorlash mazmuni tubdan o‘zgardi. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) O‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa qilib belgilandi. To‘plangan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, har qanday o‘quv dasturini amalga oshirish samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. Pedagogning ishlash mezonini ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu pedagogning kasbiy faoliyatida bir-birini to‘ldirib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Pedagogning asosiy funksiyalari mezonini ta’lim jarayonida uning rolini va vositalarini aniq belgilab berishdan iboratdir. Ular quyidagilar:

- O‘qitish
- Tarbiyalash
- O‘rganish jarayonini nazorat qilish
- Rejalashtirish
- Motivatsiya
- O‘z-o‘zini rivojlantirish
- Innovatsiyalarni joriy etish
- Hamkorlik va muloqot
- O‘qituvchilik modeli

Kompetensiyasini tushunish uchun turli xil nazariy yondashuvlarni taqqoslash asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibini aniqlash mumkin. U quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

pedagogik kompetensiya, ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish, psixologik kompetensiya, mavzu bo‘yicha bilim kompetensiyasi, innovatsion kompetensiya, etik va kasbiy madaniyat kompetensiyasi, tashkiliy va boshqaruv kompetensiyasi, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi. Bugungi kunda “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shunday ekan, ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, pedagogik mahorati yuqori saviyada baholanadigan, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, ta’lim oluvchi bilan muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oqilona hal eta oladigan boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Qonunda e’tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo‘lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart sharoitlar orasida o‘qituvchi kasbiy-metodik kompetentligini ta’lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda psixologiyaning o‘z uslub va qoidalari yetarli bo‘lmaganday. Shunga ko‘ra yosh avlod ta’lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o‘qitish texnologiyalarini ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog‘lik ta’sir ko‘rsatayotganligini o‘rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchidan metodik kompetentlik, ayniqsa, turli xil sharoitlarda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi psixologiyasini to‘g‘ri baholay olish bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yuqori darajada bo‘lishi talab qilinadi.

Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi qismlari quyidagi tarkibiy qismlaridan ibora

1. Pedagogik kompetensiya

O‘qitish metodlari va strategiyalarini bilish - o‘qitish va strategiyalarini bilish fani ta’lim o‘qituvchilari uchun juda muhim texnikadir. Ular ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning bilimlarini yaxshilashga yordam beradi, ba’zi asosli metodlar va strategiyalar, o‘qituvchi uchun bilimlarni taqdim etish, o‘quvchilarni o‘zlashtirganlarini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarga turli rollarni o‘rganish orqali o‘rgatish jarayonini jonlantirish, loyihaviy metod, o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos keladigan ta’lim usullarini belgilash (Differensial o‘qitish), o‘yin orqali o‘qitish, video, audio va boshqa multimedia vosiyalari orqali ta’lim jarayonini boyitish pedagogik kompetensiyaning asosiy tarkiblari sanaladi. Bundan tashqari o‘quvchilardan o‘z fikrlarini va tajribalari bilan bo‘lishishni so‘rash, bu orqali o‘qituvchilar o‘quv jarayonini yaxshilashga erishish mumkin. Bu metodlar va strategiyalar pedagoglarning ta’lim jarayonini yanada samarali

qilishiga yordam beradi va o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

2. Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish.

Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon o‘quvchilarning bilim olishida samaradorlikni tuzatishga yordam beradi, ishonchli ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishni yaxshilaydi. Ta’lim ning maqsadi, ta’lim jarayonining maqsad va vazifalarini aniqlash. O‘quvchilar uchun aniq va o‘lchovli natijalarni qo‘yish. Ushbu o‘quv dasturini yo‘nalishi- o‘quvni ishlab chiqish va uni o‘quv dasturiga moslashtirish, mavzularni ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashdan iboratdir. Eng muhim hisoblanadi, dars rejasini tayyorlash-har bir dars uchun aniq reja, o‘qitish metodlari va resurslarni o‘rganish. Dars jarayonini samarali tashkil etish uchun vaqtni to‘g‘ri taqsimlash. Boshlang‘ich ta’lim da o‘qitish metodi tanlovi O‘quvchilarning yoshiga, mavzuga mos keladigan metodlarni tanlashdan iborat. O‘quv muhitini yaxshilash uchun sinfda munosabat va hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish zarur. Monitoring va amalga oshirish o‘quv jarayonini davom ettirish va o‘quvchilarning bilish vositalari va o‘zlashtirishini yo‘naltirish uchun turli usullar (testlar, jihozlar, shaxsiy intervyular)dan foydalanish. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlash, ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish. Ta’lim jarayonidan olingan olingan tahlilni tahlil qilish va bo‘lsa o‘ni aniqlash kerak. Professional biznes uchun o‘z ustida ishlash va yangi pedagogik narsalarni o‘rganish.. Bu jarayon o‘zaro hamkorlik, ijodkorlik va innovatsiyalarni o‘z ichiga olishi zarur.

3. Psixologik kompetensiya: Bu kompetensiya o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilishdir. Bu o‘qituvchilarning o‘quvchilari bilan o‘zaro aloqalariga yordam beradi. Samarali muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan boshqarish, ochiq va samimiy muloqot ularning o‘z fikrlarini erkin bildirishga yordam beradi. O‘zaro ishonch muhitini nazorat qilish, aktiv tinglash, o‘quvchilarning fikrlarini, savollarini va muammolarni diqqat bilan tinglash, o‘quvchilarga savollar berish orqali fikrlashlarini rag‘batlantirish, muhokama olib borish va turli nuqtai nazarlarni inobatga olish, o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini va yutuqlarini e’tirof etish, salbiy holatlarni kuzatishda mustahkamlashni saqlash kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Psixologik kompetensiyada o‘quvchilarga shaxsiy ko‘rsatish, ularni qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarning o‘zaro fikr almashishlarini rag‘batlantirish va ularning bir-birini qo‘llab-quvvatlashga undash, qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish, ota-onalar bilan hamkorlikda o‘quvchilarning rivojlanishiga erishish, Samarali muloqot orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlash va dasturiy bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Bu o‘zaro ishonch va hurmatni rivojlantirishga ham yordam beradi.

4. Mavzu bo‘yicha bilim – O‘qitilayotgan fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish o‘quvni va uning mazmunini yaxshi bilish, boshqa mavzular va fanlar bilan integratsiya qilish, mavzuni afzalliklarini to‘g‘ri aniqlay olish kabi ko‘nikmalarini shakllantiruvchi kompetensiya hisoblanadi.

5. Innovatsion kompetensiya - Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni bilish Ta’lim da innovatsion jarayonlarni amalga oshirish.

6. Etik va kasbiy madaniyat-O‘qituvchi sifatida etika va professional standartlarga amal qilish va o‘z kasbiga bo‘lgan mas’uliyatni his qilish.

6. Tashkiliy va boshqaruv kompetensiyasi-Ta’lim jarayonida tashkilotchilik va boshqaruvlari hamda o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida muloqot o‘rnatish.

7. O‘z-o‘zini rivojlantirish-professional o‘shish va o‘z bilimlarini yangilash, o‘z ustida ishlash va yangi metodlarni o‘rganishga tayyorlik ko‘rish.

Bularning barchasi ishlab chiqarish ta’lim fani o‘qituvchilarining samarali faoliyati uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni tashkil etadi. Ularning har biri ta’lim jarayoniga ta’sir ko‘rsatish va o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baklanova, G. A. (2009). The structure of primary school teachers’ professional information competence.
2. “O‘ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr | scientists.uz 842
3. Kalayci, S. & Humiston, K. R.(2015). Students’ Attitudes Towards Collaborative Tools In A Virtual Learning Environment. Educational Process: International Journal,
4. (1-5. 71-86. Khutorskoy, A. V. (2002). Key competences and educational standard.
5. Dilshoda Jalilova Toshkent shahar Yangihayot tumanidagi 330-sonli umumta’lim maktabi o‘qituvchisi Nizomiy nomidagi TDPU “Ta’lim muassasalarini boshqaris”.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA IJODIY TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH

Jabbarova Zuhra Omondullayevna – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola innovatsion yondashuvlar asosida o‘quv mashg‘ulotlari, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali boshlang‘ich sinf

o‘quvchilarida ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish, mashg‘ulot o‘tkazish tizimini tashkil etish keng yoritib berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: o‘quv mashg‘uloti, innovatsion yondashuv, tasavvur, ijodiy tasavvur, tizim, mashg‘ulot o‘tkazish tizimi.

Eng yoqimli narsa — noma’lum cho‘qqilarni egallash,
bu go‘zallik va ilm — fandagi yagona haqiqat
A. Eynshteyn.

Jamiyatning ma’naviy salomatligini ta’minlashda ta’lim – tarbiya o‘chog‘i bo‘lgan maktab muhim rol o‘ynaydi. Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir. Har bir ustoz, har bir pedagog yosh avlodni ko‘p asrlik milliy madaniyatimiz va tariximiz, shuningdek zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida tarbiyalash ishiga o‘z hissasini qo‘shishi, samarali maktab poydevorini qurishi, mustahkamlashi lozim. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tadbiiq eta olishi, ta’limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlashga o‘rgatishda innovatsion ta’lim texnologiyasidan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang‘ich ta’lim oldiga qo‘yilgan muhim talablardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni oson va qiziqib o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o‘qituvchining ham professional o‘sishiga, ham ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi. Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatish, uzluksiz o‘rganish uchun ma’qul muhit shart-sharoit, yaratishdan iborat. Zero o‘qituvchining o‘zi ham doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, pedagogik mahoratni uzluksiz oshirib borishi, jahon va milliy pedagogik meros hamda ilm-fan yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda ta’lim jarayonini takomillashtirib borishi lozim[1].

Boshlang‘ich sinf darslarida innovatsion yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish - bu o‘quvchilarni ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishga, faolligiga, erkin va mustaqil fikrlashga undaydi. Innovatsion yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish orqali o‘quvchilarda bilim olish bu - qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi.

Har bir darsda o‘qituvchi innovatsion yondashuvlar asosida bola qobiliyati uchqunlarini alangalata oladigan kichik ixtiroday o‘tishi zarur. Atrofdagi olam va o‘zini anglashdagi kichik yutuqlar ham butun o‘quv faoliyatini g‘aroyib va

maftunkor qiladi. Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o‘zini ko‘rsata olishi, nimalarga qodirligini isbotlay olishi juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyatlar yaratish zarur. Sinfdan «maqtanchoqlar kuni»ni e‘lon qilib: unda har bir bola o‘z ijodiy ko‘nikmalarini va yutuqlarini ko‘rsata oladi. Tavsiya etilgan ish uslublarini amaliyotda qo‘llagan ota – onalar va bolalar ularning foydali tomonlarini sinfdan tashqari o‘tkazilgan tadbirlarda va ota – onalar majlislarida o‘z tasdig‘ini topishga yordam beradi[2, 136-b.].

1-sinfdagi mashg‘ulotlar innovatsion yondashuvlar asosida tasavvur yordamida sirli bilimlar mamlakatiga tuganmas sayoxat tarzida tashkil qilish mumkin. O‘quvchilar dastlabki hayotot usullarini o‘rganishadi va bularning asosida qiziq voqealar, hikoyalar, topishmoqlar, she‘r va ertaklar yuzaga keladi. Bolalar ijodiyoti o‘quv jarayoniga bog‘liq ravishda borgan sari boshqariluvchan bo‘lib boraveradi. O‘quv yilining oxiriga kelib o‘quvchilar mustaqil ravishda hikoya va ertak tuzish usullarini yetarli darajada o‘zlashtirgan bo‘ladi, hamda tizimlarning ichki tuzilishi bilan tanishib, ularning bo‘limlari va nima uchun xizmat qilishini o‘rganish uchun dastlabki qadamlarni qo‘ygan bo‘lishadi.

2-sinfdan innovatsion yondashuvlar asosida o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlarida o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlariga tayanib o‘quv faoliyati ko‘nikmalarini mustaqil bajara oladilar. O‘quv yili so‘ngida o‘quvchilar dars mavzusi bilan bog‘liq tayanch so‘z va tushunchalar asosida kichik o‘quv hikoya, voqea, ertaklarni tuza oladigan bo‘lishadi. Bu davrda bolalar mustaqil ravishda tizimlarni topish, ularning qanday bo‘limlardan tuzilganini, qanday xususiyatlarga va belgilariga ega ekanligini, nima uchun xizmat qiladi va boshqa tizimlar orasidagi bog‘liqligini anglab yetishi zarur.

3-sinfdan innovatsion yondashuvlar asosida o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘quvchilarda faoliyat muhiti turli-tuman bo‘ladi. Bolalar darslikdagi mavzular asosida tuzilgan yangi o‘quv hikoyasini yoki turli fanlarga bog‘liq ertaklardan yangi «Ertaklar kitobi» shakllanadi. Tizimlarni bo‘limlarga bo‘lish va tizimlararo bog‘liqlik ko‘nikmasi avtomatik darajaga yetkaziladi. 3-sinf o‘quvchilari faoliyatining asosiy yo‘nalishi kartotekalar yig‘ishni izchilligini bila olishlaridir. O‘qituvchi o‘quvchilarga har kungi axborot oqimidan o‘z faoliyatlariga foydali bo‘lgan ma‘lumotni tanlab olishdek sermashaqqat ishni o‘rgatish, 3-sinf o‘quvchilarining qiziqishlari turli-tuman bo‘lib berayotgan savollarga javoblari esa turli soxalardan bo‘lishi mumkin.

4-sinfdan o‘qituvchilar tomonidan innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etgan o‘quv mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘quvchilar oson va erkin holda turli o‘quv hikoyalari va ertaklarini tuza oladilar. Ular orasida maktab dasturiga mos «Ertaklar kitobi» tuziladi. O‘quvchi tizim bo‘limlarini saralash va xususiyatlarini erkin holda amalga oshiradi. Lekin 4-sinfdan asosiy ish tadqiqotchilik faoliyati va kartoteka tuzishga qaratilgan bo‘ladi.

Innovation yondashuvlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish dasturi bo‘yicha axborot bloklari va dars qurilmasida malaka va ko‘nikmalarni murakkab mavzularni tahlil qilishdan avval shakllantirish lozimligini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun dasturda u yoki bu bilimlarning asta-sekin o‘zlashtirishi, malaka, ko‘nikma va kompetensiyalarni uzluksiz egallash natijasida o‘quvchilar tayyorgarlik darajasi va yuklamalarning kengaytirilishiga erishiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarda ijodiy tasavvurlarni rivojlantirishda darsi qaysi kunda va qaysi mavzuga bag‘ishlanishini bilishi, ana shu mashg‘ulotni shakllantirishining maksimal darajadagi to‘g‘ri qoidalarning yig‘indisiga ega bo‘lishi shart.

Quyida mashg‘ulot sintezining asosiy qoidalari keltirilgan.

✓ o‘rganishi zarur bo‘lgan ijodiy tasavvurni rivojlantirishning uslub, usul va qoidalari;

✓ har bir bosqichning umumiy tasvir tizimi va o‘qitishning mazmunan tuzish usullari;

✓ mashg‘ulotlar o‘tkazish tizimi va dars shakli bo‘lib hisoblanadi.

Mashg‘ulot o‘tkazish tizimi

❖ assosiativ;

❖ obrazli va sistemali fikrlashni rivojlantirish;

❖ konkret ijodiy maxsulotlar yaratish bo‘yicha ish (topishmoqlar, maqollar, ertaklar, hikoyalar, rasmlar, sahna ko‘rinishlari va tabiiy ashyolardan tayyorlangan buyumlar);

❖ axborot bilan ishlash (kartoteka).

Innovation yondashuvlar asosida bolalar o‘z tushunchasi bo‘yicha fikrlashni qanday shakllantirish kerak? Innovation yondashuvlar asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida bolalar ijodiy faoliyati natijasida egallangan malakalari bo‘yicha shubhasiz turli tahlillar o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Ruhshunos ruhiy tahlil yoki bolalar ijodining ruhiyatini o‘rganishning muhim manbalarini topadi. Tilshunos bolalar folklorini o‘rganish uchun boy manbaga ega bo‘ladi. Sotsiolog madaniy — etnik muhit va bolalar ertaklari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadi. Bu qaydnomani uzoq davom ettirish mumkin. O‘qituvchi bolalar uchun ertak, topishmoq, maqollarning tahlilini uzluksiz va ilmiy fikrlashni shakllantira olishiga qiziqish uyg‘otadi.

Tizim - o‘qituvchi bolalar hikoyasidan va har bir ertakdan tizim tushunchasini tushuntirish uchun misol bo‘la oladigan hodisa yoki narsani topa olishi qiyin bo‘lmaydi (tizim yaxlit, bo‘limlardan tuzilgan).

Buni qanday bajarish kerak?

1-qadam. Bolalar hikoyasidan oddiy va tushunarli bo‘lgan biror narsani tanlang. Bu narsa tizim nimaligini tushuntirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan: bir hikoyada sehrli ruchka haqida so‘z yuritilgan, bu ruchka xatolarni

o‘zi tuzatar va o‘quvchi zerikmasligi uchun kulgili rasmlar chizar ekan. Bu vaziyatda ruchka — ana shu oddiy va tushunarli narsadir.

2-qadam. O‘quvchilardan stolning ustida turgan ruchkalarni bo‘laklarga ajratish so‘raladi. O‘quvchilarda necha qismlar paydo bo‘lganiga ahamiyat bering. (nomlarini ayting).

3-qadam. Ruchka qismlaridan foydalanib, 2-3 so‘z yozishni taklif qiling. Bu oddiy va oson mashq sizga o‘quvchilarni «har bir qism alohida bo‘lganida so‘zlardagi harflarni chiroyli yoza olmaydi» degan xulosa chiqarishga olib keladi.

4- qadam. O‘quvchilarni ruchka qismlarini birlashtirib yana o‘sha 2-3 ta so‘zni yozish so‘raladi. O‘tkazilgan ish o‘qituvchiga aniq va oddiy ravishda, ruchka — bu tizim, yaxlitdir. Tizim yaxlit ishlaganda bajara oladigan ishini alohida qismlar bajara olmaydi. Yuqoridagi misol o‘quvchilarda tizimlar haqida ilk tasavvurni shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganga, barkamol shaxsni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. Innovatsion yondashuvlar asosida o‘quv mashg‘ulotlari, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish asosida ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Yo‘ldoshev, S.Hasanov. Pedagogik texnologiyalar. (o‘quv qo‘llanma) T.:Iqtisodmoliya» 2009.

2. R.A.Mavlyanova, N.X.Raxmankulova Boshlang‘ich ta’limda innovasiya (metodik qo‘llanma) T.: 2007 yil 136-141-betlar

3. www.Google.uz

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK VA AQLIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Mirzabekova Nargiza Qoraqulovna – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi metodik bo‘lim boshlang‘ich ta’lim metodisti

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga, mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatish borasida fikr yuritiladi va tahlil qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirishga qaratilgan 4K modeli haqida fikr yuritiladi .

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi, mustaqil fikr, 4K modeli, tadqiqot, ta’lim tarbiya, rivojlanish, ijodkorlik, aqliy salohiyat, xalqaro baholash, nutqiy muloqot.

Абстрактный. В данной статье рассматривается и анализируется, как научить учащихся начальных классов мыслить самостоятельно. Обсуждается модель 4К, направленная на развитие навыков самостоятельного мышления учащихся младших классов.

Ключевые слова: Начальное образование, ученик, независимое мышление, модель 4К, исследования, образование, развитие, творчество, умственные способности, инструмент, общение, речевое общение.

Abstract. This article discusses and analyzes the issue of teaching elementary school students to think independently and reason independently. It discusses the 4K model aimed at developing independent thinking skills in elementary school students.

Keywords: Primary education, student, independent thought, 4K model, research, education, development, creativity, intellectual potential, international assessment, verbal communication.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishdagi sa’y harakatlarning biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, pedagogik mahorat, ko‘nikma, malaka va madaniyatga ega bo‘lishlarini talab etmoqda. Bugungi kunda respublikamizda ta’lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o‘qitishni rivojlantirish, o‘quvchi yoshlarning hayotiy ko‘nikma va malakalarini oshirish davlat siyosatining ta’lim sohasidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida mustaqil fikrlay oladigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan yosh avlodga sifatli ta’lim-tarbiya berish bugungi kun pedagoglarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Dunyoda yuzdan ortiq davlat o‘z mamlakatida joriy etilgan ta’lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. O‘zbekiston boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimi 2030-yilga borib aynan PISA xalqaro baholash dasturida birinchi o‘ttiztalikka kirishi uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida 2030-yilga borib PISA o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish bo‘yicha vazifalar belgilangan. PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida A. Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan “Stesting” loyihasi doirasida 100 dan ortiq trenajyor video yaratildi va “Stesting” platformasi ishga tushirildi. Bu platforma o‘quvchilarning

xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o‘z ichiga olgan. Unga 1500 tadan ortiq test joylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmonida xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishi, 4K modeli asosida o‘qitishni tashkil etilishiga o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, mahorati va bilimdonligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni darslarda qo‘llay olishi, o‘quvchiga puxta bilim berishi, erkin, ijodiy fikrlash ko‘nikma, malakalarini hosil qila olishi zamon talablaridan biri ekanligi ko‘zda tutilgan.

Asosiy qism

Ta’lim bu shaxsning intellektual, ma’naviy, jismoniy va madaniy rivojlanishining asosi, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, iqtisodiy farovonligi hamda jamiyat va davlat rivojlanishining umumiy qadriyatlar va madaniyat bilan birlashtirilgan kalitidir. Buyuk alloma Albert Eynshteyn ta’kidlaganidek :”Ta’lim – bu shunchalik o‘rganish emas, balki odamlarni fikrlashga o‘rgatishdir.” Boshlang‘ich sinflarda bolaning bilimga qiziqishiga dastlabki qadam qo‘yiladi. Ya’ni, shu davrdan boshlab bolani darsga mehr qo‘yishi yoki qiziqishini so‘nishi birinchi navbatda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham har bir pedagog bu darsda bola psixologiyasini yaxshi o‘rgangan holda dars jarayonini tashkil etishi, o‘quvchilarini fanga qiziqitira olishi juda muhim va mas’uliyatli vazifalar biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va zamonaviy bilimlardan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining fikri mustaqilligi - tashabbuskorligi insonning o‘z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo‘yishi, ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan usul hamda vositalarni qo‘llashida namoyon bo‘ladi. Bu faoliyatning pishiqligi vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo‘l keladigan usul va vositalarni tezkorlik bilan izlab topish, ulami farqlashda ko‘rinadi. Aqliy faoliyat tanqidiyligi esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Haqiqatdan ham inson fikri mustaqilligi bo‘lgandagina o‘z oldiga ulkan maqsadlar qo‘ya oladi va shu maqsad yo‘lida qadam-baqadam odimlashdan to‘xtamaydi. O‘z maqsadi yo‘lidagi qiyinchiliklarni ham fikr mustaqilligi va teranligi tufayligina qiynalmasdan tez va oson yengib keta oladi. Aynan biz ham

bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim tarbiyasida ham ana shunday murakkab vaziyatlardan uddaburonlik va o‘zining fikr mustaqilligi bilan yo‘l topib keta oladigan shaxslarni tarbiyalash oliy maqsadimizdir. Insonda tafakkur faqatgina ta’lim-tarbiya jarayonida shakllantirilmaydi, faqatgina ta’lim-tarbiya institutlarida fikrlashga o‘rgatilmaydi. U har qaysi ruhan sog‘lom bo‘lgan insonga hos bo‘lgan aqliy-jismoniy hosila hisoblanadi. Bu hosila har bir kishida o‘ziga xos tarzda o‘z intellektual imkoniyatlari darajasida mavjud bo‘ladi. Ma’lum bir davrda olib borilgan ta’lim-tarbiya jarayonlarida tafakkurning shakllari, ma’lum sifatleri, darajalari, ma’lum yo‘nalishlarni belgilab olish, sayqallash va yanada rivojlantirib borish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi maktabga maktabgacha ta’lim va tarbiya guruhidan maktabga ilk qadam qo‘ygan bola hisoblanadi. 6 yoshdan 10 yoshgacha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda o‘qish uchun zarur bo‘lgan vaqt davomida bola u uchun yangi faoliyat – ta’lim olishni rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ijodkorlik va aqliy salohiyatini rivojlantiruvchi maktab yoshi – axloqiy g‘oyalar va qoidalarni shakllantirishning klassik davri hisoblanadi. Albatta, erta bolalik ham bolaning axloqiy dunyosiga katta hissa qo‘shadi, ammo amal qilish kerak bo‘lgan “qoidalar” va “qonunlar”ning izi, “me’yor”, “burch” g‘oyalari aynan kichik maktab yoshi davrida shakllana boshlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga hayotiy ko‘nikmalarga o‘rgatish 4K modeli, ya’ni “Kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical thinking); Kollaboratsiya (Team Work) (jamoaviy ishlash); Kreativlik (Creativity – ijodkorlik); Kommunikatsiya (Communicative skills – muloqot ko‘nikmalari)”ni shakllantiruvchi yangi avlod darsliklaridan foydalanilmoqda. Buning uchun o‘qituvchi tomonidan dars jarayonini oqilona tashkil qilinishi, o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, tadqiqot, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bunday interfaol metodlarni qo‘llashi pedagogik mahoratiga bog‘liqdir. Bu esa o‘z-o‘zidan ta’lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat olib boradigan o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi kasbiy sifatlar va amaliy ish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda ularda kreativlikni ya’ni ijodkorlikni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining oldida ta’lim mazmunini sifatli tashkil etishi uchun mahurat va kasbiy kompetentlikni talab etiladi.

Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonlari chuqurlashayotgan sharoitda o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini

rivojlantirish orqali kasbiy kompetentligini takomillashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda. Shu bois YUNESKOning strategik loyihalarida belgilangan meʼyorlar va xalqaro standartlarga asoslanib, 3D oʻlchamdagi raqamli texnologiyalarni qoʻllash, AKT bilan samarali ishlash koʻnikmalari va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan oʻquv seminarlarini tashkil etilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyotida bugungi kunda oʻqituvchilarning kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda grafik bilimlar, obyektlarning funksional va konstruktiv oʻziga xosligini bilishga asoslangan koʻnikma va malakalar (kompetensiyalar)ni samarali qoʻllash, kasbiy yoʻnalganlik va faoliyat tajribasi, axborot texnologiyalari boʻyicha erkin ijodkorlik muhitini yaratish, muvaffaqiyatli kasbiy-pedagogik faoliyat, uning ahamiyati va muayyan texnologik masalalarga munosabat, korrekktiv mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega.

Xulosa

Yurtimizda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda oʻqitishning ilgʻor uslublarini joriy etish yoʻli bilan oʻsib kelayotgan yosh avlodni XXI asr koʻnikmalariga ega boʻlishi, chet tillarini oʻqishi, shu tillarda erkin soʻzlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng koʻlamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari maʼlum bir yangi maʼlumotlarni, bilimlarni tez va oson egallab olishlari uchun ularga taʼlimiy faoliyatlar oʻqituvchilar tomonidan toʻgʻri va aynan, bolalarning yosh, individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Shundagina bolaning ijodkorlik qobiliyati, aqliy salohiyati, faolligi va hayotiy hodisalarga boʻlgan mustaqil fikriy faolligi oshadi. Bugungi kunda pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish birinchi navbatda bolaning imkoniyatlaridan toʻgʻri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab boʻladigan ortiqcha zoʻrayish boʻlmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Toʻgʻri tashkil etilgan dars jarayonidagina toʻlaqonli aqliy rivojlanish roʻy beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni koʻzlab, tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda ijodkorlik va aqliy salohiyatini mantiqiy nutqiy fikrlash rivojlana boshlaydi. Fikrlashning mazkur shaklida narsa-hodisalar oʻrtasidagi mavjud boʻlgan aloqalarni yoʻlga qoʻyishda namoyon boʻladi. Fikrlash jarayoning barcha shakllarida asosiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirish bosqichma bosqich amalga oshadi. Bolalarni mustaqil fikrlashga oʻrgatish kattalar tomonidan hal etilishi lozim boʻlgan vazifa hisoblanadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirishga oʻrgatish hamda oʻzining

shaxsiy fikrini erkin bildirishga undash lozim. O‘quvchilarga vazifa sifatida ularning bilish faolligini rag‘batlantiruvchi, lohiya ishlarini amalga oshiruvchi, tadqiqotchilik ishlari bajariladigan mashg‘ulotlar berish orqali amalga oshiriladi. Bolalarning fikrlashini shakllantirishda narsa buyumlar bilan tanishtirishga doir harakatlar juda muhim. Amaliy harakatlar asosida bola obyektlarni qiyoslash, tahlil etish, taqqoslash, guruhlashga o‘rganadi. Ana shu tarzda bolada fikrlashning ilk ko‘rgazmali-amaliy shakli tarkib topadi. Astasekin bolada nafaqat bevosita narsa-buyumlarni idrok etish orqali, balki timsollar asosida fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ya’ni ko‘rgazmali-obrazli fikrlash shakllanadi. Haqiqatdan ham boshlang‘ich sinf yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashga, kreativ yondoshishda amaliy harakatlarning o‘rni beqiyosdir. Bolada amaliy ko‘nikmalarning shakllanib, ortib borishi atrofdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarini chuqur anglab boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF 5712 sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida” gi 2018-yil 8-dekabrda 997 -sonli qarori.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ,metodistlar va soha mutaxassisarlari uchun metodik qo‘llanma) . Ta’lim instituti huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. Toshkent 2019-yil. 92b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”gi PF-60-son Farmoni.
5. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – T.: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 592-b. (412- b).
6. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” R.Ishmuhammedov.M.Yo‘ldashev, 2013 yil
7. Nizomiddin Mahmudov “O‘qituvchi nutqi madaniyati” Toshkent -2007.179-b.
8. “Boshlang‘ich sinflarda innovatsion texnologilarning samarali usullari” – B.X.Jalilov,R.Soipova «Sharq» nashriyotmatbaa kontserni, 1997.
9. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishga tayyorlash” S.X.Mamatqulova.2017
10. Internet tarmoqlari

IJODKORLIK QOBILIYATINI BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA RIVOJLANTIRISH

Nuriddin Yahyoqulovich Qurbonov – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari muhokama qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari tarkibiy qismlari yoritiladi. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash va ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish ko‘nikmalari ta’kidlangan.

Аннотации

В статье рассматриваются пути развития творческих способностей учащихся начальной школы. Начальный класс делится на компоненты творческих способностей учащихся. Выделены навыки развития творческого мышления и творческого воображения учащихся.

Annotation

The article examines ways of developing creative abilities of elementary school students. Primary class is divided into components of students’ creative abilities. The skills of developing students’ creative thinking and creative imagination are highlighted.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, qobiliyat, boshlang‘ich maktab o‘quvchilari, fikrlash, tasavvur, usul.

Ключевые слова: творчество, способность, младшие школьники, мысль, воображение, метод.

Key words: creativity, ability, elementary school students, thought, imagination, method.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar tufayli o‘qituvchilar ijodiy g‘oyalarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ldilar. O‘quvchi faoliyatida ijodkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘quv jarayoniga ijodiy motivatsiyani shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi ilmiy bilimlarning turli sohaları - falsafa, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik va boshqa fanlarning e’tiborini tortadi. Bu jamiyatning yangi muammolarni qo‘yishga, noaniqlik sharoitida yuqori sifatli yechimlarni topishga, ko‘p tanlov qilishga va jamiyat tomonidan to‘plangan bilimlarni doimiy ravishda takomillashtirishga qodir bo‘lgan shaxslarga ehtiyoj tobora ortib borayotganligi bilan bog‘liq. O‘quvchilarning ijodiy iste’dodini

rivojlantirish hayotning ta’lim oldiga qo‘yayotgan asosiy talablaridan biridir. Jamiyatning barcha sohalarida o‘zgarishlar misli ko‘rilmagan tezlikda sodir bo‘ladi. Axborot hajmi kundan kunga ortib bormoqda. Bilim insonning undan foydalanishga vaqti bo‘lganidan ko‘ra tezroq eskiradi. Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli yashash va harakat qilish uchun uning o‘ziga xosligini saqlab, doimo o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish kerak.

Bola maktabga borgach, u turli tadbirlarning sub’ektiga aylanadi, u sub’ekt sifatida o‘zini o‘zi anglash sohasini kengaytirish zaruratini anglaydi. Biroq, uning o‘zini o‘zi o‘zgartirishga ehtiyoji va qobiliyati yo‘q. Har ikkisi ham maktabda o‘qish jarayonida paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi mumkin.

Shunday qilib, o‘quvchilar ijodiy qobiliyatni rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Bu an’anaviy ta’limni saqlab qolgan holda, har bir o‘quvchining noyob ijodiy salohiyatini rivojlantirishga imkon beradigan maxsus ta’lim texnologiyasini talab qiladi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq yondashuv bilan ta’minlanadi.

Mavjud ijodiy tajribaga asoslanib, ta’limning kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil etish vositalarini aniqlash, mavjud ijodiy faoliyat turlarini rivojlantirishga hissa qo‘shish, sub’ektiv ijodiy to‘planishini ta’minlash uchun ob’ektiv zarurligini ta’kidlash kerak. Bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilashning asosiy tamoyillaridan biri o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatga qiziqish va moyilliklarni hisobga olgan holda, ularning ta’limini individuallashtirishni o‘z ichiga olgan shaxsiy yo‘nalishga aylanmoqda.

Zamonaviy ta’lim strategiyasi barcha o‘quvchilarga o‘z iste’dodlarini va barcha ijodiy salohiyatlarini namoyon etishlariga imkon berishdir, bu ularning shaxsiy rejalarini amalga oshirish imkoniyatini nazarda tutadi. Ushbu holat o‘qituvchilarning o‘quvchilarda shaxsiy imkoniyatlariga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadigan milliy maktab rivojlanishining tendentsiyalariga mos keladi. Bunda shaxsni rivojlantirish maqsadlari birinchi o‘ringa chiqariladi: fan, bilim va ko‘nikmalari ularga erishish vositasi sifatida qaraladi.

O‘qituvchining o‘quv jarayonini odatiy talqinlarini qayta ko‘rib chiqish, asosan, bilimlarni uzatish, ko‘nikmalarni shakllantirish va ijodiy tajribani, kichik yoshdagi o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishga, ijodiy faoliyatning har xil turlarini birlikda ko‘rib chiqishga imkon beradi.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari ostida o‘quvchining yangi ta’lim mahsulotlarini yaratishga qaratilgan faoliyat va harakatlarni bajarishdagi murakkab imkoniyatlari tushuniladi. Ijodkorlikni mustaqil omil sifatida belgilovchi olimlarning fikrlariga amal qilib, uning rivojlanishi maktab

o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini o‘rgatish natijasidir deb qaraladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini quyidagi tarkibiy qismlariga ajratish mumkin:

- ijodiy fikrlash;
- ijodiy tasavvur;
- ijodiy faoliyatni tashkil etish usullarini qo‘llash.

O‘quvchilarning ijodiy fikrlash va ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish uchun quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirish kerak:

- ob’ektlarni, vaziyatlarni, hodisalarni turli asoslarga ko‘ra tasniflash;
- aloqalarni ko‘rish va tizimlar orasidagi yangi aloqalarni aniqlash;
- kelajakka oid taxminlar qilish;
- fazoviy ob’ektlarni ifodalash.

Bu ko‘nikmalar tizimli dialektik fikrlash, mahsuldor ixtiyoriy fazoviy tasavvur qobiliyatining asosini tashkil qiladi. Psixologlar va o‘qituvchilar ijodiy fikrlashni, kognitiv faoliyatni sub’ektiv tajribani shakllantirish uchun ta’lim faoliyatining muhimligini ta’kidlaydilar.

Har qanday faoliyat, shu jumladan ijodiy faoliyat, muayyan vazifalarni bajarish sifatida ifodalanishi mumkin. I.Ye.Ilin ijodiy vazifalarni “...o‘quvchilardan ijodiy faoliyatni talab qiladigan vazifalar, bunda o‘quvchining o‘zi hal qilish yo‘lini topishi, bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llashi, sub’ektiv yangi narsalarni yaratishi kerak” deb ta’riflaydi[1]. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish samaradorligi ko‘p jihatdan vazifa tuzilgan materialga bog‘liq. Boshlang‘ich sinf darsliklari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ulardagi ijodiy topshiriqlar asosan insho, taqdimot, chizma, hunarmandchilik kabilardir. Vazifalarning bir qismi o‘quvchilarning intuitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan, bir nechta javoblarni topish. Taklif etilayotgan vazifalar kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy faoliyatida asosan intuitiv tartiblarga asoslangan usullardan (masalan, variantlarni sanab o‘tish usuli, morfologik tahlil, analogiya va boshqalar) foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun evristik usullardan foydalanishni algoritmik ijodiy usullardan foydalanish bilan birlashtirish kerak.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki ijodiy vazifalarga qo‘yiladigan quyidagi talablarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ochiqlik (muammoli vaziyat yoki qarama-qarshilik mazmuni);
- shartlarning tanlangan ijod usullariga muvofiqligi;
- turli yechimlar imkoniyati;
- hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olish;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Ijodiy vazifalar tizimi maqsad, mazmun, faoliyat va natija komponentlarini o‘z ichiga oladi.

Tizimni shakllantiruvchi omil - bu o‘quvchining shaxsiyati: uning qobiliyati, ehtiyoji, motivi, maqsadlari va boshqa individual psixologik xususiyatlari, sub’ektiv ijodiy tajribasi boshlang‘ch sinf o‘quvchisining o‘zi ijodiy faoliyatiga alohida e’tibor beriladi. Ijodiy faoliyat mazmuni uning ikki ko‘rinishiga - tashqi va ichki ko‘rinishga taalluqlidir. Ta’limning tashqi mazmuni ta’lim muhiti bilan tavsiflanadi, ichki mazmun - bu shaxsning o‘zi, uning faoliyati natijasida o‘quvchining shaxsiy tajribasi asosida yaratilgan.

Ijodiy vazifalar tizimi uchun tarkibni tanlashda ikkita omilni hisobga olinadi:

- kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliyati asosan jamiyat tomonidan hal qilingan muammolar bo‘yicha amalga oshiriladi;
- boshlang‘ich sinfda o‘tiladigan fanlar mazmunining ijodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda.

Tarkibni bilish, yaratish, o‘zgartirish, ob’ektlar, vaziyatlar, hodisalardan yangi sifatda foydalanishga qaratilgan mavzuli vazifalar guruhlarini taqdim etiladi. Tanlangan guruhlarining har biri o‘quvchilar ijodiy faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, o‘z maqsadi, mazmuniga ega, muayyan usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi, muayyan funksiyalarni bajaradi. Shunday qilib, har bir topshiriq guruhi o‘quvchining sub’ektiv ijodiy tajribasini to‘plashining zaruriy shartidir.

Ijodiy vazifalar quyidagi mezonlarga ko‘ra farqlanadi:

- ulardagi muammoli vaziyatlarning murakkabligi;
- ularni hal qilish uchun zarur bo‘lgan aqliy jarayonlarning murakkabligi;
- qarama-qarshiliklarni ifodalash shakllari (aniq, yashirin)[2].

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda ijodini ro‘yobga chiqarish va uning iqtidorini rivojlantirish uchun o‘qituvchilar uning hissiy o‘zini namoyon qilishiga hissa qo‘shishi kerak. Buning uchun o‘quvchiga turli xil hissiy holatlarda yashaydigan, anglaydigan va ifoda etadigan sharoitlarni yaratish kerak.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarning yoshi, qiziqishi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ильин Е.И. Психология творчества креативности одаренности. Мастера психологии. - СПб: «Питер», 2009. -С. 434.

2. Шарипов Ш.С. Касб-хунар таълими тизимида ўқувчилар ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришнинг узлуксизлиги. Монография – Т.: «Фан», 2005. –131-б.

3. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/about/editorialTeam>

YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI RIVOJLANAYOTGAN TENGDOSHLARI BILAN TENG RAVISHDA TA’LIM JARAYONIGA KIRITISH ZARURATI

M.A Tilakova – Jizzax viloyat Pedagoglarni Yangi Metodikalarga o‘rgatish Milliy Markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasini mudiri p.f.d(PhD)

M.Xudoynazarova – Jizzax viloyat Pedagoglarni Yangi Metodikalarga o‘rgatish Milliy Markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasini o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv ta’lim orqali imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim-tarbiya berishning pedagogik-psixologik jihatlari haqida to‘xtalangan bo‘lib, intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish borasidagi amlarga oshiriladigan vazifalar hamda bugungi kunda ta’lim jarayonlari va inklyuziv ta’limga berilayotgan e’tibor haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’limni o‘rganish pedagogika fanida yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi, milliy tarbiya durdonalaridan unumli foydalanish, sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalarning manaviy barkamol bo‘lib tarbiya toptirish, individual munosabat – o‘quvchiga ta’sir etish yo‘li.

Аннотация: В статье затронуты педагогико-психологические аспекты воспитания детей с ограниченными возможностями посредством инклюзивного образования, представлены задачи по ускорению интеллектуального развития, подготовке конкурентоспособных кадров, эффективной организации научной и инновационной деятельности, а также информация об образовательных процессах и уделяемом сегодня внимании инклюзивному образованию.

Ключевые слова: изучение инклюзивного образования является одной из новых, наиболее актуальных проблем в педагогической науке., эффективное использование национальных шедевров воспитания, воспитание здоровых и малообеспеченных детей как нравственно совершенных, индивидуальное отношение – способ воздействия на воспитанника.

Annotatsion: The article focuses on the pedagogical and psychological aspects of education for children with disabilities through inclusive education, provides information on the tasks carried out to the aamla on accelerating intellectual development, training of competitive personnel, effective organization of scientific and innovative activities, and the focus on educational processes and inclusive education today.

Keywords: the study of Inclusive Education is one of the New, most pressing problems in pedagogical science, the effective use of masterpieces of National Education, the upbringing of healthy and disadvantaged children as manic perfection, an individual attitude – the way to influence the student.

Ko‘p yillar davomida nogiron bolalarni o‘qitish bolalarda rivojlanish buzilishlarini o‘qitish va tuzatish uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo‘lgan maxsus (tuzatish) maktablarida amalga oshirilib kelinmoqdaki, bunday maktablarda ishlaydigan o‘qituvchilar maxsus (defektologik) ma’lumotga ega edilar. Bunday vaziyatda umumiy ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilari ushbu toifadagi o‘quvchilar bilan ishlash uchun o‘zlarining pedagogik tajribalarini oshirishlari shart emas edi. O‘qituvchilarning kasbiy standarti(2024) joriy etilishi barcha pedagogik xodimlarni nogiron bolalarni inklyuziv ta’lim sohasida maxsus vakolatlarga ega bo‘lishga majbur qiladi - har xil turdagi nogironligi bo‘lgan bolalarning psixofizik rivojlanishining xususiyatlarini, alohida sharoitlar va yondashuvlarni bilish, ularni o‘qitishga, o‘quv materialini nogiron bolalar va me’yoriy rivojlangan o‘quvchilarning idrokini hisobga olgan holda moslashtirishni bilish, boshqarishni bilish ularning ta’lim jarayonidagi o‘zaro hamkorligi, psixologik-pedagogik yordam bo‘yicha mutaxassislar bilan birgalikda alohida ta’limga muhtoj bolaga va uning oilasiga yordam ko‘rsatish kabilarni o‘z ichiga qamrab olinib, o‘qituvchilarni nogiron o‘quvchilarni tarbiyalashga tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari faoliyatida o‘z ifodasini topadi.

Ta’lim siyosatining hozirgi tendentsiyalaridan biri inklyuziv ta’lim g‘oyalarini amalga oshirish bo‘lib, u maxsus ta’lim ehtiyojlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda bolalarni o‘qitishni nazarda tutadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda nogiron bolalar soni anchagina yiriklashgan. Bugungi kunda nogiron bolalarning ota-onalari o‘z farzandlarining sifatli ta’lim olish va me’yoriy rivojlanayotgan tengdoshlari orasida ijtimoiy moslashish huquqlarini himoya qilib chiqishlari o‘qituvchilarning bolalarni inklyuziv ta’lim berishga tayyorligini shakllantirish dolzarbligidan dalolatdir.

Bugungi kunda nogiron bolalarni odatda rivojlanayotgan tengdoshlari bilan teng ravishda ta’lim jarayoniga kiritish zarurati ta’minlanishi kerak. Shu sababli, inklyuziv ta’limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida uni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarni tayyorlashda asosiy darajalarda malaka oshirish tizimiga alohida o‘rin beriladi.

Ta’lim inklyuziyasini amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi muammosining turli jihatlari ko‘plab olimlarning diqqat markazida bo‘lishiga qaramay, shuni ta’kidlash kerakki, o‘qituvchilarning bolalarning inklyuziv ta’limini amalga oshirishga tayyorgarligini shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar malaka oshirish tizimida ushbu jarayonning

samaradorligiga ta’sir etuvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar yetarlicha o‘rganilmagan. Shundan kelib chiqib aytish joyizki, ta’lim inklyuziyasini rivojlantirishning hozirgi bosqichi tendentsiyalari va inklyuziv ta’lim sohasidagi o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimi quyidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni shakllantirishga imkon berdi. Jumladan:

- bolalarga inklyuziv ta’lim berish sharoitida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshiruvchi o‘qituvchiga jamiyatning ob’ektiv ehtiyoji va o‘qituvchilarning inklyuziv amaliyotni samarali amalga oshirishga yetarli darajada tayyor emasligi o‘rtasida;

- o‘qituvchilarning bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorgarligini rivojlantirish zarurati va malaka oshirish tizimida uni shakllantirishning uslubiy yondashuvlari va pedagogik texnologiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘rtasida.

- malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarning bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorligini rivojlantirish uchun tashkiliy-pedagogik shartlar va texnologiyalar majmuasini aniqlash va sinash o‘rtasida.

Bolalarni ta’lim tizimida inklyuziv ta’limga yo‘naltirish bevosita ta’lim beruvchi o‘qituvchiga bo‘g‘liq, bu jarayon esa;

- bolalarga inklyuziv ta’lim berish uchun o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy tajribasini o‘zgartirish, bolalarni inklyuziv ta’lim sharoitida uning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish;

Bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorlashga tayyorligini rivojlantirish texnologiyasi kattalar ta’limi tamoyillariga asoslanadi va qo‘shimcha kasbiy dasturlar bo‘yicha o‘qitish malaka oshirish bosqichlarida amalga oshiriladi;

Natijada o‘qituvchilarni tayyorlash tashkiliy- ilmiy pedagogik hamkorlik asosida me’yoriy-huquqiy, ilmiy, uslubiy va axborot ta’minotini, ushbu jarayonning izchilligi va uzluksizligini ta’minlaydi.

Kasbiy tayyorgarlikning hozirgi tendentsiyalariga muvofiq bolalarning inklyuziv ta’limini rivojlantirish jarayonlari bilan qurollangan o‘qituvchilarni bolalarga inklyuziv ta’lim berishga tayyorligi rivojlanishi quyidagicha bo‘ladi.

birinchidan malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarning bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorligini rivojlantirish jarayonining tarkibiy va dinamik xususiyatlarini aniqlanadi.

ikkinchidan malaka oshirish tizimida bolalarni inklyuziv ta’limga o‘qituvchilarning tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish jarayoni yo‘lga qo‘yiladi.

uchinchidan tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarga asoslangan malaka oshirish tizimida o‘qituvchilar bolalarni inklyuziv ta’lim olishga tayyorligini shakllantirish samaradorligi oshadi.

Ta’kidlash lozimki, o’qituvchilar bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorgarligini rivojlantirish jarayonining tarkibiy va dinamik xususiyatlari mintaqaviy pedagogik salohiyatining integratsiyasi jihatidan bosqichlarning uzluksizligi va izchilligi asosida yo`lga qoyilishi maqsadga muvofiq. Kasbiy dasturlar bo'yicha o'qish davrida va o'zaro munosabatlar davrida, malaka oshirish, andragogik ta’lim nazariyasiga asoslangan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirish tizimida o’qituvchilar bolalarni inklyuziv ta’lim olishiga tayyorligini rivojlantirish texnologiyasi mazmun mohiyati asosida o’qituvchilar bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorligini shakllantirish uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga asoslanadi, bu esa kattalar ta’limi nazariyasini boyitadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bola huquqlari to‘g‘risida Konvensiya. Xalqaro YUNISEF tashkiloti.– Toshkent, 1992. – 48 b. 2.Образование 2030. Инчхонская декларация и рамочная программа действий./ ООН. ЮНЕСКО. Инчхон. 2015.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 3–T.: «O‘zbekiston», 2014 y.
- 4 .O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni / O`RQ 637-son 23.09.2020 y.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni/“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O`RQ-641-son 15.10.2020 y.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi Qonuni». // – Toshkent, 2008.
7. «2017-2021yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARNI IJODKORLIK VA AQLIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHDA TO’GARAKLARNING O’RNI

Turaxujayeva Madina Norpo‘latovna – Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi metodik bo‘lim maktabgacha ta’lim metodisti

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini erkin bayon qilishga o‘rgatish borasida fikr yuritiladi va tahlil qilinadi. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon qilishiga bolalardagi tadqiqotchilikni rivojlantirish fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, tarbiyalanuvchi, mustaqil fikr, bola tadqiqotchi, ta’lim tarbiya, rivojlanish, ijodkorlik, aqliy salohiyat, erkin fikr.

Абстракт

В данной статье рассматривается и анализируется, как научить дошкольников мыслить самостоятельно и свободно выражать свое мнение. Предполагается развивать исследовательскую деятельность у детей, способствовать самостоятельному мышлению и свободному выражению своего мнения детьми дошкольного возраста.

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитанник, самостоятельное мышление, ребенок-исследователь, образование, развитие, творчество, интеллектуальный потенциал, свободомыслие.

Abstract

This article examines and analyzes how to teach preschoolers to think independently and freely express their opinions. It is supposed to develop research activities in children, promote independent thinking and free expression of their opinions by preschool children.

Keywords: Preschool education, pupil, independent thought, child researcher, education, development, creativity, intellectual potential, free thought.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, turli maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, eng asosiysi ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachi pedagoglar va mutaxassislar bilan ta'minlash, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etishga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu amalga oshirilayotgan loyihalar maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgandir.

Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan ta'lim sohasi bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “ILK QADAM” DAVLAT O'QUV dasturi bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmun va mohiyatini belgilab beradi.

Asosiy qism

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni ijodkorlik va aqliy salohiyatni rivojlantirishda to'garaklarning o'rni juda kata ahamiyatga egadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari ham bolalarning qiziqishlariga ko'ra mustaqil faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga va rivojlantiruvchi muhit yaratishga qaratilgan.

Maktabgacha ta’lim yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari ichida bilish kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bilish kompetensiyasi bilim olish, o‘qish o‘rganish, mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyatini o‘z o‘z ichiga oladi. Harakat va o‘zaro munosabat orqali bolalar bilim olish va o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Tashkilotdagi Shaxmat va shashka to‘garaklarida ular atrof olamdagi yangi ob’yektlarni o‘rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o‘yin va o‘zaro muloqat jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o‘tkazadilar. Ular muommalarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil o‘z-o‘zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan to‘garaklar ya’ni: Gimnastika, sport to‘garaklari, sport-sog‘lomlashtirish karate, taekvondo, suzish, shaxmat, shashka, gimnastika, massaj va boshqalar to‘garaklari, badiiy-estetik xor, raqs, tasviriy san’at va hokazolar to‘garaklar, fanlar bo‘yicha to‘garaklar chet tillari, matematika, aqliy arifmetika, mental to‘garaklari bolalarning ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan davlat talablarining 5 ta rivojlanish sohalari asosida rivojlanishi uchun katta yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi hisoblanib bola ta’lim tashkilotida rivojlanib olg‘a intilish natijasida muntazam o‘zgarish jarayoni, bir holatdan mukammalroq boshqa holatga, oddiydan murakkabga, pastdan esa yo‘qoriga qarab o‘tib boradi. Bolalar to‘garaklarda ular bilan yakka ishlash jarayonlarida to‘garak rahabrlari tomonidan ularning ochilmagan yopiq qobiliyat va iqtidorlari kashf qilinadi. Har bir bola dunyoga kelar ekan turli iqtidor va qobiliyatlar egasi bo‘ladi. İlk yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan davrda oilada ota-ona bag‘rida qobiliyatlarini rivojlantirsa 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrda maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatadilar. Shunday bolalar borki ular qobiliyat va iqtidorlarini namoyon qilisha olmaydilar. Bunday holatlarda tarbiyalanuvchilarga tashkilot pedagoglari psixolog logoped kabi mutaxassislar yordam berishi lozim bo‘ladi.

Bolalarning to‘garak xonalari rivojlanish uchun mos va jismoniy faollikga ega joy bilan ta’minlanishi kerak. Bolalar jismoniy rivojlanish orqali yanada samaraliroq o‘rganadilar va kun davomida yo‘qori darajadagi jismoniy faollik, turfa xillilik va stimurning o‘zgarishiga extiyoj sezadilar. Yosh bolalar suvda o‘ynash, loydan pirog yasash, yog‘ochdan narsalar yasash, yasash kabi amaliy mashg‘ulotlarga muhtoj.

Shuning uchun ularga syujetli-rolli o‘yin, rasm chizish, rasmga olish, tildan foydalanish, va qurilish bloklari kabi, yangi tajribalarni mavjud aqliy tuzilmalarga integratsiya qilish va amalda qo‘llash uchun turli to‘garaklar tashkil etilishi lozim.

Bugungi kun maktabgacha yoshdagi bolalarning orasida giper aktiv bolalar ko‘p qismni tashkil etadi. Bolalar uchun yaratilgan to‘garaklar ana shunday bolalar uchun ayni muddoadir.

Xulosa

Abdulla Avloniy tarbiya haqida g‘oyat ibratli fikrlarni bildiradi. “Pedagogika Abdullan avloniyning yozishicha –bola tarbiyasining fani demakdir.” Dars ila tarbiya ikki jon ila tan kabidir.” Dars oluvchi- biluvchi, tarbiya oluvchi- amal qiluvchidir.” Avloniyning ta’kidlashicha tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo kichik yoshdan boshlab, otana tarbiya beradi, keyin butun jamoatchilik shugullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi. Bu kabi fikrlarni uzoq davom ettirishimiz mumkin. Chunki hamma davrda ham bolalarning kelajagi eng muhim va dolzarb masa bo‘lib hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ILK QADAM” davlat o‘quv dasturi.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”.
3. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi o‘quv qo‘llanmasi professor O.U. Hasanboyeva tahriri ostida yaratilgan.
4. Internet ma’lumotlari.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.

KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISH

Xolmo‘minova Bahora Abduljalovna –Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish ishlariga asoslangan bilish faolligini rivojlantirish uchun interfaol o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: kasb, kognitiv, faoliyat, usul, tavsiya, muloqot, qobiliyat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-may PQ-241son “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risida qarorida 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quv rejasiga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo‘lgan turli kasblar to‘g‘risida tushunchalar berish nazarda tutilgan. Qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdan boshlab zamonaviy kasblar bilan tanishtirish, kasblar haqidagi bilimi va tafakkurlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘quvchilarni erta yoshdan kasbga yo‘naltirish hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya ishlari bilan birgalikda olib boriladigan uzluksiz jarayondir. Boshlang‘ich sinflarda kasbga yo‘naltirish ishlari dars va darsdan tashqari vaqtlarda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kasb turlari bilan tanishtirish hamda o‘yinlar orqali ularda turli kasblarga bo‘lgan ilk qiziqishlarini aniqlashdan, shuningdek ko‘rgan, eshitgan ma’lumotlarini yodda saqlash, qayta tiklashning oddiy hamda murakkab operatsiyalarini (kasbiy ma’lumotni qabul qilish bilan bog‘liq), umumiy o‘quv, mehnat hamda kommunikativ malaka va ko‘nikmalarini (biror bir kasb uchun ahamiyatli bo‘lgan o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi bilan bog‘liq) rivojlantirish dolzarb masalalardan sanaladi.

Quyida boshlang‘ich sinflarda kasbga yo‘naltirish ishlarini qanday tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi. Tavsiyalar asosida kasbga yo‘naltirish ishlarini boshlang‘ich sinfdan boshlab olib borish o‘quvchining kelajakda to‘g‘ri kasb tanlashiga, hayotda va mehnat faoliyatida o‘z o‘rnini to‘g‘ri aniqlashga yordam beradi. Boshlang‘ich sinfdan boshlab kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borishda avvalo shu davrga xos bo‘lgan yosh xususiyatlari inobatga olinsa mashg‘ulotlar samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf yoshida o‘quvchida o‘yin uning yetakchi faoliyati hisoblanadi. O‘yin orqali bolaning qo‘l harakatlari va tafakkur operatsiyalari yanada takomillashadi. Shuning uchun birinchi sinflarda kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlari o‘yin tarzida tashkil etilishi lozim. Olti-yetti yoshga kelib bola biror-bir buyumni qismlarga bo‘lib ularni yana qayta yig‘a oladigan bo‘ladi. Ammo bu qobiliyatning rivojlanishi boladagi badiiy, ijodiy faoliyatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun o‘quvchilarga quyidagilarni o‘rgatib borish lozim;

1. Predmetlarning tuzilishini, xususiyatlari bilan tanish- tirish;
2. Buyumlarning qismlari mosligini ajrata olishini;
3. Ertaklarni tinglash hamda muhokama qilishni;
4. Dars mashg‘ulotlarida turli boshqotirma, rebuslarni yechishni;
5. Kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlarida interfaol o‘yin- larni o‘ynashni;

6. Mustaqil loyihalar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishni va boshqalar.

Bola rivojlanishining xususiyatlarini inobatga olgan holda mavjud psixologik o‘yinlarning turli modifikasiya(moshlashtirilgan)larini qo‘llash lozim. Masalan, sezgi va idrokni rivojlantiruvchi “Sehrli xaltacha” o‘yini mavjud. Xaltachaga turli kasblar bilan bog‘liq bo‘lgan predmetlar solinadi. Bola xaltachaning ichiga qaramasdan faqatgina ushlab ko‘rib, predmetning nomini va uni qaysi kasbga tegishli ekanini topishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlarini tashkil etishda, rejalashtirishda o‘quv yoki tarbiyaviy mashg‘ulotning keng tarqalgan tuzilmasiga tayanish, mavzu, maqsad, vazifalar, asosnoma, reja, foydalaniladigan jihozlar, mashg‘ulotning borishi, tahlil va foydalanilgan manbalar aniqlab olish lozim.

Agar kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlari bo‘yicha ta’limiy maqsad shakllantirilib bo‘lingan bo‘lsa, unda rivojlantiruvchi maqsad o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi talab etiladi. Masalan, xotira, idrok va ixtiyoriy diqqatning rivojlanganligi va boshqalar.

Tarbiyaviy maqsadga keladigan bo‘lsak, odatda bunday maqsadlarni shakllantirishda “qadriyatlar”, “xulq-atvor normalari” kabi atamalar qo‘llaniladi. Tarbiyaviy maqsad zamonaviy dunyoda kasblarni ahamiyati va muhimligini o‘quvchilarga tushuntirishdan iborat bo‘lishi mumkin. Demak, kasbiy majburiyatlarni samarali bajarish uchun masu‘liyatlilik va tartiblilik kabi sifatlarni hamkorlikda muhokama qilish va ularni muhimligini anglashga o‘rgatish lozim. Biz quyida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha bir necha didaktik o‘yinlarni taklif etmoqchimiz.

Kasb bilan bog‘liq o‘yinlar.

Boshlang‘ich sinflarda “Harakatlarga qarab kasbni aniqla”, “Bu kasb bilan bog‘liq “...” harfiga iloji boricha ko‘proq so‘zlarni esla”, “Bu kasb bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat qu- rollarini kartochkalar orasidan tanla” kabi o‘yinlarni o‘tkazish mumkin. Bundan tashqari matematika darslarida “Do‘kon”, o‘qish darslarida “Kutubxona”, tabiiy fanlar darslarida esa “Ekskursovod gid” kabi rolli o‘yinlar ham o‘quvchilarning kasbiy tasavvurlarini kengaytiradi. Mashg‘ulotni jamoa bilan o‘tkazish samaraliroq bo‘ladi. O‘yinli mashqlar nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishga, mustaqillik, ixtiyoriy harakat, o‘z-o‘zini nazorat qilishga, bilish jarayonlarini (sezgi, idrok, xotira, tafakkur) rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalar bilan hamkorlikdagi faoliyatga ota-onalarni ham jalb qilish juda muhim. Masalan; “Ota-onamning kasblari”, unda ota-onalar o‘z kasblari haqida gapirib beradilar. Sinf xonasida kasblar burchagini tashkil etib, bu yerni kasblar bilan bog‘liq kitoblar, fotosuratlar bilan jihozlash kerak. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish jarayonida bu burchakka e’tibor qaratib turish tavsiya etiladi. Shahar

yoki tuman korxonalariga ekskursiyalar tashkil etish. Ekskursiyani o‘tkazishda asosiy e’tiborni qaysidir bitta kasbga yoki o‘zaro aloqador kasblar guruhiga qaratish lozim.

Kasblar haqidagi ma’lumotlarning yig‘ma jildini, ya’ni zamonaviy tilda “kasbiy portfolio”ni to‘plash ham o‘quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. O‘quvchilar “Kasbiy portfolio”ga ota-onalari bilan intervyularini, gazeta-jurnallardan qirqib olingan kasblar haqidagi ma’lumot va rasmlarni, o‘z rasmlari va yozma ishlarini kiritadilar. Bu “portfolio”ni muntazam to‘ldirib borish talab etiladi, chunki bolalarga kimda qanday yangi ma’lumotlar paydo bo‘lganini kuzatish yoqadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasblarga qiziqish kognitiv faoliyatning rivojlanishi bilan birga namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflar qatnashadigan jamoaviy foydali mehnat, ularning qiziqishlarini shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli ravishda, izchil takomillashtirilib borilgandagina, o‘quvchining kelajakda mukammal kasb egasi bo‘lishiga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-may “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha choralar-tadbirlar” to‘g‘risida PQ-241sonli qarori
2. A. Jalolov “Kasb qanday tanlanadi?”- Toshkent; “Yangi asr avlodi”, 2010.
3. Kasbiy fanlar metodikasi jurnali –Toshkent; “Avtonashr”, 2014, №7
4. Maktab va hayot ilmiy metodik jurnali -Toshkent;2015, №2
5. 5.P.Xolmatov va boshqalar. “Kasb tanlash xususiyatlari”- Toshkent; 2022

BOSHLANG‘ICH MATEMATIKA DARSLARI ORQALI O‘QUVCHILARNI TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASH

Norbekov Doston Keldibekovich – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar ta’lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta’lim tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama 500 ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta’limda eng muhim strategik yo‘nalish ta’lim

muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta’lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim maskanlarida innovatsion texnologiya ko‘rinishida faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risidagi»gi 997-sonli qarori ushbu dolzarb masalaning asosidir. Ushbu qarorida TIMSS (4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash) xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilangan. Matematik savodxonlik insonlarga matematikaning hayotiy ahamiyatini tushuntirishga, asosli fikr bildirishga hamda amaliy va faol fikrlovchi fuqaro uchun zarur bo‘lgan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Asosiy e’tibor turli vaziyatlarda mushohada va intuisiyani talab qiluvchi turli xil yondashuvlardan foydalanib matematik bilimlarni qo‘llashga qaratiladi. Buning uchun odatda maktabda o‘rganiladigan ancha-muncha matematik bilimlar zarur bo‘ladi. Matematika darslarida o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda TIMSS dasturiga alohida to‘xtalsak.

Ushbu dastur asosidagi tadqiqot turli davlatlardagi 4 va 8 sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan tayyorgarlik darajasini baholashga qaratilgan bo‘lib, hozirgi kunda jahon mamlakatlari ta’lim tizimida keng tatbiq etilmoqda. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o‘xshab, o‘quvchilar, maktab ma’muriyati va o‘qituvchilari orasida qo‘shimcha so‘rovnomalar o‘tkazadi va fan sohasida to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Xalqaro TIMSS tadqiqoti o‘z ichiga quyidagilarni oladi: Test yutuqlari so‘rovnomalar Uslubiy ta’minlanganligi Dastur ta’minoti Xalqaro testlar quyidagi omillar orqali ishlab chiqiladi:

1. Tekshirilayotgan ishlar va ta’lim turlarining mosligi
2. Loyihada ishtirok etgan davlatlarning xalqaro testlariga mosligi
3. Testlarning bir-biriga bog‘liqligining ta’minoti.
4. Tekshirilayotgan ishlarning yo‘nalishlar bo‘yicha mohiyati
5. Testlarning o‘quvchi yoshiga mosligi
6. Ommaviy tadqiqotning qo‘yilgan talablarga mosligi.

Ushbu nazariya cheklangan miqdorda 60-70 tadan topshiriqlarni o‘z ichiga olib, har bir davlatdan ishtirok etgan o‘quvchining, o‘qituvchining va ta’lim muassasasining ko‘rsatkichlarini (so‘rovnomaga asosan) aniqlab beradi. Matematika va tabiiy fanlar natijalari 4- va 8-sinflarda alohida o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Statistik o‘rganishlar natijasida har bir o‘quvchini 1000 ballik shkala bo‘yicha baholab, matematika va tabiiy fanlarga alohida ballar beriladi. TIMSS yordamida o‘quvchilarning quyidagi ta’limiy yutuqlari baholanadi:

1. Bilish 2. Qo‘llash 3. Mulohaza yuritish “Bilish” bo‘limi o‘z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo‘lib, masalalar yechish o‘quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta’riflarni takroran aytib berish standart grafik va diagrammalardan ma’lumot olishni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obyektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar, tabiiy-ilmiy atamalar va o‘lchov birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak. “Qo‘llash” ga oid test topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarni o‘zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o‘tkazish ko‘nikmalarini namoyish etishlari zarur. “Mulohaza yuritish”ga oid topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko‘pligi, turli bo‘limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda boshlang‘ich 4-sinf matematika darslarida o‘tkaziladigan TIMSS topshiriqlaridan namunalar ko‘rsatib o‘tmoqchiman.

1. Quyidagi yig‘indilardan qaysi biri 342 ga teng?

A. $3000+400+2$ B. $300+40+2$ C. $30+4+2$ D. $3+4+2$

2. Quyidagi sonlardan qaysi biri katta hisoblanadi?

A. 365357 B. 345466 C. 367246 D. 342255

3. Qodirning onasi soat 6 dan 45 daqiqa o‘tganda uyg‘ondi, uning otasi esa 1 soat 35 daqiqadan so‘ng uyg‘ondi. Otasi soat nechada uyg‘ongan?

A. soat 5 dan 10 daqiqa o‘tganda B. soat 7 dan 20 daqiqa o‘tganda C. soat 8 dan 10 daqiqa o‘tganda D. soat 8 dan 20 daqiqa o‘tganda

4. Visola kalkulyatorda $1379 + 243$ sonlarini qo‘shishi kerak edi. Lekin u $1279 + 243$ amalini bajarib xato qildi. Visola xatosini to‘g‘rilash uchun nima qilishi kerak? A. 100 ni qo‘shish B. 1 ni qo‘shish C. 1 ni ayirish D. 100 ni ayirish

5. Tarozining pallalari teng bo‘lishi uchun o‘ng pallasiga necha gramm tosh qo‘shilishi kerak? A. 3600 g B. 2600 g C. 3400 g D. 4200 g

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil - 6-apreldagi 2. “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son Qarori.

3. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi T.: “Turon iqbol” 2016.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BO‘LIM: TA’LIMDA INNOVATSIYA, KREATIV FIKRLASH VA BOSHQARUV SAMARADORLIGI	
Pardayev A. Globallashuvning innovatsion tafakkurga ta’siri.....	6
Amonlayev A. Ta’limda mediakompetentlik zaruratining ortishi.....	9
Saitkasimov A. Ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirish ijtimoiy taraqqiyot mezonini.....	14
Ollayorov U. O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarini jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati.....	19
Xasanova N. Maktab boshqaruvida lider ustozlarni qo‘llab-quvvatlash-ta’lim sifati garovi.....	22
Kistaubayev S. Pedagog kadrlar maqomini oshirish vazifalari davr talabi.....	28
Turayev A. Ta’lim siyosati samaradorligini oshirishda “aql markaz”larning tutgan o‘rni.....	32
Nabiyev M. Oliy ta’lim muassalarida o‘quv-pedagogik amaliyotini sifatli tashkil etish masalalari.....	41
Aliyev M. Ta’lim tizimida inson resursidan ratsional foydalanish masalalari.....	45
Rahmatullayev S. Fan va ta’lim integratsiyasida inson kapitalining roli.....	51
Xaydarov Sh. O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan metod va vositalarning ahamiyati.....	56
Ergasheva M. Zamonaviy ta’limda ayollarning tutgan o‘rni.....	60
Xudoynazarova M. Kreativ salohiyatni ochish va rivojlantirishning tahlili.....	64
Zokirova M. Use of color designation component to reflect self-consciousness.....	70
Худайбердиева Ф. Как добиться эффективного урока?.....	73
Shodiyev J. Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi: xorijiy va mahalliy tajriba.....	78
Abdumalikova D. Use of innovative methods in developing professional skills of students.....	85
Bekmuratova K. O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari.....	88
Karimov S. Ta’lim tizimida yoshlarning hayotiy maqsadlarini to‘g‘ri shakllantirishning g‘oyaviy-tarbiyaviy masalalari.....	94
Ergashev O. Ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik va kompetentsiyaviy	

yondashuv.....	97
Ko‘bayev A. Maktabni boshqarishning pedagogik asoslari.....	100
Negmatov O. Ta’lim maskanlarida kasbiy rivojlanishning navbatdagi bosqichlari	104

2-BO‘LIM: TABIIY VA ANIQ FANLARNI O‘QITISHDAGI ILG‘OR TAJRIBALAR

Abdugaffarov M. Fizika fanini o‘qitish: ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim omili.....	107
Axmedova N. Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirish.....	110
Jabborov M. Umumta’lim maktablari kimyo fani o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda singapur darsliklaridan foydalanish.....	114
Xolboyeva M. O‘quvchilarda tabiiy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....	118
Qodirov B.N. O‘quv jarayonini tashkil etishda bulutli texnologiyalardan foydalanish.....	121
Abduqayumov Sh. Ta’limda sun’iy intellektning imkoniyatlari va afzalliklari.....	125
Egamkulov Sh. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda elektron ta’lim resurslari.....	130
Soatov R. Axborot jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanishning o‘rni.....	138
Qo‘shiyev M. Media maydonda ma’lumotlar maxfiyligi va ularni himoya qilish.....	142

3-BO‘LIM: TILLAR VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA TA’LIMIIY INNOVATSIYALARNING QO‘LLANISHI

Нишанов Ш. Специфика использования метода в профессиональной сфере преподавания РКИ.....	146
Eshtayeva D. Ingliz tilini fanini interfaol metodlar orqali o‘qitishning samarali usullari.....	151
Jalolov S. Maktablarda “Iqtisodiyot va biznes” fanini o‘qitish: kelajak avlod uchun zarur bilim va ko‘nikmalar.....	154
Kamaljonova G. O‘zbek tili darslarda interfaol metodlar samaradorligi.....	158
Сайидов М. Жамият маънавий-ахлоқий муҳитини такомиллаштириш йўллари.....	163
Vaxobov U. Yangi O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy-axloqiy qiyofasini takomillashtirish masalalari.....	168

Muqimov E. O‘quvchilarni tarix faniga qiziqtirish usullari.....	172
Quvvatov M. Xorijiy tillarni o‘qitishda o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish.....	176
Sodiqov J. Basketbolchilarni saralab olish hamda dastlabki o‘rgatishning xususiyatlari.....	181
Yuldashev J. O‘zbekistonda arxeologiya instituti tashkil etilgunga qadar fan sifatida arxeologiyaning rivojlanishi (XX asr 70-yillari).....	184
Axmedjonov N. Mustaqillik-yillarida Jizzax viloyati tarixiy-madaniy yodgorliklarining o‘rganilishi.....	190
Normatov S. “Shaxs” va “muloqot madaniyati” tushunchalarining mazmun-mohiyati.....	198

4-BO‘LIM: MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM- TARBIYA OLDIDA TURGAN DOLZARB VAZIFALAR

Meliboyev A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish.....	203
Ergasheva N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘garak mashg‘ulotlarida zamonaviy kasblarga yo‘naltirishning zaruriyati.....	209
Eryigitova M. Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismlari.....	215
Jabbarova Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini innovatsion yondashuvlar asosida ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish.....	219
Mirzabekova N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘quvchilarning ijodkorlik va aqliy salohiyatini rivojlantirish usullari.....	223
Qurbonov N. Ijodkorlik qobiliyatini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida rivojlantirish.....	229
Tilakova M., Xudoynazarova M. Yordamga muhtoj bolalarni rivojlanayotgan tengdoshlari bilan teng ravishda ta’lim jarayoniga kiritish zarurati.....	233
Turaxujayeva M. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni ijodkorlik va aqliy salohiyatni rivojlantirishda to‘garaklarning o‘rni.....	236
Xolmo‘minova B. Kognitiv faoliyatni rivojlantirish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish.....	239
Norbekov D. Boshlang‘ich matematika darslari orqali o‘quvchilarni TIMSS xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash.....	242